

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**MAXMUDOVA MANZURA JURAYEVNA
QO‘LDASHEVA MAHMUDA NURMATJONOVNA**

**JAHON MAMLAKATLARI IQTISODIY
VA IJTIMOIIY GEOGRAFIYASI**

O‘QUV QO‘LLANMA

5140600-geografiya yo‘nalishi

**MINISTRY OF HIGH AND SECONDARY SPECIALIZED OF REPUBLIC
OF UZBEKISTAN
NAMANGAN STATE UNIVERSITY**

Mahmudova Manzura Kuldasheva Mahmuda

**ECONOMICAL AND SOCIAL
GEOGRAPHY OF THE WORLD
COUNTRIES**

(MANUAL)

NAMANGAN -2019

Maxmudova M.J., Qo`ldasheva M. Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi (O`quv qo`llanma). NamDU, 2020 – 240 bet

“Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanini o`qitishda muayan fan dasturi asosida tuzilgan darslikni qisman to`ldiruvchi ushbu o`quv qo`llanmada mavzularni zaruriy hajmda tizimli yoritilgan uni puhta o`zlashtirishni ta`minlovchi mazmun va shaklan turlarga moslashtirilgan innovatsion metodlar asosida qiziqarli topshiriqlar, nostandart testlar, mantiqiy va alternativ testlar va ko`rsatmalar, ularning yechimlari ifoda etilgan.

O`quv qo`llanma, fan o`qituvchilari va geografiya yo`nalishida o`qiyotgan talabalar hamda ko`p sonli kitobxonlarning nazariy va amaliy mashg`ulotlarda bilim va malakalarni shakllanishiga xizmat qiladi.

В данном учебном пособии представлены вопросы и задания, нестандартные тесты, логические и альтернативные тестовые задания по предмету экономическая и социальная география стран мира. Пособие подготовлено в соответствии с требованиями Государственного образовательного стандарта и учебной программы курса. Большинство заданий ориентировано на самостоятельное выполнение.

Учебное пособие предназначено в качестве дополнительного материала для студентов направления географии для закрепления материала по темам курса, а также при подготовке к лекционным и практическим занятиям, с целью формирования знаний, умений и навыков по дисциплине.

Учебное пособие может быть использовано учителями географии, студентами, учителями-предметниками и другими интересующимися читателями.

In this manual different tasks and questions, nonstandard tests, logical and alternative tests from world social and economic geography are given. The manual is proper to State educational standards. Most of the tasks are done individually.

The manual can be used in lessons, after classes, do`ring the consolidation of previous and new themes, to prepare the students for Olympiads. The manual is written for geography teachers, students, school pupils and a great deal of readers.

Mualliflar: Maxmudova Manzura Jurayevna- NamDU geografiya fanlari nomzodi, dotsent

Qo`ldasheva Mahmuda Nurmatjonovna-Namangan viloyati xalq ta`limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi o`qituvchisi

Mas`ul muharrir: geografiya fanlari nomzodi, dotsent X.Mirzaaxmedov

Taqrizchilar: geografiya fanlari doktori, professor B.Kamolov
geografiya fanlari doktori, professor Y.Ahmadaliyev

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, kasbga qiziqishini kuchaytirish uni mustaxkam egallash va nazariy bilimlarni amaliyot bilan keng bog'liqligini ta'minlash, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Bu muammoni hal qilish har tomonlama ilmiy asoslangan tahlilni talab etadi.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida barcha fanlardan o'quv kursi mazmuni bo'yicha nostandart testlar bankini tuzib, mazkur testlardan "MY Test" dasturi vositasida adaptiv test topshiriqlarini yaratib, talabalarning o'z-o'zini nazorat qilish jarayonini tashkil etilgan va bu jarayon ta'lim samaradorligini ortishiga bevosita ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Mazkur o'quv qo'llanmada ham Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fanidan geografiya ta'lim yo'nalishida DTS va namunaviy dasturida ko'rsatilgan mavzularni qisqacha mazmuni, muammoni nazorat va muhokama uchun topshiriqlar o'ziga xos innovatsion metodlar asosida yoritilgan.

"Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" fani ko'plab fanlar bilan uzviy aloqada jamiyatni hududiy tashkil etish va boshqarishni majmualari o'rganish bilan ajralib turadi. "Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" predmetining birinchi bo'limi ishlab chiqarish ko'chlarining turli darajadagi tarmoq, tarmoqlararo va hududiy shakllanishi, rivojlanishi va boshqarilishini takomillashtirishdan iborat jarayonlar tashkil qiladi. Bu jarayonlar nihoyatda murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va muammolarni o'z ichiga oladi: tabiiy muhit va tabiiy resurslar majmuasi, aholining demografik xususiyatlari va joylashishi, urbanizatsiyaning eng rivojlangan shakllariga (megapolis) qadar jarayonlar, xalq xo'jaligini yetakchi sohasi sanoat va uning tabaqalashgan tog'-kon, yoqilg'i-energetika, metallurgiya (qora va rangli), mashinasozlik, kimyo, o'rmon-selluloza, yengil, oziq-ovqat

sanoati tarmoqlari, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish majmuasi (ziroatchilik va chorvachilik), transport tizimi va uning mamlakat, mintaqaviy, xalqaro mehnat taqsimotidagi integratsion hamda aholi xo'jaligi tarmoqlarini hududiy tashkil qilish, ilmiy-texnika taraqqiyot bilan bog'liq bo'lgan muammolardan hisoblanadi.

Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fanini ikkinchi bo'limida mintaqalar va mamlakatlarning tabiiy sharoitlari va tabiiy resurslari, rivojlanishining tarixiy bosqichlari, demografik jarayonlari, mehnat resurslari va mehnat bozori, xo'jalik tarkibi, bozor infratuzilmalari, mamlakatni tashqi iqtisodiy aloqalardagi va xalqari iqtisodiy integratsiyadagi ishtiroki, hududiy tafovutlarini majmualari to'g'risida bilim beradi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar oliy ta'limda malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlashda, ta'lim berishni zamonaviy samarali bo'lgan usullarini keng joriy etishdan iborat vazifalarni qo'yimoqda, "Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" fan asoslarini muammolarini nazariy va amaliy mashg'ulotlarda zamonaviy innovatsion usullar asosida oson o'zlashtirishlari, mustaqil bilim olishlarida berilgan o'quv topshiriqlar, nostandart testlar, mantiqiy, alternativ testlar va ko'rsatmalar ularning yechimlaridan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi qo'llanmada ifoda etilgan.

Qo'llanma ta'lim samaradorligiga erishish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni oshirishda, jahon ta'lim standartlari darajasiga va kasbiy qiziqishni kuchaytirishga uni mustahkam egallashga va nazariy bilimlarni amaliyot bilan keng bog'liqligini ifoda etishda xizmat qiladi.

O'quv qo'llanmani tayyorlashda sohaning yetuk olimlarining asarlari, darsliklari va qo'llanmalaridan foydalanildi. Geografiya ta'limi yo'nalishida oqiyotgan talabalar uchun o'ziga xos uslub asosida tayyorlanganligi bois unda muayyan kamchiliklar uchrashi tabiiy bo'lib, samimiy fikr va mulohazalar uchun oldindan minnatdorchilik bildiramiz.

I-QISM. JAHONNING UMUMIY TAVSIFI

1-§. Dunyoning hozirgi zamon siyosiy xaritasi, Jahon mamlakatlarining sotsial iqtisodiy guruhlari

Jahon siyosiy xaritasi global miqyosda bir necha siyosiy jarayonlar ta'sirida shakllangan, o'zgaruvchan xususiyatga ega.

Jahon siyosiy xaritasi mamlakatlarning xalqaro o'rnini, dunyoda egallagan mavqeini, ichki siyosiy- ma'muriy strukturasi xususiyatlarini o'zida yaqqol aks ettiradi.

Jahon siyosiy xaritaning ahamiyati shundan iboratki, u mamlakatlarning xalqaro miqyosda tutgan o'rnini, ichki siyosiy–ma'muriy tuzilishini o'zida aks ettiradi. Jahon siyosiy kartasi asrlar davomida o'zgarib, davlatlarning shakllanishi, parchalanib ketishi, chegaralarining o'zgarishi, yangi yerlarning kashf qilinishi, metropoliya va mustamlakalarning paydo bo'lishi, dunyoni bo'lib olish va qayta taqsimlanishni ifoda etadi. Jahonning hozirgi zamon siyosiy kartasi – bu siyosiy geografiyaning o'rganish predmeti hisoblanadi. Siyosiy geografiya esa iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning bir tarmog'idir.

Dunyoning siyosiy xaritasining shakllanish muammolari V.A.Kolosov (1988 y) , K.E.Sarokin (1996 y), M.M.Golubchik (1998 y), Yu.N.Gladkiy, S.B.Lavrov (2001 y), Q.Abirqulov (2000 y.) va boshqalarning ishlarida o'z aksini topgan.

Hozirgi zamon dunyoning siyosiy xaritasi kishilik jamiyatining uzoq davom etgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari o'zgarishi, almashinuvi qonuniyatlarini to'la aks ettiradi. Hozirgi zamon dunyoning siyosiy xaritasini shakllanishi quyidagi davrlarga bo'linadi: qadimgi, o'rta asrlar, vangi davr va eng yangi davr.

Qadimgi davr ilk davlatlarning paydo bo'lishidan milodning V asrigacha, ya'ni quldorlik tuzumi davrini o'z ichiga oladi. Ushbu davrda Qadimgi Misr, Karfagen (Tunis), Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim, Kushon imperiyasi, Qadimgi Xorazm, Baqtriya, Sug'd va boshqa davlatlar, Turk hoqonliklari

shuningdek Ulug' Xan imperiyasi, ikkinchi Xan imperiyasi (milodning II-IV asri)

O'rta asrlar davri (V–XVI asrgacha) Bu davrda dunyoning siyosiy xaritasi feodalizm davri bilan bog'liq holda shakllangan bo'lib, Rim imperiyasi, Angliya, Ispaniya, Fransiya, Portugaliya, Kiyev Rusi, Moskva (rus) davlati, Hindiston, Xitoy, Eron va Turon, Turkiston o'lkasidagi feodal davlatlar va boshqalar mavjud bo'lgan.

Yangi davr, (XVI asrdan XX asr boshlarigacha) ushbu davrda feodalizm yemirilib, kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari shakllana boradi. Ushbu davrda 1492 – 1502 yillarda X.Kolumb tomonidan Amerika qit'asi ochildi. 1498-yilda Vaskada Gama tomonidan Afrikani aylanib o'tish mumkinligi isbotlandi.

Eng yangi davr, birinchi jahon urushining tugashi va 1917- yil Rossiyada oktabr to'ntarishidan boshlab, II jahon urushi va urushdan keyingi 1985-yillargacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ushbu davrni ayrim mutaxassislar fikriga ko'ra uch bosqichdan iborat.

Birinchi bosqich (1917-1939 y) ning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, ushbu bosqichda dunyo kartasida SSSR (sotsialistik imperiya) ning paydo bo'lishi hamda Yevropa va dunyoning boshqa qismlarida muhim hududiy o'zgarishlarning sodir bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Ikkinchi bosqich (1939-1990 yilgacha) Yevropa siyosiy kartasida yuz bergan o'zgarishlardan tashqari, sotsialistik eksperimentning kengayishi (Yevropa va Osiyodagi ayrim davlatlarning sotsialistik yo'lga o'tishi), imperializm mustamlakachilik tuzimining yemirilishi oqibatida Osiyo, Afrika, Janubiy Amerika, Okeaniyada 100 dan ortiq mustaqil davlatlarning barpo etilishi bilan xarakterlanadi.

Mutaxassislarning fikricha dunyo siyosiy xaritasining kelajakda o'zgarishi ko'p millatli mamlakatlarda etnik-milliy jarayonlarning rivoji yo'nalishiga, mamlakatlar va xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlarning xarakteriga bog'liq.

Jahon mamlakatlarning davlat tuzimi va boshqaruv shakllaridan eng keng tarqalgani Respublika va Monarxiya hisoblanadi.

Hokimlikning Respublika tuzumi eng ko'p tarqalgan bo'lib, jahon mamlakatlarning 1/3 qismi shu tuzum bilan boshqariladi. Bunda Prezident juda katta vakolatga ega bo'ladi va hukumatni boshqaradi.

Hokimlikning Monarxiya shaklida oliy davlat hokimiyati monarxlarga: qirol, knyaz, sulton, shoh, amirga qarashli bo'lib, hokimiyat meros orqali avloddan-avlodga o'tadi. Dunyo siyosiy kartasida 30 ta monarxiya davlat bor, shu jumladan, Osiyoda 14 ta, Yevropada 12 ta, Afrikada 3 ta, Okeaniyada 1 tani tashkil etadi.

Monarxiyalar – konstitutsion, mutloq va teokratik tiplarga bo'linadi. Ularning ko'pchiligi Konstitutsion monarxiya bo'lib, unda monarx ramziy “podshohlik” qiladi, lekin davlatni boshqarmaydi. (Buyuk Britaniya, Norvegiya, Shvetsiya). Mutloq monarxiyada monarx hokimiyati deyarli cheklanmagan, hukumat va boshqa hokimiyat organlari faqat monarx oldida ma'sul va javobgardir. (Birlashgan Arab Amirliklari, Omon, Bruney, Quvayt va boshqalar). Teokratik monarxiya – bunda podsho bir vaqtning o'zida ham hokimiyat, ham din boshlig'i hisoblanadi. Bunga Saudiya Arabistoni, Vatikan misol bo'la oladi.

Hokimlikning yana bir keng tarqalgan shakli Buyuk Britaniya boshchilik qiladigan Britaniya hamdo'stligidir. U 1931 yilda huquqiy jihatdan rasmiylashtirilgan bo'lib, uning tarkibida Buyuk Britaniya dominionlari – Kanada, Avstraliya, Janubiy Afrika Ittifoqi va Irlandiya kirgan edi.

Bundan tashqari jahon mamlakatlari ma'muriy-hududiy bo'linishi bilan ham farq qiladi. Ma'muriy-hududiy bo'linishiga ko'ra davlatlar unitar (Janubiycha unites-birlik), federativ (Janubiycha ftdratio-ittifoq) konfederativ kabi turlarga bo'linadi.

Unitar-davlatning hududiy tashkil etishining shunday shaklini, bunda mamlakatda bir butun qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat bo'ladi. Unitar davlatlarga Yaponiya, Vengriya kabi davlatlar misol bo'ladi.

Federativ davlat, shunday ma'muriy-hududiy tuzimi shakliga egaki, unda yagona (federal) qonunlar va mamlakat organlari bilan birga davlat tarkibida yirik hududiy birliklar (respublika, yerlar, shtatlar va h.k.) mavjud. Bunday davlatlarga Rossiya, AQSh, Germaniya, Hindiston, Nigeriya, Kamerun kabi davlatlar misol bo'la oladi.

Konfederativ boshqaruv tizimiga ega bo'lgan davlatlarda har bir viloyat yoki shtat o'zining Konstitutsiyasi, o'zining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlariga ega. Bunga Shveysariya konfederatsiyasi misol bo'la oladi.


Jahon mamlakatlari maydonini katta-kichikligi, geografik o'rni va rivojlanish darajasiga ko'ra ham guruhlariga ajratiladi ya'ni : - sanoati rivojlangan mamlakatlar, rivojlanayotgan mamlakatlar, o'tkinchi iqtisodiyotli mamlakatlar.

Topshiriqlar va yechimlar

1. Jahonning siyosiy xaritasi shakllanishidagi asosiy omillarni "Strelka" asosida belgilang.

SIYOSIY XARITA	Birinchi jahon urushi Ikkinchi jahon urushi Atmosferaning ifloslanishi Fuqarolik urushi Sobiq Ittifoqning parchalanishi
----------------	---

Javob:

SIYOSIY XARITA		Birinchi jahon urushi Ikkinchi jahon urushi Sobiq Ittifoqning parchalanishi Fuqarolik urushi Atmosfera ifloslanishi
----------------	--	---

2. 2013 yilda jahonda nechta davlat respublika shaklida boshqarilishini berilgan ifoda orqali hisoblang va javobini toping.


A) $1 \cdot 1 =$: $2 + 2 =$; $3 \cdot 3 =$; $x =$;

B) $1 \cdot 1 =$: $3 + 4 =$; $4 : 2 =$; $x =$;

S) $6 - 5 =$: $4 + 8 =$; $3 \cdot 3 =$; $x =$;


Javob: a) $1 \cdot 1 = 1$; $2 + 2 = 4$; $3 \cdot 3 = 9$; $x = 149$.

3. Hozirda jahonning siyosiy xartasida nechta davlat joylashganligini berilgan chizmadagi kataklarni yoʻnalish orqali toping.



Javob: 227

4. Jahonda iqtisodiy rivojlanish darajasi boʻyicha dunyoning sakkizlik davlatlarini tasavvur orqali xaritada joylashishini toping .




0°

Javob: 1) AQSh; 2) Yaponiya; 3) Germaniya; 4) Buyuk Britaniya; 5) Fransiya

6) Italiya; 7) Kanada; 8) Rossiya.

5. Quyidagi berilgan xarita orqali jahonning tayanch mamlakatlarini xaritada joylashishini toping, chalkashlikni aniqlang. 1). Braziliya; 2). Meksika; 3). Rossiya; 4). Xitoy; 5). Hindiston.



Javob: 1). Rossiya; 2). Hindiston; 3). Xitoy; 4). Braziliya; 5). Meksika

7. Berilgan davlatlardan davlatni idora qilishning Respublika shakliga tegishlisini tanlang va chiziqlarni birlashtiring.



Italiya



O'zbekiston



Fransiya



Avstraliya

Javob: Fransiya —————> O‘zbekiston

8. Jahondagi 2 ta yirik mutlaq teokratik monarxiya shaklidagi davlat, shaharlarni aniqlang hamda nuqtalarni to‘ldiring.

1) Makka,; 2) Vatikan,;

3) Buyuk Britaniya,;

Javob: 1) Vatikan; 2) Makka; 3) London.

9. Berilgan savollarning javobini toping. Davlat tuzumining shakli 2 xil.

Bular:ta’rifni bosh xarfni oling.

1). Sevimli yoshlar guruhi nomi –

2). Xalqaro tashkilot-

3). Etik shaklidagi davlat-

4). Sevimli shirinligimiz-

5). Arktika ramzi, oq-

6). Eng yirik ko‘mir havzasi –

Javob: 1. Ummon; 2). NATO ; 3). Italiya ; 4). Tort; 5). Ayiq; 6). RUR

➡ Yuqoridagi berilgan savollarning javoblarini bosh harfi asosida berilgan kataklarni to‘ldiring va ushbu kataklarda yashiringan so‘zni aniqlang.

↓

--	--	--	--	--	--

Javob: Unitar

↓

Davom etamiz

1) Eyfil minorasi joylashgan shahar-

2). Misr davlati “Ruschada”-

3). Rossiya federatsiyasidagi avtonom davlat-

4). Armaniston poytaxti-

5). O'zbekistonning davlat boshqaruv shakli –

6). Xabarlar, ma'lumotlar olish-

7). Yoqilg'i turi-

8). qal'asi maxbusi –

9). Eng kichik davlat-

Javob: 1) Fransiya, 2) Yegipet, 3) Dog'iston, 4) Yerevan 5) Respublika ,

6) Axborot, 7) torf, 8) If, 9) Vatikan  Yuqoridagi berilgan

savollarning javoblarini bosh  fi asosida berilgan kataklarni to'ldiring va

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

kataklarda yashiringan so'zni aniqlang

Javob: Federativ

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида»ги . Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлар тўплами. 2017 йил 6 сон 70 модда.

2. Абиркулов К . Иқтисодий география. -Т., 2004

3. Abdullaev O. Mintaqalar va mamlakatlar iqtisodiyoti . Toshkent : Yangi asr avlodi” 2009. 282 b

4. Vahobov H., M. Tillaboyeva. Iqtisodiy geografiya asoslari. (o'qituvchi kitobi) Toshkent, O'qituvchi. 2001 yil. 4-5 bet

5. Maksakovskiy Maksaковский В.П. Географическая картина мира .Кн.1.2: Общая Характеристика мира М... Дрофа .2008.-495 с.

6. Mahmudova. M, Soliyev. A. Geografiyadan nostandart testlar. Namangan Davlat universiteti Namangan.-2017 y

7. Tolipova J. “Pedagogik kvalimetriya” o`quv qo`llanma. Toshkent – 2016 y

8. Qayumov A, Pardayev G`, Islomov I. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

(O`rta Osiyo iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi) o`quv qo`llanma T.2007

9.Qo`ldasheva M. “Geografiya fanidan nostandart testlar to`plami” uslubiy qo`llanma Namangan malaka oshirish hududiy markazi nashriyoti. 2017 yil

10.Янчук.С .Экономическая и социальная география стран Центральной Азии и СНГ .Текст лекций .Т.2000

2-§ . Jahon tabiiy resurslari geografiyasi. Ekologik muammolar

Resurslar bilan ta`minlanganlik deganda tabiat resurslari miqdori bilan ulardan foydalanish miqdori o`rtasidagi nisbat tushuniladi. U mazkur resurs yetadigan yillar soni bilan yoki resurslarning aholi jon boshiga to`g`ri keladigan miqdori bilan ifodalanadi.

Mineral resurslar. Kishilik jamiyatida hozirgi kunda 100 dan ortiq kimyoviy elementlar va ularning turli hildagi birikmalaridan ishlab chiqarishda foydalanilmoqda. Yiliga 100 mlrd tonna mineral xom- ashyolar qazib olinmoqda. Jumladan temir ruda konlari zahiralarning kamayib borishini Rossiyada Ural, Fransiyada Lotorengiya, AQShda Buyuk Ko`llar atrofida joylashgan hududlarda ko`rishimiz mumkin.

Yoqilg`i foydali qazilmalar yer yuzasidan 3,6 mingdan ortiq ko`mir koni havzalari , neft va gazning 600 dan ortiq konlari aniqlangan, ularning asosiy qismi shimoliy yarim sharda joylashgan, neft konlari zahiralari Quvayt, Iroq, Eron, Meksika, Venesuela, AQSh, Liviya, Jazoir, Nigeriya, Indoneziya, Buyuk Britaniya, Norvegiya, Rossiya va Xitoyda ham katta. Gaz zahiralari Rossiyada, Turkmaniston, O`zbekiston, Eron, AQSH, Kanada, Meksika, Jazoir va Norvegiyada keng tarqalgan.

Rudali foydali qazilmalar ichida temir rudasi zahirasi ko`pligi jihatidan Rossiya (zahirasi 110 mlrd t), Braziliya (zahirasi 80 mlrd t), Kanada (zahirasi 34 mlrd t), Avstraliya, AQSh, Hindiston yetakchilik qiladi. Mis rudasi zahiralari jihatidan Rossiya, Chili, AQSh, Zambiya, Zair, Qozog`iston jahonda ko`zga

ko‘rinarli o‘rinni egallaydi. Polimetall rudalari zahirasi bo‘yicha Rossiya, Kanada, AQSh, JAR davlatlari yetakchi o‘rinni, boksit zahirasi bo‘yicha Rossiya, Qozog‘iston, Gvineya, Avstraliya va Yamayka mamlakatlari yetakchi .

Yer resurslaridan ishlov beriladigan yerlar eng qimmatbaho yerlar bo‘lib, insoniyat uchun zarur bo‘lgan oziq – ovqat mahsulotining 88 % ini beradi. Ishlov beriladigan yerlar yer yuzasining o‘rmon–dasht, dasht va qisman o‘rmon zonalarida joylashgan.

O‘simlik resurslari ichida asosiy o‘rinni o‘rmon resurslari egallaydi. O‘rmon resurslari qayta tiklanadigan resurslar guruhiga kiradi. O‘rmonzorlar quruqlikning 40 mln. km² ni (4 mlrd.ga) egallaydi, ya’ni quruqlikning o‘rmon bilan qoplanish darajasi 30 % ni tashkil qiladi. O‘rtacha yer yuzida aholi jon boshiga 1 gektardan o‘rmonzor to‘g‘ri keladi. O‘rmonlarda mavjud yog‘och zahiralari 350 mlrd m³ga teng bo‘lib, yiliga ularning miqdori 3,5 mlrd. m³ ga ortadi.

Dunyo okeani resurslarini asosiysi – okean suvlari bo‘lib, uning hajmi 1370 mln km³ (gidrosferadagi suvlarning 96,5 %) ni tashkil etadi. Geografik qobiqdagi suvning 97 % ga yaqini dunyo okeanida to‘plangan bo‘lib, bu suvlarning minerallashish darajasi juda yuqori, ya’ni sho‘r suvlar hisoblanadi. Qolgan 3 % ga yaqini chuchuk suvlardan iborat. Bu chuchuk suvlarning 75 % i muzliklarda, 25 % ga yaqini yer osti suvlarda (asosan, grunt suvlari) to‘plangan. Hammasi bo‘lib 0,03 % i daryolarda, 0,3 % ko‘llarda to‘plangan, 0,035% i atmosferada to‘plangan va qolgan 0,06% i tuproqdagi namlik hisoblanadi .

Ekologik muammolar eng dolzarb bo‘lib yer yuzida tabiiy sharoiti o‘zgarmagan joyning o‘zi deyarli qolmadi. Ekologir holatning turli rayon va mamlakatdagi xususiyati , uning keltirib chiqaruvchi sabablarini esa umumiy geografiyaning bir tarmog‘i - geoekologiya o‘rganadi.

Elektr-energetikaning ekologik xususiyatlari o‘ziga xos. Masalan, suv elektr stansiyalari, umuman olganda, ekologik jihatdan toza, bezarar korxonalar hisoblanadi. Qora va rangli metallurgiya tarmog‘i ekologik nuqtai nazardan asosiy muammodir.

Topshiriqlar

1. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni quyida berilgan jumlar asosida qo'ying hamda berilgan javoblar jadvalini to'ldiring.

- 1). Dastlabki bosqichlari; 2). Amudaryo va Sirdaryo; 3). Ibtidoiy jamoa davri;
- 4). O'rta asrlar davri.
- A) Kishilik jamiyatining bosqichlarida inson tabiat bergan ne'matlar hisobiga yashaydi;
- B) Inson hayotining dastlabki bosqichlari fanda deb ataladi;
- C) va oralig'i qadimda Mavoraunnaxr deyiladi;
- D) Jamiyat taraqqiyotining 3-bosqichi hisoblanadi;

Javob: 1). O'rta asrlar davri;

2). Ibtidoiy jamoa davri;


3). Amudaryo va Sirdaryo;

4). Dastlabki bosqichlari.

A	B	C	D
4	3	2	1

2. Berilgan tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosi, rekreatsiya, chuchuk suv, oltin, temir, neft, platina, marmar, ohaktoshlarni tiklanadigan va tiklanmaydigan tabiiy resurslar guruhiga ajratgan holda to'g'ri joylashtiring.

Javob:



3. Quyidagi berilgan foydali qazilmalarni qaysi foydali qazilma turiga tegishli ekanligini mos keluvchi ta'rifga "ha", mos kelmasa "yo'q" javoblari bilan aniqlang.

1	Ko'mir	Yog'ilg'i	yo'q
2	Titan	Qora metal	ha
3	Brom	Rudali	yo'q
4	Temir	Rudamas	yo'q
5	Oltinugugrt	Rangli metal	ha
6	Volfram	Yoqilg'i	yo'q
7	Gaz	Yoqilg'i	ha
8	Qalay	Rangli metal	ha
9	Osh tuzi	Rudali	yo'q
10	Xrom	rudali	yo'q

Javob:

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
ha	yo'q	ha	yo'q	yo'q	yo'q	ha	ha	yo'q	ha

4. Quyida berilgan foydali qazilma resurslarining yirik konlarini aniqlang hamda ular tarqalgan GFR, Polsha, Donbass, Rur, Kirunovara, Saar hududlari bilan jadvalga moslang.

Javob:







Qo'ng'ir ko'mir	RFR, Polsha,
Temir	Kirunovara
Tosh ko'mir	Rur, Saar, Donbass

5. Berilgan tabiiy resurs havzalarini ular joylashgan davlatlar bilan moslang hamda tabiiy resursning tartib raqamini berilgan shakl ichiga yozing.


- 1). toshko‘mir
- 2). temir
- 3). toshko‘mir
- 4). temir
- 5). temir
- 6). qo‘ng‘ir ko‘mir
- 7). neft
- 8). toshko‘mir

Rur havzasi
 Kirunovara
 Saar
 Krivoy Rag
 Lotaringiya
 Bankatuv
 Prado –Bey
 Donbass

Davlatlar nomi

- Javob:
-  Germaniya
 -  Shvetsiya
 -  Ukraina
 -  Fransiya
 -  Polsha
 -  AQSh

6Jahon davlatlarini tabiiy resurslar bilan ta‘minlanganlik darajasiga ko‘ra guruhlariga ajrating.



Javob:

A- Rossiya, Kanada, AQSh, Xitoy, Braziliya

B- Andorra, Okeaniya va Karib davlati

C- Rossiya, Qirg'iziston, Gruziya, Tojikiston

D- Islandiya, Yaponiya, Yangi Zelandiya




7. Jahonda neft va gaz havzalarining qanchasi aniqlanganligini ushbu berilgan ma'lumotdan aniqlab to'g'ri javobni yozing. 200, 300, 400, 500, 600

Javob: 500,600 dan ortiq

8. Berilgan foydali qazilmalarning taqsimlanishini quyidagi jadval orqali aniqlang.

No	Davlatlarning nomi		Xom-ashyoning nomi
1	Rossiya	A	Qora metallar
2	AQSh		
3	Kanada		
4	Braziliya		
5	JAR	B	Rangli metallar
6	Avstraliya		
7	Xitoy		
8	Malayziya		
9	Indoneziya		
10	Qozog'iston		

Javob: 1-A, 2-B, 3-B, 4-A, 5-B, 6-B, 7-A, 8-B, 9-B, 10-A 11

1) Avstraliya	2) Osiyo	3) Yevropa
		
4) Osiyo	5) Yevropa	6) Avstraliya

Asosiy adabiyotlar

1. Абирулов Қ. Иқтисодий география. -Т., 2004
2. Абдуллаев О.Иқтисодий география ва экология.Наманган 2002 й
3. Gladkiy Y.N., S.B.Lavrov. Globalnaya geografiya, M, 2001g.
- 4.Vahobov H., M.Tillaboyeva. Iqtisodiy geografiya asoslari. (o'qituvchi kitobi) Toshkent, O'qituvchi. 2001 yil. 4-5 bet
5. Ломакин В.К.Мировая экономика.-Ростов: изд-во «Юнити».2007.
- 6.Максакovskiу Максаковиский В.П.Географическая картина мира.Кн.1.2 :Общая Характеристика мира М...Дрофа .2008.-495 с.
- 7.Mahmudova.M, Soliyev.A. Geografiyadan nostandart testlar. Namangan Davlat universiteti Namangan.-2017 y
- 8.Qurbonniyozov L., A.Sa'dullaev, Q. Abirqulov. Iqtisodiy ekologiya asoslari, Urganch, 1999y

3-§. Jahon aholisi

Tabiat va jamiyat o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni inson ta'minlab turadi. Insoniyat tarixida yer shari aholisi 1830- yilga kelib 1 mlrd nafarga, 1930 yilga kelib dunyoda aholi soni 2 mlrd kishiga yetdi va tez ko'paya boshladi. Aholi sonining 3 mlrdga yetishi uchun keyin 30 yil kerak bo'ldi xolos va u 1960- yilda sodir bo'ldi. Keyinchalik yana 15 yil o'tgach 197 yilga kelib u 4 mlrdga yetdi. 1987 yilga kelib esa 5 mlrdga yetdi. Hozirgi kunda yer yuzida 7,3 mlrd nafardan ortiq aholi yashamoqda.

Sayyoramizda aholi sonining ko'payishi XX asrning 80 yillariga to'g'ri keldi. 1990 yildan aholi sonining ko'payishi sekinlashdi. Jumladan 1985-1990 yillar orasida dunyoda aholi soni mutloq ko'rsatkichda yiliga 87 million nafarga tashkil qilgan bo'lsa, 1990-1995 yillar orasida bu ko'rsatkich 81 million kishini tashkil etdi. BMTning bashorat qilishicha XXI asrning o'rtalariga kelib u 10,5 mlrd kishini tashkil etishi mumkin..

Aholining takror barpo bo'lishini tug'ilish, o'lim va shu asosda aholining o'sishi, insoniyat avlodlarining almashinuvini to'xtovsiz ta'minlanishi tushuniladi.

Demografik siyosat. Demografik siyosat ya'ni aholi tabiiy ko'payishini boshqarish, dunyoning ayrim mamlakatlari uchun xos bo'lib, ushbu jarayonning davlat siyosati darajasiga ko'tarilishidir.

Demografik faollik kuzatilayotgan mamlakatlarda tug'ilishni kamaytirish siyosati olib borilmoqda.

Aholi tarkibi bu keng qamrovli tushuncha bo'lib, bunda aholining yosh tarkibi va jinsiy tarkibi, aholining diniy tarkibi e'tiqodlariga ko'ra farqlari tushuniladi.

Yosh tarkibi. Yosh ishlab chiqarishning asosiy qismi bo'lib aholi-mehnat resurslarini aniqlashda bosh mezon bo'lib hisoblanadi. Aholining jinsiy tarkibi erkaklar va ayollar nisbati. Umuman olganda dunyo buyicha o'g'il bolalar qiz bolalarga nisbatan bir oz ko'proq tug'iladi. (Har 1000 kishiga 104-107 o'g'il bola tug'iladi.) Lekin keyinchalik ular nisbati tenglashadi. Ammo katta yoshdagilar orasida ayollar soni sezilarli ortadi. Bunga asosiy sabab ayollarning erkaklarga nisbatan uzoq umr ko'rishidir.

Aholining diniy tarkibi. Sayyoramiz aholisining turli dinlarga mansubligini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki hozirgi FTI davrida turizmni rivojlantirishda boshqa omillar bilan birga diniy omillar ham muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi kunda jahonda eng ko'p tarqalgan dinlar xristian, islom, hind va budda dinlari hisoblanadi.

Aholiga meditsina xizmati ko'rsatish darajasi ham mamlakatlar iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotini ko'rsatuvchi belgilardir. Aholiga meditsina xizmati ko'rsatkichi 50% gacha bo'lgan mamlakatlarga dunyoning 32 mamlakati kiradi. Bularga Hindiston, Pokiston, Niger, Indoneziya va boshqalar misol bo'la oladi. Aholining savodxonlik darajasi. Aholining 15 yoshdan katta yoshdagilari orasida savodxonlik darajasi aholining ijtimoiy rivojlanishini ko'rsatuvchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Bu ko'rsatkich bo'yicha yoppasiga savodxon

mamlakatlarga MDH, AQSh, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Yaponiya hamda Yevropaning ko'pchilik mamlakatlari kiradi.

Aholining savodxonlik darajasi 50% dan kam bo'lgan davlatlarga Afrika, Osiyo va Janubiy Amerika davlatlaridan: Burkina-Faso, Serra-Leone, Benin, Mozambik, Somali, Niger, Mali, Chad, Sudan, Afg'oniston, Mozambik, Pokiston, Mavritaniya, Bangladesh, Kambodja, Liberiya, Gvineya-Bisaular misol bo'la oladi.

Aholining oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasi ham aholining ijtimoiy rivojlanishini ko'rsatuvchi muhim ko'rsatkichlardan biridir.

Aholi bandligi iqtisodiy faol aholi ulushi mamlakatlar bo'ylab o'zgarib turadi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda barcha mehnat resurslarining 70% ga yaqini iqtisodiy faol. Bunday vaziyat eng avvalo ishsizlik bilan bog'liq. Bu ba'zan mehnat resurslarining 20-25% va undan ortig'ini tashkil qiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda arzon ishchilar mehnatidan keng foydalanish qonunga hilof hisoblanmaydi.

Aholi joylashishi (zichligi). Yer yuzasida aholi nihoyatda notekis taqsimlangan. Dunyo aholisining 70% i tabiiy sharoit yashash uchun qulay bo'lgan quruqlikning 7 % da istiqomat qiladi. Noqulay tabiiy sharoitga ega bo'lgan quruqlikning 15% ida aholi butunlay yashamaydi. Har 100 kishining 80 tasi past tekisliklar va dengiz sathidan 500 m gacha bo'lgan tekisliklarda yashaydi. Dunyo aholisining asosiy qismi Janubiy–Sharqiy Osiyoda, Yevropa va AQShning shimoli-sharqida to'plangan. Ularning birinchisida aholi zichligining ortishi qadimda qo'l mehnati yordamida aholi yetishtirish yo'lga qo'yilganligi bilan bog'liq. Ikkinchisida esa XVIII-XIX asrlarda sanoat inqilobi bilan bog'liq.

Aholi migratsiyasi. Migratsiya (yoki aholining mexanik harakati) ham qadimdan paydo bo'lgan va o'rta asrda, yangi va yangi tarix davrida ham davom etmoqda. Migratsiya sabablari iqtisodiy, siyosiy, harbiy, ekologik, diniy va boshqalar bo'lishi mumkin.

Xalqaro (tashqi) aholi migratsiyasi insoniyat tarixi davomida mavjud bo‘lib kelgan. Ular Buyuk geografik kashfiyotlar davrida alohida xarakter kasb etdi: Yangi yerlarga ko‘chirildi, kapitalizm taraqqiyotiga imkon yaratdi.

Topshiriqlar va yechimlar

1. Berilgan ma’lumotlarni moslang.

№	Savollar	Javob variantlari	
1	1300-1400 yillarda qora o‘lat epidemiyasi ta’sirida dunyo aholisi qancha qismi halok bo‘lgan?	A	1,4
2	O‘zbekistonda o‘rtacha umr qanchani tashkil qiladi?	B	1070
3	Dunyoda 0-14 yoshda 1000 ta qizga nechta o‘g‘il bola to‘g‘ri keladi?	S	Irq
4	Avloddan avlodga o‘tuvchi o‘xshash, belgilar nima deyiladi?	D	73,5

Javob:

1- A	2-D	3-B	4-S
------	-----	-----	-----

2. Berilgan ma’lumotlardan noto‘g‘ri javobni belgilang.

- 1). Yevropada erkaklar soni ayollar soniga teng;
- 2). Osiyoda har 1000 ta ayolga 1049 ta erkak to‘g‘ri keladi;
- 3). Demografik o‘tish davri Yevropada XIX asrda boshlandi;
- 4). Aflotun 81 yoshda vafot etgan;
- 5). Nepal aholisining ko‘pchiligi islom diniga e’tiqod qiladi;
- 6). Yer yuzasining 20 % da aholi umuman yashamaydi.

Javob:

1	2	3	4	5	6
ha	ha	yo‘q	ha	yo‘q	yo‘q

3. Osiyo mamlakatlarida joylashgan davlatlarni ularda yashovchi millatlar soni bilan moslang.

Javob:

1	<input checked="" type="checkbox"/>	Hindistonda	100 xil
2	<input checked="" type="checkbox"/>	Filippinda	50 xil

3	<input type="checkbox"/>	Xitoyda	80 xil
4	<input checked="" type="checkbox"/>	Afg'onistonda	30 xil
5	<input type="checkbox"/>	Taylandda	10 xil
6	<input type="checkbox"/>	Eponda	15 xil

4. Quyida berilgan ma'lumotlarning to'g'risini toping?

- 1). Hindistonda 150 dan ortiq xalqlar yashaydi;
- 2). Yevropada erkaklar soni ayollar soniga teng;
- 3). Butun dunyoda erkaklar soni ayollar soniga nisbatan qariyb 49 mln kishiga ko'p;
- 4). Yaponiya ko'p millatli davlat;
- 5). Dunyo aholisining yosh tarkibi katta hududiy farqlarga ega;
- 6). Jahon aholisi irqiy, etnik va diniy tarkiblarga ega;

Javob: 1,2,5,6

5. Quyidagi berilgan ma'lumotlarda yashiringan nomlarni toping va javobni yozing.

- 1). Bir nom bilan ataluvchi daryo, tog' tizmasi
- 2). Yirik kon, shahar, GRES, daryo, plato;
- 3). Shahar, sanatoriy, daryo, alyuminiy rudasi bor joy; 4). Daryo, GRES, shahar, viloyat nomlari.

Javob: 1). Zarafshon; 2). Ohangaron; 3). Oqtosh; 4). Sirdaryo.

6. Tokio, San Paulu, Bombay, Mexiko, Nyu-York shaharlari aholisi sonini o'sish

sur'atlarini quyidagi berilgan

raqamlar asosida moslang.

Javob:

Tokio- 27

Bombey - 17

San- Paulu – 17

Mexiko - 16,8

Nyu-York - 17

7. Afrika, Avstraliya, Amerika qit'alarining tub joy aholisini berilgan jadvalga belgilang.

- | | |
|----------------|-----------------|
| 1). Bantu | 7). Indeyslar |
| 2). Maorlar | 8). Aborigenlar |
| 3). Metislar | 9). Gottentlar |
| 4). Mulatlar | 10). Pigmeylar |
| 5). Alentlar | 11). Burlar |
| 6). Eskimoslar | |

Javob:

No	Materiklar nomi	Raqamlarni jonlashtirish
1	Afrika	1, 9, 10, 11
2	Avstraliya va Okeaniya	2, 8
3	Amerika	6, 5, 7, 3, 4

8. Nuqtalar o'rniga tegishli harflarni qo'ysangiz, dunyoda aholisi eng zich joylashgan davlatlarning nomlari kelib chiqadi.

1. .a . . . a . . . ; 2. . . n . . . t . . . ; 3. . . r . . d ;
4. y . d ; 5. n

Javob: 1. Bangladesh, 2. Hindiston, 3. Burundi, 4. Yamayka, 5. Livan

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлар тўплами. 2017 йил 6 сон 70 модда.
2. Q. Abirqulov. Iqtisodiy geografiya (darslik). Toshkent. TDIU, 2004y.
3. Abdullaev O. Mintaqalar va mamlakatlar iqtisodiyoti .Toshkent :Yangi asr avlodi” 2009.282 b
4. Гладкий Й.Н., С.Б.Лавров. Глобальная география, М, 2001г.
5. Vahobov H., M. Tillaboyeva. Iqtisodiy geografiya asoslari. (o‘qituvchi kitobi) Toshkent, O‘qituvchi. 2001 yil. 4-5 bet
6. Ломакин В.К. Мировая экономика. Ростов: изд-во “Юнити”. 2007.
7. Максаковский В.П. Географическая картина мира .Кн.1 .2 :Общая Характеристика мира М...Дрофа .2008.-495 с.
8. Mahmudova. M, Soliyev. E Geografiyadan nostandart testlar. Namangan Davlat universiteti Namangan.-2017 y
9. Qurbonniyozov L., A. Sa’dullaev, Q. Abirqulov. Iqtisodiy ekologiya asoslari, Urganch, 1999y

4-§. Jahon urbanizatsiyasi

Urbanizatsiya bu ish joylarini va yashash sharoitlarini yashilash maqsadida qishloq joylaridan odamlarning ko‘chishi hisobiga shaharlarning o‘sishi. Dunyo bo‘ylab shaharlar tobora ko‘payib bormoqda, chunki odamlar qishloq joylaridan ish izlab yashash sharoitlarini yahshilash va o‘z farzandlarini farovon kelajagi uchun imkoniyatlarni qidirmoqda.

Aholi tarkibida shaharliklar salmog‘ining o‘sishi urbanizatsiya deb ataladi. Jahon urbanizatsiya darajasi XX asr boshlaridagi 4 foizdan hozirgi davrda 41 foizga ortdi, jahonning 120 dan ortiq mamlakatlarning urbanizatsiya darajasi o‘rtacha dunyo ko‘rsatkichidan yuqori. Hozirgi zamon urbanizatsiyasi butun jahon

jarayoni qiyofasida ko'pchilik mamlakatlar uchun xarakterli bo'lgan uchta umumiy belgi bilan xarakterlidir.

Birinchi belgi- shahar aholisining jadal suratda o'sishi ya'ni XX asr davomida jahonda shaharliklar soni 13 marta ko'paydi. Faqat 1950 -1970 yillarda u 80 % dan ko'proqqa oshdi. 1970-1990 yillarda esa salkam 70% ga o'sdi. Hozirgi kunda shaharlar aholisi qishloqlarni ma'muriy jihatdan shaharlarga aylantirishni, qishloqdan shaharga ommaviy migratsiyaning kuchayishi tufayli qishloqqa qaraganda 3 marta tez o'smoqda. Bu jarayon XXI asrning birinchi yarmida ham saqlanib qolishi kerak. Taxminlarga ko'ra 2025- yilga borib shaharlar aholisi 5 mlrd kishiga yetadi va jahon aholisidagi ulushi 60 % ga ko'tariladi.

Ikkinchi belgi – shahar aholisining to'planishi davom etmoqda, eng avvalo katta shaharlarda ishlab chiqarish xarakterlidir. Uning fan, ta'lim, ishlab chiqarish sohalari bilan aloqasi murakkablashuvida namoyon bo'ladi. Katta shaharlar odatda odamlarning ma'naviy ehtiyojini qondiradi, turli xil tovarlar va xizmatlar mo'lligi bilan yaxshi ta'minlaydi. Axborot olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

1990 yilda shaharlar 3500 ta bo'ldi. Aholisi soni 68 % ga yetdi. Katta shaharlar orasida "Millioner" shaharlar alohida ajralib turadi. Ularning soni ham ko'paymoqda. 2005 yilda "Millioner" shaharlar jahonda 430 tadan ortdi. Aholisi soni esa 1,3 mlrd kishini tashkil etdi.

Uchinchi belgi- shaharlarning siljishi, ya'ni ular hududlarining kengayishi urbanizatsiyaning hozirgi bosqichi uchun aniq nuqtada joylashgan. Shaharlarni shahar aglomeratsiyalariga qo'shib keng shahar guruhlariga ko'chishi, ko'p qirrali birlashgan intensiv ishlab chiqarish, mehnat va madaniy aloqalari xarakterlidir. Bunda aglomeratsiya yadrosi bo'lib, poytaxtlar, yirik sanoat, port, ma'muriy va boshqa markazlar hisoblanadi.

Urbanizatsiya darajasi va sur'atlari dunyoning turli mintaqalari o'rtasida turlicha farqlanadi. Masalan, Yevropada 73%, Xorijiy Osiyoda 27%, Shimoliy Amerikada 75 %, Afrikada 30%. Yuksak urbanizatsiyalashgan deb, shahar aholisi salmog'i 50 % ni tashkil etgan mamlakat hisoblanadi. Bu guruhga deyarli barcha

iqtisodiy taraqqiy etgan va taraqqiy etayotgan mamlakatlar kiradi. Ular orasida urbanizatsiya darajasi 80 % dan oshgan “Chempion” mamlakatlar alohida ajralib turadi. Bunday mamlakatlarga Buyuk Britaniya, GFR, Shvetsiya, Avstraliya, Argentina, Birlashgan Arab Amirliklari misol bo‘la oladi.

Urbanizatsiyalashgan darajasi o‘rtacha mamlakatlarda shahar aholisi ulushi 20 dan 30 % gacha tashkil etadi. Bu guruhga Osiyoning rivojlanayotgan bir qator mamlakatlari (Xitoy, Hindiston, Indoneziya va boshqalar), Janubiy Amerika mamlakatlari (Boliviya, Gvatemala va boshqalar), Afrika (Misr, Marokash, Nigeriya, va boshqalar) kiradi.

Sust urbanizatsiyalashgan mamlakatlarda shahar aholisi ulushi 20 % dan kam. Ularga ayrim qoloq mamlakatlar, ko‘proq Afrika davlatlari kiradi. Ayrimlarida jumladan, Ruanda va Burundida mamlakat aholisining 10 % dan kamrog‘i shaharlarda yashaydi. Aglomeratsiyaning vujudga kelishi taxminan quyidagi sxemada (tartibda) amalga oshadi. Qulay iqtisodiy geografik o‘ringa ega bo‘lgan shahar asta-sekin yiriklashib boraveradi. Sababi u o‘ziga barcha yangi-yangi sanoat korxonalari, xizmat ko‘rsatish muassasalari, oliy o‘quv yurtlari, moliya-bank tashkilotlari va boshqalarni tortaveradi. Bu paytda shaharning tortish kuchi, markazga intiluvchi harakat avjda bo‘ladi.

Insoniyat tarixida birinchi marta dunyo aholisining aksariyati shaharlarda istiqomat qilishi shunday bo‘ldi.

- Uch milliard kishi - dunyo aholisining yarmi – shaharlarda yashaydi
- 2050 yilga kelib, dunyo aholisining uchdan ikki qismi shaharlarda yashaydi.(1800 yilda odamlarning atigi 2 foizi shaharlarda yashagan. 1950 yilda dunyo aholisining atigi 30 % shahar aholisi hisoblangan.
- Har kuni deyarli 180 ming kishi shaharlarga ko‘chib o‘tadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda shahar aholisi har yili 60 million kishi bilan to‘ldirilmoqda. Shahar aholisining bunday o‘sishi keyingi 30 yil ichida davom etadi.

- Keyingi 15-20 yil ichida Afrika va Osiyoning ko'p shaharlari ikki baravar ko'payadi.

Urbanizatsiya jarayoni atrof muhitga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa shaharlarning kattalashuvi, shahar aglomeratsiyalari atrof muhitga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shahardagi joylashgan sanoat korxonalaridan hamda transportdan chiqayotgan gazlar atmosfera havosining ifloslanishiga olib keladi. Shaharlarda sanoat korxonalari, kommunal xo'jaligidan chiqayotgan ishlatilgan oqar suvlarning ifloslanishiga olib keladi. Iflos suvlar, har hil infektsiya kasalliklarini tarqatuvchi bakteriyalarni rivojlanishi uchun asosiy muhit hisoblanadi. Katta shaharlarda korxonalar, transport vositalari shovqini qishloq joylariga nisbatan ancha katta. Bu esa shahar aholisining eshitish organlarining tezda ishdan chiqishiga olib keladi. Shu sababli dunyoda shaharlarning haddan tashqari kattalashib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Topshiriqlar va yechimlar

1. Urbanizatsiya so'ziga berilgan ta'rifni aniqlang.

- 1). Shaharlashish;
- 2). Ko'chib ketish;
- 3). Davlatdagi aholi sonining ko'payishi;

A) 1 B) 3 S) 2


Javob: A) 1

2. Atmosferaning 80% zaharli gaz chiqindisi qaysi hududga to'g'ri kelishini strelka asosida aniqlang.

80%		Poytaxt shaharlar;
		Qishloq, ovul, shaharchalar
		Shaharlar

Javob:

		Poytaxt shaharlar;
--	--	--------------------




3. Urbanizatsiya inson hayotida qanday ahamiyatga ega ekanligini aniqlang.


- 1). Shahar aholisi hamda ishlab chiqarishning ko'pligi;
- 2). Jamoa yashashi uchun iqtisodiy tarqiyotga ega ekanligi;
- 3). Shahar aholisining o'sishi aholining mehnat qilish xususiyati, turmush tarzi, madaniyati, ishlab chiqarishni joylashtirilishiga bog'liq ekanligi. A) 3 B) 2 C) 1

Javob: A) 3

4. Berilgan shakllardan foydalanib, shaharni uy deb tasavvur qilish orqali, shaharlarning urbanizatsiya darajasi soni va guruhlarini qaysi shaklga mos kelishini aniqlang.



Javob:



Izoh: Agar shaharni uy deb tasavvur qilsak, uyingning tomi yuqori ya'ni osmon rangini bildirsa, deraza binoning o'rta qismida joylashishi hisobga olgan holda yashil rang daraxt rangi tanlandi, zinapoya uyingning pastki qismida joylashganligi va yerning rangi jigarrang deb hisoblagan holda ushbu savol uchun uy shakli tanlab olindi.

5. Amallarni bajarib va dunyoda megapolislar sonini qanchaligini aniqlang.

A) $9+9=$; B) $4+3=$; C) $6-4=$;

Javob: A) $9+9=18$ ta

Asosiy adabiyotlar

1. Q. Abirqulov. Iqtisodiy geografiya (darslik). Toshkent. TDIU, 2004y.
2. Abdullayev O. Mintaqalar va mamlakatlar iqtisodiyoti. Toshkent :Yangi asr avlodi" 2009. 282 b
3. Гладкий Й.Н., С.Б.Лавров. Глобальная география, М, 2001г.
4. Vahobov H., M. Tillaboyeva. Iqtisodiy geografiya asoslari. (o'qituvchi kitobi) Toshkent, O'qituvchi. 2001 yil. 4-5 bet
5. Максаковский В.П. Географическая картина мира. Кн. 1.2: Общая характеристика мира М. Дрофа .2008.-495 с.
6. Экономическая и социальная география стран ближнего зарубежья. Под ред. М. Ратанова. –М., 2004.
7. Родионва И.А Экономическая и социальная география мира. Т.1.2: Учебник для бакалавров. изд. исправ. и доп. М. Издательств. Юрайт. 2015.
8. Mahmudova. M, Soliyev. A. Geografiyadan nostandart testlar. Namangan Davlat universiteti Namangan. 2017 y

5-§. Xalqaro mehnat taqsimoti va unga ta'sir etuvchi omillar

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar mohiyati, ma'nosini ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkichlardan biri xalqaro mehnat taqsimotidir. Dunyoning barcha mamlakatlari u yoki bu jihatdan XMT ga qo'shilgan. Uning chuqurlashuvi ITning katta ta'siri ostida bo'lgan ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishidan kelib chiqadi. Xalqaro mehnat taqsimoti – bu tarixan belgilangan ijtimoiy mehnat

tizimidir. Xalqaro mehnat taqsimoti davlatlar o'rtasida mehnatning ijtimoiy hududiy taqsimotining darajasi hisoblanadi. U alohida davlatlar ishlab chiqarishlarining ixtisoslashuviga asoslanadi.

Jahon mamlakatlari milliy xo'jaliklarini yagona jahon xo'jaligiga birlashtirish asosida xalqaro mehnat taqsimoti (XMT) yotadi. XMT - ayrim mamlakatlarning o'zlari uchun qulay va manfaatli, samarali bo'lgan tabiiy sharoit va resurslar, aholining mehnat malakalari va ko'nikmalari asosida ayrim mahsulotlar yoki ularning turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi va boshqa mamlakatlar bilan ayirboshlashidir.

Xalqaro mehnat taqsimoti mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajasi, ijtimoiy-siyosiy tuzimining xarakteridan qat'iy nazar tovarlar, xizmatlar va bilimlarning xalqaro ayirboshlanishi, ishlab chiqarishning rivojlanishi, ilmiy-texnik, savdo-sotiq sohalarda va boshqa hamkorlikning ob'ektiv asosidir. Xalqaro mehnat taqsimoti mamlakatlar ichidagi va ular o'rtasidagi munosabatlar rivojlanishining qonuniy natijasi va ijtimoiy mehnat taqsimotining mantiqiy davomidir.

Xalqaro mehnat taqsimotini harakatlantiruvchi kuch va uni rag'batlantiruvchi omil mamlakatlarning unda ishtirok etishdan ko'zlangan maqsadi, manfaatlari va vazifalari iqtisodiy foyda olishga qaratilganligidir. Bu faoliyat xalqaro miqyosda qiymat qonuniga amal qilishda ko'rinadi. Qiymat qonuni tovar ishlab chiqarish sharoitida XMT afzalliklaridan foydalanishga undaydi.

Mehnatga yaroqli aholining asosiy qismini ijtimoiy ishlab chiqarishda qatnashuvchi iqtisodiy faol aholi tashkil etadi. Mehnatga yaroqli aholiga, 15 yoshdan 65 yoshgacha bo'lgan kishilar kiradi, bu holat turli mamlakatda turlicha belgilanadi.

Xalqaro mehnat taqsimotida har bir mamlakat milliy iqtisodiyotning tutgan o'rnini quyidagilarga bog'liq:

- iqtisodiy-geografik holati (geostrategik mavqei);
- agroiqlimiy shart-sharoitlar;

- tabiiy resurslari - foydali qazilmalar bilan ta'minlanganlik darajasi;
- xalqning, millatning mehnat an'analari, ma'lum ishlab chiqarish turlari va xizmatlarga, ko'nikmalarga egaligi;
- mamlakatning iqtisodiy-tarixiy rivojlanish xususiyatlari;
- ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi;
- mehnat resurslarining sifat tarkibi, kasbiy va madaniy intellektual darajasi, yangi kasb va hunarlarning o'zlashtirish imkoniyatlari kabi bir qator iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Ma'lumki, xalqaro mehnat taqsimotini ikki yirik guruhga ajratish mumkin: jahon miqyosidagi hamda davlatlarning ichki mehnat taqsimoti. O'z navbatida, ular ham bir necha bosqichlarga bo'linadi, Masalan, birinchi guruhda (1) jahon mamlakatlari va xalqaro, ya'ni alohida mamlakatlararo mehnat taqsimoti ajratiladi. Barcha mamlakatlar orasidagi iqtisodiy munosabatlar jahon xo'jalik tizimi va bozorini vujudga keltiradi, alohida mamlakatlarning iqtisodiy integratsiya jarayonlari esa yirik mintaqalar iqtisodiy hamkorligi va bozorlarni shakllantiradi. Umumiy bozor—hozirgi kunda o'zining tarkibini muntazam ko'paytirib borayotgan, 27 ga yaqin mamlakatni birlashtiruvchi Yevropa Ittifoqi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Dastavval 1967 yilda asos solingan Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarning hududiy uyushmasi (ASEAN, hozir u 10 ta davlatni birlashtiradi) yoki 1989 yilda ta'sis etilgan Osiyo Tinch okean iqtisodiy hamkorligi, Shimoliy Amerika erkin savdo uyushmasi (NAFTA) ham shular jumlasidandir. Xuddi shunday, hududiy-iqtisodiy ittifoq kelajakda Mustaqil davlatlar hamdo'stligi doirasida ham shakllanishi mumkin.

Mehnatda band aholini tarkibida qishloq xo'jaligi va unga yaqin bo'lgan sohalarda band bo'lgan aholi ko'pchilikni tashkil etadi. Bu sohalarda yer shari iqtisodiy faol aholisining yarmidan ortig'i band.

Jahon qishloq xo'jaligida band aholi salmog'ini kamayishi sanoatda va moddiy boylik ishlab chiqaruvchi boshqa tarmoqlarda band aholi salmog'ining oshishi

bilan qoplanib bormoqda. Fan–texnika taraqqiyoti tezlashib borayotgan davrda moddiy boylik ishlab chiqarmaydigan tarmoqlarda band aholi salmog‘i yanada tezroq o‘sib boradi, chunki moddiy boylik ishlab chiqarishda mehnat unumdorligi tez o‘sadi, aqliy mehnatning o‘rni ortadi, ilmiy va texnik xodimlar soni ko‘paya boradi, boshqarish va xizmat ko‘rsatishning turli shakllari kengayadi. Xalqaro mehnat taqsimoti va unga ta’sir etuvchi omillar ,birinchi navbatda ishlab chiqarish unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga intilish zaruriyati.

Xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanishi jarayonida asosiy narsa bu shu jarayonning har bir ishtirokchisi o‘zining XMT dagi ishtirokidan foyda qidirishi va topishidir. Jahon xo‘jaligini tizim sifatida ko‘rib chiqqanda XMT ni u tizimni tashkil qilgan birlashtiruvchi asos deb tasdiqlash mumkin.

Topshiriqlar va yechimlar

1.Xalqaro mehnat taqsimoti ta’limotini ingliz iqtisodchisi A.Smit va Rekardolar yaratgan. Ular ochiq va erkin savdoni qanday g`oya asosida olg`a surishganini o`zbek alifbosi tartibida harflarni toping hamda yashiringan so`zni toping.

5 2 9 2 2 4 3 9 2 1

Javob: f r i t r e d i z m

2.

Ha	Davlat ichidagi mehnat taqsimoti qanday bosqichlardan iborat	Yo`q
+	Yirik iqtisodiy rayonlar aromehnat taqsimoti	
+	Viloyat va boshqa turdagi ma’muriy-hududiy birliklar o`rtasidagi mehtan taqsimoti	
	Xalqaro mehnat taqsimoti	-
+	Viloyat ichidagi mehnat taqsimoti	
	Jamoat ichidagi mehnat taqsimoti	-
+	Mahalliy mehnat taqsimoti	

3.Iqtisodiyotning 1).tarmoq tarkibida qishloq xo`jaligi salmog`i yuqori;

2).Sanoat va qurilish sohalari taraqqiyn topgan; 3).xizmat ko`rsatish va intellectual soha yuqori bo`lgan jahon xo`jaligi tarmoqlarini toping. Chalkashlikni aniqlang.

1).

G	A	R	A	R
---	---	---	---	---

2).

I	N	D	S	U	T	R	L	A	I
---	---	---	---	---	---	---	---	---	---

3).

O	P	S	T	N	I	U	D	S	T	R	L	A	I
---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---

Javob:

A	G	R	A	R
---	---	---	---	---

1

I	N	O	U	S	T	R	I	A	L
---	---	---	---	---	---	---	---	---	---

2).

P	O	S	T	I	N	D	U	S	T	R	I	A	L
---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---

3).

4. Quyidagi rebusni bajarsangiz jahon xo`jaligining agrar, industrial, postindustrial, agrar-industrial sohaga ixtisoslashgan davlatlar nomi kelib chiqadi.

SEDGALVLIYATSG

JNEABDZIKAMQHM

FJMABRASOEBUBE


GERNIYACHSNODJA


Javob:


<p>SEDGALVLIYATSG JNEABDZIKAMQHM FJMABRASOEBUBE GERNIYACHSNODJA</p>	<p>Senegal Braziliya Germaniya Kambodja</p>
--	--


4. Ushbu javoblardan 4 tasi hududiy mehnat taqsimotining xususiyatlariga to'g'ri keladi? Ularning to'g'risini ajrating.

- 1). Mamlakatlarni birlashtirgan;
- 2). Hududiy uyushma;
- 3). Asos solingan
- 4). Fransiya, Italiya, Germaniya;
- 5). 1957 yil tashkil qilingan;
- 6). 27 ga yaqin yaqin;
- 7). Umumiy uyga
- 8). Yevropa ittifoqi

Javob: a) 

b) 

c) 

e) 

5. Ushbu javoblarning 4 tasi hududiy mehnat taqsimotining xususiyatlariga to'g'ri keladi? Ularning to'g'risini ajrating.



-hududiy mehnat taqsimoti iqtisodiy geografiya fanining asosiy

tushunchasi;



-hududiy mehnat taqsimoti iqtisodiy rayonlar shakllanishining moddiy negizi sanaladi;



-hududiy mehnat taqsimoti faqatgina suvli hududlar va uning atrofida joylashgan joyda ekanligi;



-hududiy mehnat taqsimotida ixtisoslashuv asosiy omil



hisoblanadi va u albatta ichki va tashqi bozorda tovar ommalashuvini nazarda tutadi;

- hududiy mehnat taqsimoti tog`li hududlarda alohida-alohida jihatlarda ajratishning o`ziga xosligi;
- uning shakllanishi va rivojlanishini mamlakat yoki rayonlar ekanligini belgilovchi ko`rsatkich;
- hududiy mehnat taqsimoti milliy va mintaqaviy iqtisodiyotni diversifikatsiyalashuviga olib keladi

Javob:



6.Mamlakatlar bo`yicha xalqaro ixtisoslashgan tarmoqlarni moslashtiring.

t\r	Davlatlar nomlari	Javoblar	Ixtisoslashgan tarmoqlar
1	Yaponiya	A	Kofe yetishtirish
2	Saudiya Arabistoni, BAA, Quvayt	B	Mis rudasi va tozalangan mis
3	Peru, Zambiya, Kongo	C	Radioelektronika, robottexnika, avtomobilsozlik va dengiz kemasozligi
4	Burundi, Uganda	D	Yoqilg`I xom ashyosi
Javob: 1-C, 2-D, 3-B, 4-A			

7.Quyida berilgan 1-2-3 pog`onadagi jumlar 4-pog`onadagi qaysi javobga olib boradi?

- a). shahar va iqtisodiy rayonlar o`shish qutbi va markazlari vujudga keladi;
- b). hududiy mehnat taqsimoti bir ma`noda iqtisodiy-geografik jarayon hisoblanadi;
- c).hududiy mehnat taqsimoti iqtisodiy geografiya fanining fundamental tushunchasi sanaladi.

?

Iqtisodiyotning hududiy tarkibida o`zgarishlar yuz beradi

Yangi xo`jalik

tarmoqlari shakllanadi


Uning natijasida
yangi yerlar
o`zlashtiriladi

Javob: a) va c)


8.Xalqaro mehnat taqsimoti mavzusiga oid bo`lgan mukammal javobni toping.

Hududiy mehnat taqsimotini kimlar yaratgan?


Shartli belgilar:



-inglizlar;



--shvedlar;




-A.Smit ;

-E.Xeksher va V.Olin;


-merkantilizm;




-import qilish;



-qulay va arzon




-mintaqa yoki mamlakat



-fritredizm

Javob:



Asosiy adabiyotlar

1.Ўзбекистон Республикасининг янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида»ги. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлар тўплами.2017 йил 6 сон 70-модда.

2. Abirqulov Q. Iqtisodiy geografiya. –T., 2004.

- 3.Экономическая и социальная география стран ближнего зарубежья. Под ред. М.Ратанова. –М., 2004.
- 4.Родионва И.А Экономическая и социальная география мира.Т.1.2:Учебник для бакалавров.изд.исправ.и доп.М. Издательств. Юрайт.2015.
- 5.Lipets Yu. G. Pulyarkin V. A., Shlixter S. B. Geografiya mirovogo hozyaystvo. - М., 1999
- 6.Boltaev M.J.Chet mamlakatlar iqtisodiy geografiyasi .Ma’ruza matni. 2000 yil.
- 7.Страны мира.-М.:Мысль,1996.
- 8.Kulke E. Wirtschafts - geographie. -Munxen – Zurich: «Ferdinand Schoningh», 2004.

6-§. Jahon xo‘jaligi

Jaxon xo‘jaligi – bu xalqaro mehnat taqsimoti va interatsion tamoyillar hamda iqtisodiy munosabatlarning xalqaro tizimi orqali bir-biri bilan chambarchas bog‘langan milliy xo‘jaliklar majmuasidir.

Jaxon xo‘jaligi munosabat tarzida o‘z ob‘ekti va sub‘ektiga ega. Xalqaro miqiyosda resurslarning taqsimlanishi va samarali ishlatilishi, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi, iqtisodiy integratsiya, savdo-sotiq, ilmiy texnikaviy hamkorlik, qoloqlik va qashshoqlikka chek qo‘yish, ekologiyaga zarar yetkazmaydigan iqtisodiy faoliyat yurgizish kabilar umumjahon munosabatlarning ob‘ekti bo‘lsa, turli davlatlar, xalqaro va milliy firmalar, xalqaro tashkilotlar ularning sub‘ekti hisoblanadi.

Jahon xo‘jaligi dunyodagi barcha mamlakatlar milliy xo‘jaliklarining jahon iqtisodiy aloqalari orqali o‘zaro uzviy bog‘langan va tarixiy shakllangan. U dunyo ishlab chiqarish kuchlarining ming yillik evolyutsiyasi natijasidir.

Olimlar tomonidan jahon xo‘jaligining shakllanishini quyidagi bosqichlarga bo‘ladilar:

- jahon xo‘jaligining shakllanishi;
- jahon xo‘jaligining paydo bo‘lishi va kengayishi;

- jahon xo‘jaligining chuqurlashuvi;

Dastlab jahon xo‘jaligining shakllanishi, qadimdan to XVI- asrgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrning dastlabki bosqichida dunyoda qator quldorlik davlatlari (Qadimgi Misr, Karfagen, Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim, Kushon davlati va boshqalar) tashkil topdi. (V – XVI asrlar) dunyoda qator feodal davlatlar (Kiyev va Moskva Rusi, Portugaliya, Ispaniya, Angliya, Amir Temir imperiyasi va boshqalar) paydo bo‘ldi. Bu davlatlar o‘rtasida savdo–sotiq ishlari amalga oshirildi. Bunda “Buyuk ipak yo‘li”ning roli katta bo‘ldi. Ushbu davrda jahon xo‘jaligiga dunyodagi barcha mamlakatlar tortilmagan edi. Dunyoning ko‘pchilik qismi jahon hamjamiyatiga noma’lum edi. Shu sababli ushbu davrni jahon xo‘jaligining shakllanishi deb atash maqsadga muvofiqdir.

XVI asrdan XIX asrning oxiri va XX asrning o‘rtalarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Ushbu davrda jahonning ayrim davlatlari, ayniqsa G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari qaror topadi. Ushbu davrda ikkita sanoat inqilobi sodir bo‘ladi.

Birinchi sanoat inqilobi – 1769 – 1872 yillarni o‘z ichiga oladi. Ushbu davrda Angliyada bug‘ mashinasining ixtiro qilinishi va uning ishlab chiqarishga joriy etilishi evaziga, Angliyada qo‘l mehnatiga asoslangan manufakturaning o‘rniga bug‘ mashinalarining qo‘llanilishi, mehnat unumdorligining keskin ortishiga olib keldi. Tayyor mahsulotlar ko‘plab chetki bozorlarga chiqarila boshlandi, dunyoning deyarli barcha mamlakatlari ma’lum miqdorda ishtirok eta boshladi. Shunday qilib, ushbu davrda jahon xo‘jaligi tarkib topdi va kengaydi.

Jahon xo‘jaligining chuqurlashuvi (XX asrning ikkinchi yarmidan to hozirgacha) davrida jahon xo‘jaligida murakkab texnologiyalarga asoslangan, kam metall va yoqilg‘i talab qiluvchi mashinalar ishlab chiqarish yetakchi o‘rinni egallaydi.

Hozirgi jahon xo‘jaligining asosini xalqaro mehnat taqsimoti tashkil etadi. Mehnat taqsimotining oddiy shakli, jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida erkaklar bilan ayollar, keksalar bilan yosh bolalar o‘rtasidagi mehnat taqsimoti

bo'lgan. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi bilan jamoa o'rtasidagi mehnat taqsimoti ham o'zgardi.

Mamlakatlarning o'zaro iqtisodiy aloqalari faqat tovar savdosi va xizmat ayirboshlashi bilan cheklanmaydi. Hozirgi jahon xo'jaligi kapital oqimlari va odamlarning migratsiya oqimlari mavjudligi, ularning aralashib ketganligi bilan xarakterlanadi. Bularning hammasi birgalikda "Xalqaro mehnat taqsimoti" tushunchasini tashkil etadi.

Ixtisoslashuv, bir turdagi yoki bir necha turdagi mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashuv shaklida bo'ladi.

XX asrning ikkinchi yarmida boshlangan fan – texnika inqilobi, butun dunyo hayotini, shu jumladan, jahon xo'jaligining rivojlanishida yuz bergan keskin sifat o'zgarishi ishlab chiqarish kuchlarini tubdan qayta o'zgartirib yubordi. Birinchidan, fan – texnika inqilobi, fan, texnika, texnologiya, ishlab chiqarish, boshqarishning hamma tarmoqlari va sohalarini, mehnat jarayonini, turmush sharoitini, madaniyatini, kishilar ruhiyatini o'zgartirdi. Bularning hammasi fanning gurkirab rivojlanishi va jamiyatning bevosita ishlab chiqaruvchi kuchiga aylanishi bilan uzviy bog'liqdir.

Ikkinchidan, fan – texnika inqilobi qayta qurishni nihoyatda tezlashtirib yubordi. Bu tezlanish ilmiy kashfiyot bilan uni ishlab chiqarishga tadbiiq qilish o'rtasidagi vaqtning keskin qisqarganligida, mahsulotning juda tez ma'naviy eskirib qolishida va binobarin, muntazam yangilanib turishida o'z ifodasini topdi.

Uchinchidan, insonning ishlab chiqarishdagi o'rnini tubdan o'zgartirib yubordi. Fan – texnika inqilobi mehnat resurslari darajasiga talabini keskin oshirdi.

To'rtinchidan, fan – texnika inqilobi evaziga boshqaruv tizimida axborot – texnologiyalaridan foydalanish keng ko'lamda amalga oshirildi.

Fan – texnika inqilobining hozirgi bosqichida ishlab chiqarishni boshqarish g'oyat murakkablashdi

Jahon xo'jaligining rivojlanishi va murakkablashib borishiga muvofiq uning geografik modeli ham o'zgarib bormoqda. XIX asrning oxiriga qadar jahon


xo‘jaligining barcha ko‘rsatgichlariga ko‘ra bitta markaz–Yevropa ustunlik qilgan. Keyinchalik ikkinchi markaz–AQSh paydo bo‘lgan va u tez orada asosiy markazga aylandi. So‘ngra boshqa yangi markazlar paydo bo‘la boshladi. Hozirgi jahon xo‘jaligida 10 ta asosiy markaz mavjud . AQSH, Yevropa, Yaponiya, MDH, Xitoy, Janubiy-G‘arbiy Osiyo, Hindiston, Janubiy-Sharqiy Osiyo, Avstraliya, Braziliya va boshqalar. Ushbu markazlardan eng iqtisodiy qudratli ikkita eski markaz ya’ni Yevropa (YaIMning 28%) va AQSh (YaIM ning 20%) hisoblanadi. Ulardan keyin ikkita o‘rta markaz, Yaponiya (YaIM ning 10%) va MDH turadi. Ikkinchi jahon urushidan keyin paydo bo‘lgan markazlar nisbatan uncha katta emas, lekin ular tez rivojlanmoqda.

Dunyo xo‘jaligi rivolanishining g‘oyatda muhim bo‘g‘in-mamlakatlar, mamlakatlar guruhi, kontinentlar o‘rtasida iqtisodiy va noiqtisodiy aloqalarning g‘oyat kuchayishi hisoblanadi.

Dunyo xo‘jaligida xalqaro iqtisodiy aloqalarning ko‘p shakllari mavjud bo‘lib, ular qatoriga tashqi savdo, kapital chiqarish, ilmiy texnika hamkorligi, kompensatsiya kelishuvlari, kredit-moliya munosabatlari turli xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlari, xalqaro turizm, ob’ektlarini birgalikda qurish va boshqalar kiradi.

Topshiriqlar va yechimlar

1. Jahon neft qazib chiqarish (mln tonna) bo‘yicha yetakchi davlatlarni berilgan diagramma orqali aniqlang



Javob:


Saudiya Arabistoni 425 Xitoy -180 mln tonna
AQSh -350 mln tonna Meksika – 180 mln tonna
Rossiya -350 tonna Venesuela-150 mln tonna
Eron -200 mln tonna O‘zbekiston -5 mln tonna

2.Gidro energiya resurslariga boy bo‘lgan davlatlar ro‘yxatini ishlab chiqarish quvvati asosida tartibga soling va ularni qaysi qit’ada joylashganini aniqlang.

T/r	Davlatning nomi	Qit’a tartibi	Qit’a joylashgan
1	Braziliya	A	Osiyo
2	Xitoy	B	Janubiy Amerika
3	Rossiya	D	Afrika
4	KDR	C	Yevropa

Javob: A-Janubiy Amerika , B- Osiyo, D- Yevropa, C- Afrika

3.Jahonda gaz qazib chiqarish (mlrd m³) bo‘yicha yetakchi davlatlarni berilgan shakldagi raqamlar asosida ularning ulushini aniqlang



Javob: Rossiya 720 mlrd m³ AQSh 590 mlrd m³ Kanada 200 mlrd m³
Buyuk Britaniya 98 mlrd m³ Indoneziya 87 mlrd m³ Niderlandiya 72 mlrd m³
O‘zbekiston 60 mlrd m³ Turkmaniston 50 mlrd m³

4.Yiliga 1 mlrd kvv/s energiya ishlab chiqaradigan elektr stansiya bazasida 500 ming tonna alyuminiy ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan zavodni qurish mumkinmi?

Izoh: 1 tonna alyuminiy olish uchun 20 ming kvv/s elektr energiya kerak bo'ladi.

Yechilishi:

1 t- 20 000 kvv/s

500 000 tonna- x


Demak zavod quvvati energiya miqdoridan 10 marta katta ekan 1 mlrd kvv/s energiya stantsiya bazasida alyuminiy zavodini qurish mumkin emas.

5.Gidro energiya resurslariga boy bo'lgan davlatlar ro'yxatini ishlab chiqarish quvvati asosida tartibga soling va ularni qaysi qit'ada joylashganini aniqlang.

T/r	Davlatning nomi	Qit'a tartibi	Qit'a joylashgan
1	Braziliya	A	Osiyo
2	Xitoy	B	Janubiy Amerika
3	Rossiya	D	Afrika
4	KDR	C	Yevropa

Javob: A-Janubiy Amerika , B- Osiyo, D- Yevropa, C- Afrika

6.Shartli belgilarda ko'rsatilgan foydali qazilmalar nomlarini aniqlang.



Javob:

- | | |
|-----------------|--------------------|
| 1) Tabiiy gaz | 5) Marganets |
| 2) Oltin | 6) Uran rudasi |
| 3) Toshko'mir | 7) Qo'ng'ir ko'mir |
| 4) Simob rudasi | 8) Temir rudasi |
| | 9) |

1). Polsha

2). Avstraliya

3). JAR

4). AQSh


5). Xitoy

6). Germaniya


7). Rossiya

8). Hindiston


7. Jahon mamlakatlarida toshko‘mir qazib chiqarish bo‘yicha yetakchi bo‘lgan davlatlarni ketma-ketligini tegishli raqamlar asosida berilgan chizmaga belgilang.



Javob:



8. Berilgan rangli metallarni guruhlarga ajrating. Mis, Magniy, Oltin, Alyuminiy, Rux, Oltin, Qalay, Titan, Qo‘rg‘oshin, Germaniy, Molibden, Nikel, Volfram, Uran



Javob:

A). Og‘ir metallar – Mis, Rux, Qalay, Qo‘rg‘oshin, Nikel;

B). Yengil metallar- Alyuminiy, Magniy, Titan;

C). Qimmatbaho metallar- Oltin, Platina;

D). Qiyin eruvchi metallar- Volfram, Molibden;

E). Nodir metallar- Uran, Germaniy.

7-§. Jahon sanoati

Sanoat jahon moddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmog‘i bo‘lib unda 350 mln.dan ko‘proq aholi band. Sanoatga xos bo‘lgan xususiyat mashinasozlikning peshqadamligidir. Mashinasozlik rivojlangan davlatlarda yuksak darajada.

Sanoat asosan ishlab beruvchi va undiruvchi (tog‘-kon) tarmoqlaridan iborat. Sanoat tarmoqlari paydo bo‘lish davriga ko‘ra 3 guruhga bo‘linadi:

1) eski tarmoqlar (ko‘mir, metallurgiya, to‘qimachilik, oziq-ovqat, kemasozlik, kimyo sanoatining ayrim tarmoqlari);

2) yangi tarmoqlar (avtomobil, aviatsiya, neft, o‘rmon, kimyo, alyuminiy ishlab chiqarish va boshqalar).

Rivojlangan mamlakatlar sanoati strukturasi ishlab beruvchi sanoat 83,4%, undiruvchi sanoat – 8,1%, elektroenergiya va gaz ishlab chiqarishi 8,5% salmoqqa ega. Sanoat strukturasi eng asosiy hususiyati unda fan-texnika taraqqiyotini belgilab beruvchi fantalab tarmoqlardan ko‘pchiligini qamrab oladigan mashinasozlikning yetakchiligidir. Mashinasozlikning ustuvorligi iqtisodiy rivojlangan ko‘pchilik mamlakatlarga xos xususiyatdir.

Yoqilg‘i-energetika sanoati jahon xo‘jaligining asosi bo‘lib u – yoqilg‘i-energetika resurslarini qazib olish, ulardan energiya ishlab chiqarish va iste‘molchilarga uzatishdan iborat. Insoniyatning butun tarixi turli xildagi yoqilg‘i va energiyani o‘zlashtirish bilan bog‘liq. XIX asrda va XX asrning boshlarida energiya resurslarining asosini ko‘mir, XX asr o‘rtalaridan boshlab ko‘mir, neft, gaz, 60-90 yillarda – ko‘mir, neft, gazdan tashqari yadro va suv resurslari bo‘lib qoldi.

Jahonda birlamchi energiya resurslarini iste‘mol qilish muttasil olib borayotir. XX asrning boshida (1900 yilda) ularning hajmi 1 mlrd.tonna shartli yoqilg‘iga, 2000 yilda 14 mlrd.tonnaga yetdi. Energiya iste‘molining o‘rtacha o‘sishi XX asrning birinchi yarmida yiliga 2-3%, 1959-1975 yillarda 5% bo‘lgan. Dunyoda birlamchi energiya resurslarini iste‘mol qilishning umumiy hajmi 2000 yilda 14,5 va 16,8 mlrd tonna

shartli yoqilg'iga, 2020 -yilda esa 19,7 va 26,7 mlrd tonna shartli yoqilg'iga teng bo'ladi.

1990- yillardan boshlab yoqilg'i va energiya iste'moli asosan neft va gaz qazib olish sur'atining jadal oshishi va ularni dunyoning turli qismlariga tashish hisobiga o'sdi. Bu davr odatda arzon neft davri deb ataladi. XX asrning 70 -yillaridan boshlab jahon energetikasida katta o'zgarishlar yuz berdi:

Jahon energetikasining asosini uch tarmoq – neft, gaz, ko'mir sanoatlari tashkil qiladi.

Neft sanoati jahon yoqilg'i – energetikasining yetakchi tarmog'i bo'lib u jahon xo'jaligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Jahonda neft qazib olishning ko'payishiga asosiy sabab–neft mahsulotlari sanoatning xo'jalikning ko'plab tarmoqlari va qurolli kuchlarida unga talabning ortib borishi hisoblanadi. Bundan tashqari ko'mirga nisbatan neft qazib olish va tashish ancha arzon bo'lishi ham neft qazib olishning ortishiga olib keldi.

Neft sanoati eng yuqori darajada monopoliyalashgan tarmoqdir. Hozirgi kunda Saudiya Arabistoni, Eron, BAA, Iroq, Quvayt kabi mamlakatlarning har birida neft zahirasi 10 mlrd. t dan ortiqdir. MDH davlatlarida Rossiyada neft zahirasi 8-10 mlrd.t.ni tashkil qiladi .

Dunyoda neft qazib oluvchi mamlakatlar 1900 yilda 20, 1940- yilda 40, 1970-yilda 60 ta bo'lgan. Hozirgi kunda yiliga 3-3,5 mlrd.t. neft qazib olinadi. Eng yirik neft qazib oluvchi mamlakatlar – Saudiya Arabistoni, AQSh, Rossiya, Eron, Meksika, Xitoy, Venesuela hisoblanadi. Fors qo'ltig'ining 5 mamlakati jahon neftining 25%, OPEK mamlakatlari 40% ni yetkazib berdi.

Qazib olinayotgan neftning yarmi eksport qilinadi. Asosiy eksporterlar OPEK mamlakatlari, Rossiya, Xitoy, Saudiya Arabistoni, Venesuela, Quvayt va boshqalar. Neftni sotib oluvchi asosiy davlatlar – Yaponiya, G'arbiy Yevropa mamlakatlari, Koreya Respublikasi hisoblanadi.

Gaz sanoati XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlana boshladi. Jahon yoqilg'i iste'moli strukturasi neft va ko'mirdan keyin uchinchi o'rinni egallaydi (22%). Gaz ekologik jihatdan eng toza energiya resurslaridir.

Gazning aniqlangan zahiralari bo'yicha MDH va Janubiy-G'arbiy Osiyo, Rossiya, Eron, Saudiya Arabistoni, BAA, AQSh, Jazoir, Kanada, Venesuela, Meksika, Indoneziya, Norvegiya, Malayziya, Xitoy, Niderlandiya, Turkmaniston, O'zbekiston va boshqalar ajralib turadi.

Asosiy gaz eksport qiluvchi davlatlar – Rossiya, Turkmaniston, O'zbekiston, Kanada, Niderlandiya, Norvegiya, Jazoir, Indoneziya hisoblanadi. Asosiy importerlar – GFR, Yaponiya, AQSh, Franiya, Italiya hisoblanadi.

Rossiyadan Sharqiy Yevropaning deyarli barcha mamlakatlariga (Germaniya, Avstriya, Italiya, Fransiya, Finlandiya) gaz quvurlari orqali gaz keltirilgan.

Jahonda energetika vaziyatning keskinlashganligiga bog'liq holda so'ngi yillarda ko'mir sanoati tez rivojlanadi.

50 dan ortiq mamlakatda paydo bo'lish ehtimoli mavjud. 2020-yilga kelib dunyodagi ishlab chiqarilayotgan elektr quvvatida AESlarning salmog'i 30% ni tashkil qilishi bashorat qilinmoqda. AESlarning asosiy xom ashyosi uran hisoblanadi. Uran ochiq va shaxta usulida qazib olinadi. Boyitilgan uranni yirik ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi mamlakatlarga Kanada, AQSH, Avstraliya, JAR, Namibiya, Nigeriya, Gabon hamda Rossiya va MDHning ayrim mamlakatlari (O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston va Qozog'iston) kiradi.

Qora metallurgiya – sanoatning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, mashinasozlik va qurilishni rivojlantirish asosi, xalq xo'jaligi barcha tarmoqlarini texnik jihozlashning zaruriy shart-sharoiti hisoblanadi.

Qora metallurgiyaning joylashish xususiyatlari tarmoqning rivojlanishi davomida o'zgarib bordi. Qora metallurgiya geografiyasi ikki xildagi yo'nalish ta'sirida shakllandi:

- toshko'mir havzalariga (AQSh, Yevropa, Rossiya, Ukraina, Xitoy) intilish;
- temir rudalari havzalariga (Rossiya, Ukraina, Xitoy, AQSh, Yevropa) intilish.

Rangli metallurgiya ham sanoatning eski tarmoqlaridan biri bo'lib, FTI ta'sirida uning strukturasi katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ikkinchi jahon urushigacha og'ir metallar – mis, qo'rg'oshin, rux, qalay eritish ustun bo'lgan bo'lsa, 60 – 70 yillardan

boshlab alyuminiy olish XX asrning oxirlariga kelib – kobalt, titan, berilliy eritishga alohida e'tibor berilmoqda.

Rangli metallurgiya texnologik jarayonining bosqichlari bo'yicha xom ashyoni qazib olish va boyitish hamda metall va metall qotishmalarini eritishni birlashtiradi.

XX asr o'rtalarida rangli metallar (ayniqsa alyuminiy) metallurgiyasi tez rivojlandi.

Mashinasozlik majmuasi xo'jalikning barcha tarmoqlari uchun jihozlar, shuningdek, ko'plab iste'mol buyumlari ishlab chiqaradigan sanoat tarmoqlari majmuasidir. Xo'jalikning barcha tarmoqlarida mehnat unumdorligi va ilmiy texnika tarraqiyotini mashinasozlikning rivojlanish darajasi ko'p darajada belgilab beradi.

Mashinasozlik sanoatining joylashishiga ta'sir etuvchi omillar.

Mashinasozlik sanoatining boshqa tarmoqlaridan o'zining qator xususiyatlari bilan farq qilib, ular o'z navbatida, uning joylashishiga ta'sir ko'rsatadi.

Birinchidan, FTI davrida mashinasozlik ilmiy ishlanmalarni keng joriy etilmasdan rivojlantirilishini tasavvur etish qiyin. Shu sababdan, mashinasozlikning fantalab tarmoqlari yuqori darajada rivojlangan ilmiy bazalarga tobora ko'proq yaqinlashtirilmoqda.

Ikkinchidan, mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqarish ko'p ish vaqtini va qo'l mehnatini talab qiladi. Shu sababli mashinasozlik sanoatining uskunasoqlik, radioelektronika, aniq mashinalar ishlab chiqarish tarmoqlari arzon ishchi kuchi bo'lgan joylarda joylashtiriladi.

Uchinchidan, tarmoq ko'p metall sarflaydi. Shu sababli uning og'ir mashinasozlik sanoat tarmog'i qora va rangli metallurgiya sanoati markazlariga yaqinroq joylashtiriladi.

To'rtinchidan, mashinasozlikda ixtisoslashish va kooperatsiyaning roli g'oyat katta, shu sababli mashinasozlik sanoat korxonalarini joylashtirishda transportning roli katta hisoblanadi.

Beshinchidan, mashinasozlik sanoatining ayrim tarmoqlari iste'molchilarga yaqin joylashtirishni (qishloq xo'jalik mashinalar, tog'-kon sanoati mashinalari) taqozo etadi.

Jahon mashinasozligining ikkinchi markazi G'arbiy Yevropa bo'lib, ishlab chiqarish hajmi bo'yicha deyarli Shimoliy Amerikaga tenglashadi. Bu mintaqaning

yetakchi mamlakatlari GFR, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Ispaniya bo'lib ular ko'proq stanoksozlikka va avtomobilsozlikka ixtisoslashgan.

Uchinchi, mashinasozlik mintaqasi Sharqiy va Janubiy Osiyo mamlakatlari, uning dunyodagi xissasi 1/5 ga teng. Mintaqaning asosiy mamlakati Yaponiya mashinasozlikning rivojlanish sur'atlari bo'yicha AQSh va G'arbiy Yevropadan o'zib ketdi. Shuningdek, region tarkibiga Koreya Respublikasi, Singapur, Xitoy kiradi. Mintaqa asosan eng yuqori texnologiyaga asoslangan ommaviy mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqaradi.

To'rtinchi mintaqqa – MDH mamlakatlari. Bu mintaqqa har xil mashinasozlik rivojlangan biroq fantalab mashinasozlik tarmoqlarining rivojlanishi bo'yicha ushbu mintaqqa boshqa mintaqalarga nisbatan ancha orqada qolgan.

Jahon kimyo sanoati quyidagi tarmoqlardan tashkil topgan: tog' – kimyo (mineral xom ashyo qazib olish), asosiy kimyo (tuz, kislota, mineral o'g'itlar tayyorlash), organik sintez kimyo (uglevodorod xom ashyosi, yarim – fabrikatlar ishlab chiqarish), polimerlar ashyosi (plastmassa, kauchuk, turli tolalar olish), polimer materiallarini qayta ishlash.

Jahon kimyo sanoatining quyidagi 4 ta asosiy mintaqasi shakllangan. Ulardan eng yirigi - G'arbiy Yevropa kimyo sanoati mintaqasi bo'lib, jahon kimyo sanoati umumiy mahsuJanubiyning 2/5 qismini ishlab chiqaradi. Ushbu mintaqada birinchi jahon urushigacha asosiy kimyo sanoati Germaniyada edi. Urushdan keyingi yillarda chetdan keltirilgan xom ashyoga asoslanib, neft – kimyo sanoati tez rivojlandi. Oqibatda neft – kimyo va neftni qayta ishlash sanoatlari dengiz portlariga (Rotterdam, Marsel va b) yoki magistral neft quvurlari yaqiniga ko'chdi.

Jahon o'rmon sanoati yog'ochni tayyorlaydigan, yog'ochni qayta ishlaydigan, sellyuloza – qog'oz, o'rmon – kimyo korxonalarini birlashtiriladi va yog'och, taxta, yog'och buyumlari, qog'oz va o'rmon – kimyo mahsulotlarini ishlab chiqaradi.

Yengil sanoatning joylashishiga eng avvalo xomashyo omili ta'sir ko'rsatadi.

Hozirga paytda dunyoda to'qimachilik sanoatining beshta mintaqasi shakllangan. Bular, Sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo, MDH, Horijiy Yevropa, AQSh.

Ularning har birida ip gazlama va kimyoviy toladan tayyorlangan gazlama ishlab chiqarish ustun turadi.

To‘qimachilik sanoati tarkibi. gazlamalar ishlab chiqarish strukturasi ip-gazlama ishlar chiqarish birinchi o‘rinni egallaydi. 1950 yilda jahonda 35 mlrd.m² ip-gazlama ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 1990 yilga kelib u 65 mlrd. m² ga yetgan. Ip-gazlama ishlab chiqarishda rivojlangan mamlakatlar yetakchi o‘rinni egallaydi.

Kimyoviy tola, shoyi va jun gazlamalar ishlab chiqarishda rivojlangan mamlakatlar yetakchi o‘rinni egallaydi.

Topshiriqlar va yechimlar

1. Yengil sanoatda eng yetakchi tarmoqlar hisoblanadi. Tushirib qoldirilgan so‘zni toping.



Javob: charm-poyabzal

2. Jahonda yog‘och ishlab chiqarish bo‘yicha yetakchi davlatni toping. Chalkashlikni aniqlang.

A	A	N	K	A	D
---	---	---	---	---	---

Javob:

K	A	N	A	D	A
---	---	---	---	---	---

3 “Mis mintaqasi” deb nomlanuvchi davlatlarni strelka orqali belgilang.

“MIS MINTAQASI”		Zambiya Kongo Braziliya Chad
-----------------	--	---------------------------------

Javob:


“MIS MINTAQASI”		Zambiya Kongo Braziliya Chad
-----------------	--	---------------------------------------

4. Quyidagi shartli belgilar qaysi metall turiga tegishli ekanligini aniqlang.




5. Temir rudasini jahon bozoriga chiqarish bo'yicha yetakchi mamlakatlarni quyidagi berilgan chizmada strelka asosida aniqlang. 1) Fransiya; 2). Braziliya; 3). Avstraliya; 4). JAR; 5). O'zbekiston; 6). Buyuk Britaniya; 7). Hindiston.

Javob:




6. Hozirgi vaqtda jahon kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish davlatlar va hududlar o'rtasida qanday ta'minlanganligini diagramma yordamida aniqlang.

Yevropa, AQSh, Yaponiya, Fors ko'rfazi, boshqa mamlakatlar.



Javob: Yevropa- 24%, AQSh-20%, Yaponiya-15%, Fors ko`rfazi-7%, boshqa mamlakatlar-34%

7.Jahonda qora metallurgiya sanoati bo`yicha eng ilg`or mamlakatlar ketma-ketligini aniqlang. 1) Rossiya; 2) Avstraliya; 3) Hindiston; 4) Braziliya; 5) Xitoy; 6) AQSh; 7) Yaponiya

Javob: 

8.Jahonda charm-poyabzal va teriga ishlov berishga ixtisoslashgan davlatlarni toping.

t\r	Mamlakatlar	Javoblar
1	Kanada	Ha
2	Xitoy	Yo`q
3	Yaponiya	Yo`q
4	Hindiston	Ha
5	Rossiya	Yo`q
6	Ispaniya	Ha
7	Koreya	Ha
8	Avstraliya	Yo`q
9	AQSh	Ha
10	Italiya	Yo`q

Javob: 1-yo`q, 2-ha, 3-yo`q, 4-ha, 5-yo`q, 6-ha, 7-yo`q, 8-yo`q, 9-ha, 10-ha

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида»ги. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлар тўплами. 2017 йил 6 сон 70 модда.
2. Abirqulov Q. Iqtisodiy geografiya. –Т., 2004.
3. Экономическая и социальная география стран ближнего зарубежья. Под ред. М. Ратанова. –М., 2004.
4. Родионва И.А Экономическая и социальная география мира. Т.1.2: Учебник для бакалавров. изд. исправ. и доп. М. Издательств. Юрайт. 2015.
5. Липец Ю. Г. Пуляркин В. А., Шлихтер С. Б. География мирового хозяйства. - М., 1999
6. Н.С. Мироненко. Введение в географию мирового хозяйства. М, 1995г.
7. Социально – экономическая география зарубежного мира. (Под ред В.В. Волского). М. Крон – Пресс, 1998г.
8. Boltayev M.J. Chet mamlakatlar iqtisodiy geografiyasi .Ma’ruza matni. 2000 yil.
9. Страны мира. -М.: Мысль, 1996.
10. Kulke E. Wirtschafts - geographie. -Munxen – Zurich: «Ferdinand Schoningh», 2004.

8-§. Jahon qishloq xo‘jaligi

Qishloq xo‘jaligining moddiy ishlab chiqarishning asosiy va eng qadimgi tarmoqlardan biri bo‘lib, aholiga oziq-ovqat mahsulotlarini aksariyat qismini yetkazib beradi. Qishloq xo‘jaligi asosan ikki yirik tarmoqqa – dehqonchilik va chorvachilikdan iborat.

Qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligiga iqlim sharoiti yetarli ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. Yer sharining ayrim qismlarida noqulay qish, sovuq urushlar, ob-havoning keskin o‘zgarishi, qurg‘oqchilik, do‘l, sel, kuchli shamollar va boshqalar dehqonchilik ekinlari hosildorligiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi.

Janubiy Amerika, Tropik Afrika mamlakatlarda bo'sh yer resurslaridan oqilona foydalanish uchun ko'p kapital mablag' talab qilinadi.

Jahon yer fondining umumiy maydoni – 134 mln.km² (13,4 mlrd.ga) bo'lib, uning asosiy qismi Afrika, MDH, Xorijiy Osiyo, Shimoliy va Janubiy Amerikada joylangan.

Jon boshiga yer fondi eng ko'p Avstraliyaga to'g'ri kelsa, eng kam Xorijiy Osiyoga to'g'ri keladi.

Ishlov beriladigan yerlar maydoni bo'yicha AQSh (190 mln.ga), Hindiston (100 mln.ga), Rossiya (134 mln.ga), Xitoy (95 mln.ga), Kanada (46 mln.ga), Qozog'iston (36 mln.ga), Ukraina (34 mln.ga) ajralib turadi. Yevropadan tashqari, jahonning barcha mintaqalarida tabiiy o'tloq va yaylovlar ishlab berilgan yerlarga nisbatan ko'proq. Jahon yer fondining asosiy muammolaridan biri tuproq hosildorligining kamayishi, tuproq eroziyasi, uning ifloslanishi, tabiiy o'simliklar biologik hosildorligining yo'qolishi, sug'oriladigan maydonlarining sho'rlanishi, botqoqlanishi, yerlarning turar joy, sanoat korxonalarini va transport tizimlari qurilishiga berilishi va hokazolar hisoblanadi.

O'simlikshunoslik – qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i bo'lib, u o'z ichiga – dehqonchilik–don, texnika ekinlari, poliz mahsulotlari yetishtirish va boshqa tarmoqlarni oladi.

Don ekinlari. Hozirgi vaqtda don ekinlarini uch ko'rsatkich bo'yicha tahlil qilinadi, ya'ni -ekish maydoni, yalpi hosil va xalqaro savdosi.

Jahon bo'yicha 720 mln.gektar yerga donli ekinlar ekilmoqda. Ular jami ekin maydonining Buyuk Britaniya, Fransiya va Italiyada 50-60% ini, Rossiya, Polsha, Vengriya, Ruminiya va Yaponiyada 60-65% ini, GFR da-70%, V'etnam va Mongoliyada 80% egallagan.

Jahonda jami ekin maydonining asosiy qismini 3ta ekin, ya'ni bug'doy (23 mln.ga), sholi (140 mln.ga), makkajo`xori (180 mln.ga) egallaydi.

Sholichilik – Sharqiy, Janubiy-Sharqiy va Janubiy Osiyoda keng tarqalgan. Sholizorlar juda ko'p bo'lgan Hindiston, Xitoy, Indoneziyada ikkinchi hosil quruq mavsumda sun'iy sug'orish usulini qo'llab olinadi. Makkajo`xori ham deyarli bug'doy

eqiladigan hududlarda eqiladi. Eng ko‘p don yetishtiruvchi mamlakatlarga Xitoy, AQSh, Hindiston va Rossiya misol bo‘ladi.

Don yetishtirishda salmikli o‘rinni egallovchi mamlakatlarga – Fransiya, Kanada, Ukraina, Gollandiya va Braziliya kiradi.

Jahonda donli ekinlarning 55% aholi uchun oziq-ovqat, 45% esa chorva mollari uchun yem sifatida ishlatiladi. Jahon bo‘yicha har yili tahminan 200 mln.t.dan, shu jumladan 90-100 mln.t. bug‘doy va 60-70 mln.t. makkajo‘xori eksportga chiqariladi.

Sholi 10-15 mln.t. chetga chiqariladi. Sholini eksport qiluvchi mamlakatlarga Tayland, AQSh kiradi.

Donni import qiluvchi mamlakatlarning yarmi rivojlanayotgan mamlakatlarga to‘g‘ri keladi. Jumladan Misr 10 mln.t., Braziliya 5 mln.t. don sotib oladi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida Yaponiya har yili 30 mln.t. don import qiladi.

Yiliga jahon bo‘yicha moyli urug‘lar ishlab chiqarish 220 mln.t.ga yetdi. Shuningdek soya – 100 mln.t., paxta chigiti 35 mln.t., raps – 25 mln.t. kungaboqar – 20 mln.t. yer yong‘oq – 20 mln.ga teng.

Moyli ekinlardan soyaning vatani Sharqiy Osiyoda Xitoy va Koreya bo‘ladi, hozirgi kunda u AQSh (55 mln.t.), Braziliya (20 mln.t.) va Argentinada (10 mln.t.) yetishtiriladi. Kungaboqarning vatani Shimoliy Amerikaning Janubiy qismi bo‘lib, Yevropaga XVI asrda olib kelindi. Kungaboqar asosan – Rossiya, Ukraina, Janubiy Yevropa, AQSh, Argentinada eqiladi.

Chigit asosida yog‘ ishlab chiqarish Hindiston, Pokiston, Xitoy, AQSh va O‘zbekistonda rivojlangan. Raps – Yevropa, Xitoy, Kanadada ko‘p tarqalgan. Yer yong‘oqning vatani Braziliya hisoblanadi. U XV asrda Yevropaga keltirilgan. Hozirgi vaqtda yer yong‘oq tropik va subtropik mamlakatlarda (Janubiy va Sharqiy Osiyoda, G‘arbiy-Afrikada, AQSh, Braziliya, Argentinada) katta maydonlarni egallaydi.

Zig‘ir asosan mo‘tadil mamlakatlarda ko‘p eqiladi. Zaytun daraxti – O‘rta Yer dengizi atrofida, palma esa G‘arbiy Afrikada va Malayziyada ko‘p tarqalgan. Korpu (kokos yong‘og‘ining quritilgani) – Janubiy, Janubiy Sharqiy Osiyo va Okeaniyada yetishtiriladi.

Kartoshka – oziq-ovqat va texnik jihatda qayta ishlanib turli maqsadlarda foydalaniladi. Uning vatani – Janubiy Amerika (Peru, Ekvador, Boliviya) 1536 yilda olib kelingan. Hozirgi vaqtda kartoshka dunyoda 18 mln.gektar yerga eqiladi.

Kartoshka Yevropadan tashqari Xitoy va Shimoliy Amerikada ko‘p eqiladi. Jon boshiga kartoshka yetishtirishda Belorusiya va Polsha yetakchi davlatlar hisoblanadi.

Kofening vatani Efiopiya hisoblanadi. XI asrda kofe Yamanga va undan keyin Yevropaga keltirildi. O‘rta asrlarga kelib kofe Italiya, Fransiya, Angliya, Niderlandiyada iste‘mol qilina boshlandi. Kofe hozirgi kunda Gvineya va Braziliyada ko‘p eqiladi.

Texnik ekinlariga – paxta, tabiiy kauchuk hamda tamaki kiradi. Jahonda paxta maydonlari 35 mln.ga.ni tashkil qiladi. Ularning asosiy qismi Shimoliy yarim sharda 20^o va 40^o sh.k. oralig‘ida joylashgan. Har yili jahon bo‘yicha 18 mln.t. paxta tolasi olinadi. Paxta yetishtiriladigan hududlarni quyidagi mintaqalarga ajratish mumkin: Sharqiy, Janubiy-Sharqiy va Janubiy Osiyo mintaqasi. Ushbu mintaqada Xitoy, Hindiston, Pokiston va Tayland asosiy paxta yetishtiriladigan davlatlar hisoblanadi MDH doirasida O‘rta Osiyo va Kavkazorti mamlakatlari. Bu yerda O‘zbekiston asosiy paxta yetishtiruvchi mamlakat hisoblanadi.

Jahonda asosiy tabiiy kauchuk yetishtiruvchi mamlakatlarga – Malaziya, Indoneziya, Tayland, Hindiston, Shri-Lanka, Filippin, G‘.Gvineya, Liberiya kiradi, Tamaki yetishtirishda Xitoy, AQSh, Hindiston, Braziliya, MDH mamlakatlari yetakchilik qiladi. Bundan tashqari tamaki Italiya, Gretsiya, Bolgariya, Turkiya, Indoneziya, Yaponiya va Kubada ham oz miqdorda yetishtiriladi.

Sigareta ishlab chiqarishda AQSh birinchi (700 mldr. dona), MDH davlatlari ikkinchi o‘rinda turadi.

Yevropadagi tamaki sanoati Xitoy, Hindiston, Braziliya va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlardan keltiriladigan xom ashyo hisobiga faoliyat ko‘rsatadi.

Sut yo‘nalishidagi yirik shoxli qoramolchilik ko‘pincha aholi zich joylashgan Yevropa, Shimoliy Amerika mintaqalari uchun xosdir.

Go‘sht-sut yo‘nalishidagi qoramolchilik – intensiv qishloq xo‘jaligiga ega bo‘lgan mo‘tadil mintaqalarida tarqalgan.

Go'sht chorvachiligi Argentina, Avstraliyaning katta qismi va AQShda yaxshi rivojlangan.

Qo'ychilik keng yaylov maydonlariga ega bo'lgan mintaqalar uchun xos. Mayin junli qo'ychilik dasht va gala-cho'l yaylovlarida boqiladi: Quruq iqlim sharoitida cho'l yaylovlarida dag'al junli qo'ychilik rivojlangan.

Aholisi zich joylashgan va qoramol yuqori darajada zich bo'lgan (100ga qishloq xo'jalik maydoniga 100-200 bosh qoramol) rayonlar. Ushbu rayonda qoramolchilik yuqori mahsuldorlikka ega bo'lib, intensiv sut chorvachiligiga, cho'chqachilik, parrandachilikka ixtisoslashgan. Ushbu rayonga Yevropada - Daniya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Shimoliy Amerikada - AQShning Shimoli - Sharqini qamrab oladi. Ushbu mamlakatlarda chorvachilik yalpi qishloq xo'jalik mahsuli Janubiyning 60-80% ini yetkazib beradi.

Go'sht ishlab chiqarish tizimida mol va buzoq go'shti yetishtirish salmog'i 32%, cho'chqa go'shti yetishtirish - 39%, parranda go'shti - 20%, ot va qo'y go'shti salmog'i 9% ga to'g'ri keladi.

Baliq oziq-ovqatning eng muhim elementi hisoblandi. Shu sababli jahonda ovlanadigan baliqning 75-80 foizi odamlar ovqatlanishi uchun sarflanadi, 20-25 foizi esa qayta ishlanib, baliq uni qo'shimcha ozuqaga, baliq moyiga aylantiriladi va chorva ozuqachi yoki farmatsevtika sanoatida ishlatiladi. Har yilda ovlanadigan baliq 100 mln.t.ga yetadi. Dunyoda aholi jon boshiga 17-18 kg baliq to'g'ri keladi. Yaponiyada bu ko'rsatgich 60-70 kg, Rossiya va AQSHda 17-18 kg, Nepalda 0,2 kg.

Baliq ovlashda XX asrning 50 yillarida birinchi o'rinni Yaponiya, AQSH, sobiq SSSR, Xitoy, Norvegiya, Buyuk Britaniya, Hindiston, Kanada, GFR kirgan bo'lsa, hozirgi vaqtda uning tarkibiga - Chili, Peru, Koreya Respublikasi, Tayland qo'shildi. Birinchi o'rindan Buyuk Britaniya, Kanada, GFR, Daniya chiqib ketdi. "Birinchi o'nlikdan keyingi o'rinlarda rivojlanayotgan mamlakatlar-Filippin, Meksika, Braziliya turadi. Xitoyda ham baliq ovlash tez rivojlanmoqda. An'anaviy baliq ovlovchi mamlakatlar-Norvengiya, Daniya, Islandiya hozirga qadar Yevropaning ko'p mamlakatlariga baliq va baliq mahsulotlarini yetkazib bermoqda.

Dengiz “Fermalari” – Italiya, Fransiya, Ispaniya, Portugaliya, Niderlandiya, Daniya, Buyuk Britaniya, AQShda bor.

Topshiriqlar va yechimlar

1.Yer sharida “Bug‘doy poytaxti” nomini olgan shaharlarni toping.

P	I	E	V	N	G	I	N
---	---	---	---	---	---	---	---

Javob:

V	I	N	N	E	P	E	G
---	---	---	---	---	---	---	---





2. Jahon qishloq xo‘jaligi bo‘yicha berilgan ma‘lumotlarning to‘g‘risini aniqlang hamda berilgan jadvalga to‘g‘ri javob uchun “ha”, noto‘g‘ri javob uchun “yo‘q” so‘zlari asosida joylashtiring.

- 1). Paxta tolasini eksport qilishda AQSh, Pokiston, O‘zbekiston yetakchilik qiladi;
- 2). Bug‘doyning asl vatani kichik Osiyo va O‘rta dengiz bo‘yi hamda Habashiston yassi tog‘ligi hududlaridir;
- 3). Sholining asl vatani Italiya hisoblanadi;
- 4). Jahonning jami 10 mln aholisi hozirgi vaqtda baliqchilik bilan shug‘ullanadi;
- 5). Qishloq xo‘jaligi rivojlanish darajasiga ko‘ra 2 xil turga bo‘linadi.

Javob:

1	2	3	4	5
ha	ha	yo‘q	yo‘q	ha

3.Jahondagi eng yirik bug‘doy yetishtiruvchi mamlakatlarni belgilang.

	AQSh, Kanada
	Rossiya, Ukraina
	Qozog‘iston, Xitoy
	Meksika, Hindiston O‘zbekiston, Hindiston

asl vatani
aniqlang.
bo'yicha
asosida

4	Pokiston
3	Hindiston
5	O'zbekiston

4. Makkajo'xorining
qaysi davlat ekanligini
Sonlarni alfavit jadvali
harflar ketma-ketligi
toping.

1	Xitoy
2	Hindiston
3	O'zbekiston
4	AQSh
5	Pokiston

6+19+12+12+1+14+12


Javob: Meksika 14+6+12+19+10+12+1

5. Eng ko'p paxta yetishtiradigan davlatlarni aniqlang va ularni tartib bilan jadvalga joylashtiring.

Javob:

2	AQSh
1	Xitoy

6. Dunyo bugʻdoy eksportidagi alohida oʻringa ega davlatlarning ulushini (%) hisobida aniqlang.




1	Kanada
2	AQSh
3	YI
4	Boshqa davlatlar
5	Argentina
6	Avstraliya

Javob:

15,4	Kanada
31,1	AQSh
17,2	YI
13,2	Boshqa davlatlar
7,7	Argentina
15,	Avstraliya

7. Dunyo bugʻdoy eksportida yetakchi davlatlarni tartib bilan joylashtiring.


(% hisobida)



Javob:

- | | |
|------------|----------------------|
| 1). AQSh | 4). Boshqa davlatlar |
| 2). YeI | 5). Argentina |
| 3). Kanada | |

8. Berilgan xaritadan qoramollarning soniga ko'ra yetakchi davlatlarni ketma-ketligini belgilang.



Javob: 1) Hindiston; 2) AQSh; 3) Braziliya ; 4) Xitoy; 5) Argentina

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида»ги. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлар тўплами. 2017 йил 6 сон 70 модда.
2. Abirqulov Q. Iqtisodiy geografiya. –Т., 2004.
3. Экономическая и социальная география стран ближнего зарубежья. Под ред. М. Ратанова. –М., 2004.
4. Родионва И.А Экономическая и социальная география мира. Т.1.2: Учебник для бакалавров. изд. исправ. и доп. М. Издательств. Юрайт. 2015.
5. Липец Ю. Г. Пуляркин В. А., Шлихтер С. Б. География мирового хозяйства. - М., 1999
6. Н.С. Мироненко. Введение в географию мирового хозяйства. М, 1995г.
7. Социально – экономическая география зарубежного мира. (Под ред В.В. Волского). М. Крон – Пресс, 1998г.

- 8..Boltayev M.J.Chet mamlakatlar iqtisodiy geografiyasi .Ma'ruza matni.2000 yil.
- 9.Страны мира.-М.:Мысль,1996.
- 10.Kulke E. Wirtschafts - geographie. -Munxen – Zurich: «Ferdinand Schoningh», 2004.

9- .§ Jahon transporti

Transport jahon xo'jaligida uchiinchi muhim tarmog'i.Tez rivojlanib borayotgan jahon transporti murakkab o'ziga xos tarmoqlar tizimini tashkil qiladi.Ular quruqlik , suv, hamda havo transporti tarmoqlariga bo'linadi.

Transport mamlakatlararo iqtisodiy, madaniy aloqalarning yuksalishida muhim rol o'ynaydi. Barcha transport turlari xizmat ko'rsatish jarayonining o'zaro aloqadorligi asosida transport majmuasini tashkil etadi.

Quruqlik transporti.Jahon transporti quruqlik, suv va havo transportiga bo'linadi. Quruqlik transporti – temir yo'l, avtomobil quvur transportiga bo'linadi.

Temir yo'l transporti. Yuk va yo'lovchilarni parovoz, teplovoz va elektrovozlar bilan temir yo'lda tashuvchi transport turi. Birinchi temir yo'l Buyuk Britaniyada 1825 yilda qurilgan. Rossiyada Peterburg-Pavlovsk yo'nalishida temir yo'l 1837-1839 yillarda qurib ishga tushirilgan. O'zbekistonda temir yo'l qurilishi 1890 yilda boshlandi. 1899 yilda Samarqand-Andijon, 1906 yilda Orenburg-Toshkent temir yo'li qurib bitkazildi.

Hozirgi vaqtda jahon temir yo'llarining umumiy uzunligi 1,2 mln.km ni tashkil qiladi.Ammo temiryollar jahon mamlakatlarining atigi 140 tasida bo'lib, yo'llar umumiy uzunligining yarmi AQSh, Kanada, Rossiya, Hindiston, Xitoy, Germaniya, Argentina Fransiya, Braziliyadan iborat "Birinchi o'nlik mamlakatlari" hissasiga to'g'ri keladi. Bundan tashqari temiryol transportining rivojlanganlik darajasini ularning texnik (havo yostig'i, magnit elektrodinamika) vositalaridan foydalana olish imkoniyatlari ham belgilaydi. G'arbiy Yevropa, Yaponiya, AQShda temiryollar fan texnika inqilobining so'ngi yutuqlari asosida qurilgan. Poyezdlar soatiga 280 300 km tezlikkacha harakat qilmoqda. Ayrim Afrika mamlakatlarida esa haligacha paravozlar xizmatidan foydalanib kelinadi.

Temir yo'llarning zichligi bo'yicha G'arbiy Yevropa davlatlari va AQSh yetakchilik qiladi. Temir yo'llarning zichligi deganda 100 km² maydonga to'g'ri keluvchi temir yo'l uzunligi tushuniladi. Bu ko'rsatgich G'arbiy Yevropada 10 km.ni tashkil qiladi. Rivojlangan davlatlarda temir yo'llarning asosiy qismi elektrlashtirilgan.

Xalq xo'jaligida avtomobil transporti eng samarali tadrijiy (dinamik) o'sayotgan tarmoqdir. XX asrning boshidan paydo bo'lgan bu transport hozirgi paytda jahonning barcha mamlakatlarida eng ommaviy harakat vositasi bo'lib qoldi. Uning muhim jihati yuklarni manzilning o'ziga - "eshikdan eshikka"cha yetkazib berishidir.

Avtomobil yo'llari uzunligi hozir 24,5 mln km ni tashkil qiladi. Uning 1/4 qismidan ko'prog'i AQSh da yana shuncha yo'l Hindiston, Yaponiya, Xitoy va Rossiya xissasiga to'g'ri keladi. Jahonda 600 mln. dan ziyod turli avtomobillar bo'lib, ularning 4/5 qismi G'arbning rivojlangan mamlakatlaridadir. Birgina AQShda dunyo avtomobillarining 30 foizidan ko'pi harakat qilmoqda.

Avtomobil transporti yuk aylanmasining deyarli yarmi sanoat korxonalarini va qurilish tashkilotlari hissasiga to'g'ri keladi. Avtomobil transportining yuk aylanmasi bo'yicha AQSh birinchi, Rossiya ikkinchi o'rinda turadi. Avtomobil transporti eng avvalo sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalarini magistral transport yo'llari bilan bog'laydi. Shahar va shahar atrofidagi yuklarning asosiy qismini tashiydi, qisqa (100 km.) va uzoq masofalarga yuk tashishda qulay, yuklarni bevosita iste'molchiga yetkazib bera oladi.

Suv transporti dengiz va daryo transport tarmoqlarini o'zida birlashtiradi. Dengiz transporti-jahon transport tizimining juda muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu tarmoq avvalo bir- biridan alohida va uzoqda joylashgan materik va qit'alarni bog'lab turuvchi, xalqaro mehnat taqsimotini amalga oshiruvchi vosita sifatida hamda asosiy yuklarni uzoq masofalarga tashiydigan boshqa transport tarmoqlarga nisbatan xizmat tannarxi eng arzonga tushishi bilan ahamiyatli. Har yili barcha xalqaro yuklarning o'rtacha 4/5 qismi dengiz transportida tashilmoqda. Jahon dengiz transporti rivojlanishi va geografiyasida dengiz bo'g'izlari va xalqaro kanallarining ham ahamiyati katta. Aynan ular jahon dengiz yo'llarining eng serqatnov chorraxalari hisoblanadi.

Dengiz bo'g'izlari orasida eng yirigi La-Mansh bo'g'izidir. U orqali bir kecha kunduzda 500 gacha kema o'tadi. Keyingi o'rinlarda Eresunn-175 ta, Gibraltar-200 ta, Xormuz-100, Malakka-80 ta, Bosfor- 40 tagacha kema o'tkazadi.

Dengiz transporti yuk aylanmasida Yaponiya jahonda birinchi o'rinda turadi. Keyingi o'rinlarni G'arbiy Yevropa, Xitoy, Rossiya egallaydi.

Hozirgi dengiz kemachiligida yuk tashishni tashkil etishning tramp (inglizcha tramp – daydi) va muntazam (liniyali) shakllari mavjud.

Tinch okeani dengiz yuklarini tashish bo'yicha ikkinchi o'rinni egallaydi. Tinch okeanining yuk tashish imkoniyatlari juda katta va uning qirg'oqlarida 2,5 mlrd.dan ortiq aholi yashaydigan 50 mamlakat joylashgan. Bu yerda dunyoning eng yirik portlari va ko'plab ommaviy, so'ngi yillarda esa asosiy yuklar oqimlari shakllanmoqda.

Hind okeani dengiz yuklarini tashish hajmi bo'yicha uchinchi o'rinni egallaydi. Uning qirg'oqlariga aholisi 1 mlrd.dan ko'p bo'lgan 30 mamlakat chiqadi. Bu okeanda qudratli yuk oqimlari Fors qo'ltig'ida shakllangan.

Ros-Tinnura (Saudiya Arabistoni), Min-El-Axmadi (Quvayt), Xark (Eron) bo'lib, eng yirik supertankerlarni qabul qiladi. Eng yirik neft eksporti portlari qatoriga Nigeriyadagi Bonni, Meksikadagi Tampeko, Liviyadagi Es-Sider, Indoneziyadagi Dumay, Alyaskadagi (AQSh) – Valdiz kiradi.

So'ngi yillarda ruda tashuvchi kemalarni qabul qila oladigan Braziliyaning Tubarni porti dunyoning eng yirik portiga aylandi.

Daryo va ko'l transport tarmoqlari bajaradigan ish xajmiga ko'ra ancha kichik tarmoqlardandir. Ichki suv yo'llari transporti kemalar qatnaydigan daryolar, kanallar va ichki suv havzalaridan foydalaniladi va ushbu ob'ektlarning tabiiy hususiyatlariga ko'p darajada bog'liq. Daryo va ko'l transporti yo'llari uzunligiga ko'ra jahonda Rossiya, Xitoy, AQSh, Braziliya davlatlari oldinda turadi. Bu transport tarmog'idan foydalanishda jahonning yirik daryolarning o'rni katta. Ular Amazonka, Missisipi, Dunay, Volga, Yantsizi, Kongo va boshqalar.

Jahon dengiz transporti geografiyasiga xalqaro dengiz kanallari va dengiz bo'g'ozlari katta ta'sir ko'rsatadi. Dunyoning eng yirik kemalari qatnaydigan dengiz

kanallari – Suvaysh, Panama, Kil (GFR), Buyuk (Xitoy), Qirg‘oq (AQSh), Oq dengiz-Baltika va Volga-Don (Rossiya) hisoblanadi.

FTI sharoitida dunyo transportiga, konteynerlashtirish va u bilan bog‘liq bo‘lgan “konteyner inqilobi” katta ta’sir ko‘rsatdi. Ulardan foydalanish yuk tashishning eski usullariga nisbatan mehnat unumdorligini bir necha marta oshirishga, yuklarni yaxshi saqlashga imkon beradi.

Jahon xalqaro daryolar yoki xalqaro daryo havzalari soni 2140 ta bo‘lib, shular jumlasiga Reyn, Amazonka, Zambezi daryolari havzalarida 7 mamlakat, Dunay havzasida esa 12 mamlakat joylashgan. Yevropada Reyn, Dunay, Oder, Elba eng yirik daryo arteriyalari hisoblanadi. AQShda asosiy daryo transporti yuklari – Meksika – Buyuk ko‘llar tizimida tashiladi.

Havo transporti barcha transport turlari orasida alohida xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Boshqa transport turlaridan uni ustunligi yuk va yo‘lovchilarni uzoq masofalarga juda qisqa vaqt davomida yetkazib qo‘yishidir. Shu sababli tamoqning ahamiyati doimo oshib bormoqda. Jahon bo‘yicha yo‘lovchilar tashish hajmi so‘ngi 50 yil ichida 65 baravarga vaqin o‘sd.

Havo transportida tashilayotgan yuk va yo‘lovchilarning 45 foizi ichki va 55 foizi xalqaro aloqalar hissasiga to‘g‘ri keladi. Xalqaro aloqalar so‘ngi davrlarda ayniqsa, Yevropa bilan Shimoliy Amerika davlatlari o‘rtasida faol kechmoqda. Hisob-kitoblarga ko‘ra, Atlantika okeani ustida bir vaqtning o‘zida yuzdan ortiq havo laynerlari har ikki tomonga qarab harakatda bo‘ladi

Muntazam avialiniyalar tarmog‘i 8 mln.km bo‘lib, u yer sharining barcha qismini qamrab olgan, yiliga 1,2 mlrd. yo‘lovchini tashiydi.

Dunyodagi eng yirik 34 aeroportning yarmiga yaqini AQShda, 8 tasi Yevropada, qolganlari Yaponiya, Kanada, Singapur, Gonkongda joylashgan.

Jahon avialiniyalarining asosiy yo‘nalishlari Yevropa va Shimoliy Amerika va Janubiy, Janubiy Sharqiy Osiyo va Avstraliya o‘rtasida, Yevropa va Afrika, AQSh va Sharqiy, Janubiy-Sharqiy Osiyo, AQSh va Janubiy Amerika, AQSh va Avstraliya o‘rtasida amalga oshiriladi. Yevropa va Shimoliy Amerika o‘rtasida har yili 30-35 mln. yo‘lovchi tashiladi.

Keyingi yillarda birinchi keng flyuzelyajli 300-400 yo‘lovchi va 15-20 t. yuk tashiydigan samoletlar – “Boing-177” (AQSH), “Aerobus” (Fransiya-GFR-Buyuk Britaniya), IL-86 (Rossiya) ishlab chiqarildi.

Shunday qilib transport – iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, u hududiy mehnat taqsimoti va moddiy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi.

Topshiriqlar va yechimlar

1. Jahon transport turlarini uzunliklari bilan moslang.

t/r	Jahon transporti turlari	mln km	o‘rni
1	Hozirgi vaqtda jahon temir yo‘lining umumiy uzunligi mln km ni tashkil qiladi?	24,5	1
2	Jahon neft va gaz quvo`rining umumiy uzunligi mln km dan iborat	1,5	2
3	Avtomobil transportining yo‘llari uzunligi hozirgi kunda mln km ni tashkil etadi	1,2	3

Javob:

t/r	Jahon transporti turlari	mln km	o‘rni
1	Hozirgi vaqtda jahon temir yo‘llarining umumiy uzunligi mln km ni tashkil qiladi	24,5	3
2	Jahon neft va gaz quvo`rining umumiy uzunligi mln km dan iborat	1,5	2
3	Avtomobil transportining yo‘llari uzunligi hozir mln km ni tashkil etadi	1,2	1

2. Jahon dengiz bo‘g‘ozlari orasida bir kecha–kunduzda o‘tadigan kemalar sonini aniqlang va jadvalga joylashtiring. O‘rnini aniqlang


- | | |
|----------------|-------------|
| 1). La – mansh | 4). Eresunn |
| 2). Gibraltar | 5). Xarmuz |
| 3). Malakka | 6). Bosfor |

80	200	500	175	100	40

Javob:

80	200	500	175	100	40
3	2	4	1	5	6

3. Berilgan xaritadan avtomobil yo‘llari uzunligi tobora ortib borayotgan beshta davlatni tartib bilan aniqlang. Chalkashlikni toping.



Javob: 1). AQSh, 2). Hindiston, 3). Yaponiya, 4). Rossiya, 5). Xitoy.

4. Jahon transport geografiyasi bo‘yicha ma’lumotlarning to‘g‘risini aniqlang.

- A) Atmosferani ko‘proq avtomobil transport turi ifloslaydi;
- B) Vatikan davlatida aeroport yo‘q;
- D) XIX asrda ta’sis etilgan “Atlantika moviy lenta” sovriniga ega bo‘lgan layner nomi Yunays Steyte hisoblanadi;
- G) Dunyodagi butun transport yo‘llarini umumiy uzunligi 30 mln kmni tashkil qiladi;

E) Dengiz transporti rivojlanishi bo'yicha Atlantika okeani Dunyo okeanlari ichida birinchi o'rinda turadi.

Javob: A, B, D, G,E,

5. Daryo va ko'l transporti yo'llari uzunligiga ko'ra jahonning Rossiya, Xitoy, AQSh, Braziliya davlatlarini alfavit jadvali bo'yicha toping.

1). $18+16+19+19+11+1$;

2). $23+10+20+16+11$; 3). $1+12+19$; 4). $3+18+1+19+4+11+1$

Javob:

1). $18+16+19+19+11+1$ - Rossiya


2). $23+10+20+16+11$ -Xitoy

3). $1+12+19$ -AQSh

4). $3+18+1+19+4+11+1$ - Braziliya

6. Jahonda temir yo'llarining umumiy uzunligi 1,2 mln km tashkil etadi. Temir yo'llar uzunligi bo'yicha yetakchi davlatlarni aniqlang va ularning tartib raqamini quyida berilgan chizmaga joylashtiring.

1. AQSh;	5. JAR;
2. Rossiya;	6. Avstriya;
3. Xitoy;	7. Yaponiya;
4. Buyuk Britaniya;	8. Vatikan




Javob:

7. Dengiz transportida yuk tashish ishlari dengiz savdo floti tomonidan amalga oshiriladi. Dengiz savdo flotida yuk tashish ko`ra davlatlarni tartib bilan joylashtiring.


1). Panama; 2). Gretsiya; 3). Liberiya;

4). Marshall orollari; 5). Xitoy.

Javob:



8. Quyida ko`rsatilgan davlatlar neft quvurlarining uzunligi bo`yicha yuqori ko`rsatkichga ega. Ularni toping.



Javob: 1,3,5

Asosiy adabiyotlar

1. Алиев М.Г., Ишанходжаева Д.А., Хачиев Г.А. Экономика и финансы регионов мира в цифрах сравнения. -Т., 1998.

2. Abirqulov Q. Iqtisodiy geografiya. –Т., 2004.

3. Экономическая и социальная география стран ближнего зарубежья. Под ред. М.Ратанова. –М., 2004.

4. Родионва И.А Экономическая и социальная география мира. Т.1.2: Учебник для бакалавров. изд. исправ. и доп. М. Издательств. Юрайт. 2015.

5. Липец Ю. Г. Пуляркин В. А., Шлихтер С. Б. География мирового хозяйства. - М., 1999

- 6..Мироненко Н.С. Введение в географию мирового хозяйства. М, 1995г.
- 7.Социально – экономическая география зарубежного мира. (Под ред В.В.Волского). М. Крон – Пресс, 1998г.
- 8..Boltayev M.J.Chet mamlakatlar iqtisodiy geografiyasi .Ma’ruza matni.2000 yil.
- 9.Страны мира.-М.:Мысль,1996.
- 10.Kulke E. Wirtschafts - geographie. -Munxen – Zurich: «Ferdinand Schoningh», 2004.

10- §. Xalqaro iqtisodiy integratsiya va globallashuv jarayonlari

Iqtisodiy integratsiya jarayoni o‘tgan asrning o‘rtalaridan yuqori sur‘atlar bilan rivojlandi.Integratsiya iqtisodiy sohada davlatlar o‘rtasidagi farqni,tafoutni yuqotishga qaratilgan jarayondir. Jahon iqtisodiyotining rivojlanishi mamlakatlarga xalqaro iqtisodiy aloqalarini tarkibiy jihatdan takomillashtirishga, milliy iqtisodiyotni rivojlantirib, mintaqaviy integratsion birlashmalarda uyushgan holda faoliyat olib borish imkoniyatini yaratadi.

Iqtisodiy integratsiya G‘arbiy Yevropada to‘liq rivojlangan va Yevropa g‘oyasi bilan ham sug‘orilgan. Bu rivojlanishning muvaffaqiyati jahonning rivojlanayotgan mamlakatlarida e‘tiborni jalb qiladi va intilishni kuchaytiradi.

Mamlakatlarning geografik joylashgan o‘rni, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va shu kabi boshqa omillar integratsiyaning samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan integratsiyalashayotgan mamlakatlar, avvalo, mintaqaviy integratsiyani ustun takomillashtirib boradilar. Bunga Yevropa Ittifoqi, Shimoliy Amerika erkin savdo hududi (NAFTA), Osiyo–Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH), SHXT va boshqalarni misol qilib ko‘rsatish mumkin.

Mamlakatlarning mintaqa miqyosida integratsiyalashuvi orqali xalqaro integratsiya rivojlanib borishi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratib boriladi. Chunki, mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro savdo mintaqaviy integratsiyaning rivoji uchun asos bo‘lgani singari, mintaqaviy integratsiya ham xalqaro integratsiya rivojlanishi uchun xizmat qiladi

Integratsion jarayonlarning shakllanishi va rivojlanishi nisbatan uzoq davrni qamrab oladi. Bu jarayonlarning amal qilish mexanizmi esa, mantiqiy ketma-ketlikda bosqichma-bochqich shakllanadi.

Integratsion munosabatlarning amal qilishi asosan quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:

- ✓ Tovar va xizmatlar xalqaro savdosi;
- ✓ Ishlab chiqarish sohasidagi xalqaro hamkorlik;
- ✓ Xalqaro ilmiy-texnika hamkorligi;
- ✓ Mintaqaviy integratsion birlashmalarning shakllanishi va rivojlanishi.

Integratsion aloqalarining asosini tovar va xizmatlar savdosi tashkil etadi. Ular mazkur savdo aloqalarini erkinlashtirish, o‘zaro qulay savdo shart-sharoitlarini yaratish, proteksionistik vositalarga barham berish, tarifli savdo tartibini takomillashtirib borish, Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish kabilar orqali integratsion munosabatlarni tartibga solish va rag‘batlantirishga harakat qiladilar.

Integratsiyaning muhim mexanizmlaridan yana biri ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish va takomillashtirishdagi xalqaro hamkorlik hisoblanadi. Ishlab chiqarish sohasidagi xalqaro hamkorlik integratsion aloqalarda o‘zining barqarorligi va doimiyliigi bilan, loyihalarni keng qamrab olishi bilan ajralib turadi. Uzoq muddatli shartnomalar asosida bunday hamkorlikni nafaqat rivojlangan davlatlar o‘rtasida, balki taraqqiyot darajasida tafovut katta bo‘lgan sanoatlashgan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasida ham rivojlantirib borish imkoniyati keng hisoblanadi.

Xalqaro integratsiyada ilmiy-texnika hamkorligining ahamiyati so‘nggi o‘n yillikda ortib bormoqda.

Integratsiya yo‘nalishiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi. Ulardan birinchisi, mintaqaviy, ikkinchisi, xalqaro miqyosdagi integratsiyadir. Integratsiyaning ana shu ko‘rinishlari o‘zaro to‘ldiruvchanlik xususiyatiga ega. Mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi integratsiyadan maqsad iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan mamlakatlar manfaatlarini yanada kengroq ro‘yobga chiqarishdan iboratdir.

Mintaqaviy doirada integratsiyalashayotgan mamlakatlar, avvalo, o‘zaro tashqi savdoni cheklashga qaratilgan kvota kabi to‘siqlarni bartaraf qiladilar. Shundan so‘ng,

yagona bojxona tizimi shakllanadi, mintaqaviy integratsiyaga a'zo mamlakatlar uchun bir xil boj stavkalari joriy etilib, uning to'la amal qilinishiga erishiladi.

Iqtisodiy integratsiyaga ikki asosiy omil: ilmiy texnika taraqqiyoti va transmilliy korporatsiyalar katta ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatlarning xalqaro integratsiya jarayonlarida ishtirok etishi uchun quyidagi asosiy shartlarning mavjud bo'lishi talab etiladi:

- yirik sanoatlashgan ishlab chiqarishning chuqur ixtisoslashuvi oqibatida tashqi aloqalarning rivojlantirish zarurati paydo bo'ladi, ya'ni mashinalashgan ishlab chiqarish tashqi aloqalarsiz rivojlana olmay qoladi;
- turli mamlakatlar iqtisodiy qudratida g'oyat katta tafovutlar bo'lmasdan, ularning iqtisodiy rivojlanish darajasi bir-birini taqozo etadi;
- turli mamlakatlar hududiy umumiylikka ega bo'lib, ularning tarixan rivojlangan hamkorlik aloqalari mavjud bo'ladi.

Mamlakatlarning mintaqa miqyosida integratsiyalashuvi orqali xalqaro integratsiya rivojlanib borishi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratib boriladi. Chunki, mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro savdo mintaqaviy integratsiyaning rivoji uchun asos bo'lgani singari, mintaqaviy hamda xalqaro integratsiya rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

Mintaqaviy doirada integratsiyalashayotgan mamlakatlar, avvalo, o'zaro tashqi savdoni cheklashga qaratilgan kvota kabi to'siqlarni bartaraf qiladilar. Shundan so'ng, yagona bojxona tizimi shakllanadi, mintaqaviy integratsiyaga a'zo mamlakatlar uchun bir xil boj stavkalari joriy etilib, uning to'la amal qilinishiga erishiladi.

Globalashuv jarayonlari inson hayoti va faoliyatining barcha jabha va sohalarini qamrab olmoqda. Hozirgi paytda uning g'oyatda o'tkir keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarda ko'rish, xis etish mumkin. Davlatlar va xalqlar o'rtasida integratsiya va hamkorlik aloqalarini kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, axborot texnologiyalarni, ilm fan yutuqlarini tezlik bilan tarqalishi turli madaniyatlarni umuminsoniy hegizda uyg'unlashuvi sivilizatsiyalararo muloqotining yangicha sifat kasb etishi va bular borasida imkoniyatlarni ortishi – tabiiyki, bularning barchasi globalashuv ta'sirining natijasidir.

Globallashuv jarayoni keyingi 15-20 yilda kapital, texnologiyalar va tovarlar, mehnat bozorlarini keng qatlamli, bir biri bilan o‘zaro aloqador TMKlarga integratsiyalashuvi natijasida yana ham tezlashdi va chuqurlashdi.

Globallashuvning asosiy sohasi bo‘lib, xalqaro iqtisodiy tizim yohud jahon iqtisodiyoti, unda amalga oshirilayotgan ishlab chiqarish, almashish va istemol munosabatlari hisoblanadi. XXI asr boshida jahon iqtisodiyoti o‘zida 230 siyosiy ma’muriy bo‘lakni, shu jumladan, 190 ga yaqin davlatni jamlagan murakkab tarkibga ega bo‘lgan tizimga aylangan. Globallashuv milliy iqtisodiyotlarga, ularning holati va tarkibiga, eksport–import munosabatlariga, investitsiyalash hajmi va tarkibiga juda katta ta’sir ko‘rsatmoqda.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi natijasida xizmatlar, shu jumladan, moliyaviy, huquqiy, boshqaruv, axborot sohalaridagi xizmatlar bilan savdo qilish hajmi keskin o‘smoqda.

Umuman olganda globallashuv turi mamlakatlar iqtisodiy, madaniyati, ma’naviyati, odamlari o‘rtasida o‘zaro ta’sir va bog‘liqlikning kuchhayishidir.

Topshiriqlar va yechimlar

1. Xalqaro iqtisodiy aloqalarning tayanch yo‘nalishlaridan birini toping.

Chalkashlikni aniqlang.

I	O	S	A	R	O	D	A	V	A	L	A
---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---

Javob:

X	A	L	Q	A	R	O	S	A	V	D	O
---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---

2. Jahonning tashqi savdosida qaysi mamlakatlar yetakchilik qiladi?

 Xitoy

 Fransiya

 Belgiya

 AQSh



O`zbekiston



Germaniya

Javob:



Xitoy Belgiya



AQSh



O`zbekiston



Germaniya

3. BMT 70 yillarda yangi xalqaro iqtisodiy tartiblar dasturi bo`yicha berilgan ma'lumotlarning to`g`risini aniqlang va jadvalga "ha" yoki "yo`q" javoblarini joylashtiring

- 1). Xalqaro iqtisodiy aloqalarning tayanch yo`nalishlaridan biri turizm;
- 2). Xalqaro savdoning muhim talablaridan biri. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatiga bog`liqligidir;
- 3). Xalqaro iqtisodiy aloqalarning ommaviy yirik sohasi xalqaro savdo va xalqaro turizm

Javob:

Savol	1	2	3	4
Javob	xa	yo`q	xa	yo`q

4. Xalqaro turizmda katta daromad ko`rayotgan davlatlarni tartib bilan yozing.



AQSh




Italiya



Ispaniya




Gretsiya




Fransiya

Javob:



5. Berilgan chizmaga turizmda asosiy daromadga ega bo'lgan quyidagi orollarni ketma-ketlikda joylashtiring. Seyshel, Bagam, Barbados, Kipr, Bermud

Javob:



6. Nechanchi yilda BMT yangi xalqaro iqtisodiy tartiblar dasturi 19... da qabul qilingan. Amallarni bajaring hamda nuqtalar o'rniga mos sonlarni qo'ying.

$$20 + 80 - 25 = 75; \quad 50 + 29 - 9 = 70; \quad 60 + 30 - 8 = 82$$

1) 75 2) 82 3) 70

Javob: 70

7. Jahon turizmi bo'yicha rivojlangan quyidagi davlatlarni xaritada meridian va parallel ravishda joylashganligini aniqlang hamda ularni jadvalda ko'rsating.


1). Ispaniya 2). Fransiya 3). AQSh 4). Gretsiya 5). Singapur 6). Italiya
7). Malayziya

Javob:

Parallel	2, 3, 1
Meridian	4, 6, 7, 5

8.Yevropada turistik oqimning eng katta qismini yo`naltirilganligi bo`yicha yetakchi davlatlar ketma-ketligini aniqlang. 1). Fransiya; 2). Italiya; 3). Ispaniya; 4). Germaniya; 5). Buyuk Britaniya .

Javob:



9.Berilgan amallarni bajaring hamda kelib chiqqan sonlarni qanday tushunchalarni anglatishini aniqlang. $4+1=x$; $1+1=x$; $5 \times 2=x$; $3-1=x$; $7-3=x$

Javob: 23 ta provinsiya, 5 ta muhtor rayon; 4 ta markazga bo`ysunuvchi shahar; 2 ta maxsus ma`muriy rayon.

Asosiy adabiyotlar

1.Ўзбекистон Республикасининг янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида»ги.Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлар тўплами.2017 йил 6 сон 70 модда.

2. Abirqulov Q. Iqtisodiy geografiya. –Т., 2004.

3.Экономическая и социальная география стран ближнего зарубежья. Под ред. М.Ратанова. –М., 2004.

4. Родионва И.А Экономическая и социальная география мира.Т.1.2:Учебник для бакалавров.изд.исправ.и доп.М. Издателств. Юрайт.2015.

5. Липец Ю. Г. Пуляркин В. А., Шлихтер С. Б. География мирового хозяйство. - М., 1999

6.Н.С.Мироненко. Введение в географию мирового хозяйства. М, 1995г.

7. Социально – экономическая география зарубежного мира. (Под ред В.В.Волского). М. Крон – Пресс, 1998г.
8. Boltaev M.J. Chet mamlakatlar iqtisodiy geografiyasi .Ma’ruza matni. 2000 yil.
9. Страны мира. -М.:Мысль, 1996.
10. Kulke E. Wirtschafts - geographie. -Munxen – Zurich: «Ferdinand Schoningh», 2004.

II-QISM. JAHONNING REGIONAL TAVSIFI

11-§. Yevropa

Geografik o`rni va maydoni. Yevropa qit'asining maydoni 10 mln. km.kv ni tashkil etadi. Shundan 5,9 mln. km.kv ga teng hududda (Rossiyadan tashqari) Yevropadagi barcha mamlakatlar, shu jumladan, sobiq Ittifoq respublikalari joylashgan. Rossiya Federatsiyasi jami hududining 4,1 mln. km.kv ga teng qismi Yevropa qit'asiga to'g'ri keladi.

Yevropa qit'asi shimoldan janubga (Shpitsbergen orollaridan O'rta dengizda joylashgan Krit oroligacha) 5 ming km ga, g'arbdan sharqqa (Portugaliyaning Atlantika okeani sohilidan Rossiyaning Ural tog'laridagi Yevropa-Osiyo qit'alari chegarasigacha) 6 ming km ga cho`zilgan.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Yevropa nisbatan kichik qit'a bo'lsa ham, umumgeografik o`rni bu yerda xilma-xil iqlim mintaqalar va tabiat zonalarining shakllanishiga sabab bo'ldi. Shuning uchun ham qit'aga xilma-xil tabiiy sharoit xosdir.

Yevropa har xil rel'yef shakllari - tekislik va pasttekisliklar, qir va tog'lar mavjudligi bilan ajralib turadi. Yevropada 26 ta har xil morfostruktura, 9 ta tabiiy-geografik o'lka ajratiladi. Yevropada o'rtacha balandlikdagi tog'lar esa ancha katta maydonni egallaydi. Ularning ko'pchiligidan dovonlar orqali transport yo'llari o'tkazilgan.

Yevropa hududi g`arb, shimol va janub tomonlardan dengiz va okeanlar suvi bilan o`ralgan. Shuning uchun ham Yevropada (Rossiyani hisobga olmaganda) dengizdan 600 km uzoqlikda bo`lgan joy yo`q. Jumladan, Buyuk Britaniyaning katta qismida aholi dengizdan atigi 60-80 km ga teng uzoqlikda istiqomat qiladi. Boshqa qit'a va materiklardan farqli o`laroq, Yevropa hududining 28% i inson tomonidan o`zlashtirilmagan xolos.

Yevropa tabiiy resurslarning barchasi bilan yaxshi ta'minlangan. Qit'a mamlakatlari ushbu resurslardan o`zining imkoniyatlari va ehtiyojlaridan, jahon bozoridagi vaziyatdan mamlakatda shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy holatdan kelib chiqqan tarzda har xil darajada foydalanmoqda. Bunda iqtisodiy va ijtimoiy omillardan tashqari tabiiy-geografik shart-sharoitlar ham muhim rol o`ynamoqda.

Yevropada yer va suv resurslaridan intensiv tarzda foydalanilmoqda. Qit'a tabiiy sharoiti qishloq xo`jaligini rivojlantirish uchun umuman qulay hisoblanadi. Bu o`rinda O`rta Yevropa va Janubiy Yevropa Shimoliy Yevropadan keskin ajralib turishini aytib o`tish lozim.

Yevropa biologik resurslar, ayniqsa, o`rmon resurslari bilan nisbatan yaxshi ta'minlangan. Bu yerda Shimoliy o`rmon mintaqasining bir qismi (Rossiya, Finlandiya, Shvetsiya, qisman Norvegiya, Buyuk Britaniya) joylashgan. Finlandiya va Shvetsiyadan tashqari mamlakatlardagi o`rmonlar, asosan, yosh daraxtlardan tashkil topgan.

Agroiqlim resurslan O`rta Yevropa va Janubiy Yevropada qishloq xo`jaligini intensiv rivojlantirishga imkon beradi.

Yevropa - mineral resurslarning sanoat ahamiyatiga ega bo`lgan konlari topilgan.

Yoqilg`i-energetika resurslaridan toshko`mir, qo`ng`ir ko`mir, yonuvchi slaneslar, neft, tabiiy gaz, gidroresurslardan foydalanilmoqda.

Toshko`mirning yirik konlari Germaniya (Rur, Saar), Buyuk Britaniya va Ukrainada (Donbass) ochilgan. Zaxiralari Buyuk Britaniyada 190 mlrd tonnadan GFR da salkam 300 mlrd tonnagacha boradi.

Qo`ng`ir ko`mirning yirik konlari GFR va Polshada (185 mlrd. tonna) mavjud.

Yonuvchi slaneslar Boltqbo`yidagi Estoniya Respublikasida qazib olinadi.

Yevropa neft va tabiiy gazning ulkan konlariga ega bo`lmasa ham, har holda qit'alar ichida oxirgi o'rinda qolmagan Bunda Shimoliy va Norvegiya dengizlari shelfining ahamiyati juda kattadir. XX asrning 80-90-yillarida ushbu dengizlarning tubida dastlabki neft va tabiiy gaz konlari ochildi. Hozirgi vaqtda qazib olinayotgan neft miqdori 300 mln. t, gaz miqdori 200 mlrd. m³ dan oshib ketdi. Neft va gaz konlarining asosiy qismi Buyuk Britaniya va Norvegiyaga tegishli.

Neft va tabiiy gaz Niderlandiya, Belgiya, Ruminiya, Ukraina, Belarus, Fransiya, Italiya mamlakatlarida ham qazib olinadi.

Temir rudalarining yirik konlari Shvetsiya (Kirunavara), Fransiya (Lotaringiya) va Ukraina (Krivoy Rog, Kerch, Belozyorsk konlari)da joylashgan. Marganes rudasining yirik koni ham Ukrainada ochildi.

Yevropada, xususan, Polsha, Bolgariya, Ruminiyada mis-molibden, ruda konlari juda ko'p. Fransiya va Gretsiyada yirik boksit, Vengriyada nefelin konlari topilgan. Simob rudalari Italiya, Ispaniya, Ukrainada qazib olinadi. Polimetall rudalar konlari ko'pchilik mamlakatlarning hududlarida topilgan, lekin ularning zaxiralari unchalik katta emas.

Yevropada, xususan, Italiyada, Ukrainada oltingugurt, Belarus, Ukrainada oltingugurt kaliy va osh tuzi konlari eng salmoqlidir.

Aholisi. Yevropada 2018 yil ma'lumotlariga ko'ra, 746 mln kishi (Rossiyaning Osiyodagi qismi bilan birga) ni tashkil etadi. Lekin, dunyo aholisi sonidagi uning salmog'i XX asr ichida 18% dan 9% gacha kamaydi.

Yevropa hududi G'arbiy, Shimoliy, Janubiy va Sharqiy Yevropaga taqsimlanadi.

Ushbu regionlar ichida iqtisodiy jihatdan G'arbiy va Shimoliy Yevropa eng rivojlangan Sharqiy Yevropa esa nisbatan bo'sh rivojlangan hisoblanadi.

Yevropada murakkab demografik vaziyat mavjud bo'lib, u mamlakatlar va regionlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatmoqda. Jahon miqyosida eng past darajadagi tug'ilish va tabiiy o'sish mavjud bo'lgan Yevropaga hozirgi vaqtda barqaror tarzda «Demografik qish» holati xosdir. Tug'ilish va tabiiy o'sish sur'atlari XX asrning ikkinchi yarmida keskin qisqardi. Tug'ilish 26-28 promilledan 11-13 promillega, tabiiy o'sish 16-18 promilledan 2-4 promillega tushib

qoldi. Tugʻilish va tabiiy oʻsish darajalarining keskin pasayishi har xil sabablar bilan bogʻlangan.

Hozirgi vaqtda tugʻilishning nisbatan yuqori koʻrsatkichlari Irlandiya, Luksemburg, Malta, Islandiya va Makedoniya mamlakatlarga xosdir. Oʻrtacha tugʻilish darajasi Avstriya, Shvetsariya, Niderlandiya, Norvegiya, Portugaliya, Gretsiya, Finlandiya, Fransiya, Slovakiya, Shvetsiyada kuzatilmoqda. Shular bilan birga, tugʻilish darajasi keskin pasayib, tabiiy oʻsish manfiy koʻrsatkichga ega (oʻlganlar soni tugʻilganlar sonidan ortiq) boʻlgan mamlakatlar soni yildan-yilga koʻpayib bormoqda. Bolgariya, Xorvatiya, Latviya, Litva, Ukraina, Ruminiya, Estoniya, Moldova Vengriya shunday mamlakatlar jumlasidandir. Mazkur davlatlarda tugʻilish yoshidagi ikki ayolga tugʻilgan ikki-uch bola toʻgʻri kelmoqda, xolos. Natijada, aholining mutlaq soni kamaymoqda.

Yevropa aholi oʻrtasida umumiy oʻlim koeffitsiyentining nisbatan yuqori ekanligi bilan ajralib turadi. Aholining har 1000 kishiga nisbatan oʻlganlar soni bu yerda 2013-yilda 12 kishini tashkil etdi. Bu koʻrsatkich aholining yosh-jins tarkibida keksa yoshdagilarning ulushi yuqori boʻlgan mamlakatlar (Germaniya, Shvetsiya, Fransiya, Belgiya, Niderlandiya, Norvegiya, Finlandiya va b.) da yana ham yuqori darajaga egaligi bilan ajralib turadi. Shu vaqtning oʻzida aholi tarkibida bolalar va yoshlar salmogʻi nisbatan katta boʻlgan mamlakatlar (Portugaliya, Polsha, Gretsiya, Italiya, Albaniya)da umumiy oʻlim koeffitsiyenti birmuncha past. Yevropa davlatlari (Albaniyadan tashqari) aholi sonini tabiiy takror barpo etilishining birinchi turiga mansubdirlar. Soʻnggi chorak asrda Bolgariya va Vengriyada faol demografik siyosat olib borildi. Shunga qaramasdan, aholining oʻsish surʼatlari deyarli oʻzgarmadi va uning darajasi pasayishda davom etdi. Oqibatda, Vengriyada aholi soni 1980-2012-yillarda 245 ming kishiga qisqardi. Ruminiyada har 1000 ta tugʻilgan goʻdakdan 23 tasi bir yoshga yetmasdan oʻlmoqda. Gʻarbiy Yevropada bu koʻrsatkich 5-8 bolaga toʻgʻri keladi. Umumiy tarzda shuni taʼkidlash mumkinki, XX asrning soʻnggi 10 yili va XXI asrning dastlabki davrida Sharqiy Yevropada qoniqarsiz demografik vaziyat yuzaga keldi.

Yevropa aholi migratsiyalarining ham yirik markazi hisoblanadi. Buyuk geografik kashfiyotlar davridan beri Yevropa aholisi okean orti mamlakatlarda ko'chib o'tadigan eng katta region hisoblanadi. Bir asr davomida (1815-1914-yillar) emigratsiya 35-40 mln. kishini qamrab oldi. Ikkinchi jahon urushi davrida ayrim davlatlardan yoppasiga aholining emigratsiyasi kuzatildi.

Tarixi. Dunyo siyosiy xaritasida Yevropaning o'z o'rnini bor. XX asrning 80-yillarida bu yerda 32 ta suveren davlat mavjud bo'lgan. 90-yillarning dastlabki davrida esa mamlakatlarning umumiy soni 40 ga yetdi. Sobiq Ittifoq tarkibidan Boltiqbo'yi davlatlarining ajralib chiqishi, Yugoslaviya va Chexoslovakiyaning bo'linishi qit'ada mamlakatlar sonini ko'payishiga sabab bo'ldi. 1989-yilda ikki nemis davlatlarining qo'shilib, yagona Germaniya Federativ Respublikasining barpo qilinishi qit'a va jahon siyosiy xaritasida katta voqea bo'ldi. XX asrning so'nggi 10 yilida Yevropa va jahon siyosiy xaritasida yana ham jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Ittifoq parchalanib, 10 dan ortiq yangi suveren davlatlar vujudga keldi. Shulardan Yevropa davlatlari qatoriga Ukraina, Belarus va Moldova qo'shildi. Shunday qilib, Yevropada yangi XXI asr boshida (Rossiyani hisobga olmaganda) jami 46 mamlakat mavjudligi qayd etildi.

Yevropa kichik mamlakatlar o'lkasidir. Aynan ana shu qit'ada jahondagi «mitti» davlatlar (Andorra, San-Marino, Monako, Vatikan, Lixtenshteyn) ning ko'pchiligi joylashganligi so'zimizga dalil bo'lishi mumkin. Maqomi noma'lum Gibraltar (6,5 km.kv) va Daniya mustamlakasi Faryer orollari (1,5 km.kv) ham juda kichik maydonlarga ega. Mazkur davlatlardan tashqari hududi nisbatan kichik mamlakatlardan 12 tasining har birining maydoni 50 ming km.kv dan ham kichikdir. Shular qatoriga Belgiya, Niderlandiya, Daniya (Grenlandiya orolini hisoblamaganda), Chernogoriya, Shveysariya, Moldova, Slovakiya, Malta, Makedoniya, Albaniya va Estoniya kiradi (taqqoslash uchun bir Moskva oblasti maydoni 47 ming km. kv ni tashkil etishini aytib o'tish kifoyadir).

Qit'ada 12 ta mamlakat hududi 50 mingdan 100 ming km.kv gacha boradi. Bunga Islandiya, Irlandiya, Avstriya, Serbiya, Vengriya, Chexiya, Latviya, Litva, Xorvatiya, Bosniya va Gersegovina, Portugaliya, Chernogoriya mamlakatlaridan iboratdir. Norvegiya, Shvetsiya, Finlandiya, Buyuk Britaniya, GFR, Italiya, Polsha, Serbiya,

Ruminiya, Bolgariya, va Gretsiyaning, ya'ni jami 11 davlatning maydoni 100 mingdan 500 ming kv km gacha o'zgaradi. Faqat Fransiya, Ukraina va Ispaniya davlatlarining hududi 500 ming km.kv dan oshadi. Rossiya Federatsiyasi maydonining kattaligiga binoan nafaqat Yevropa, balki butun dunyoda tengi yo`q mamlakatdir.

Yevropada har xil shaklga ega bo'lgan mamlakatlar mavjud. Norvegiya qit'ada hududi meridian yo'nalishi bo'yicha eng uzun (1750 km) joylashgan mamlakatdir. Shunday mamlakatlar qatoriga yana Shvetsiya (1600 km), Finlandiya (1160 km), Fransiya (1000 km), Buyuk Britaniya (955 km), GFR (850 km) kiradi. Shu bilan birga Bolgariya va Vengriyada chekka nuqtalar orasidagi masofa 500 km dan oshmasligini aytib o'tish joizdir. Niderlandiyada esa bu ko'rsatkich atigi 300 km ni tashkil etadi.

Yevropa dunyodagi eng yirik iqtisodiy markazlardan biridir. Uning jahon YIM dagi ulushi salkam 16805 mlrd. dollarni yoki jahondagi jami 85539 mlrd. dollarga teng YIM ning 19,6 foizini tashkil etadi. Yevropaga jami jahon savdo aylanmasining 1/3 qismi to'g'ri keladi.

Eng muhimi shundan iboratki, Yevropada jahon tarixida birinchi bor Yevropa Ittifoqi doirasida salkam o'ttizta davlatlar birlashtirilib, ulkan miqyosga, yagona iqtisodiy va siyosiy makon shakllantirilmoqda.

Sanoati. Yevropaning xalqaro-geografik mehnat tizimidagi o'rni va ahamiyati 200 yildan ziyod davr mobaynida sanoat orqali belgilanadi. Hozirgi vaqtda ham sanoat yuqori sur'atlarda rivojlanishda davom etmoqda. Mashinasozlik Yevropaning yetakchi sanoat tarmog'i hisoblanadi. Mazkur tarmoq butun sanoat mahsulotining 1/2 qismini, eksportning 2/3 qismini tashkil qiladi. Ayniqsa, avtomobilsozlik yuksak darajada rivojlangan Dunyoda «Renault» (Fransiya), «Wolkswagen», «Mercedes-Benz» (GFR), "Fiat" (Italiya), "Volvo" (Shvetsiya), «Tatra» (Chexiya) kabi avtomobil markalari mashhurdir. Myunxen, Tuluza, Manchester, Bryussel shaharlari harbiy sanoat markazlari bo'lib hisoblanadi.

Mashinasozlik, avvalo, mehnat resurslari, ilmiy baza va rivojlangan infratuzilmaga asoslanadi. Lekin, sanoat bulardan ham ko'proq yirik shaharlar va aglomeratsiyalarga, poytaxtlarga intiladi. Jumladan, Buyuk Britaniyada elektrotexnika, elektronika, kosmik va aviaraketa sanoati tarmoqlarining rivojlanganligi bo'yicha

London, avtomobilsozlik bo'yicha Birmengem, to'qimachilik mashinasozligi bo'yicha Manchester, kemasozlik bo'yicha Glazgo shaharlari va rayonlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Yevropada sanoat tarmoqlari ichida mashinasozlikdan keyin ikkinchi o'rinda kimyo va neft-kimyo sanoati turadi. Qit'ada nafaqat regionning, balki butun dunyoning eng «kimvolashgan» davlati - GFR joylashgan. Ikkinchi jahon urushiga qadar kimyo sanoati, asosan, kon-kimyo xom ashyosiga asoslangan holda rivojlangan edi. Kaliy va osh tuzlari, oltingugurt va boshqa shu kabi xom ashyodan foydalanilardi. Qit'ada neft va tabiiy gaz konlarining ochilishi neft-kimyo tarmog'ining rivojlanishiga sabab bo'ldi. Yevropaning g'arbiy hududlarida joylashgan Temza, Sena, Reyn, Elba, Rona kabi daryolar nomlari bilan bog'liq holda neftni qayta ishlovchi markazlar barpo etildi. Eng yirik neft-kimyo tarmog'i Niderlandiyaning Rotterdam shahri rayonida joylashgan. Qit'aning sharqidagi neft va gaz magistral quvurlari o'zining yonida neft va tabiiy gazni qayta ishlovchi korxonalar va neft-kimyo majmualarining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Chexiya, Slovakiya, Polsha va Vengriyadagi neftni qayta ishlovchi korxonalar ham quvurlarga yaqin hududlarda barpo qilingan. Bolgariyadagi neft-kimyo majmuasi Qora dengiz sohilida joylashgan.

Yevropaning ko'pchilik davlatlarining yoqilg'i-energetika xo'jaligida neft va tabiiy gaz muhim o'rin egallaydi. Mazkur xomashyo turlari regionning ehtiyojini to'lato'kis qondirmaydi. Yetishmagan xomashyo boshqa mamlakatlardan, avvalo, Rossiyadan hamda Shimoliy Afrika va Fors ko'rfazidan import qilinadi. Yevropaning Polsha va Chexiya davlatlarida toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir katta miqdorda qazib olinadi.

Jahon miqyosida yoqilg'i-energetika balansida muhim rol egallagan qo'ng'ir ko'mir havzalari qatoriga Balxatuv (Polsha), Shimoliy Nesh (Chexiya), Post Lauziya va Galle-Leypsig (Germaniya) havzalari kiradi. Issiqlik elektr stansiyalarining ham ko'pchiligi ko'mir havzalariga tortiladi. Lekin IESlarning asosiy qismi dengiz portlari va katta shaharlarda barpo etilgan. Elektroenergetika tizimida AESlar muhim o'rin egallaydi. Bu o'rinda, ayniqsa, Fransiya, Belgiya, Germaniya, Buyuk Britaniya,

Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Bolgariya davlatlari ajralib turadi. Ularning hududlarida 80 dan ortiq AES joylashgan.

Dunay va uning irmoqlarida hamda Rona, Reyn, Dnepr, Dnestr va boshqa daryolarda ayrim GES lar va ularning kaskadlari barpo qilingan. Metallurgiya tarmog‘i Yevropada yuz bergan fan-texnika inqilobidan ham ilgari shakllangan. Qora metallurgiya, avvalambor, yoqilg‘isi va xom ashyosi mavjud bo‘lgan Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Ispaniya, Belgiya, Lyuksemburg, Polsha, Chexiyada rivojlandi. Rangli metallurgiyaning asosiy tarmoqlari alyuminiy va mis sanoatidir. Alyuminiy ishlab chiqarish xomashyo va elektroenergetikaga boy Fransiya, Italiya, Vengriya, Ruminiya, Gretsiya, Germaniya mamlakatlarida rivojlangan. So‘nggi paytlarda alyuminiy korxonalari, asosan, rivojlanayotgan mamlakatlardan (Surinam, Yamayka, Gvineya, Gviana, Hindiston) olinadigan xom ashyoga tayanmoqda. Mis sanoati Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Belgiya, Polsha hamda Bosniya va Gersogovinada rivojlangan. Yevropada yengil sanoat o‘zining oldingi ahamiyatini birmuncha yo‘qotdi. Eski to‘qimachilik rayonlari hisoblanmish Buyuk Britaniyadagi Lankashir va Yorkshir, Polshadagi Ludz hozirgi vaqtda ham faoliyat ko‘rsatmoqda. Lekin so‘nggi yillarda yengil sanoat Janubiy Yevropaga ko‘chayotganligini ta’kidlab o‘tish lozim. Janubiy Yevropa regionini arzon ishchi kuchiga boy. Ana shunday mamlakatlardan biri Portugaliya Yevropaning asosiy tikuvchilik fabrikasi bo‘lib qoldi, Italiya esa poyabzal ishlab chiqarishda dunyoda AQShdan keyin ikkinchi o‘ringa chiqib oldi. Yevropa mamlakatlarida sanoatning boshqa tarmoqlari ham yaxshi rivojlangan.

Qishloq xo‘jaligi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining yalpi hosili va turlari bo‘yicha Yevropa mamlakatlarining ko‘pchiligi o‘zlarining ichki ehtiyojlarini to‘la qondiradi va ularning qolgan qismini eksport qiladi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin mamlakatlarning agrar munosabatlarida, yer egaligi va unga ishlov berish tizimida universal mayda dehqon xo‘jaligidan katta ixtisoslashgan yuqori tovar ahamiyatga ega xo‘jalikka o‘tish bilan bog‘liq bir qator o‘zgarishlar bo‘lib o‘tdi. Qishloq xo‘jaligi korxonasining asosiy shakli sifatida yuqori darajada mexanizatsiyalashtirilgan fermer xo‘jaligi qabul qilindi. Bu o‘rinda, ayniqsa,

chorvachilik tarmog'ida katta ijobiy o'zgarishlar yuz berganini ta'kidlab o'tish zarurdir. Binobarin, chorvachilik Yevropaning juda ko'p mamlakatlarida, shu jumladan Daniyada yuqori darajada rivojlangan bo'lib, u xalqaro ixtisoslashuv tarmog'iga aylandi. Daniya sariyog', sut, pishloq, cho'chqa go'shti, tuxum yetishtirish va eksport qilish bo'yicha dunyoning eng yirik davlatlaridan biriga aylandi. Uni Yevropaning «sut fermasi» deb atalishiga ham sabab shudir. Dehqonchilik aholining asosiy ehtiyojlarini qondiribgina qolmasdan, balki chorvachilik tarmog'iga ham xizmat qiladi. Hosildor yerlarning aksariyat qismi madaniy ekinlar yetishtirishga ajratilgan. Janubiy Yevropada dehqonchilik chorvachilikdan ustun ahamiyatga ega. Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Gretsiya va boshqa mamlakatlar boshqoli (bug'doy, arpa, suli, sholi) va moyli (zaytun daraxti, kungaboqar) ekinlarini yetishtirish bo'yicha dunyoda yuqori o'rinlarni egallaydi.

Yevropa mamlakatlari transporti. Yevropa mamlakatlari yuqori darajada rivojlangan transport infratuzilmasiga ega. Regionda transportning deyarli barcha turlari taraqqiy etgan. Dunyodagi jami aloqa yo'llari, transport korxonalarini va transport vositalari birgalikda jahon transport tizimini tashkil qiladi, Jahon transport tizimida 100 mln. dan ortiq, Yevropa mamlakatlarida 20 mln. kishi ish bilan band. Yevropa mamlakatlarida o'rtacha yiliga 20 mlrd. t yuk va 200 mlrd. kishi transportning barcha turlari yordamida tashiladi. Ushbu jarayonda 130 mln. avtomobillar, salkam 10 ming dengiz kemalari, 2 mingdan ortiq samolyot, 40 ming lokomotiv ishtirok etadi.

Yevropada yo'lovchi tashish bo'yicha avtomobil transporti yetakchilik qiladi. Unga jami tashilgan yo'lovchilarning deyarli yarmi to'g'ri keladi. Dengiz transporti yuk tanishda tengsiz hisoblanadi. Uning jami tashilgan yukdagi ulushi 62% ni tashkil etadi.

Yevropada temiryo'l transporti Rossiya, GFR, Fransiya va boshqa ko'pchilik mamlakatlarda rivojlangan. Rossiyada 87 ming km, GFR da 44 ming km va Fransiyada 33 ming km temiryo'l qurilgan. Temiryo'llarning katta qismi elektrlashtirilgan. Fransiya va Buyuk Britaniya o'rtasida tunnel orqali o'tuvchi tezyurar poyezdlar qatnaydi. Ma'lumki, avtomobil transportining rivojlanishi unda mavjud mashinalar soniga bog'liq. GFR (35 mln. dona), Italiya (31 mln. dona), Fransiya (28 mln. dona),

Buyuk Britaniya (24 mln. dona), Rossiya (18 mln. dona), Ispaniya (16 mln. dona) davlatlari yetakchilik qiladilar.

Yevropada quvur transporti ham yuqori darajada rivojlangan. G'arbiy, Sharqiy, Shimoliy va Janubiy Yevropa mamlakatlarining ko'pchiligi bir-biri hamda Rossiya bilan neft va tabiiy gaz quvurlari orqali bog'langan. Neft va gaz quvurlari Shimoliy va Norvegiya dengizlari akvatoriyalarida ham faoliyat ko'rsatmoqda. Hozirgi vaqtda Yevropani Markaziy Osiyo bilan bog'lovchi "Nabukko" gaz quvuri barpo qilinmoqda.

Yevropa mamlakatlarida dengiz transporti hamda ichki suv transporti rivojlangan. Dengiz transporti Niderlandiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Rossiya, Polsha, Shvetsiya, Norvegiya va boshqa mamlakatlarda rayonlararo va xalqaro ahamiyatga ega.

Dunyoda yuk aylanmasi yiliga 200 mln. tonnadan yuqori bo'lgan dengiz portlari ichida Rotterdam porti (300 mln. t) nafaqat Niderlandiyada, balki butun dunyoda tengi yo'q hisoblanadi.

Ichki suv yo'llari Rossiya, GFR, Niderlandiya va qator boshqa mamlakatlarda yuqori darajada rivojlangan.

Havo transporti Buyuk Britaniya, Fransiya, GFR va Rossiyada yaxshi rivojlangan. Bir yilda 60 mln. yo'lovchini tashuvchi London, Frankfurt-Mayn, Parij shaharlari keskin ajralib turadi.

Topshiriqlar va yechimlar

1. Yevropa davlatlariga tegishli ma'lumotlarni toping.

1). Xelsinki- Finlyandiyaning poytaxti;

2). Berlin teleminorasi balandligi bo'yicha (368 m). Yevropada 5-o'rinni egallaydi;

3). Parij shahrining chetida joylashgan Versal saroy bog' ansambli YUNESKO ning jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan;

4). Yevropa hududining 30 % i inson tomonidan o'zlashtirilmagan;

5). Temza daryosining Tauer yonidagi ko'prik Buyuk Britaniya poytaxtining asosiy diqqatga sazovor joylari sirasiga kiradi.


Javob:

1	2	3	4	5
ha	yo‘q	ha	yo‘q	ha

2.Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘ying.

- 1). Yevropa qit‘asining maydoni ni tashkil etadi;
- 2). jami hududining 4,1 mln km² ga teng qismi Yevropa qit‘asiga to‘g‘ri keladi;
- 3). Yevropa qit‘asi shimoldan janubga oralg‘ida O‘rta dengizda joylashgan oralg‘igacha 50 ming km ga cho‘zilgan;
- 4). Yevropa G‘arbdan –sharqqa Portugaliyaning Atlantika okeanining sohillaridan Rossiyaning Ural tog‘laridagi-..... qit‘alarigacha 6 ming km² ga cho‘zilgan.

3.Quyida berilgan bayroqlarning qaysi davlatga tegishli ekanligini toping. 1).Turkiya
2).Isroil 3). Quvayt 4). Fransiya



Javob:




4.Yevropa hududi iqtisodiy jihatdan qanday rayonlarga ajratiladi.

Savol	Javob
-------	-------

Shimoliy Sharqiy Markaziy G'arbiy Janubiy	<input type="checkbox"/>	Shimoliy
	<input type="checkbox"/>	Sharqiy
	<input type="checkbox"/>	Markaziy
	<input type="checkbox"/>	G'arbiy
	<input type="checkbox"/>	Janubiy

5. Quyidagi berilgan cho'qqilar Yevroning qaysi tog' tizmalariga tegishli ekanini yozing.



Javob: 1-Ural 2-Karpat 3-ALP 4-Kavkaz

6. Jadvalda berilgan davlatlarni Yevroning qaysi qismida joylashganligini toping va moslang.

№	Davlat nomi	T/r	Joylashuv o'ri
1	Avstriya	A	Janubi-Sharqiy Yevropa
2	Albaniya	B	Markaziy Yevropa
3	Belorussiya	C	Shimoliy Yevropa
4	Andorra	D	Yevroning janubidag'arbida
5	Norvegiya	E	Sharqiy Yevropa


Javob: 1-B; 2-A; 3-E 4-D 5- C

7. Berilgan ushbu chizmaga Yevropa davlatlarining dengiz bo'yida joylashganligiga ko'ra belgilang. 1- Islandiya, 2- Chexiya, 3- Slovakiya, 4- Norvegiya, 5- Belorussiya, 6- Vengriya, 7- Gretsiya, 8- Ruminiya, 9- Italiya, 10- Ukraina




Javob:


8. Berilgan shaklda joylashgan harflar asosida hozirgi vaqtda Yevropani Markaziy Osiyo bilan bog'lovchi gaz quvuri nomini toping.



Javob:



9. Katta iqtisodiy salohiyatga ega mamlakatlarni quyidagi shaklga iovlashtiring.



Javob:

10. Quyida berilgan davlatlarda qaysi transport turi yetakchilik qilishini jadvalga raqamlar asosida joylashtiring.

- 1). Rossiya 2). GFR 3). Fransiya 4). Buyuk Britaniya 5). Italiya 6). Ispaniya
7). Niderlandiya 8). Polsha 9). Shvetsiya 10). Norvegiya

T/r	Transport turi	Raqamlar
1	Avtomobil	
2	Temir yo‘l	
3	Quvur transporti	
4	Dengiz transporti	
5	Havo transporti	

Javob:

T/r	Transport turi	Raqamlar
1	Avtomobil	2,5,3, 4,1,6,
2	Temir yo‘l	1,2,3,4,
3	Quvur transporti	1,10,7,2,3,5,
4	Dengiz transporti	7,3,4,5,1,8,9,10
5	Havo transporti	4,3,2,1,

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида»ги . Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлар тўплами. 2017 йил 6 сон 70- модда.

2. Абиркулов К . Иқтисодий география. -Т., 2004

3. Abdullayev O. Mintaqalar va mamlakatlar iqtisodiyoti. Toshkent :Yangi asr avlodi” 2009. 282 b

4. Бушуева Л. Все страны мира. Универсальный справочник. Рипол классик. 2009 г.

5. Bahritdinov B.A., Zokirova G.A., Abdiraximova S.E. Jahon ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. O`quv qo`llanma. T.: 2008 yil

6. Vahobov H., M. Tillaboyeva. Iqtisodiy geografiya asoslari. (o`qituvchi kitobi) Toshkent, O`qituvchi. 2001 yil. 4-5 bet

- 7.Максаковиский В.П.Географическая картина мира .Кн.1 .2:Общая Характеристика мира М...Дрофа .2008.-495 с.
- 8.Mahmudova.M, Soliyev.A. Geografiyadan nostandart testlar. Namangan Davlat universiteti Namangan.-2017 y
9. Солиев А.С., Ахмедов Э.А., Мухаммадалиев Р.И.Минтақавий иқтисодиёт. Ўқув қўлланма.2003 йил.
- 10.Qayumov A, Pardayev G`, Islomov I. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya (O`rta Osiyo iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi) o`quv qo`llanma T.2007
- 11.Qo`ldasheva M. “Geografiya fanidan nostandart testlar to`plami” uslubiy qo`llanma Namangan malaka oshirish hududiy markazi nashriyoti. 2017 yil
- 12.Янчук.С .Экономическая и социальная география стран Центральной Азии и СНГ .Текст лекций .Т.2000

12-§. Germaniya

Germaniya davlati Markaziy Yevropada joylashgan bo`lib, quruqlik orqali Niderlandiya, Belgiya, Lyuksemburg, Fransiya, Shveysariya, Avstriya, Chexiya, Polsha, Daniya bilan chegaradosh hisoblanadi.

1989-yilning oktabr oyida ikki davlat GFR va GDR birlashganidan keyin Germaniya hozirgi chegaralariga ega bo`ldi, Natijada, GFR hududi 43% ga, aholisi esa 27% ga ortdi.

GFR - parlament Respublikasi. Hududiy-siyosiy tuzilishiga ko`ra, 16 federatsiyadan tashkil topgan bo`lib, ular: Baden-Vyurtemberg, Bavariya, Berlin, Brandenburg, Bremen, Gamburg, Gessen, Meklenburg (oldingi Pomeraniya), Quyi Saksoniya, Reynland-Pfals, Shimoliy Reyn-Vestfaliya, Saar, Saksoniya, Saksoniya-Apgalt, Tyo`ringiya va Shlezvig-Golshteyn.

Tabiiy boyliklari. G`arbiy Yevropa davlatlari o`rtasida Germaniya o`zining toshko`miri va qo`ng`ir ko`miri bilan alohida ahamiyatga ega. Toshko`mirning asosiy konlari Rur, Saar va Axen havzalarida joylashgan hamda ko`mirning 2/3 qismi yuqori sifatli kokslanadigan ko`mir hisoblanadi.

Qo'ng'ir ko'mirning ishonchli zaxiralarining katta qismi (80 mlrd. t) Sharqiy Germaniyada joylashgan bo'lib, aksariyat hollarda ochiq usulda qazib olinadi.

Tabiiy gaz konlari asosan mamlakatning shimolida joylashgan. Temir rudalari zaxiralari uchraydi lekin, ularning sifati past. Shimoliy Germaniya pasttekisligida tosh tuzining katta qatlamlari, kaliy va magniy tuzlarining zaxiralari joylashgan.

Germaniyaning yirik daryolari - Reyn, Elba, Vezەر, Ems (Shimoliy va Boltiq dengizlari havzalari) va Dunay (Qora dengiz havzasi). 1993 yilda Shimoliy dengizdan Qora dengizgacha bo'lgan trans Yevropa suv yo'lini tutashtiruvchi Mayn-Dunay kanali ishga tushirildi. O'rta Germaniya kanali va uning Berlin hamda Vezér daryogacha bo'lgan davomi ta'muhim ahamiyatga ega.

Aholisi. Germaniyada 2018 yil ma'lumoti bo'yicha 82,9 mln kishi istiqomat qiladi. Urbanizatsiya darajasi 74% dan ortiq. Ko'pgina shaharlar aglomeratsiyalar yadrosi hisoblanadi, biroq aholisi 1 mln. dan ortiq bo'lgan shaharlar ko'p emas (Berlin, Gamburg, Myunxen). Hozir mamlakatda (Niderlandiya bilan birga) Reyn megapolisi rivojlanmoqda. Unda jami 30 mln. kishi yashaydi.

Sanoati. Mamlakatda fantalab tarmoqlarining hissasi ortib bormoqda. Stanoklar va boshqa sanoat ishlab chiqarish jihozlarini, avtomobil, organik kimyo mahsulotlarni eksport qilish bo'yicha Germaniya dunyoda yuqori o'rinni egallaydi. GFR ning barcha yirik sanoat kompaniyalari transmilliy korporatsiyalar hisoblanadi («Daimler-Benz», «Wolkswagen», «Siemens», Hoechst», «Bayer»). Germaniya energetika sohasida o'z ehtiyojlarining asosiy qismini import hisobiga qondiradi. Neft va gaz muhim ahamiyatga ega bo'lib, 30% i ko'mir xissasiga to'g'ri keladi. Neft aksariyat hollarda tankerlar va neft quvurlari orqali Shimoliy dengiz, Rossiya, Afrika davlatlari (Nigeriya, Liviya), Fors ko'rfazi davlatlaridan olinadi. Neftni qayta ishlash zavodlari mamlakat bo'ylab notekis joylashmagan. Gamburg, Kyoln, Karlsrue, Shvedt eng yirik markazlari hisoblanadi. GFR da elektr energiyaning asosiy qismi issiqlik elektr stansiyalari orqali ishlab chiqariladi. IES lar Rur va Saar havzalari va port shaharlarida ko'mir asosida, neftni qayta ishlash markazlarida–mazutda asosida ishlaydi. Hozirgi vaqtda mahalliy ko'mirga nisbatan Avstraliyadan arzon bahoda olib kelinayotgan ko'mirning ahamiyati ortib bormoqda.

AES orqali elektr energiyaning 30%i ishlab chiqariladi (ular ko‘mir havzalarining chegarasidan tashqarida qurilgan). GES lar, asosan, mamlakatning janubida xususan tog‘ daryolarida (Lex, Inn, Izar, Mozel, Eder) joylashgan.

GFR ning rangli metallurgiyasi, asosan, chetdan keltirilgan va ikkilamchi xomashyo (rangli metall parchalari) asosida ishlaydi. Korxonalar joylashishining bosh omili sifatida energiya resurslari bilan ta‘minlanganligi, xomashyoni olib kelishdagi qulaylik hisoblanadi. Alyuminiyni eritish bo‘yicha Germaniya G‘arbiy Yevropa regionida faqat Norvegiya davlatidan keyingi ikkinchi o‘rinni egallaydi. Alyuminiy eritish zavodlari Shimoliy Reyn-Vestfaliya va Gamburg hamda Bavariyada joylashgan. Gamburg va boshqa shaharlarida qora misni eritish rivojlangan.

GFR sanoatining eng rivojlangan tarmoqlaridan yana biri mashinasozlik va metallga ishlov berish bo‘lib, mamlakat sanoat mahsulotlari va eksportining yarmiga yaqin qismi mashinasozlikka to‘g‘ri keladi. Metallga ishlov berishning eng yirik markazlari Myunxen, Leypsig, Nyumberg, Mangeym, Berlin, Gamburg shaharlari hisoblanadi. Baden-Vyurtemberg va Shimoliy Reyn-Vestfaliya yerlarida mashinasozlik ishlab chiqarishi eng ko‘p rivojlangan.

Germaniyaning sanoat markazlari

t/r	Ishlab chiqarish yo‘nalishi	Sanoat markazlari
1	Avtomobilsoz	Volsburg, Shtutgart, Kyoln, Ryusselxaym, Myunxen
2	Dengiz kemasozligi	Kil, Gamburg, Bremen, Emden, Rostok
3	Daryo kemasozligi	Duysburg
4	Optik mexanika korxonlari	Baden-Vyurtemberg va Tyo‘ringiya yerlari
5	Samolyotsozlik	Myunxen, Aersburg, Gamburg, Bremen
6	Kimyo sanoati	Leverkuzen («Bayer» konserni) Kyoln, Darmagen, Frankfurt-Mayn («Hoechst» konserni), Lyudvigxafen («Basf» konserni)

Avtomobil ishlab chiqarish bo‘yicha Germaniya dunyoda AQSh, Yaponiya va Xitoydan keyingi to‘rtinchi o‘rinda turadi. Asosiy avtomobil korporatsiyalari «Wolkswagen», «Mercedes-Benz», «BMW», «Ford-Verke», «Opel» avtomobil ishlab chiqaradi.

Transporti. Germaniya jahonda Transport yo'llarining zichligi bo'yicha oldingi o'rinlardan birini egallaydi. Yevropa kengashi bo'yicha sheriklari bilan bo'lgan iqtisodiy aloqalarning jadalligi va Yevropaning markazida joylashgani uchun transportning barcha turlari rivojlangan. Transport tarmog'ining asosiy qismini temiryo'llar tashkil etib (44 ming km ga yaqin), uning 90 % i elektrlashtirilgan. transportning yuk aylanmasida asosiy o'rinni avtomobil transporti (60% atrofida) egallaydi, keyingi o'rinlarda temiryo'l (20%), ichki suv (15%) va quvur transportlari egallaydi. Yo'lovchi tashish bo'yicha avtomobil transportining hissasi yuqori (90% ga yaqin). Oliy darajadagi avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi 11 ming km.ni tashkil etadi.

Germaniya konteyner tashuvchi kemalarning hajmi bo'yicha AQSh, Panama, Tayvandan keyingi 4-o'rinda turadi. Dengiz portlari yuk aylanmasi bo'yicha esa Yevropa davlatlarining yirik portlaridan pastroq o'rinlarni egallaydi. Gamburg, Vilgelmsxafen, Bremen, Emden, Rostok eng yirik dengiz portlari sanaladi. Mamlakatda havo transporti ham muhim ahamiyatga ega. Barcha yirik yarmarka markazlarida aeroportlar joylashgan bolib, ular jami 16 ta xalqaro aeroportlardan iborat. Frankfurt aeroporti Yevropada yo'lovchi tashish bo'yicha (Londonning "Xitrou" aeroportidan keyin) uchinchi o'rinni egallaydi. Yuk tashish bo'yicha esa birinchi o'rinda turadi.

Tashqi iqtisodiy aloqalari. Germaniya tashqi savdoning umumiy hajmi bo'yicha AQSh dan keyin 2-o'rinda turadi. GFR sanoati rivojlangan davlatlarga, birinchi navbatda Yevropa kengashidagi sheriklariga qarab ish tutadi. Tashqi savdo aylanmasining 50% va olib chiqilayotgan sarmoyaning asosiy qismi ushbu davlatlarga to'g'ri keladi. Yevropaning aksariyat mamlakatlari uchun Germaniya bosh savdo sherigi hisoblanadi. Jahon bozorida Germaniya yuqori sifatli mahsulotlar bilan ta'minlovchi davlat sifatida tan olingan. Mamlakat eksportining 90% dan ortig'ini sanoat mollari tashkil etadi. Germaniyaning barcha yirik sanoat kompaniyalari transmilliy korporatsiyalar hisoblanadi. Ayniqsa, xalqaro ixtisoslashish tarmoqlarining korporatsiyalari jahonning eng yirik korporatsiyalari hisoblanadi. Masalan, kimyo sanoatida - "Bayer", «Hoechst», «BASF» kompaniyalari, elektronkada- «Siemens»,

avtomobilsozlikda ("Daimler-Benz"). Organik kimyo mahsulotlarini chetga chiqarish bo'yicha mamlakat jahonda birinchi o'rinda turadi. Mamlakat hozirda stanoklarni va boshqa ishlab chiqarish jihozlarini eksport qilish bo'yicha birinchi o'rinni egallash uchun Yaponiya bilan musobaqalashmoqda.

Topshiriqlar va yechimlar

1. Germaniya xo'jaligi bo'yicha ma'lumotlarning qaysi biri to'g'ri?

- A) Germaniya –jahonning eng rivojlangan mamlakati hisoblanadi;
- B) Germaniya ichki yalpi mahsulot va sanoat ishlab chiqarish hajmi bo'yicha AQSh va Yaponiyadan keyin uchinchi o'rinda turadi;
- C) Germaniyaning eng yirik markazlari Kyoln, Darmagen hisoblanadi;
- D) Myunxen, kimyo sanoatining asosiy rayoni hisoblanadi;
- E) Transport yo'llarining zichligi bo'yicha Germaniya jahonda oldingi o'rinlardan birini egallaydi;
- F) Germaniyada oliy darajadagi avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi 10 ming km dan ortiq.

Javob: A, B, E, F

2. Quyidagi savollardan javoblarni moslab jadvalni to'ldiring.

№	Savollar		Javoblar
1	Mashinasozlik eng ko'p rivojlangan yerlar	A	Rur, Soar, Axen
2	Oliy darajadagi avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi	B	Gamburg
3	AES larda elektr qurilmasining necha foizi ishlab chiqariladi	S	30 % ga yaqin
4	Ko'mirning xissasi necha foizga yaqin	D	30 % ni
5	Qora misni eritish qaysi shaharda amalga oshiriladi	E	11 ming km dan ortiq
6	Toshko'mirning asosiy konlari qaerlarda joylashgan	F	Baden-Iertenburg

Javob:

Savol:	1	2	3	4	5	6
Javob:	F	E	D	S	B	A

3. Quyidagi fikrlarni qaysi biri noto'g'ri? Javoblarni jadvalga ha yoki yo'q so'zlarini yozing hamda jadvalni to'ldiring.



- 1). Areen havzalarida joylashgan ko'mirning 2/3 qismi yuqori sifatli kokslangan ko'mirdir;
- 2). Germaniyada ishlab chiqarilgan jami elektr energiyaning 30 % ini AES lar beradi;
- 3). Germaniya dunyodagi kimyolashgan mamlakat hisobalanadi;
- 4). Germaniyaning transport tarmog'i yaxshi rivojlanmagan;
- 5). Germaniya jahondagi eng yirik investorlardan biri emas;
- 6). Xalqaro bozorda Germaniya yuqori sifatli mahsulotlar bilan ta'minlovchi davlat emas.

Javob:

Savol	1	2	3	4	5	6
Javob	ha	ha	ha	yo'q	yo'q	yo'q

4. Germaniyaning sanoat tarmoqlari ko'rsatkichlarini jadvaldan foydalanib quyida berilgan chizmaga to'ldiring.

1	AES larda elektr quvvatining necha foizini ishlab chiqaradi	A	90 %
2	Ko'mirning	B	50 %
3	Kimyo sanoati	S	30 % ga yaqin
4	Tashqi savdning umumiy hajmi bo'yicha nechanchi o'rinda turadi	D	2/5 qismi
5	Eksportning necha foizini sanoat kimyo sanoati tashkil etadi	E	2 chi o'rinda



Javob:

5. Quyidagi berilgan ma'lumotlarning qaysi biri to'g'ri?

- A) Germaniya jahondagi eng yirik investorlardan biri hisoblanadi;
- B) Germaniyada quvur transporti rivojlanmagan;
- C) Tashqi savdoning umumiy hajmi bo'yicha Germaniya davlati AQSh dan keyin 2- o'rinda turadi;
- D) Germaniya eksportining 90 % dan ortig'ini sanoat mollari tashkil etmaydi;
- E) Jahon tashqi savdo aylanmasining 40 % i Germaniya davlatiga to'g'ri keladi

Javob: B, S, D, E

6. Dunyodagi kimyolashgan mamlakatni toping. Chalkashlikni aniqlang.

Javob:

G	E	R	M	A	N	I	Y	A
---	---	---	---	---	---	---	---	---

7. Germaniyaning eng yirik markazlarini aniqlang.

- 1). Myunxen, Gamburg
- 2). Shimoliy Reyn- Vestbolyadir
- 3). Leypsig
- 4). Nyunberg
- 5). Boden – Vyumtemberg
- 6). Mangeym, Berlin

Javob: 1,2,3,4

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида»ги. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлар тўплами. 2017 йил 6 сон 70 модда.
2. Abirqulov Q. Iqtisodiy geografiya. –Т., 2004.
3. Экономическая и социальная география стран ближнего зарубежья. Под ред. М. Ратанова. –М., 2004.
4. Родионва И.А Экономическая и социальная география мира. Т.1.2: Учебник для бакалавров. изд. исправ. и доп. М. Издательств. Юрайт. 2015.
5. Липец Ю. Г. Пуляркин В. А., Шлихтер С. Б. География мирового хозяйства. - М., 1999
6. Н.С. Мироненко. Введение в географию мирового хозяйства. М, 1995г.
7. Социально – экономическая география зарубежного мира. (Под ред В.В. Волского). М. Крон – Пресс, 1998г.
8. Voltaev M.J. Chet mamlakatlar iqtisodiy geografiyasi .Ma’ruza matni. 2000 yil.
9. Страны мира. -М.: Мысль, 1996.
10. Kulke E. Wirtschafts - geographie. -Munxen – Zurich: «Ferdinand Schoningh», 2004.

13-§. Buyuk Britaniya

Buyuk Britaniya, Britaniya, (inglizcha: Great Britain) yoki Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi (inglizcha: United Kingdom of Great Britain and Northern Ireland) - Shimoli-Gʻarbiy Yevropadagi davlat. Buyuk Britaniya oroli (mamlakat hududining 90%i shu orolda) va Irlandiya orolining shimoli-sharqiy qismida hamda ularga yondosh mayda orollar (Anglsi, Uayt, Normand, Orkney, Gebrid, Shetlend va boshqalar) da joylashgan. Gʻarbdan Atlantika okeani, sharqdan Shimoliy dengiz oʻrab turadi. Buyuk Britaniya mamlakat asosiy qismining nomi bilan koʻpincha Angliya deb ataladi. Maydoni 244,1 ming km². Aholisi 66,5 mln kishi (2018 yil). Poytaxti - London shahri. Tarixan tarkib topgan va milliy jihatdan har xil boʻlgan 4 maʼmuriy siyosiy qism (Angliya, Uels, Shotlandiya va unga yondosh orollar,

Shimoliy Irlandiya) dan iborat. Men va Normand orollari mustaqil ma'muriy hudud hisoblanadi.

Davlat tuzumi. Buyuk Britaniya konstitutsion monarxiya. Davlat boshlig'i qirol (qirolicha). Mamlakatning konstitutsiyasi yo'q. 1215 yilgi ulug' Erkinliklar partiyasi, 1679-yilgi Habeas korpus akti, 1931-yilgi Vestminster statusida, 1969-yilgi Xalq vakilligi to'g'risidagi akt va boshqa eng muhim parlament hujjatlari hisoblanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni qirol (qirolicha) va parlament (u ikki palatadan iborat: Lordlar palatasi va Jamoalar palatasi), ijrochi hokimiyatni bosh vazir boshchiligidagi hukumat (vazirlar mahkamasi) amalga oshiradi. Bosh vazirni qirol (qirolicha) tayinlaydi. Hukumat a'zolari parlament a'zolaridan bo'lishi kerak. Buyuk Britaniya tarkibidagi Angliya, Uels va Shotlandiya o'zining sud tizimiga, mahalliy boshqaruv organlariga ega. Shimoliy Irlandiya ma'muriy muxtoriyat huquqiga ega bo'lib, uni qirol (qirolicha) tayinlagan gubernator boshqaradi. Buyuk Britaniya o'tmishda Britaniya imperiyasi tarkibida bo'lgan mamlakat va hududlarni birlashtiruvchi Hamdo'stlikka boshchilik qiladi.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Buyuk Britaniyaning yer yuzasi asosan pastgekislik. Angliyaning shimoli-g'arbi tog'likdan, markazi va janubi-sharqi tekislik va sertepa pasttekisliklardan, Shotlandiyaning qirg'ogi egribugri, shim; qismi tor va chuqur Glen-Mor depressiyasi 2 qismga bo'lib turgan Shimoliy Shotlandiya tog'ligidan iborat. Bu ikkala qismning janubida (Grampian tog'lari) mamlakatning eng baland cho'qqisi - Ben-Nevis (1343 m) ko'tarilib turadi. Grampian tog'laridan janubida Shotlandiya pasttekisligi, undan jan.rokda Janubiy Shotlandiya qiri (balandligi 842 m gacha) joylashgan. Ulardan g'arbda Kamberlend tog'lari (Skofell tog'i, 978 m) qad ko'targan. Janubga tomon orol kengaya boradi; bu yerda - Uels yarim orolining g'arbida Kembriy tog'lari (Snoudon tog'i, 1085 m) bor. Angliyaning g'arbiy qirg'og'ida keng qo'ltiqlar (Liverpul, Kardigan, Bristol), markaziy va janubiy qismlarida pasttekisliklar (Shim. Sharqiy Feni, London havzasi, Midlend, Xempshir), qator asimmetrik tepalar (balandligi 200– 300 m) bor. Shimoliy Irlandiya ayrim kichik-kichik qirlardan (Antrim, Sperrin, Morn va boshqalar) iborat.

Buyuk Britaniyada foydali qazilmalar kam. Asosan temir rudasi va yuqori sifatli toshko‘mir, tosh tuz, kaolin, ozroq miqdorda yonuvchi slanes qazib olinadi. Neft va rangli metall konlari mavjud. Shimoliy dengizning Buyuk Britaniya qirtog‘i yaqinida tabiiy gaz konlari bor.

Buyuk Britaniyada mo‘tadil dengiz iqlimi hukmron; u seryog‘in, o‘zgaruvchan, tez-tez shamol bo‘lib turadi. Janubi-g‘arbida yanvarning o‘rtacha temperaturasi 7°C, sharqda 3,5° C gacha. Shimoli-g‘arbida yoz salqin, sernam, janubi-sharqda ancha iliq va quruq. Shimolida iyulning o‘rtacha temperaturasi 13°C, janubi-sharqda 16,5°C. London va uning atrofida temperatura yuz kun davomida 0°C dan past, mamlakat sharqida ba‘zan -18°C gachatushadi. Yog‘in yil davomida deyarli bir me‘yorda (kuz va qishda bir oz ko‘proq) tushadi, janubi-sharqida yoz va kuzda ko‘proq yog‘adi. Shotlandiya, Shimoliy Irlandiya, Angliya bilan Uelsning tog‘li joylarida yog‘in eng ko‘p (1000-1500 mm, ayrim joylarda 3000 mm gacha) yog‘adi. Janubi-sharqda 600–750 mm dan oshmaydi. Bulutli kunlar ko‘p, qishda tez-tez tuman (Londonda qishda 1 oyda 7-10 kun) tushadi. Daryolari ko‘p, sersuv, lekin qisqa. Asosiy daryolari - Severn, Temza, Trent, Mersi, Klayd. Daryolar asosan yomg‘ir suvlaridan to‘yinadi; kuz va qishda to‘lib oqadi, yaxlamaydi, ko‘pchiligi kema qatnaydigan kanallar bilan birlashtirilgan. Tog‘larida ko‘llar ko‘p. Ularning aksariyati muzlik va tektonik harakat natijasida paydo bo‘lgan. Eng yirik ko‘llari: LoxNey, LoxLomond, LoxNess. Shotlandiya shimolida tog‘-podzol tuproq, tog‘ tepalarida tog‘-tundra tuproq, pasttekisliklarda, shimoli-g‘arbda va shimolida chimli podzol tuproq, sharqiy sohilda va janubida qo‘ng‘ir o‘rmon, ayrim yerlarda chimli, karbonatli va unumdor allyuvial tuproqdar tarqalgan. Shimolida tayga va aralash o‘rmonlar (qarag‘ay, dub, oq qayin), janubida keng bargli o‘rmonlar (dub, grab, shumtol) o‘sadi. O‘rmonlar Buyuk Britaniya maydonining 9 % ida qolgan. O‘tloqlar hamma joyda uchraydi. Tog‘larning yuqori mintaqalarida tog‘ o‘tloqlari va torfzorlar bor. O‘rmonlarda hayvonlar juda kam. Ochiq joylarda tulki, quyon, olmaxon, tipratikan, yer qazuvchi har xil sut emizuvchilar uchraydi. Qushlardan yovvoyi kaptar, shotland kakligi, o‘rdak, qizilishton, karqur va boshqa bor. Milliy bog‘lar, o‘rmon qo‘riqxonalar mavjud.

Tarixi. Hozirgi Buyuk Britaniya hududida miloddan avvalgi 1-ming yillikda kelt qabilalari -brittlar yashagan.

1066 yil Angliyani Normandiya gersogi Vilgelm I istilo qilgandan so'ng mamlakatda feodal yer egaligi paydo bo'lib, dehqonlarni tutqinlikka (krepostnoylikka) aylantirish avj oldi. X-XI asrlarda hunarmandchilik va savdo-sotiq markazi tusini olgan shaharlar paydo bo'la boshladi. XII-XIII asrlarda markazlashgan moliya va sud muassasalari yuzaga keldi. 1265 yil paydo bo'lgan Parlament bojlarni tasdiqlash va qonunlar joriy etish huquqini oldi; hokimi mutlaqlik tizimi (monarxiya) barpo bo'ldi. Angliya bilan Fransiya o'rtasida bo'lib o'tgan Yuz yillik urush (1337-1453) oqibatida soliqlarning ko'payishi va 1348-49 yillardagi vabodan so'ng aholi ahvolining og'irlashishi Uot Tayler (1381) boshchiligidagi dehqonlar qo'zg'oloniga sabab bo'ldi. XV asrda Angliyada dehqonlarning tutqinligi batamom yo'qotildi, tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi mayda va o'rta hol dvoryanlarning tabaqalanishiga sabab bo'ldi. Kapitalistik munosabatlar shakllanayotgan paytda tyudorlar sulolasining cheklanmagan hokimiyati (1485-1603) qaror topdi. Movut sanoatining rivojlanishi, junga talabning ko'payishi tufayli ekinzorlar chorva yaylovlariga aylanib ketdi, natijada dehqon xo'jaliklari xonavayron bo'ldi. XVI asrning 30- yillarida boshlangan reformatsiya harakati natijasida papa hukmronligiga chek qo'yilib, cherkovga qarashli yerlar burjualashgan yangi dvoryanlarga bo'lib berildi. XVI asr 2-yarmi va V-VII asr boshlarida Angliya hukumati mustamlakachilik siyosatini yurita boshladi (Irlandiyada xususiy yerlar musodara qilindi, Shimoliy Amerikada esa dastlabki ingliz mustamlakalari paydo bo'ldi), qullar bozori va portlar kuchaytirildi. Dengizda hukmronlik uchun kurashda Angliya g'olib chikdi. XVI asr oxiridan boshlab absolyutizmga asoslangan tuzum inqirozga yuz tutdi, styuartlar (Yakov I, 1603-25; Karl I, 1625-49) ichki va tashqi siyosatining burjuaziya manfaatlariga zid kelib qolishi absolyutizmga qarshi burjua muxolifatini keltirib chiqardi. Bu ziddiyatlar XVII-asrdagi ingliz burjua inqilobiga olib keldi. Inqilobda g'alaba qozongan burjuaziya va yangi dvoryanlar qishloq xo'jaligi hamda sanoatda kapitalistik taraqqiyotga to'siq bo'lib turgan g'ovlarni yo'qotdi, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga yo'l ochdi. XVII asr oxirida Buyuk Britaniyada yer va moliya aristokratiyasining siyosiy

ittifoqi paydo bo'ldi. XVIII asr o'rtalariga kelib manufaktura bosqichidan ishxona tizimiga o'tish uchun sharoit yaratildi. XVIII asrning 2-yarmida Buyuk Britaniya hukmron doiralari siyosiy jihatdan ajralib chiqdi. XVIII asr o'rtalarida shu partiyalar asosida konservatorlar va liberallar partiyasi tashkil topdi.

XVII-XVIII asrlarda Buyuk Britaniya Hindiston, Shimoliy Amerikada yangi yerlar zabt etdi. Fransiyadan Kanadani tortib oldi. Shimoliy Amerikadagi mustaqillik uchun bo'lgan urush (1775-83) natijasida Shimoliy Amerika mustamlakalari mustaqillikka erishdi va mustaqil AQSh davlati tashkil topdi. XVIII asr oxiri - XIX asr boshlarida Buyuk Britaniya burjuaziyasi o'z savdo-sanoati va mustamlakachilik hukmronligini mustahkamlashda foydalandi. Vena kongressi (1814-15) qarorlariga muvofiq, Malta, Seylon orollari, Janubiy Afrikadagi Kap mustamlakasi va boshqa hududlar Buyuk Britaniyaga o'tdi. Mustamlaka xalqlarini talash hamda dehqonlarni yer mulkidan mahrum qilish evaziga sarmoya jamg'arilib, sanoatda to'ntarish yasashga zamin tayyorlandi.

XIX asrning 30-yillarida ishlab chiqarishning fabrika tizimi qaror topdi. 30-40 yillarda siyosiy jihatdan shakllangan ishchilar harakati -chartizm keng avj oldi. Buyuk Britaniya hukumatining tashqi siyosati ingliz burjuaziyasining savdo-sanoat sohasidagi ustunligini mustahkamlash, mustamlakalarni ko'paytirishga qaratildi. Buyuk Britaniya Yangi Zelandiya, Birma, Janubiy Amerikadagi poyonsiz hududlarni bosib oldi, XIX asrning birinchi yarmiga kelib, Hindistonni zabt etishni tugalladi, Xitoy (1840-42, 1856-60) hamda Afg'onistonga qarshi (1838-42, 1878-80) bosqinchilik urushlari olib bordi, Hindiston (1857-60), Irlandiya (1848-67 va boshqalar), Yamayka orolidagi (1832) milliy ozodlik qo'zg'olonlarini shavqatsizlik bilan bostirdi. Xitoydagi Taypin qo'zg'olonini (1851-64) bostirishda ishtirok etdi. Qrim urushi tashabbuskorlaridan biri bo'ldi. 1878 yil Kipr orolini, 1882 yil Misr, 1898 yil Sharqiy Sudanni, 1899-1902 yillarda Janubiy Afrikadagi bir qancha hududlarni zabt etdi.

XX-asr boshlariga kelib Buyuk Britaniya iqqisodiy jihatdan AQSh va Olmoniyadan orqada qola boshladi. Buyuk Britaniya bilan Olmoniya o'rtasidagi ziddiyat Birinchi jahon urushini keltirib chiqardi. Urush oqibatida g'olib mamlakatlar qatori Olmoniyaning Osiyo va Afrikadagi mustamlakalarini tortib olish hisobiga o'z

mustamlakalarini kengaytirishga erishdi. 20-yillarda Buyuk Britaniya Xitoyga qarshi intervensiya uyushtirishda qatnashdi. 1929-33 yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi Buyuk Britaniya iqtisodiyotiga katta zarar yetkazdi. 1938 yil Buyuk Britaniya hukumati Myunxen shartnomasiga qo'shib, Ikkinchi jahon urushining boshlanishiga yo'l ochdi. 1939 yil 3 sentabrda Buyuk Britaniya Olmoniyaga urush e'lon qildi. Urush Buyuk Britaniyaning iqtisodiy va siyosiy mavqe'ini ancha pasaytirdi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Buyuk Britaniya mustamlakachilik imperiyasi tushkunlikka yuz tutdi. 1970-yillarning o'rtalarida Buyuk Britaniyaning deyarli barcha mustamlakalari mustaqillikka erishdi. Ikkinchi jahon urushidan keyin Buyuk Britaniya hukumatini navbatma navbat leyboristlar (1945-51, 1964-70, 1974-79) va konservatorlar (1951-64, 1970-74 va 1979 yildan) partiyasi boshqardi. Buyuk Britaniya 1945 yildan BMT a'zosi.

O'zbekiston Respublikasi bilan diplomatiya munosabatlarini 1992 yil 18 fevralda o'rnatgan. Milliy bayrami -Qirolicha tug'ilgan kun (iyun oyining ikkinchi yoki uchinchi shanbasi).

Asosiy siyosiy partiyalarni, kasaba uyushmalari. Leyboristlar partiyasi, 1900 yil tuzilgan; Konservatorlar partiyasi, 1867 yil tashkil topgan; Liberal demokratlar partiyasi, 1988 yilda asos solingan; Uels millatchi partiyasi, 1925 yilda tuzilgan; Shotlandiya milliy partiyasi, 1928 yilda tashkil etilgan; Britaniya Kommunistax partiyasi, 1988 yilda Buyuk Britaniya Kommunistik partiyasining sobiq a'zolari tomonidan tuzilgan; So'l demokratlar partiyasi, 1920 yil tashkil etilgan.

Eng yirik kasaba uyushma birlashmasi - Britaniya tredyunionlar kongressi, 1868 yil tuzilgan; Shotlandiya tredyunionlar kongressi, 1897 yil tuzilgan; Tredyunionlar umumiy federatsiyasi, 1899 yil tuzilgan; Uels tredyunionlar kongressi, 1973 yil tashkil etilgan.

Aholisi. Buyuk Britaniyada 2018 yil ma'lumotlariga ko'ra 64,4 mln kishi istiqomat qiladi. Aholisining 81,5 %i inglizlar. Uelslar yoki valliylar (1,9 %), shotlandlar (9,6 %), irlandlar (2,4 %) va boshqa xalqlar bor. Davlat tili va aholining ko'pchiligi gaplashadigan til - ingliz tili. Irlandlar, uelslar va gellarning bir qismi kelt

tillariga kiradigan mahalliy tillarda gaplashadilar. Dindorlarning aksariyati protestantlar; aholisining bir qismi (shu jumladan irlandlar) katoliklardir. Aholining 90 % i shaharlarda yashaydi (1996). Yirik shaharlari: London, Birmingem, Glazgo, Liverpul, Manchester, Sheffild, Lids.

Sanoati. Buyuk Britaniya iqtisodiy jihatdan rivojlangan yirik sanoatlashgan mamlakat. Yalpi ichki mahsulotning 21 % ni sanoat, 1,8 % ni qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 70,2 % ni xizmat ko'rsatish tarmog'i beradi. Buyuk Britaniya eksportining 90 % ni sanoat ta'minlaydi. Ikkinchi jahon urushidan keyin sanoat tuzilmasida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi: konchilik, qora metallurgiya, yengil va oziq-ovqat sanoati, shuningdek kemasozlik va avtomobilsozlik kabi tarmoqlar ulushi kamaydi; energetika, elektr mashinasozligi va kimyo sanoatining ulushi oshdi. Atom, elektron, aerokosmik, neftni qayta ishlash va neft kimyosi tarmoqdari katta ahamiyat kasb etdi.

Mashinasozlik -sanoatning muhim tarmog'i, avtomobil, samolyot, raketalar, kemalar, sanoat ishxonalari uchun kompleks asbobuskunalar, ilmiy apparatlar va asboblari, radio elektronika va elektronika mahsulotlari ishlab chiqarish ayniqsa ajralib turadi. Traktorsozlik, stanoksozlik, neftni qayta ishlash, kimyo (plastmassa va sintetik smolalar, dori-darmonlar, ma'danli o'g'it, bo'yoqlar, kimyoviy tolalar, sintetik kauchuk, sulfat kislota ishlab chiqarish), to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati rivojlangan. Yengil sanoatning poyabzal tikish, tikuvchilik va boshqa tarmoqlari bo'yicha yirik ishxonalari mavjud. Mashinasozlik markazlarining ko'pchiligi Janubiy va Markaziy Angliyada joylashgan, ularning eng muhimlari - London, Birmingem, Koventri, Luton, Sheffild shaharlarida. Qora metallurgiyaning asosiy markazlari -Janubiy Uels, Yorkshir va Hambersayd, Shimoliy Angliya va Shotlandiyada. Rangli metallurgiya ishxonalari - Midlend, Janubiy Uels, Taynsayd va Londonda. Atom sanoati ishxonalari Shimoliy G'arbiy Angliya va London atrofida joylashgan. Kimyo sanoati ishxonalari Katta London, Lankashir, Cheshir, Shimoliy dengiz va Bristol qo'ltig'i sohillarida, to'qimachilik sanoati ishxonalari Lankashir va Yorkshirda. Shimoliy dengizda katta neft va gaz zaxiralari mavjud. Buyuk Britaniyada yiliga o'rtacha 48,2 mln. tonna toshko'mir, 121,8 mln. tonna neft, 89,8 mlrd. m³ tabiiy gaz qazib olinadi, 304,5 mlrd.

Kvt\soat elektr energiyasi (asosan issiqlik elektr stansiyalarida) hosil qilinadi, 17,5 mln. tonna po‘lat ishlab chiqariladi.

Qishloq xo‘jaligi. Qishloq xo‘jaligida mamlakatdagi mehnatga qobiliyatli aholining 2 % gina band. Buyuk Britaniya qishloq xo‘jaligi intensivlik, mahsuldorlik va mexanizatsiyalashuvning yuksak darajasi bilan ajralib turadi. U mamlakatning oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojining 75 %ini ta‘minlaydi. Birlashgan Qirollikning asosiy tarmog‘i -chorvachilik Buyuk Britaniyada 12 mln. qoramol, 7,5 mln. cho‘chqa, 41,5 mln. qo‘y, 131 mln. parranda bor. Dehqonchilikda asosiy ekin - g‘alla. Qand lavlagi, kartoshka ham eqiladi. Sabzavotchilik, bog‘dorchilik, gulchilik rivojlangan. Shimoliy dengiz va Atlantika okeanida baliq ovlanadi.

Transporti. Birlashgan Qirolliklar uzunligi 32 ming km. Asosiy temir yo‘l uzeli - London; undan 11 tomonga temir yo‘l ketgan. Birlashgan Qirolliklarning zichligi jihatidan Yevropada Belgiyadan keyin 2-o‘rinda. Ichki yuklarni tashishda avtomobil transporti 1-o‘rinda. 368,8 ming km avtomobil yo‘li bor (1990-yillar oxirlari). Yo‘lovchilar tashishda havo transportining mavqei katta. Dengiz savdo flotining tonnaji 4,3 mln. tonna dedveyt. Eng yirik dengiz portlari: London, Sautgempton, Milford, Xeyven, Xall, Immengem, Liverpool, Manchester va boshqalar.

Tashqi iqtisodiy aloqalari. Tashqi savdo mamlakat iqtisodiyoti uchun juda katta ahamiyatga ega. Chetga chiqariladigan mahsulotning 90 % ini sanoat tarmog‘i beradi. Buyuk Britaniya chetga mashina va uskunalar, transport jihozlari, ip va jun gazlamalar, kimyo mahsulotlari, neft mahsulotlari, oziq-ovqat, qoramol, po‘lat, toshko‘mir chiqaradi. Chetdan temir ruda, rangli va nodir metallar, neft, fosforit, paxta, turli xom ashyo va oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa keltiriladi. Tashqi savdodagi asosiy mijozlari -Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, AQSh, Yaponiya. Chet el sayyohligi rivojlangan (1 yilda 12 mln. kishi kelib ketadi).

Buyuk Britaniyada nishonlanadigan bayramlar:

1 yanvar -yangi yil;

12 yanvar -Kel‘t musiqa va madaniyati kuni;

25 yanvar -Robert Bern tug‘ilgan kuni;

30 anvar-Apxeleo bayrami. Bayramda aholi vikinglar kiyimida eski kemani bolta yordamida maydalab, olov bilan yoqishadi. Song yonib bo`lgan kema yonida qo`shiq kuylashadi.

14 fevral-Avliyo Valentin kuni;

1 mart-Avliyo Devid kuni;

17 mart-Avliyo Patrik kuni;

26 mart –Onalar kuni;

1 aprel-kulgi kuni;

6 aprel-zavqli juma kuni;

8 aprel-Katolik Pasxa kuni;

19 aprel-qor bayrami;

21 aprel-Qirolicha Yelezavetta II tug`ilgan kuni;

30 aprel-Bahor bayramining davomiy kuni;

1 may –bahor bayrami;

25 dekabr –Katolik tug`ilgan kuni;

26 dekabr –sovg`alar kuni

Topshiriqlar va yechimlar


1. Buyuk Britaniyadagi quyidagi shaharlarni xaritada shimoldan janubga tomon ketma-ketlikda joylashishini aniqlang. 1). London; 2).Edinburg; 3).Liverpool; 4).Birmingem; 5).Averdin.

Javob.



2. Buyuk Britaniyaning foydali qazilmalar turi bilan ta'minlanganligini quyidagi berilgan javoblar orqali aniqlang.

Javob:





3. Berilgan ma'lumotlardan Buyuk Britaniyaga tegishlisini aniqlang.


- 1). La-Mansh bo'g'ozini Buyuk Britaniyani Fransiyadan ajratib turadi;
- 2). Hozirda Buyuk Britaniyani 10 ga yaqin orti hududi mavjud;
- 3). Gibraltar Birlashgan qirg'oqlarining dengiz orti hududi hisoblanadi;
- 4). Qirollik unitary davlat hisoblanadi;
- 5). Golfstrim oqimi Buyuk Britaniyada ko'p yog'in yog'ishiga sabab bo'ladi;
- 6). Buyuk Britaniyaning urbanizatsiya darajasi 70% ni tashkil etadi;
- 7). Aviasozlik, kimyo, farmasevtika sohasi yaxshi rivojlangan;
- 8). Birlashgan Qirollik YIM hajmiga ko'ra Yevropada birinchi o'rinda turadi.

Javob:

Savol	1	2	3	4	5	6	7	8
Javob	Ha	Yo`q	Ha	ha	ha	Yo`q	ha	Yo`q


4. Berilgan xaritadan Buyuk Britaniyada eng ko'p tarqalgan dinlarni hududlar bo'yicha aniqlang.

- 1). Katoliklar ; 2). Prortestantlar; 3). Kalirnistlar; 4). Anglikanlar



5. Buyuk Britaniyada sanoatning rivojlangan tarmoqlarini berilgan zanjir chizmasi ichiga joylashtiring. 1). Mashinasozlik va metallni qayta ishlash; 2). Elektrotexnika va asbobsozlik; 3). Dastgohsozlik; 4). Og'ir mashinasozlik; 5). Kemasozlik; 6). Transport mashinasozligi; 7). Avtomobilsozlik; 8). Aviatsiya va raketsozlik; 9). Traktor va qishloq xo'jaligi mashinasozligi; 10). Qora metallurgiya.

Javob:



6. Buyuk Britaniya qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishning mamlakat hududi bo'ylab taqsimotini o'zaro moslashtiring.

t/r	Qishloq xo'jaligi tarmoqlari	Javoblar	Mamlakat hududi bo'ylab joylashishi
1	Tabiiy yaylovdagi qo'ychilik	A	Sharqida
2	Chorvachilik bilan birgalikda donli ekinlar	B	G'arbida
3	Madaniy o'tloqdagi sut-go'sht chorvachiligi	C	Janubi-sharqida
4	Savzavotchilik va bog'dorchilik	D	Markaziy qismida
Javob: 1 - ; 2 - ; 3 - ; 4 -			

Javob: 1-B; 2-A; 3-D; 4-C

7. Buyuk Britaniya aholisi dinamikasiga oid ma'lumotlarni aniqlang hamda berilgan chizma ichiga joylang.

- 1). Buyuk Britaniyada hozirda 66, 67, 68 mln aholi yashaydi;
- 2). Aholining ko'payishi 0,2%, 0,3%, 0,4% ga teng;
- 3). Buyuk Britaniyada urbanizatsiya ko'rsatkichi 78%, 80%, 82% ga teng;
- 4). Qirollik aholisining 78%, 82%, 86% Angliyada yashaydi;
- 5). Buyuk Britaniya aholisi soniga ko'ra Yevropada 3-, 4-, 5- o'rinda turadi.

1) ; 2) ; 3) ; 4) ; 5)

Javob: 1) ; 2) ; 3) ; 4) ; 5)

8. Buyuk Britaniyaning eng yirik va sanoati yuksak darajada rivojlangan shaharlarini aniqlang. 1). London; 2). Manchester; 3). Bristo; 4). Liverpool;

5). Oksford; 6). Edinburg; 7). Dandi; 8). Birmingem; 9). Averdin; 10). Glazgo.

A. 1,2,5,7; B. 1,2,4,6,8,10; C. 3,5,7,8,9,10; D. 1,2,6,7,9,10

Javob: B.

9. Berilgan ma'lumotlarning to'g'risini aniqlang.

- A). Birlashgan Qirollik qirg'oqlarini Shimoliy dengiz suvlari yuvib turadi;
- B). Quruqlikda mamlakat faqat Irlandiya bilan chegaradosh;
- C). Hozirgi vaqtda Buyuk Britaniya Kanada, Yangi Zelandiya rahbari hamdir;
- D). Boshqaruv shakli-respublika;
- E). Qirollikda Angliyadan boshqa 3 ta mamlakat muhtoriyatga ega;
- S). Siyosiy hududiy jihatdan Britaniya qirolligi Unitar davlat.

Javob: A,B,E,S

10. Buyuk Britaniya qaysi sanoat tarmog`ining rivojlanishi bo`yicha AQSh va Yaponiyadan keyingi o`rinni egallashini aniqlang hamda chalkashlikni toping.

E	T	R	I	C	H	I	K	I	L
---	---	---	---	---	---	---	---	---	---

Javob:

T	E	R	I	C	H	I	L	I	K
---	---	---	---	---	---	---	---	---	---

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида»ги. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлар тўплами. 2017 йил 6 сон 70 модда.

2. Abirqulov Q. Iqtisodiy geografiya. –T., 2004.

3. Экономическая и социальная география стран ближнего зарубежья. Под ред. М. Ратанова. –М., 2004.

4. Родионва И.А Экономическая и социальная география мира. Т.1.2: Учебник для бакалавров. изд. исправ. и доп. М. Издательств. Юрайт. 2015.

5. Липец Ю. Г. Пуляркин В. А., Шлихтер С. Б. География мирового хозяйства. - М., 1999

6. Н.С. Мироненко. Введение в географию мирового хозяйства. М, 1995г.

7. Социально–экономическая география зарубежного мира. (Под ред В.В. Волского). М. Крон – Пресс, 1998г.

8. .Voltaev M.J. Chet mamlakatlar iqtisodiy geografiyasi .Ma`ruza matni. 2000 yil.

9. Страны мира. -М.: Мысль, 1996.

10. Kulke E. Wirtschafts - geographie. -Munxen – Zurich: «Ferdinand Schoningh», 2004.

14-§. Fransiya

Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari. Davlat tuzilishi - prezidentlik respublikasi. Mamlakat tarkibiga 96 departamentga bo`lingan 22 ta viloyat kiradi. Bundan tashqari dengizorti departamentlar va dengizorti hududlar ham Fransiya tarkibiga kiradi.

Birinchi respublika 1792 yilda e'lon qilingan. So'nggi Konstitutsiya (V respublika) 1958 yil 28 sentabrda qabul qilingan. Milliy bayram 14 iyul - Bastiliya olingan kun (1789). Davlat boshlig'i - prezident. Prezident Bosh vazir (Ministrlar Kengashi raisi)ni tayinlaydi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat Senat (yuqori palata) va Milliy Majlis (quyi palata) dan iborat parlament tomonidan amalga oshiriladi. Yirik siyosiy partiyalari: Fransuz demokratik ittifoqi, Respublikachilar partiyasi, Fransuz sotsialistik partiyasi, So'l radikal harakat, Fransiya kommunistik partiyasi, Milliy front.

Tarixi. M. av. I asrning o'rtalarida Galliya (hoz. Fransiya) qadimgi Rim tomonidan bosib olinadi. Franklar Galliyaga V asrda kirib kelishadi. Frank qirolligi Karolinglar sulolasi vakili Karl Buyuk davrida qudrat cho'qqisiga ko'tariladi. 987-yilda hokimiyatga Kapetinglar sulolasi keladi. G'arbiy Yevropada Fransiyaning ta'siri XIII asrda Fillip II Avgust va Lyudovik IX davrida ortadi. XIV asrda hokimiyatga Valua sulolasi keladi. 1337-yildan 1453-yilgacha Fransiya Angliya bilan «Yuz yillik urush» olib boradi. Shu davrda ingliz qo'shinlariga qarshi ozodlik kurashini Janna d'Ark boshlaydi. XVIII asrning oxirida absolyutizmning inqirozga uchrashi avvaliga podshoh hokimiyatining cheklanishiga (1789 yilda Bastiliyaning olinishi, Milliy Assambleyaning tuzilishi), keyinchalik esa I respublikaning tuzilishiga (1792) olib keldi. 1793-yilda krepostnoylik huquqi bekor qilindi. 1799 yili Napoleon Bonapart davlat to'ntarishi o'tkazib diktatura o'rnatdi va 1804 yilda o'zini Napoleon I nomi bilan imperator deb e'lon qildi. Bosqinchilik urushlari natijasida Fransiya deyarli butun Markaziy va G'arbiy Yevropani o'ziga bo'ysundirdi. 1812 yilgi Rossiyaga yurish «Buyuk armiyaning» yakson qilinishi bilan tugadi. 1814 yilda rus qo'shinlari Parijni bosib olishdi, bu holat Fransiya Burbonlar restavratsiyasiga olib keldi. 1815 yilda Napoleon qisqa muddatga hokimiyatga qaytdi («100 kun») va Vaterloo mag'lubiyatidan so'ng u butunlay hokimiyatni qo'ldan boy berdi. Fransiya inqilobdan oldingi chegaralarga qaytdi. 1830-yilgi inqilob burjua monarxiyasining o'rnatilishiga olib keldi. Navbatdagi 1848 yilgi inqilob natijasida Fransiya II respublika e'lon qilindi. Imperator Napoleon III 1852 yili monarxiyani qayta tikladi. 1853-1856 yillarda Fransiya Rossiyaga qarshi Qrim urushida ishtirok etdi. 1870-1871 yillardagi Fransiya-Prussiya urushi Elzas va Lotaringiyaning boy berilishi bilan tugadi. 1871 yil-Parij

Kommunasining tuzilishi va halokati. III Respublika Konstitutsiyasi 1875 yilda qabul qilindi. 1914-1918-yillarda Fransiya I Jahon urushida ishtirok etdi va g'alaba qozondi. Uning natijalariga ko'ra, Versal shartnomasi bo'yicha Elzas va Lotaringiyani o'ziga qaytarib oldi. Shuningdek, Saar viloyati, Togo va Kamerun ham Fransiya o'tdi. I Jahon urushi davrida Fransiya nemis qo'shinlari tomonidan okkupatsiya qilindi: mamlakat 2 qismga bo'lindi (bosib olingan hududlar va Muxtor Fransiya davlati). 1944 yili Normandiyaga ittifoqchi qo'shinlar tushirildi va Fransiya ozod qilindi. 1946-yili IV Respublika Konstitutsiyasi qabul qilindi. Fransiya 1949-yili NATOga a'zo bo'lib kirdi. 1945- 1954 yillarda V'etnamdagi mustamlaka urushlari natijasida Fransiya Hindi Xitoyini boy berdi. 1957 yilda mamlakat YI a'zosi bo'ldi. 1958 yilda ijroiya hukumat huquqlarini kengaytirgan yangi Konstitutsiya (V Respublika) qabul qilindi. 1960 yili Fransiya mustamlaka tizimining parchalanish jarayoni boshlandi. 1962 yili Jazoir mustaqillikka erishdi. 1966 yili Fransiya NATO harbiy tashkilotidan chiqdi. Fransiya 1970-1990 yillarda Yevropa integratsiyasining faol tarafdori bo'lib keldi. 2005 yilda kelib chiqishi Osiyo va Afrikadan bo'lgan muhojirlarning norozilik chiqishlari qator tartibsizliklarni keltirib chiqardi. 2007 yil may oyidagi prezidentlik saylovlarida N. Sarkozy g'olib chiqdi.

Geografik joylashuvi. Yevropaning g'arbidagi davlat. Janubda Ispaniya (chegara uzunligi -623 km) va Andorra (60 km), janubi sharqda Monako (4,4 km), shimoli sharqda Belgiya (620 km) va Lyuksemburg (73 km), sharqda Shveysariya (573 km) va Italiya (451 km) davlatlari bilan chegaradosh. Janubda mamlakat O'rtayer dengizi, g'arbda Biskay ko'rfazi, shimoli g'arbda La-Mansh va Pa-de-Kale bo'g'ozlari bilan tutashgan. O'rta Yer dengizidagi Korsika oroli, to'rtta dengizorti departamentlari - Martinika, Gvadelupa, Reyunon, Fransuz Gvianasi hamda dengizorti hududlari - Fransiya Polineziyasi, Yangi Kaledoniya, Sen-Pyer va Mikelon, Tinch okeanidagi bir qator arxipelaglar Fransiya tegishli. Chegarasining umumiy uzunligi (metropoliya va Korsika) -28924 km, sohil bo'ylab chegara uzunligi - 3427 km. Mamlakatning g'arbi va shimoli tekisliklardan iborat.

Tabiiy sharoti va resurslari. Iqlimi - mo'tadil, Korsika orolida subtropik. Mamlakatning to'rttan bir qismini o'rmonlar tashkil etadi. O'rmonlarda eman,

qaragʻay, qoraqayin, qayragʻoch, oq qayin, archa, kashtan kabi daraxtlar, Oʻrtayer dengizi boʻylarida zaytun, tok, palma, agavalar oʻsadi. Hayvonot dunyosini ayiq, togʻ echkisi, muflon, tulki, boʻrsiq, ohu, kosulya, toʻngʻiz, olmaxon, kaklik, burgut, flamingo (janubda) tashkil etadi.

Asosiy daryolari - Sena, Rona, Luara, Garonna. Koʻllar Fransiyada koʻp emas, eng yirik koʻl - Jeneva (katt qismi Shveysariyada joylashgan).

Markaz va sharqda oʻrta balandlikdagi Markaziy massiv, Vogez, Yura togʻlari joylashgan. Janubi gʻarbda Ispaniya bilan tabiiy chegara hosil qilgan Pireney togʻlari yotadi. Bu togʻ tizmasining eng baland nuqtasi-Pik-de-Vinmal (3298 m). Mamlakatning janubi sharqida Fransiya va Gʻarbiy Yevropaning eng baland choʻqqisi - Monblan togʻi (4807 m) joylashgan Fransuz Alplari yotadi. Asosiy tabiiy boyliklari: koʻmir, temir rudasi, boksitlar, rux, baliq, yogʻoch. Haydaladigan yerlar hududning 32% ini, oʻrmon va toʻqaylar 27% ini, oʻtloq va yaylovlar 23% ini tashkil etadi.

Sanoati. Sanoatning asosiy tarmoqlari (YIMning 1/4 qismi): mashinasozlik, kimyo, avtomobil, samolyotsozlik, elektronika, metallurgiya, togʻ-kon, toʻqimachilik, oziq-ovqat.

Qishloq xoʻjaligi. Unumdor yerlarning katta maydonlari, zamonaviy texnologiyalarning qoʻllanilishi, hukumat subsidiyalari Fransiyani Gʻarbiy Yevropada qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi yetakchi davlatga aylantirdi. Mamlakat iqtisodida tobora xizmat koʻrsatish sohasining salmogʻi ortmoqda. 2012 yil YIM miqdori 2064,5 mlrd AQSh dollarni (aholi jon boshiga – 33,5 ming AQSh doll.) tashkil etgan. Asosiy savdo hamkorlari: YH davlatlari, AQSh, Yaponiya.

Transporti. Temiryoʻllarining umumiy uzunligi-34568 km (11674 km elektrlashtirilgan), avtomobil yoʻllari - 1551400 km (803000 km asfaltlangan), ichki suv yoʻllari -15000 km. Asosiy portlari: Bordo, Gavr, Dyunker, Nant-Sen-Nazer, Ruan.

Fransiya bilan Oʻzbekiston Respublikasi oʻrtasida diplomatiya munosabatlari 1992 yilda oʻrnatildi va ular oʻrtasida iqtisodiyot, fan-texnika, madaniyat sohalaridagi hamkorlik samarali tus oldi.

Fan-texnika inqilobi. Fransuz olimlari birinchi bo`lib Nobel mukofotiga sazovor bo`lganlar. 1895 yilda aka-uka L. va J.Lyum'erlar kinematografni ixtro qilganlar. Ikkinchi jahon urushidan keyin Fransiyada ilmiy faoliyat deyarli to`xtagan. Aksariyat oliy o`quv yurti va ilmiy tadqiqod muassasalari yopib qo`yilgan. 1960 yilda esa yadro quroli, 1968 yili termoyadro quroli sinovlardan o`tkazildi. Parijda nashrdan chiqadigan kundalik yirik gazetalar «Figaro», «Frans suar», «Oror», «Mond» xabarlariga boy va eng nufuzli yirik burjua gazetasi hisoblanadi. XV asr oxirlarida Fransiyada uyg`onish davri boshlandi. Sahna raqslarining shakllanishi asosan XII-XIV asrlardan boshlangan. Sayyor qo`shiqchilar trubadurlar muzika poetik san'ati ravnaq topgan.

Topshiriqlar va yechimlar

1.Fransiya Respublikasi Yevropa qit'asining g`arbida joylashgan bolib, uning qirg`oqlarini qaysi ocean va dengizlar yuvib turadi?

- 1). Shimoli sharqdan Shimoliy Dengiz;
- 2). Janubi sharqdan O`rta Dengiz;
- 3). Janubi g`arbdan Gibraltar bo`g`ozi;
- 4).G`arb va shimoli g`arbdan Atlantika okeani
- 5). Shimoli g`arbdan Norvegiya

Javob: 1,2,4


2.Siyosiy hududiy jihatdan Fransiya unitary davlat bo`lib, u qanday ma'muriy birliklardan iboratligini aniqlang.

t\r	Ma'muriy birliklar	Javoblar
1	18 ta regionga bo`linadi	Yo`q
2	20 ta provinsiyadan iborat	Yo`q
3	12 ta asosiy kontinental qismdan iborat	Ha
4	16 ta asosiy kontinental qismdan iborat	Ha
5	1 ta O`rta Dengizdagi Korsika oroli kiradi	Yo`q
6	14 ta dengiz suvlari yuvib turadi	Ha
7	5 ta dengiz orti hududlaridan iborat	Yo`q


Javob: 1-ha, 2-yo`q, 3-ha, 4-yo`q, 5-ha, 6-yo`q, 7-ha

3. Fransiya hududining $\frac{2}{3}$ qismini tekisliklar egallagan bo'lib, shu bilan birga mamlakatning markaziy va janubiy qismlarida turli balandlikdagi tog'lar mavjud. Ularni balandligiga ko'ra ketma-ketligini aniqlang. 1). Markaziy massiv; 2). Bogiza; 3). Alp; 4). Pireney; 5). Agenna; 6). Yura

Javob:




4. Berilgan bayroqlardan Fransiya davlatiga tegishli bo'lgan bayroqni toping.



Javob: 2

5. Fransiya 8 ta davlat bilan chegaradosh bo'lib ularni xaritadan aniqlang.

Javob:



6. Fransiya jahon mamlakatlari ichida turistlar eng ko'p tashrif buyuradigan davlat hisoblanadi. Quyidagilardan turistlar eng ko'p kelib-ketadigan Fransiya hududlarini toping.


Javob:

✓ Nisa dengiz bo'yi kurorti;

- ✓ Luvr muzeyi;
- ✓ Sentrope dengiz bo`yi kurorti;
- Parij shahri;
- ✓ Kann dengiz bo`yi;
- Can Kanten hududi.

7. Fransiya davlatining tub joy aholisi qatoriga fransuzlardan tashqari 1) oksitanlar 2) korsikalar, 3) katolonlar, 4) lataringlar, 5) britanlar va 6) elsazliklar kiradi. Ularni aholi tarkibidagi xissasini quyida berilgan shakllarga joylang.

Javob:



8. Fransiya davlatida 11 noyabr kuni qanday bayram nishonlanadi. Nuqtalar o`rnini to`ldiring. Y..a.h.sh

Javob: Yarashish

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг янада ривожлантириш бўйича Харажатлар стратегияси тўғрисида»ги. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлар тўплами. 2017 йил 6 сон 70 модда.

2. Abirqulov Q. Iqtisodiy geografiya. –T., 2004.

3. Экономическая и социальная география стран ближнего зарубежья. Под ред. М. Ратанова. –М., 2004.

4. Родионва И.А Экономическая и социальная география мира. Т.1.2: Учебник для бакалавров. изд. исправ. и доп. М. Издательств. Юрайт. 2015.

5. Липец Ю. Г. Пуляркин В. А., Шлихтер С. Б. География мирового хозяйства. - М., 1999

6. Н.С. Мироненко. Введение в географию мирового хозяйства. М, 1995г.

7. Социально-экономическая география зарубежного мира. (Под ред В.В.Волского). М. Крон – Пресс, 1998г.
- 8..Boltaev M.J.Chet mamlakatlar iqtisodiy geografiyasi .Ma'ruza matni.2000 yil.
- 9.Страны мира.-М.:Мысль,1996.
- 10.Kulke E. Wirtschafts - geographie. -Munxen-Zurich: «Ferdinand Schoningh», 2004.

15-§. Italiya

Italiya maydoni -301,3 ming km² ni tashkil etadi. Poytaxti Rim shahri. Boshqaruv shakli parlamentar Respublika. Pul birligi yevro.

Geografik o`rni. Italiya rivojlangan davlatlar ichida siyosiy jihatdan o`z mavqeiga ega bo`lgan yirik mamlakatdir. Janubiy Yevropada joylashgan mamlakat . italiyaning bir qismi Yevropa janubidagi Appenin yarimorolida, Alp tog`larining janubiy yonbag`irlarida, kolgan qismlari bir qancha kichiki va yirik Sitsiliya va Sardiniya orollarida joylashgan.

Bu esa Italiyani 3 qismga bo`ladi.

- 1) materik qismi
- 2) yarim orol qismi
- 3) orollar qismi.

Materik qismi Italiyaning teritoriyasini yarmini tashkil qiladi. Maydon jihatidan Yevropada !!! –o`rinda turadi. Shuningdek, Italiya dunyodagi barcha rivojlangan mamlakatlar ichida maydon jihatdan 12-o`rinda turadi.

Mamlakat garbdan Fransiya bilan, shimolda Avstraliya va Shveytsariya, sharkda Sloveniya bilan chegaradosh. Qirg`oqlarini Terren, Adriatika, O`rta Dengiz, Ionik, Liguriya suvlari yuvib turadi. Italiyaning dengizdagi chegaralari quruqlikdagi chegaralaridan 4 marta uzun. Italiyaning quruqlik va dengiz chegaralari o`rtadagi masofaning eng uzog`i 200-300 km.ga teng.

O`rta Yer dengizida joylashgan uzun geografik o`rin va joylashishini juda qulay. Bu esa Afrika mamlakatlari, janubiy Yevropa mamlakatlari bilan yaqindan

ijtimoiy va iqtisodiy aloqa qilishi uchun juda qulay sharoit yaratadi. Xo`jalik yurgizish jihatidan ham juda qulay.

Shimoliy Italiyaning geografik o`rni janubiy Italiyanikiga qaraganda ancha qulay, chunki u iqtisodiy aloqalarini quruqlikda ham, dengizda dengiz yo`llari orqali ham olib borishi mumkin.

Siyosiy hududiy jihatdan Italiya 20 ta hudud (provinsiya)dan iborat unitary davlat hisoblanadi. 20 ta provinsiyadan 5 tasi, Sardiniya va Sitsiliya alohida maqomga ega.

Italiya ma'muriy hududiy jihatdan 20 ta viloyatdan iborat

	Oblastlar	Oblastlarga kiruvchi provintsiyalar	Ma'muriy mar-kazi
1	Ръмонт	Aleksandriya, Aster-Varselli, kunsal, Turin, Novara.	To`rin
2	Valle de Aosta	Aosta	Aosta
3	Lambardiya	Bergamo, Brest-Komo, Varese, Kremona, Milan, Sandriya.	Milan
4	Trentino Alto Adij	Bolʻtsono, Trento	Trento
5	Venetsiya	Polluno, Venetsiya, Verona, Vezinsa, Roviga, Terevizo.	Venetsiya
6	Friuli-Venetsiya Julia	Goretsiya, Trieste, Udine.	Udine
7	Lipuriya	Genuoya, Imperiya, Sovona, Spetsiya.	Genuaya
8	Emiliya-Romagniya	Boloniya, Parma, Piyazentsal, Ravenna, Rejonel-Emiliya, Ferrera-Formi.	Boloniya
9	Toskaniya	Aretsio, Grosseto, Livarno, Lukka, Massakarrora, Pizo, Pistoia, Siyana, Florentsiya.	Florentsiya
10	Umbriya	Perujiya, Perni.	Perujiya
11	Marke	Ankona, Askoli-Pisъeno, Maserata, Piazza, Armerino.	Ankona
12	Latsio	Viterbo, Latina, Risti, Rim, Frozinone.	Rim
13	Abruzzi	L'Akuliya, Kъesta, Paskara, Teramo.	L,Akuliya
14	Molizi	Kompobosso-Izernie.	Kompobosso
15	Apuliya	Bari, Brinuizi, Pechki, taranto, Fodja.	Bari
16	Kompaniya	Avtsino, Benevnta, Neapolъ, Kozerta, Salerno.	Neapol
17	Bazilikata	Matera, Potentsa.	Potentsa
18	Kolabriya	Katandzero, Jozentsa, Rejjo-de-Kolabriya.	Rejjo-de-Kolabriya
19	Sitsiliya oroli	Agrijento, Koroto, Aisetol, Kompaniya, Messinol, Polermo, Raguza, Tranani.	Polermo
20	Sardiniya oroli	Kogliari, Nuorra, Sassari.	Kogliari

Tabiiy sharoti va resurslari . O`rta Yer dengizi iqlimiga xos subtropik iqlimi bo`lib, o`rtacha yillik harorati $+15^{\circ}\text{C}$ o`rtacha yillik yog`in miqdori 300-500 mm atrofida. Mamlakatning 80% i to`gliklardan iborat. Shimolda Alp tog`lari joylashgan. Eng baland nuqtasi Monblan tog`i (4807 m) Alp tog`laridan janubda Lombardiya tekisligi joylashgan. Asosiy daryolari-Po, Arno, Tibr, o`rmonlari ko`p emas. Unda eman, kashtan, qayrog`och, savr daraxti, qoraqarag`ay, pixta o`sadi. Tog`larda Alp o`tloqlari o`sadi. Undan tashqari Markaziy va Janubiy Italiya iqlimi juda issiq, ya`ni yozi quruq, qishi esa quruq bo`ladi. Shimoliy Italiya iqlimi esa biroz salqinroq, kishida 50°C lik bo`ladi. Bu ko`rsatkich boshqa joylarga qaraganda ancha past. Qishda yomg`ir ko`p yog`adi. Lekin shuni ham aytib o`tish kerakki, Italiyada va umuman Yevropada yer qimirlashlar uncha qattiq bo`lmasa ham tez-tez bo`lib turadi.

Aholisi. Italiya Yevropadagi aholisi eng ko`p va eng zich joylashgan davlatlardan biri hisoblanadi. 2018 yil ma`lumotlariga ko`ra, Italiyada 60,6 mln kishi istiqomat qiladi.

Italiya aholisining milliy tarkibi 98% ni tashkil etadi. Italianlar diniy tarkibi 98% ni tashkil etadi. Italiyada cherkov garchi davlatdan ajratilgan bo`lsada, u mamlakatning siyosiy hayotiga aktiv aralashadi va aholining keng doiralari katta ta`sir o`tkazib kelmoqda.

Italiyaning shimoliy qismida boshqa millatlar yashaydi.

- Avstriyaliklar – 279 ming kishi.
- Frantsuzlar – 78 ming kishi.
- Xorvatlar – 5 ming kishi.

Italiyaning janubiy qismida va Sitsiliyada esa albanlar va greklar yashaydi.

Sanoati. Hozirgi vaqtda davlat birlashmalari 20% ishlab chiqarishda sanoat mahsulotning beradi. Ayrim davlat birlashmalari juda yirik. Masalan: Neftni qayta ishlovchi ENI monopiyasi Yevropadagi yirik mamlakatlardan biridir. Italiyadagi yirik monopiyada FINT 90% avtomobilning ishlab chiqariladi. Uning firmalari Germaniya, Fransiya, Belgiya, Angliyada joylashgan.

“Montedison” firmasi 80% kimyoviy tolani ishlab chiqariladi. Sanoat mahsulotlarning ishlab chiqarilad. Elektr texnika rezinalariga ishlab chiqarish yirik

monopoliya Yevropa iqtisodiy hamkorlari va AQSh bilan birlashtirilgan. Italiya xo‘jalik oldi foydasi ko‘proq kichik va o‘rta mamlakatlardagi korxonalarini hisoblanadi.

Qora metallurgiya – asosan ko‘p tonna xom ashyo ishlaydi. Asosan port shaharlarda Toronto, Neapol, Genoa, Triest va xokazo shaharlarda rivojlangan.

Rangli metall asosan o‘zining xom ashyosi alyuminiy, mis, rux, rutut Sardinyada mamlakatning janubiy sharq teritoriyalarda ko‘p foydali qazilmalar bor.

Mashinasozlik asosiy tarmoq bo‘lib, sanoatning 40% mahsulotlarining beradi. Tarmoqda transport mashinasi, (avtomobil kemasozlik) tanksozlik, radiotex, texnologiya elektron jixozlar yuqori o‘rinni egallaydi. Avtomobil ishlab chiqarish Torino, Milanda rivojlangan. Isaopol kemasozlik Genoa, Livorno, Taranto, Trestuda rivojlangan. 1830000 avtomobil ishlab chiqarish (1986 yilda).

Kimyo sanoati: Mamlakatdan keyingi 2 o‘rinda turadi. Neft kimyo, kimyoviy tola, plasmalar ishlab chiqarish neft kimyo bozorida rivojlandi. Kislotalar ishlab chiqarish, o‘g‘itlar, bo‘yoqlar ishlab chiqarish rivojlangan.

Yengil sanoat: to‘qimachilik alohida o‘rinni egallaydi. Paxta va shoyi matolarni tikadi. 1g sanoat mahsulotning beradi. Mamlakat import hisobiga rivojlangan. Oziq - ovqat sanoatida sut, qand, un tortish, tolani ishlab chiqarish rivojlandi. Yog‘, moy, makaron janubda rivojlandi.

Qishloq xo‘jaligi. Italiya mamlakatida tovar qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishga e‘tibor kuchaygan bo‘lishiga qaramay, ular hamon an’anaviy farq o‘zlari uchun iste’mol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi notovar xo‘jalik mahsulotlari bo‘lib qolmoqda. Chorvachilik: 9,2 mln qora mol, 9,1 mln cho‘chqa, 11,1 mln qo‘y mavjud. Sut, go‘sht asosan shimoliy rayonlarda rivojlangan.

Italiya mamlakatlarida tovar qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish rivojlanishi bilan birga an’anaviy ya’ni o‘zlari uchun iste’mol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi notovar xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish ahamiyatini yo‘qotgan emas. Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari: donli ekinlar (bug‘doy, makkajo‘xori, sholi) va go‘sht-sut chorvachiligi (shimoliy qismlari), donli ekinlar va uzumchilik, chorvachilik

(sharqiy va g`arbiy qismlar), sut-go`sht chorvachiligi va donli ekinlar (bug`doy-javdar, arpa) asosan shimoliy va janubiy qismlari, uzumchilik, mevachilik va sabzavotchilik sharqiy va janubiy qismlari hamda Sitsiliya oroli, tog`- yaylov chorvachiligi (shimoliy qismlari) rivojlangan.

Transporti: Italiyada transportning hamma turlari rivojlangan bo`lib, avtomobil, dengiz transporti, quvur transporti, havo transportlari rivojlangan. 30,4 ming km temir yo`l bor. 14 ming km yo`l elektrlashgan. Temir yo`llar shimoliy Italiyada juda zich. Appenin yarim orolida siyrak, shimoliy janubiy sharqdan g`arbga ketgan. Avtomobil transporti 30 ming km bo`lib, 22,8 mln. dan ortiq avtomashinalar bo`lib, 21mln yengil avtomobillar. Dengiz transportlari 9/10 qismi tashqi yuklarni tashiydi. Bosh dengiz porti Geniya, Niapol, Vinetsiya, Trepessi, Spetsiya, Barn. Genuya O`rta Yer dengizida yirik port hisoblanadi. 500 ming tankerlarni qabul qiladi. Shuningdek, quvur transporti janubiy qismi va Sitsiliya orolida juda zich joylashga. Rekratsion resurslarga boy bo`lib. Italiyaga har yili 50 mlndan ortiq turistlar keladi. Italiyaning tashqi savdodagi sheriklari: YeH mamlakatlari, AQSh, OPEK mamlakatlari hisoblanadi.

Iqtisodiy tafovutlari.

1. Shimoliy Italiya sanoat maxsulotlari 84 % ni beradi. Limon 2 mln. To`rinno 1,4 mln. Tenus 900 ming 2/5 teretoriya 1/2 aholi yashaydi. 3/2 mahsulotlar olinadi.
2. Markaziy Italiya 1/5 teretoriyani aholi va ishlab chiqarish tashkil etadi. Rim – 3,2 mln. Fransiya qadimiy shaharlar uzumchilik, bug`doychilik rivojlangan. Sabzavotchilik rivojlanga. Temir rudasi qo`ng`ir ko`mir bor.
3. Janubiy Italiya 5/2 maydon, S aholi kiradi. Sitrus ekinlari Neapol 1,5 mln t meva beradi. Reoranti, Appuli, Brungizi, Rejelo shaharlari bor. Neft-kimyo, metallurgiya, mashinasozlik rivojlangan kurortlari bor. Sitrus ekinlari, rangli metallurgiya rivojlangan. Foydali qazilmalarga boy.

Topshiriqlar va yechimlar


1. Quyidagi berilgan ma`lumotlarning to`g`risini aniqlang.
 - 1). Italiyaning boshqaruv shakli-parlamentar respublika;

- 2). Italiyada shahar aholisining ulushi -75 % atrofida;
- 3). Italiya katoliklar soni bo'yicha Yevropada birinchi o'rinda turadi;
- 4). Italiyadagi eng yirik shahar aglomeratsiyalari –Milan, Turin, Genuya, Modena shaharlari atrofida vujudga kelgan;
- 5).Mamlakatning eng rivojlangan iqtisodiy markazlari uning janubida joylashgan;
- 6). YUNESKO tomonidan tuzilgan Butunjahon madaniy meros ob'ektlari ro'yxatiga italiyadagi yodgorliklar neg ko'p kiritilgan;
- 7). Aholi eng zich joylashgan hudud Po daryosi oqib o'tadigan Padan tekisligi hisoblanadi;
- 8). Italiya ma'muriy hududiy jihatdan 22 ta provinsiyaga bo'lingan;
- 9). Italiya Yevropa davlatlari va jahon miqyosida sitrus mevalari, uzum, pomidor va zaytun yetishtirish bo'yicha alohida ajralib turadi;
- 10). Italiyada XXI asrning o'zida 4 ta kuchli zilzila qayd etilgan. Javob:


1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
ha	yo`q	ha	yo`q	yo`q	ha	ha	yo`q	ha	ha

2. Italiyada yirik shaharlarning shimoldan janubga tomon ketma-ketligini to'g'ri belgilang. 1). Milan; 2). To`rin; 3). Genuya; 4). Neapol; 5). Venetsiya; 6). Rim


Javob.



3. Italiya jaxon xo'jaligida tutgan o'rnini ishlab chiiqarish bo'yicha dunyoda nechanchi o'rindaligi va ketma-ketligini belgilang.



Javob:



uzum va vino

simob

narit moddasi

pishloq

4. Italiya sanoat korxonalarini qaysi shaharlarda joylashganligini belgilang.

t/r	Sanoat tarmoqlari		Korxonalar joylashgan shaharlar
1	Mashinasozlik	A	Генуя, Неапол, Миверно, Венеция, Монфельнона, Торрентода
2	Kemasozlik	B	To`rin va Milan
3	Simob ishlab chiqarish	C	Bengla va Pemota
4	Junni qayta ishlovchi korxonalar	D	Taskaniya provintsiyalarida Prosita va Simna shaharlari
5	Sun'iy va kimyoviy tolalarni ishlab chiqarish	E	Milan va uning atrofidagi shaharlar

Javob:

Savol	1	2	3	4	5
Javob	B	A	D	C	E

5. Italiyadagi Aholi eng zich joylashgan hududni toping. Chalkashlikni aniqlang.

D	A	P	A	N	T	E	S	I	G	L	I	K	I
---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---

Javob:


P	A	D	A	N	T	E	K	I	S	L	I	G	I
---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---

6. Berilgan amallarni bajaring hamda Italiyadagi aholisi 100mingdan ortiq bo`lgan shaharlar sonini toping.

A) $34+17=$; B) $50-13=$; C) $20+29=$; D) $48+16=$

Javob: C. $20+29=49$

7. Berilgan shakldan Yevropadagi Italiya hududi bilan o`ralgan mamlakatni aniqlang.



Javob: B

8. Berilgan jadvaldan Italiya davlatiga tegishli shaharlar qatorini aniqlang.

Javob:

<input type="checkbox"/>	1. Lion, Marsel, Lill
<input type="checkbox"/>	2. Genuya, Denitsiya, Neapoly
<input type="checkbox"/>	3. Bengla va Pьemota, Prosita
<input type="checkbox"/>	4 . Simna , Miverno, Venetsiya,
<input type="checkbox"/>	5 . Monfelьnona, Toronto, Milan
<input type="checkbox"/>	6 .Tuluza, Bordo, Edinburg

Asosiy adabiyotlar

1.Ўзбекистон Республикасининг янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида»ги.Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлар тўплами.2017 йил 6 сон 70 модда.

2. Abirqulov Q. Iqtisodiy geografiya. –T., 2004.

3.Экономическая и социальная география стран ближнего зарубежья. Под ред. М.Ратанова. –М., 2004.

4. Родионва И.А Экономическая и социальная география мира.Т.1.2:Учебник для бакалавров.изд.исправ.и доп.М. Издательств. Юрайт.2015.

5. Липец Ю. Г. Пуляркин В. А., Шлихтер С. Б. География мирового хозяйства. - М., 1999
6. Н.С. Мироненко. Введение в географию мирового хозяйства. М, 1995г.
7. Социально-экономическая география зарубежного мира. (Под ред В.В. Волского). М. Крон – Пресс, 1998г.
8. .Voltaev M.J. Chet mamlakatlar iqtisodiy geografiyasi .Ma'ruza matni. 2000 yil.
9. Страны мира. -М.: Мысль, 1996.
10. Kulke E. Wirtschafts - geographie. -Munxen-Zurich: «Ferdinand Schoningh», 2004.

16-§. MDH va Sharqiy Yevropa davlatlari

80-90-yillarda jahon iqtisodiyotida muhim iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. O'tkazilgan ushbu islohotlarning asosiy maqsadi rejali iqtisodiyotning ustun jihatlari bozor iqtisodiyoti yutuqlari bilan birlashtirish edi. Bu davrda bozor sotsializmi deb nomlangan g'oya yuzaga kelgan bo'lib, bu g'oya sobiq Ittifoqda 1965- yilgi islohotlarda o'z ifodasini topgan edi. Uning mohiyati rejali boshqaruvni bozor raqobatlari bilan uyg'unlashtirishga intilishdir. Jahon iqtisodiyotida sobiq Yugoslaviyada o'tkazilgan bozor islohotlari yanada chuqurroq xarakterga ega bo'lgan. Yugoslaviyada ishlab chiqarish korxonalarini o'z-o'zini boshqarish, erkin narx-navoni belgilash va tovarlarni sotish imkoniyatiga ega bo'lib, raqobat kuchaygan edi. Buning oqibatida korxonalar raqobatga bardosh berish uchun bozor sharoitiga moslashishga majbur bo'ldi. Yugoslaviya modeli korxonalarining talabga moslasha olish, bozorni to'ldirish va mahsulotni nisbatan yuqori sifatli bo'lishini ta'minlash imkoniyatiga ega ekanligini ko'rsatdi. Mamlakat o'zining dastgohlarini zamonaviy yangilay olish imkoniyatini ham namoyish etdi. Bunday yangilash korxonalar hisobidan amalga oshirildi. Biroq, bozor sotsializmining yugoslavcha modeli mamlakatda ishsizlikning ko'payishi, inflyatsiya jarayonlarining kuchayishiga olib kelgan edi.

60-yillarning oxirida bozor islohotlari Sharqiy Yevropaning boshqa sotsialistik mamlakatlarida ham amalga oshirildi. Ularning iqtisodiyotida bozorga oid tarkibiy qismlar Sobiq Ittifoq bilan solishtirganda yanada sezilgan bo'lsada, biroq Yugoslaviya darajasiga yetib bormagan edi.

Vengriyada bozor sotsializmi modelini yaratish korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatiga mustaqillik berish yo'li bilan bog'liq bo'ldi. Ya'ni, ularga o'z mahsulotlarini o'zlari sotishga ruxsat berildi. Ma'lumki, mamlakat yetarli darajada kichik bo'lgan taqdirda bu jarayonga davlatning jiddiy aralashuvi talab etilmaydi. Shuning uchun ham Vengriyada korxonalar ish haqi fondlarini saqlab qolgan holatda bandlar sonini mustaqil belgilash huquqiga ega bo'lgan edi. Ishchilar sonini kamaytirish hisobiga ish haqi fondi saqlab qolindi, natijada korxonalar bu fondni qayta taqsimlash huquqiga ega bo'lganligi uchun ham ishlab chiqarishda bandlarning ish haqini oshirish imkoniga ega bo'lgan edi.

Vengriyada o'tkazilgan iqtisodiy islohotlarning eng diqqatga sazovor tomonlaridan biri shundaki, bu yerda ichki narxlar jahon narxlariga bog'lab qo'yildi. O'tkazilgan ushbu islohotlar natijasida Vengriya iqtisodiyoti ma'lum darajada qoloq, raqobatbardosh bo'lmagan ishlab chiqarishdan holi bo'lib, raqobatda g'olib chiqqan korxonalar jahon bozori talablariga moslashgan edi. Shunday qilib, 80-yillarning boshlarida amalga oshirilgan jiddiy iqtisodiy islohotlar vengerlar tomonidan «iqtisodiy qon almashtirish» sifatida baholandi va keyinchalik bu Vengriyaning bozor iqtisodiyoti tomon tashlangan jiddiy qadami bo'ldi. Ushbu islohot Avstriya bilan bo'lgan davlat chegaralarini ochilishi munosabati bilan yanada kuchaydi. Sanoat korxonalarini ishlab chiqargan mahsulotlar o'zining kapitalistik qo'shni davlatlari tomonidan kuchli raqobatni his eta boshladi. Juda ko'p narxlar, ayniqsa, chorvachilik mahsulotlarning narxlari Avstriya narxlariga yaqinlashtirildi. Bu esa o'z navbatida avstriyaliklar tomonidan nisbatan arzon venger go'shtlarini ommaviy ravishda sotib olinishiga qarshi javob bo'lgan edi. Xullas, Vengriya sotsialistik xo'jalik tizimi hukmronlik davridayoq ochiq jamiyatni shakllantirish tomon, ya'ni jahon bozori xo'jaligi qonunlariga moslashish tomon ildam qadamlar tashlangan edi.

1969 yilda Varshava shartnomasida mamlakat qo'shinlarining kiritilishi munosabati bilan Chexoslovakiyada bozor sotsializmi tomon harakat bir muncha qiyinlashgan edi. Shunday bo'lsa-da, Chexoslovakiyada markazdan turib rejalashtirish ishlariga putur yetkazmagan holda, resurslarning narxlari har yili o'sib, istehmol tovarlari narxlari esa pasayib bordi. 90-yilga kelib, Vengriyada narx parametrlari va

ularning tarkibi jahon standartlariga yaqinlashdi. Bu esa mamlakatga bundan keyin ro'y berib turgan inflyatsiyalardan qutilib qolish imkoniyatini bergan edi.

Jahon iqtisodiyotida Polshaning iqtisodiy rivojlanishi uchun siyosiy nobarqarorlik xos bo'lib, bu mamlakatda har qanday iqtisodiy islohotlarni o'tkazishni qiyinlashtirgan edi. Shunday bo'lsada, 80-yillarda hukmronlik qilgan inflyatsiya Polshaning tarmoq tuzilmasini bir muncha yaxshiladi, bozor iqtisodiyotiga mos keladigan bir qator qonun ishlab chiqildi. Bu holatni bozor xo'jaligi uchun mamlakatda huquqiy poydevor o'rnatilishi deb qarash mumkin, chunki bu poydevorsiz bozor iqtisodiyotini yaratish mumkin emas.

Polshada bozor iqtisodiyoti, mamlakatlarda bozor iqtisodiyoti amalda bo'lishining moddiy shart-sharoitini yaratishdan boshlandi. Ya'ni, mamlakatda erkin bozor narxlari masshtabining kengayishi, xususiy mulkchilikka nafaqat qishloq xo'jaligida, balki qayta ishlash sanoatida ham ruxsat etilishi muhim ahamiyat kasb etgan edi.

80 yillarda Polshada o'tkazilgan iqtisodiy islohotlar quyidagi yo'nalishlarni nazarda tutgan edi:

- markazdan turib rejalashtirishni davlat buyurtmalari tizimi bilan almashtirish;
- markazdan turib narx belgilashni qisqartirish (1989- yilning kuziga kelib 90 % narx erkinlashgan edi);
- moddiy resurslarni markazdan turib taqsimlashni 45 % dan 1986-1988 yilga kelib 22 % gacha qisqartirish;
- tarmoq vazirliklarini tugatish va yagona sanoat vazirligini tashkil etish (Vengriya kabi);
- ish haqini erkinlashtirish va mehnatga haq to'lash fondining oshishiga qarab o'sib boruvchi soliqni joriy etish;
- vositachilik va lizing shartnomalarini joriy etish;
- qayta ishlash sanoatida xususiy mulkchilikka ruxsat berish;
- xorijiy valyuta bozorini 1989 yildan boshlab erkinlashtirish va boshqalar.

Shunday qilib, 80-yillarning oxiriga kelib Sharqiy Yevropa mamlakatlarining bozor iqtisodiyotiga o'tishini osonlashtiruvchi iqtisodiy shart-sharoitlar yaratilgan edi.

Sobiq Ittifoqda 1965- yilda o'tkazilgan iqtisodiy islohotlar davom ettirilmasdan qolib ketgan edi. Iqtisodiyot rejali boshqaruv xo'jaligini yanada markazlashtirish siyosatini kuchaytirish yo'lidan ketdi. Ishlab chiqarish korxonalari amalda mustaqil faoliyat olib borish huquqiga ega bo'lmay qoldi. Ichki bozorning narx tuzilmasi esa xalqaro standartlarga umuman mos kelmas edi.

Bozor islohotlari boshlangan bir davrda Sobiq Ittifoqda resurslar narxi jahon narxining bor yo'g'i 1/3 qismini tashkil etgan edi. Bu esa inflyatsiya jarayonlarining mamlakatda uzoq davom etishini va nihoyatda chuqurlashib borishini ifoda etadi.

Sharqiy Yevropa mamlakatlarida davlat sotsializmining so'nggi yillarida amalga oshirilgan chuqur iqtisodiy islohotlarni MDH davlatlari bilan solishtirganda ushbu mamlakatlarda bozor islohotlarini o'tkazish uchun qulay vaziyat yaratilganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday qulay shart-sharoitlar bir qator jihatlar bilan bog'liq. Masalan, Sharqiy Yevropa mamlakatlarida iqtisodiyotning monopollashish darajasi MDH mamlakatlariga nisbatan pastligi, aholining turmush farovonligi esa nisbatan yuqoriligi hamda ushbu mamlakatlarda bozor mentaliteti saqlanib qolganligidir.

Kuzatuvchi sifatida MDHning ayrim tuzilishlarida qatnashuvchi davlat

Shtab kvartirasi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Belarus, Minsk

Rossiya bayrog'i Rossiya , Moskva

Suhbatlashish tili Rus tili

Ijro etuvchi kotib Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Sergey Lebedev

Majlis o'tkazuvchi mamlakat Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Rossiya Federatsiyasi

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)-davlatlararo tashkilot. 1991 yil 8 dekabrda Minskda Belorussiya, Rossiya, Ukraina tomonidan tuzilgan. Ana shu davlat rahbarlari imzo chekkan Bitimda SSSR chuqur tanazzulga uchrab parchalanib ketish natijasida yo'q bo'lganligi qayd qilindi, uchala davlat siyosiy, iqtisodiy, gumanitar, madaniy va boshqa sohalarda hamkorlikni rivojlantirishga intilishini bayon etdi. 1991 yil 21 dekabrda Bitimga Ozarbayjon, Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldaviya, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston qo'shildi, ular Belorussiya, Rossiya va Ukraina bilan birga MDH ning maqsad va qoidalari to'g'risidagi Deklaratsiyaga Olma ota shahrida imzo chekdilar. 1993 yil MDH ga Gruziya qo'shiddi. 1993 yil

MDH Ustavi qabul qilindi, u davlatlarning inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, tashki siyosiy faoliyatini muvofiqlashtirish, umumiy iqtisodiy makonni vujudga keltirish, transport va aloqa tizimlarini rivojlantirish, aholi sog'lig'i va atrof mu-hitni muhofaza qilish, ijtimoiy masalalar va immigratsiya siyosati, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, mudofaa siyosatida hamkorlik qilish va tashqi chegaralarni qo'riqlashda birgalikda faoliyat yuritishni nazarda tutadi. MDH haqiqiy a'zolari bilan birga MDH faoliyatining ayrim turlarida qatnashuvchi a'zolar bo'lishi mumkin. MDHning quyidagi organlari tashkil qilingan: Davlat boshliklari kengashi, Hukumat boshliqlari kengashi, Tashqi ishlar vazirlari kengashi, Davlatlararo iqtisodiy qo'mita, markazi Sankt-Peterburgda bo'lgan Parlamentlararo assambleya va boshqa MDHning doimiy ishlovchi organi Minsk shahrida joylashgan Muvofiqlashtiruvchi maslahat qo'mita hisoblanadi. Uning qoshida doimiy kotibiyat ishlaydi. Davlat boshliqlari kengashi 1 yilda kamida 2 marta o'tkaziladi. MDH organlarining faoliyati MDH Nizomi bilan tartibga solinadi.

MDH sobiq SSSR hududida fuqarolik urushi kelib chiqishining oldini oldi, mamlakatlarni bosqichma-bosqich xalqaro munosabatlar tizimiga kirib, mustaqilliklari, suverenitetini mustahkamlashga ko'mak berdi. MDH o'z faoliyati davomida haddan tashqari ko'p qarorlar qabul qildi-yu, lekin aksariyat hollarda ularning ko'pi bajarilmadi. Hozir MDH ga kiruvchi davlatlarning aholisi 283 mln. kishini tashkil etadi. Bu aholining 120,5 mln. iqtisodiyotda mashg'uldir. Ularning 29,4 foizi sanoat va qurilishda, 21,5 foizi qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik sohasida ishlaydi.

O'zbekiston o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda MDHda ishtirok etmoqda. U MDHga davlatlar ustidan tuzilgan tashkilot sifatida emas, balki mustaqil davlatlarning harakatlarini muvofiqlashtiruvchi organ sifatida qaraydi. MDH hududida davlatlarning teng huquqligi asosida yagona iqtisodiy makonni yaratish, tashkilotda umuman iqtisodiy munosabatlarning ustuvorligiga erishish, davlatlar o'rtasida savdo iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun harakat qiladi.

Rossiya aholisi soni 10 yil ichida birinchi marta kamaydi

11:43 24.01.2019(Yangilangan 11:44 24.01.2019)

2019 yil 1 yanvar holatiga Rossiya aholining umumiy soni 146 million 793 ming kishini tashkil qiladi.

TOSHKENT, 24 yanv-Sputnik. Rosstat idorasi Rossiya aholisining soni to'g'risidagi ma'lumotni e'lon qildi.

O'tgan yil avgust oyida Rossiya prezidenti Vladimir Putin o'zining telemurojaatida mamlakat 2020 yilda demografik muammolarga duch kelishi haqida ayO'zbekiston Prezidenti MDH davlatlari huquqni muhofaza qilish organlari rahbarlarini qabul qildi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019 yil 31 may kuni Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Ichki ishlar vazirlari kengashining shu kunlarda Toshkent shahrida o'tayotgan tadbirlarida ishtirok etayotgan MDHga a'zo davlatlar ichki ishlar vazirliklari va idoralari rahbarlarini qabul qildi.

Prezidentimiz Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston va Turkmaniston delegatsiyalari rahbarlarini samimiy qutlar ekan, Hamdo'stlik mamlakatlari huquqni muhofaza qilish organlari o'rtasidagi ikki va ko'p tomonlama hamkorlik aloqalari tobora mustahkamlanib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Bugungi kunda MDH Ichki ishlar vazirlari kengashi samarali hamkorlik, ilg'or tajriba va bilim almashish, shuningdek, terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, uyushgan jinoyatchilik va odam savdosiga qarshi kurashishdagi sa'y-harakatlarni yaqindan muvofiqlashtirish uchun muhim mexanizm ekani ta'kidlandi.

Hamdo'stlik hududida jinoyatlar soni keyingi besh yilda 25 foizdan ziyodga qisqargani Kengash faoliyatining natijadorligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, birgina o'tgan yilda qo'shma operatsiyalar doirasida giyohvand moddalarning noqonuniy aylanmasi bilan shug'ullangan 892 nafar shaxsning faoliyatiga chek qo'yildi hamda 84 nafar jinoyatchi ushlandi.

Uchrashuvda MDHga a'zo davlatlar ichki ishlar organlari hamkorligini yanada kengaytirish, jumladan, samarali idoralararo hamkorlikni yo'lga qo'yish, qo'shma tadbirlar o'tkazish, kadrlar tayyorlash bo'yicha dasturlarni amalga oshirish istiqbollari ko'rib chiqildi. Shuningdek, mintaqaviy xavfsizlikning dolzarb masalalari, xususan,

Afg'onistondagi vaziyatni tinch yo'l bilan hal etish va transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashishda sheriklikni mustahkamlash yuzasidan fikr almashildi.

Delegatsiyalar rahbarlari Prezidentimizga samimiy mehmondo'stlik uchun minnatdorlik bildirib, o'z davlatlari rahbarlarining salomini yetkazdilar.

Mamlakatimiz huquqni muhofaza qilish tizimida huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish va profilaktika qilish bo'yicha samarali tizimni shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligi yuksak baholandi.

Hamdo'stlik mamlakatlari huquqni muhofaza qilish tuzilmalari o'zaro qo'llab-quvvatlash hamda umumiy tahdid va xatarlarga qarshi kurashishda sa'y-harakatlarni birlashtirish maqsadida faol hamkorlikni yanada rivojlantirishga tayyor ekani alohida qayd etildi.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida 2019 yilning yanvar-may oylarida sanoat ishlab chiqarishi hajmi 2,5 foizga ko'paydi. Buni MDH Statistika qo'mitasi ma'lumotlaridan bilib olish mumkin.

Topshiriqlar va yechimlar


1.MDH davlatlari ichida YMD ning 60 % va sanoat ishlab chiqarishning 2/3 qismi to'g'ri keluvchi davlatni aniqlang.

R	S	S	Y	A	O	I
---	---	---	---	---	---	---


Javob:

R	O	S	S	I	Y	A
---	---	---	---	---	---	---

2.Rossiyaning elektr energiya ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda nechanchi o'rinaligi va yetakchi davlatlar ketma-ketligini belgilang.



Javob:



3. Rossiya elektr energiyasining katta qismi qaysi elektr stantsiya turiga to'g'ri keladi. Foiz hisobida aniqlang?



Javob:



IES -70 %

GES -18 %

AES -12 %

4. Quyidagi rasmlardan qaysi biri Rossiya bayrog'iga tegishli ekanligini aniqlang.



1

2

3

4

Javob: 1

5. Quyidagi ma'lumotlardan to'g'risini toping.

- A) Rossiya ko'mir, neft va tabiiy gazning ulkan zaxiralariga ega;
- B) Rossiya dengizga chiqa olish imkoniyati past darajada;
- C) Rossiyaning o'rmonlar maydoni 766 mln gektar;

- D) Rossiyaning yirik to'qimachilik markazlari Tver, Kastroma shaharlarida;
- E) Rossiya xo'jalikda foydalaniladigan yerlar 209,0 mln gektar;
- J) Rossiya tashqi bozorga 300 mlrd m³ neft, 150 mln tonna gaz yetkazib beradi.
- Z) Rossiyaning g'arbidagi savdodagi yetakchi hamkorlari Germaniya, Xitoy, Niderlandiya, Italiya, AQSh, Turkiya, Ukraina

Javob: A, C, E, Z

6. Rossiya mashinasozlik korxonalarini qaysi shaharlarda joylashganligini belgilang.

t/r	Mashinasozlik tarmoqlari		Korxonalar joylashgan shaharlar
1	Energetika mashinasozligi	A	Moskva, Qozon, Samara, Varoj, Saratov, Smolensk, Rostov-Don, Taganrak, Komsomolsk, Amur
2	Stanoksozlik	B	San-Peturburg, Astraxon, Nijniy-Novgorod, Tyuman, Kroshoyarsk, Xavorovsk, Vlagoveshinsk, Kamsomolsk-Amur
3	Yengil avtomobillar	C	Nijniy- Novgorod, San-Peturburg, Ulan-Ude, Nijniy Tagil, Kolomna, kaluga, Lyudinov, Murom, Novocherkagk
4	Yuk avtomobillar	D	Biysk, barnaul, Teganrok, Belgogrod, San-Peturburg, Novosibirsk
5	Trolleybus	E	Nijniy- Novgorod, Ijevsk, Miass, Moskva, Ulyanovsk, Tolyatti
6	Temiryo'l mashinasozligi	J	Moskva, Nijniy- Novgorod , Ulyanovsk, Naberejnuel, Chelni
7	Dengiz va daryo kemasozligi	Z	Engels
8	Samolyotsozlik	K	Markaziy, shimoliy, g'arbiy rayon, Ural

Javob:

Savol	1	2	3	4	5	6	7	8
Javob	D	K	E	J	Z	C	B	A

7. Berilgan ma'lumotlarning noto'g'risini toping. To'g'ri javonblarga 2 raqami, noto'g'risiga 0 raqamini qo'ying.

- 1). Rossiya maydoniga ko'ra eng katta davlat;
- 2). Rossiyaning davlat boshlig'i qirol;
- 3). Rossiya mineral resurslarga boy;
- 4). Rossiya agrar-industrial davlat;
- 5). Rossiya pul birligi rubl;
- 6). Rossiya maydonining kichik qismi Osiyoda joylashgan;
- 7). Rossiya qo'shisi eng ko'p davlat hisoblanadi;
- 8). Dengiz transportida Rossiya uchun Hind okeani alohida ahamiyatga ega;
- 9). Rossiya tashqi savdo aylanmasi 2012 yilda 650 mlrd dollarni tashkil etdi;
- 10). Rossiya temir yo'llar uzunligi bo'yicha jahonda 1 o'rinda turadi.

Javob:

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
2	0	2	0	2	0	2	0	2	0

8. Rossiya yoqilg'ini foydali qazilmalarining yillik qazib olish bo'yicha hajmini jadvalga to'g'ri joylang.

1	Neft	A	80,0
2	Gaz	B	300 mln tonna
3	Ko'mir	S	420 mln tonna
4	Qora metallurgiya	D	670 mlrd m ³

Javob: 1- 2- 3- 4-

Javob:

1	Neft	A	80,0
2	Gaz	B	300 mln tonna
3	Ko'mir	S	420 mln tonna
4	Qora metallurgiya	D	670 mlrd m ³

Javob: 1-C 2-D 3-B 4-A

9. Nuqtalar o'rniga tegishli harflarni joylashtirib Rossiyaning neft va gazning asosiy iste'molchilarini aniqlang.

1). . e . . a . i . a 2). I . a . i . a 3). . . a . . i . a 4). a i . a

5). . . o . . a 6). . ye . . . i . a 7). . ye . i . a 8). . o . . a . i . a

Javob:

1	2	3	4	5	6	7	8
Germaniya	Italiya	Fransiya	Avstriya	Polsha	Vengriya	Chexiya	Bolgariya

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида»ги . Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлар тўплами. 2017 йил 6 сон 70 модда.

2. Абиркулов К . Иқтисодий география. -Т., 2004

3. Abdullayev O. Mintaqalar va mamlakatlar iqtisodiyoti. Toshkent :Yangi asr avlodi” 2009. 282 b

4. Бушуева Л. Все страны мира. Универсальный справочник. Рипол классик. 2009 г.

5. Bahritdinov B.A., Zokirova G.A., Abdiraximova S.E. Jahon ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. O`quv qo`llanma. T.: 2008 yil

6. Vahobov H., M. Tillaboyeva. Iqtisodiy geografiya asoslari. (o`qituvchi kitobi) Toshkent, O`qituvchi. 2001 yil. 4-5 bet

7. Максаковский В.П. Географическая картина мира .Кн.1 .2:Общая Характеристика мира М. Дрофа .2008.-495 с.

8. Mahmudova.M, Soliyev.A. Geografiyadan nostandart testlar. Namangan Davlat universiteti Namangan.-2017 y

9. Солиев А.С., Ахмедов Э.А., Мухаммадалиев Р.И. Минтақавий иқтисодиёт. Ўқув қўлланма. 2003 йил.

10. Qayumov A, Pardayev G`, Islomov I. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya (O`rta Osiyo iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi) o`quv qo`llanma T. 2007

11. Qo'ldasheva M. "Geografiya fanidan nostandart testlar to'plami" uslubiy qo'llanma Namangan malaka oshirish hududiy markazi nashriyoti. 2017 yil
12. Янчук.С .Экономическая и социальная география стран Центральной Азии и СНГ .Текст лекций .Т.2000

OSIYO MAMLAKATLARI

17-§. Sharqiy Osiyoning rivojlangan mamlakatlari . Yaponiya

Osiyo mamlakatlari asosan shimoliy yarim sharda va qisman janubiy-sharqiy qismi janubiy yarimsharda joylashgan. maydoni 15,9 mln kv.km bo'lib, aholisi 1765 mln kishini tashkil qiladi. Makromintaka g'arbdan sharqqa uzoq masofaga cho'zilgan. G'arbiy tomondan qora dengiz, o'rta dengiz va qizil dengizi bilan, janubdan Hind okeani bilan, sharqdan Tinch okeani bilan chegaradosh. Janubiy-sharqiy qismida tekislik (va past tekislik) janubiy-g'arbiy qismida esa cho'l katta maydonini egallaydi. Ekvatorial tropik, subtropik iqlimi mintaqalarida joylashgan.

Osiyo mamlakatlari iqtisodiy-geografik o'rniga ko'ra 3 asosiy xususiyati bilan ajralib turadi.

1. Mamlakatning bir-biriga bevosita qo'shni bo'lib joylashganligi.
2. Ko'pchilik mamlakatning dengiz bo'yida joylashganligi bo'lib, bu hol davlatning eng muhim dunyo savdo yo'llari o'tuvchi Tinch, Hind, Atlantika okeanlariga chiqishlariga imkon beradi.
3. Ayrim mamlakatning quruqlik ichkarisida joylashganligi.

Keyingi vaqtlarda Osiyo mamlakatlari siyosiy xaritasida katta o'zgarishlar yuz berdi. Ikkinchi jahon urushi oldidan mustamlaka va yarim mustamlakalarda region aholisining 70% i yashar edi.

Endilikda mintaqa deyarli barcha mamlakatlar mustaqil davlatlardir. Eron bilan Iroq, Hindiston bilan Pokiston o'rtasida hududiy baxslar mavjud. Regionda respublikalar va monarxiyalar ham, unitar va federativ davlatlar ham bor. Portugaliya mustamlakasi Makao (Aomin) ning Xitoy xalq Respublikasi tarkibiga kirishi 2000-yilda esa BMT tomonidan indonezi tarkibida bo'lgan sharqiy Timorga alohida maqom berilishi ham ma'lum ta'sir ko'rsatdi.

Milliy ozodlik kurashi oqibatida Vetnam (1945 y) shuningdek Britaniyaning sobiq mustamlakalari Hindiston, Bangladesh, Shri-Lanka, Iordaniya, Mal'div oroli, Malayziya, Yaman, Indoneziya, Suriya, Kambodja mustaqillikka erishdi.

Falastinning bir qismida Isroil davlati va Falastin muxtoriyati paydo bo'ldi. 1971 yil Abu Dabi, Dubay, Sharja, Al-Fujayra, Ummon, Kayvayn, Ajman amirliklarining birlashuvidan B.A.A davlati tuzildi.

Regionning jahon xo'jaligidagi mavqei so'nggi davrlarda tinimsiz o'sib borayotgan bo'lsada, ko'pchilik davlatlarning iqtisodi qoloq holdadir. Biroq, Hindiston oldingi qoloq, mustamlaka davlatdan so'nggi yillarda iqtisodiyoti tez rivojlanayotgan davlatga aylandi. Ishlab chiqarayotgan mahsulotlari hajmiga ko'ra jahonning eng yirik birinchi o'nlik davlatlari qatorida turadi. Ammo aholisi jon boshiga mahsulotlarning to'g'ri kelishi ko'rsatkichlari esa xali ancha pastligicha qolmoqda.

Osiyoning ilg'or davlatlaridan Isroil, Kipr, Turkiya o'z taraqqiyot yo'lini belgilashda G'arb mamlakatlari tajribasini dastur qilib olgan.

Fors qo'ltiq bo'yidagi neft qazib chiqaruvchi mamlakatlar. Bu mamlakatlarning ko'pchiligi hozirgi vaqtda aholi jon boshiga YaMD ishlab chiqarish darajasiga ko'ra salkam jahondagi yetuk rivojlangan davlatlar qatorida turadi. Buning asosiy sababi neftni ko'plab qazib chiqarish va ularni eksport qilish hisobiga tushadigan katta miqdordagi «neft-dollaridir». Saudiya Arabistoni, Quvayt, Birlashgan Arab Amirliklarida mamlakat eksportining 95 % ni neft tashkil qiladi. Natijada Fors qo'ltiqbo'yi mamlakatlarida neft va tabiiy gaz chiqarish, neft kimyosi, qayta erituvchi metallurgiya kabi sanoat tarmoqlari yuzaga keldi.

Pokiston, Bangladesh, Iordaniya, Shri-Lanka kabi mamlakatlar sanoati bir tomonlama, sust rivojlanayotgan mamlakat bo'lib, asosan tog'-kon yoki yengil oziq-ovqat sanoatlarigina ma'lum darajada rivojlanishiga erishgan.

Afg'oniston, Nepal, Yaman, Butan kabi mamlakatlar iqtisodiyoti eng qoloq mamlakatlardir. Ularda sanoatning biron tarmog'i yetarli rivojlanmagan, qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi juda past darajada.

Sharqiy Osiyoning rivojlangan mamlakatlaridan Yaponiya davlatiga to'xtalamiz.

Yaponiyaning umumiy maydoni 376 ming. kv.km. Hududining muhim xususiyatlaridan biri uning katta va kichik orollarda joylashganligidir. Ulardan to'rt - tasining maydoni ancha kattadir. Bularga Xonsyu, Xokkaydo, Kyusyu va Sikoku orollari kiradi. Unitar davlat bo'lib, 47 prefekturaga bo'linadi.

Tabiiy sharoti va resurslari. Yaponiya, asosan, tog'li mamlakat. Hududining 75 foizini tog'lar egallaydi. Eng baland tog'i Fudziyama (3776 m.) yapon xalqining ommaviy topinadigan-sig'inadigan muqaddas joyi hisoblanadi. Tekisliklari, asosan, Tinch okean sohillari bo'ylab joylashgan. Ayniqsa, Tokio qo'ltiq bo'yidagi Kanto pasttekisiigi mashhurdir.

Yaponiya biron bir yer osti boyliklari bilan o'zini o'zi ta'minlay olmasa-da, boy dengiz, geotermal, gidroenergiya, agroiklim resurslariga ega.

Iqlimi musson xarakterda. Qish oylari nisbatan qurg'oqchil va sovuq, ammo shimoldan janubga qarab isib boradi. Yoz esa ancha namli va issiq o'tadi. Yog'in miqdori o'rtacha 1700-4000 mm, tez-tez yer silkinishlari bo'lib turadi. Ba'zan u juda kuchli, halokatli tarzda ro'y beradi.

Foydalaniladigan yer nihoyatda qimmatli, taqchil resurs bo'lganligi sababli, Yaponiyada hozirgi vaqtda binolarni «Osmono'par» qilib qurish bilan birga, ularning qator qavatlarini yer ostida joylashtirishga ham erishilmoqda. Alohida texnopolis - ilmiy-muhandislik komplekslari, asosan, dengizning sayoz qo'ltiq va ko'rfazlarini turli axlat va chiqindi jinslar bilan to'ldirish hisobiga hosil qilingan hududlarida qurilmoqda.

Aholisi. Yaponiya aholisi 2018 yil ma'lumotlariga ko'ra 128 mln kishi istiqomat qiladi. Aholisining soni bo'yicha jahon mamlakatlari orasida o'ninchi o'rinda turadi. Aholi soni keyingi yillarda qisqarib bormoqda. Yaponiya tipik Sharq davlatlaridan bo'lishiga qaramasdan, Osiyoda birinchi bo'lib, demografik ko'rsatkichlariga ko'ra, II tipdan I tipga o'ta oldi. Unda har 1000 aholi hisobiga tug'ilish 8 kishiga, o'lim esa 7 kishiga to'g'ri kelmoqda, bolalar o'limi ko'rsatkichlari jahonda eng pastdir. Shu bilan birga aholisi o'rtacha 83 yoshdan ortiqroq umr ko'rmoqda. Yaponiya bir millatli davlat. Aholisining 99 foizi yapon millatiga mansub.

Yaponiyada aholining oʻrtacha zichligi 1 kv.km maydonga 337 kishiga teng. Agar mamlakat aholisining asosiy qismi umumiy maydonning 10 foizida yashashini hisobga olsak, amalda aholi yashaydigan hududlarda bu koʻrsatkich 1000 kishini tashkil qiladi. Yaponiya yuqori darajada urbanizatsiyalashgan davlatlar qatoriga kiradi. Unda jami aholining 67 foizidan koʻprogʻi shaharlarda yashaydi. Mamlakatda yirik shaharlar soni 200 dan ortadi. Eng yirik shahri mamlakatning poytaxti Tokio boʻlib, unda 34,4 mln.dan koʻproq aholi istiqomat qiladi. Aholisi 1 mln. dan ortiq boʻlgan yana 6 ta shahari bor. Mamlakatda yirik shahar aglomeratsiyalari shakllanmoqda. Tokio-Nagoya-Osaka yoʻnalishi boʻylab 600 km.dan ortiq masofaga choʻzilgan hududida dunyodagi eng yirik megalopolislardan biri Tokaydo tashkil topgan. unda 55 mln.kishi mavjud.

Sanoati. XX asrning 60-yillaridan boshlab Yaponiyaning «iqtisodiy moʻjiza»si jahonni hayratga sola boshladi. Buning sababi II janon urushida yengilib, atom bombasining dahshatlarini oʻz boshidan oʻtkazgan mamlakatning tezlik bilan qaddini rostlagani va misli koʻrilmagan surʼatlarda tez rivojlanishga erishgani edi.

Yaponiya «iqtisodiy moʻjiza»sining asosiy manbai, mutaxassislar xulosasiga koʻra, yapon millatining yuqori darajadagi mehnatsevarlik va mehnat intizomi, uyushqoqlik va sabr-toqat, ishga masʼuliyat hissi va tejamkorlik kabi ijtimoiy xususiyatlari bilan bogʻlangan. Yaponiya iqtisodiyoti yuqori dararada rivojlangan mamlakat. YIMning umumiy hajmi (4628 mlrd. AQSh dollar)ga koʻra dunyoda AQSh, Xitoy va Hindistondan keyin toʻrtinchi oʻrinni egallaydi. Unda iqtisodiyotning barcha tarmoqlar yaxshi rivojlangan.

Yoqilgʻi-energetika sanoatida gidro, geotermal, quyosh, dengiz elektrostansiyalari ham oʻz hissasini qoʻshsalar-da, asosiy ishni import yoqilgʻilar asosida ishlaydigan IES va AESlar bajaradi. Mamlakat har yili 200 mln.t. ga yaqin neftni import qiladi. Shu sababli Yaponiya elektroenergetikasida tobora AESlar hissasi ortib bormoqda. Hozirgi vaqtda mamlakatda 30 dan ortiq atom elektrostansiyalari qurilgan.

Metallurgiya sanoati. Yaponiya poʻlat ishlab chiqarish hajmiga koʻra, jahonda (bir yilda 90 mln. tonnadan ortiq) oldingi oʻrinlardan birini egallaydi. Taraqqiy etgan

organik sintez kimyosi korxonalari kabi metalluigiya markazlari ham, asosan, dengizbo'yi hududlari bo'ylab marjon kabi tizilgan holda joylashgan. Avtomobilsozlikda Yaponiya ulkan yutuqlarga ega. U yiliga 12-13 mln.dan ortiq avtomobillar (shuning 8 mln. dan ortig'i yengil avtomobillar) ishlab chiqaradi va jahonda birinchi o'rinda turadi (lekin keyingi yillarda uning soni qisqarib bormoqda).

Hozirgi davr Yaponiya iqtisodiyotining faxri va ramzi elektronika sanoati ekanligini butun olam biladi. Ayniqsa, radioelektronika sanoati - rangli televizorlar, videomagnitofonlar, radiotexnika vositalari ishlab chiqarishda ustunlikka ega.

Qishloq xo'jaligi yuqori rentabelligi va mehnat unumdorligi bilan ajralib turadi. Ishlov beriladigan yerlar umumiy maydonining 11 foizini tashkil qilganligi uchun Yaponiyada qadimdan ekin maydonlaridan tejamkorlik bilan foydalanishga o'rganishgan. Yaponiya dehqonchilik mamlakatidir. Uning yetakchi tarmog'i bo'lgan don xo'jaligida sholikorlikning o'rnini alohidadir. Sholi jami ekin maydonlarining yarmiga yaqini eqiladi va yiliga 10-12 mln.t. sholi yetishtiriladi. Shuningdek, bug'doy, soya, turli sabzavot va bog'dorchilik tarmoqlari ham ancha ahamiyatli.

Yaponlar go'sht va sut mahsulotlari iste'mol qilishda Yevropaliklardan qolishmaydi. Bu holat mamlakatda chorvachilikning rivojlanishiga katta e'tibor berishni talab etadi. Hozirda chorvachilikning qoramolchilik, cho'chqachilik, broyler parrandachiligi, hovuz baliqchiligi, pillachilik kabi tarmoqlari yaxshi rivojlangan. Xo'jalikning bu tarmoqlari Yaponiya iqtisodiyotining faol yo'nalishlaridandir.

Transporti. Yaponiyaning tashqi va ichki aloqalarida dengiz transporti katta ahamiyatga ega. U rivojlangan davlatlar orasida dengiz transportida yuk tashish hajmiga ko'ra eng kattasi hisoblanadi. Bu mamlakatda 100 dan ziyod portlar mavjud. Olar orasida Kobe, Nagoya, Iokoma kabilar jahonda kattaligiga ko'ra ajralib turadi. Xalqaro hamda ichki aloqalarni tashkil etishda havo transportining ahamiyati kattadir.

Tashqi iqtisodiy aloqalar. Yaponiya iqtisodida hayotiy ahamiyatga ega. Buning sababi mamlakat iqtisodiyotida ko'p sohalarning import xom ashyolarga qarab qolganligidir. Yaponiya, asosan, sanoat xom ashyolarini import qiladi va iste'molga tayyor mahsulotlarni eksportga chiqaradi.

Yaponiya jahonning juda ko'p mamlakatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalarni olib boradi. Ular orasida eksport bo'yicha AQSh (20,4%), Xitoy (20,5%), Janubiy Koreya (7,6%), import bo'yicha Xitoy (20,5%), AQSh (11,6%), Saudiya Arabistoni (5,7%) ajralib turadi.

Yaponiyaning O'zbekiston Respublikasi bilan tashqi iqtisodiy aloqalari ham rivojlanib bormoqda. U O'zbekiston iqtisodiyotiga tobora ko'p investitsiya kiritmoqda. Buxoro neftni qayta ishlash zavodi va Sho'rtan gaz-kimyoy kompleksini investitsiyalashda Yaponiya faol qatnashdi. Yaponiyadan texnologiya vositalari, tayyor iste'mol mahsulotlari, aloqa kommunikatsiya vositalari O'zbekistonga keltirilayotgan bo'lsa, O'zbekistondan Yaponiyaga tobora ko'p paxta va ipak tolasi, tog'-kon, metallurgiya sanoati mahsulotlari, turli iste'mol mahsulotlari eksport qilinmoqda.


Yaponiyaning ichki-hududiy tafovutlari. Yaponiyada ham iqtisodiy jihatdan yaxshi rivojlangan hududlar bilan bir qatorda hali yetarli darajada o'zlashtirilmagan rayonlar mavjud. Tinch okean sanoat mintaqasi iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan rayon bo'lib hisoblanadi. Bu mintaqa Tokio qo'ltig'idan Osaka qo'ltig'igacha cho'ziladi. Aslida Tokaydo megalopolisini tashkil qilgan bu hududning relyefi nisbatan tekis. Bu tekislik Tinch okeani bo'ylab o'rtacha 15-65 km li tor yo'nalishda 600 km dan ortiq masofaga cho'zilgan.

Mamlakatning rivojlanish darajasiga ko'ra ikkinchi rayon Xonsyu orolining janubiy va Kyusyu orolining shimoliy qismlaridir. Rayonda o'zining rivojlanish darajasiga ko'ra faqat Kitakyusyu (Shimoliy Kyusyu) sanoat aglomeratsiyasi yuqori darajada rivojlangan metallurgiya va og'ir mashinasozlik sanoatlari bilan ajralib turadi.

Yaponiyaning uchinchi rayoni Kyusyuning janubiy qismi va butun Sikoku hamda Xokkaydo orollaridir. Rayonda sanoat rivojlanish darajasiga ko'ra Sapporo sanoat aglomeratsiyasi ajralib turadi.

Topshiriqlar va yechimlar

1. Osiyodagi sanoati rivojlangan davlatlarni geografik joylashuvini ufq tomonlarga mos ravishda ko'rsating.



- A). Yaponiya B). Xitoy
 C). Hindiston D). Tayvan
 E). Gongkon K). Tailand

Javob: Sh

2. Berilgan jadvaldan Osiyo qit'asiga tegishli davlatlar qatorini aniqlang.

Javob:

?	1. Xitoy, Brusey, Baxreyn, Boliz
<input type="checkbox"/>	2. Xitoy, Koreya, Bangladesh
<input type="checkbox"/>	3. Tailand, Sharqiy Timor, Kambodja
<input type="checkbox"/>	4. Afg'oniston, Pokiston, Eron
<input type="checkbox"/>	5. Suriya, BAA, Saudiya, Arabiston
?	6. Estoniya, Albaniya, Suriya

3. Berilgan Osiyo davlatlarining dengiz sohilida va quruqlik ichkarisida joylashishiga ko'ra tartib raqami asosida jadvalga ajratib yozing.


- | | |
|--------------|------------------|
| 1). Yaponiya | 6). Turkiya |
| 2). Xitoy | 7). Butan |
| 3). Nepal | 8). Saos |
| 4). Singapur | 9). Malayziya |
| 5). Iroq | 10). O'zbekiston |

Davlatlarni joylashuviga ko'ra	Javob raqami
Dengiz sohilida joylashgan	
Quruqlik ichkarisida joylashgan	

Javob:


Davlatlarni joylashuviga ko'ra	Javob raqami
Dengiz sohilida joylashgan	1,2,4,6,9
Quruqlik ichkarisida joylashgan	3,5,7,8,10

4. Osiyodagi sanoati bo'yicha rivojlangan davlatlarni geografik joylashuvini ufq tomonlarga mos ravishda ko'rsating.



- A). Yaponiya
- B). Xitoy
- C). Hindiston
- D). Tayvan
- E). Gongkon
- K). Tailand
- J). Malayziya
- Z). Singapur

Javob:



- A). Yaponiya
- B). Xitoy
- C). Hindiston
- D). Tayvan
- E). Gongkon
- K). Tailand
- J). Malayziya
- Z). Singapur


5. Quyida berilgan ma'lumotlarning qaysi biri to'g'ri ekanligini aniqlang.

- 1). Osiyoning sholikor rayonlariga musson iqlimli hududlari kiradi;
- 2). Gang, Braxmaputra, Sranadi, Menat, Mekona, Xongxa, Yanszi, Sizyan daryolarining qayir va deltalarida sholi yetishtiriladi;
- 3). Sholikor maydonlardan quyida tropik mevazorlar joylashgan;
- 4). Hindiston, Xitoy, Shri-Lanka, Indoneziya davlatlarida choy landshftlari joylashgan;

- 5). Janubiy-Gʻarbiy Osiyoning choʻl qismida don, paxta, xurmo yetishtiriladi;
 6).Janubiy-Gʻarbiy Osiyoning choʻl qismida yilqichilik, parrandachilik, rivojlangan;
 7).Osiyoning Nil, Amur daryo sohillarida eng koʻp sitrus mevalar yetishtiriladi.

Javob: Toʻgʻri javoblar 1,2,4,5 qatorlarda berilgan.

6.Berilgan diagramma asosida Osiyo mamlakatlari aholisi soni boʻyicha ketma-ketligini jadvalga joylashtiring.



Javob:

1	2	3	4	5
Xitoy	Hindiston	Pokiston	Bangladesh	Yaponiya

7. Osiyodagi davlatlarni dengiz sohilida va quruqlik ichkarisida joylashishiga koʻra mos raqamlarni ajratib yozing.

- | | |
|--------------|------------------|
| 1). Yaponiya | 6). Turkiya |
| 2). Xitoy | 7). Butan |
| 3). Nepal | 8). Saos |
| 4). Singapur | 9). Malayziya |
| 5). Iroq | 10). Oʻzbekiston |

Javob:

Davlatlarni joylashuviga koʻra	Javob raqami
Dengiz sohilida joylashgan	1,2,4,6,9
Quruqlik ichkarisida joylashgan	3,5,7,8,10

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида»ги. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлар тўплами. 2017 йил 6 сон 70 модда.
2. Abirqulov Q. Iqtisodiy geografiya. –Т., 2004.
3. Экономическая и социальная география стран ближнего зарубежья. Под ред. М. Ратанова. –М., 2004.
4. Родионва И.А Экономическая и социальная география мира. Т.1.2: Учебник для бакалавров. изд. исправ. и доп. М. Издательств. Юрайт. 2015.
5. Липец Ю. Г. Пуляркин В. А., Шлихтер С. Б. География мирового хозяйства. - М., 1999
6. Н.С. Мироненко. Введение в географию мирового хозяйства. М, 1995г.
7. Социально-экономическая география зарубежного мира. (Под ред В.В. Волского). М. Крон – Пресс, 1998г.
8. Voltaev M.J. Chet mamlakatlar iqtisodiy geografiyasi .Ma’ruza matni. 2000 yil.
9. Страны мира. -М.: Мысль, 1996.
10. Kulke E. Wirtschafts - geographie. -Munxen – Zurich: «Ferdinand Schoningh», 2004.

18-§ Janubiy Koreya iqtisodiy rivojlanishi

Janubiy Koreya Respublikasi Koreya yarim oroli va arxipelagida joylashgan bo‘lib, maydoni 98480 km² .Aholisi 49,2, mln (2018) Bunda 35 ming orollar bor. Sariq rangli baland qoyalar kishini hayratga soladi. Bu qoyalar Koreya yarim orolining janubi va janubi g‘arbida, Chejuda oroli qirg‘oq bo‘ylarida joylashgan. Eng katta orollari Kojjeda, Namxida, Chinda va Chejuda orollaridir.

Tabiiy sharoti va resursdlari. Janubiy Koreya hududining qirg‘oqlari kuchli parchalangan. Janubiy Koreya Koreya yarim orolining janubida joylashgan. Janubiy Koreya davlatini G‘arbdan Sariq dengiz, sharqdan esa Yapon dengizlari suvlari yuvib turadi. Shimolda Koreya Xalq Demokratik Respublikasi bilan chegaradosh. (chegaraning umumiy uzunligi 238 km). Sohilining uzunligi 2 413 km.

Mamlakat reliefi asosan qir va tog'lardan iborat. Asosiy tog' tizmasi sharqiy sohilga parallel joylashagan Sharqiy Koreya tog'laridir. Yarim orolning umumiy uzunligi 600 km dir. Mamlakatning eng baland nuqtasi Chirisanda tizmasi 1 915 m ni tashkil etadi.

Hududning qismini tog'liklar egallagan. Janubiy Koreyaning tabiiy sharoitiga kelsak, joy tabiati juda ajoyib va maftunkor. Chunki, sharqiy qismi tog'liklardan va aksincha, g'arbida tekisliklar joylashagan. Bu esa joy iqlimi, o'simlik, hayvonot dunyosi, igdrografiyasiga, tabiiy resurslarni shakllanishiga bevosita bog'liqdir. Janubiy Koreya iqlimiga nazar tashlasak, bu yerda mo'tadil musson tipidagi va janubiy subtropik havo massalari hukmronlik qiladi. Yillik amplituda shimoliy qismida yanvarning o'rtacha harorati -21° , 4° C janubiy qismida -8° C, 6° C, iyulning o'rtacha harorati 22° - 26° C ni tashkil etadi. Joyning iqlimi bu yerda sholi, choy, yachmen, soya kabi o'simliklarni yetishtirishga qulay sharoit hisoblanadi.. Tog'larda aralash bargli va keng bargli o'rmonlarni uchratish mumkin.

Tarixi. Yangi industrial davlatlar tarkibiga kiruvchi Janubiy Koreya davlati Li sulolasi hukmronligi davrida (1392-1910) mamlakatga yaponlar (XVI asr) va mangjurlar (XVIII asr)da bostirib kirishdi,(XIX asrda esa Koreya, Xtiyoy, Yaponiya, Rossiya o'rtasidagi mojaroli hududga aylandi. 1910 yilda Yaponiya tomonidan bosib olingan Kereya yaponlarga qarshi kurashni 1938- yilda boshlaydi va 1943 -yilda mustaqillikka erishadi. Lekin 38- parallel bo'ylab mamlakat ikki qisimga sovet va Amerika qo'shinlarining okko`patsion hududlariga aylandi. 1948- yilda Koreya ikki davlatga shimolda KXDR, janubda Koreya Respublikasiga bo'linadi. 1950-1953 yillarda ikki koreys davlat o'rtasida urush harakatlari sodir bo'ldi.

Aholisi. Aholining o'rtacha umr ko'rish yoshi erkaklarda 68 yosh, ayollarda 74 yosh ni tashkil qiladi. Aholining 65 % i shimoliy sharqdagi tog'larda yashaydi, ya'ni tog'li hududlarda.

Aholining etnik tarkibi turlichadir. Jami 96 % koreyslar, 3 % ini xitoyliklar tashkil etadi.

Janubiy Koreya aholisining 47 % i buddizm diniga e'tiqod qiladi. Xristian diniga e'tiqod qiluvchilar esa 48 % ni o'z ichiga oladi.

Sanoati. Sanoat elektrotexnika, to'qimachilik, oziq- ovqat ishlab chiqarishga asoslangan. XX asrning keyingi 10-15 yillar ichida Janubiy Koreya jadal tarzda rivojlanishga Yaponiya modelini asos qilib olganligidadir. Bugungi kunda bu davlat mashinasozlik, kemasozlik, priborsozlik, elektronika hisoblash texnikasi, to'qimachilik sohalarida dunyoda o'z mavqeiga ega.

Janubiy Koreyaning elektr-energetika sohasi ham rivojlangan bo'lib, aholi jon boshiga o'rtacha yillik elektro-energiya ishlab-chiqarish 1000 dan 5000 kVt soatga yetadi. AES lar soni bo'yicha 6- o'rinda turadi.

Mashinasozlik ham yuqori darajada rivojlangan. Mamlakatda 1 yilda 19 mln tonna temir qazib olinadi. Volfram 4,7 ming tonnani tashkil etdi.

Qishloq xo'jaligi ham tabiiy sharoiti va iqlimiga xos tarzda rivojlangan. Aholining 21 % shu tarmoqda band hisoblanadi. Qishloq ho'jalik mahsulotlari YaMM ning 11%ni tashkil qiladi. Mamlakatda asosan sholi, arpa, choy, batat, yechmen, soya va turli sabzavot ekinlari eqiladi. Bular ichida koreys karami alohida hususiyatga ega.

Transporti ham takomillashgan. Temir yo'llarning umumiy 6763 km bo'lib, avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi 63200 km. Uning 6000 kilometri mamlakatning shimolida joylashgan. Dengiz portlari 17000 km, havo yo'llari 1000 km gacha cho'zilgan. Transport yo'llari barcha turlar uchun qulay va zamonaviydir.

Iqtisodiy tafovutlari. Janubiy Koreya 3 ta provinsiyaga bo'linadi. Yirik shaharlari Seul va Pusan shaharlaridir. Ular o'z navbatida bir necha iqtisodiy rayonlarga bo'linadi. Seul 3 ta rayonga Inchxan, Mokpxo, Xonchxonga. Pusan esa 4 ta iqtisodiy rayonga bo'linadi. Bular. Tegu, Sangju, Ulsan, Masan rayonlaridir.

Iqtisodiy rayonlar o'z ixtisoslashuviga ko'ra turli funksiyalarni bajaradilar. Masalan, Seulda mashinasozlik, oziq-ovqat, elektrotexnika sanoati rivojlangan. Pusan iqtisodiy rayonida esa ximiyasozlik, kemasozlik, yog'ochni qayta ishlash, Maysanda esa selluloza, rangli metallurgiya, qora metallurgiya sanoati rivojlanganligi bilan xarakterli hisoblanadi.

Xalqaro iqtisodiy aloqalari. Janubiy Koreya Respublikasi eksportida ishlab chiqarish sanoati mahsulotlari ustun turadi. Ularning 95 % ini tayyor mahsulotlar (kemalar, elektron tovarlar, televizorlar) tashkil etadi.

Importi esa-yoqilg'i, xom ashyo, oziq-ovqat, mashina va uskunalar, kimyo, mahsulotlari hisoblanadi.

O'zbekisitonga transport vositalari, elektr va mexanik gineozlar, kauchuk va rezina mahsulotlari, bo'yoqlar, apparatlar kirib keladi. O'zbekistonda Koreys sarmoyasi ishtirokida 80 ga yaqin qo'shma korxonalar bor. «O'z DEU avto», «O'z DEU elektroniks», «qabul-O'zbek kompanii LTD». Asosiy savdo sheriklari , Yaponiya, O'zbekiston.

Topshiriqlar va yechimlar

1.O'zbekiston Respublikasi Koreya Respublikasiga qanday mahsulotlarni eksport -Ava import-B da javoblarni to'g'ri joylashtiring.

Javob:



T/r	Mahsulot nomi	Javob
1	Paxta tolasi	A
2	Turli uskunalar	B
3	Rangli metal (mis, rux)	A
4	Boyitilgan uran	A
5	Avtomobil dvigatellari	B
6	To'qimachilik uchun uskunalar	B
7	Avtomobil uchun rezina texnika buyam	A

2.Janubiy Koreya Respublikasiga xos ma'lumotlarni juftlab yozing

Javob:

T/r	Asosiy ma'lumotlar	Javoblar
1	Rasmiy nomi	Koreya Respublikasi
2	Poytaxti	Seul
3	Maydoni	99,538 km ²
4	Aholisi	51,431,100 kishi (2016 yil)
5	Davlat tili	Koreys tili
6	Dini	Nasroniylar, buddaviylar
7	Pul birligi	Von
8	Mustaqillikka erishgan yili	1948 yil 15 avgust
9	Davlat tuzilishi	Unitar Respublika
10	Davlat boshlig'i	Prezident

3. Janubiy Koreyani relief jihatidan tog'lik va tekislikdagi % larini aniqlang





1). Tog'lik 2). Tekislik

Javob: 1). Tog'lik -70% ; 2). Tekislik -30%

4. Janubiy Koreyaning yirik shaharlarini aholi soniga ko'ra diagrammada ketma-ketlikda belgilang (1katak 1 mln aholi)

1). Kvanchji; 2). Tedi; 3). Seul; 4). Tedjon; 5). Inchkon

Javob:



5. Janubiy Koreya uchun xos bo'lgan tabiat zonalariga belgi qo'ying



-1. Cho'l va chalacho'l zonasi



- 2. Tayga zonasi



- 3. Aralash igna bargli o'rmonlar



- 4. Dasht zonasi



-5. Ekvatorial nam o'rmonlar



-6. Keng bargli o'rmonlar



- 7. Tundra

Javob:




-1. Cho'l va chalacho'l zonasi



- 2. Tayga zonasi



- 3. Aralash igna bargli o'rmonlar




- 4. Dasht zonasi
- 5. Ekvatorial nam oʻrmonlar
- 6. Keng bargli oʻrmonlar
- 7. Tundra


6. Janubiy Koreyaga tegishli industrial gigant mahsulotlarining katta qismi eksport qilinadigan kompaniya nomini keltirib chiqaring.

Savol	D	U	A	X	N	I
Javob:	X	U	N	D	A	Y

7. Quyidagi yarimorollardan qaysi birida Janubiy Koreya Respublikasi joylashganligini aniqlang



8. Janubiy Koreya YAMM dagi iqtisodiyot tarmoqlarining xissasi %larini aniqlang va ranglar bilan ajrating



Javob:



-sanoat 34,9 %



- boshqa sohalar



-xizmat koʻrsatish 60,1 %



- qishloq xoʻjaligi

1. Ўзбекистон Республикасининг янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида»ги. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлар тўплами. 2017 йил 6 сон 70 модда.
2. Abirqulov Q. Iqtisodiy geografiya. –Т., 2004.
3. Экономическая и социальная география стран ближнего зарубежья. Под ред. М. Ратанова. –М., 2004.
4. Родионва И.А Экономическая и социальная география мира. Т.1.2: Учебник для бакалавров. изд. исправ. и доп. М. Издательств. Юрайт. 2015.
5. Липец Ю. Г. Пуляркин В. А., Шлихтер С. Б. География мирового хозяйства. –М., 1999
6. Н.С. Мироненко. Введение в географию мирового хозяйства. М, 1995г.
7. Социально – экономическая география зарубежного мира. (Под ред В.В. Волского). М. Крон – Пресс, 1998г.
8. Voltaev M.J. Chet mamlakatlar iqtisodiy geografiyasi .Ma’ruza matni. 2000 yil.
9. Страны мира. –М.: Мысль, 1996.
10. Kulke E. Wirtschafts - geographie. -Munxen – Zurich: «Ferdinand Schoningh», 2004.

19-§. Xitoy iqtisodiyoti

Xitoy Xalq Respublikasi dunyoda aholisi ko‘p va maydoni jihatidan eng yirik bo‘lgan davlatlardan biridir. Xitoy Tinch okeanining g‘arbiy sohillarini egallagan. U Markaziy va Sharqiy Osiyoda joylashgan. Xitoy maydoni jihatidan dunyoda Rossiya federatsiyasi va Kanadadan so‘ng 3 o‘rinda turadi. Qirgiziston, Tojikiston, Afgoniston, Hindiston Myanma, Vetnam, Nepal, Butan, Laos, Makao bilan chegaradosh. Janubda Janubiy Xitoy dengizi, sharqda Sariq va Sharqiy Xitoy dengizlar bilan tutash. Chegarasining umumiy uzunligi – 2214334 km, sohil bo‘ylab chegara uzunligi 14500 km. Hududi 9572900 km kv. Aholisi 1,410 mln kishi (2019) Poytaxti Pekin shahri. Davlat tili-xitoy tilining mandarin dialekti. Dini Konfutsiylik, daosiylik, buddaviylik, xristianlik, islom. Pul birligi yuan.

Xitoy Xalq Respublikasi murakkab orografiyaga ega bo'lgan tog'li o'lka hisoblanada.

Xitoy Xalq Respublikasi mineral resurslarga boydir. Mamlakatda 110 ga yaqin foydali qazilmalar uchraydi. Xitoy volfram, surma, titan, litiy, kaliy, nodir elementlarning jihatdan dunyo mamlakatlari ichida birinchi o'rinni egallaydi. Boksit, fosfor, nikel, simob, marganets, molibden elementlarni miqdori jihatdan ikkinchi va ko'mir, temir rudasi miqdori bo'yicha uchinchi urinni egallaydi. Xitoy neft, yonuvchi slanets, oltingurgurt, tuz, gips va mis rudalarining zahiraloriga egadir.

Xitoy Xalq Respublikasining 72% hududi iqlimi qulay bo'lgan joyga to'g'ri keladi. Qishloq xo'jaligining barcha turlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Hududning 20% mo'tadil, 19% issiq, 26% subtropik, 1% tropik iqlim mintaqalarida joylashgan. Yanvarning o'rtacha harorati -4°C . Janubiy Xitoyda esa 8°C tengdir. Iyulning o'rtacha harorati shimolda -20°C janubda, 29°C ga teng. Xitoyda 6000 mmga yaqin yog'in yerga tushadi. O'rtacha yillik yog'in miqdori 5% ga teng yarmi 630 mmni tashkil qiladi.

Tuproqlari. Mamlakatning tuproq ko'lami xilma-xilligi bilan xarakterlanadi. Bu yerda Yevrosiyo kontinentiga xos bo'lgan barcha tuprok tiplari uchraydi.

O'simliklari. Mamlakat floraga boy va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu yerda 35 mingga yaqin o'simlik turi uchraydi

Hayvonot dunyosi. Mamlakat hududida 3,5 mingga yaqin umurtqalilar, 2 mingga yaqin baliq turlari 1-2 mingta qushlari, 450 ga yaqin yirtqich hayvon turlari, 210 ga yaqin suvda va quruqda yashovchi hayvonlari, 300 ga yaqin sudralib yuruvchilaning turlari uchraydi .

Tarixi. Birinchi Xitoy sulolasi –Sin miloddan avvalgi XIV asrda In nomini olgan Manchjurlar 1644 yilda hokimyatni qo'lga kiritadi va 1912 yilgacha mamlakatni idora qiladi. Imperiya hududini Sibir, Oltoy, Pomir va Nepalgacha kengaytirgan manchjurlar hukumati XIX asrda ko'plab ichki va tashqi muammolarga duch keladi. 1912 yilda Sun Yatsen Gamindan hukumatiga asos soladi. Sun Yatsen o'limidan so'ng Chan Kayshi guruhi kommunistlar bilan aloqani uzib, Nankinda milliy hukumat tuzadi. 1938 yilda Yapon qo'shinlarining bostirib

kirishidan keyin gomindachilar bosqinchilarga qarshi kurashish uchun kommunistlar bilan birlashadilar . Gomindachilar magʻlubiyatga uchrab Tayvanga koʻchadi ,kommunistlar esa Mao TSze Dun boshchiligida 1949 yil 1 oktabrda Xitoy Respublikasining tashkil topganini eʻlon qiladi. Mao TSze Dun vafotidan soʻng Xitoy Xalq Respublikasi raisi etib saylangan Den Syaopin mamlakatni siyosiy va iqtisodiy islohotlar yoʻliga boshladi. Natijada XXR dunyoning eng jadal rivojlanayotgan davlatlari qatoriga qoʻshiladi.

Davlat tuzumi. Xitoy Xalq Respublikasi 1978 yil martda qabul qilingan konstitutsiyasiga koʻra Xalq demokratik diktaturasi oʻrnatilgan sotsialistik davlat. Mamlakat tarkibida 23 ta provintsiya , 5 ta avtonom rayon va 3 ta markaziy shahar -Pekin, Shanxay va Yantszin bor. XXR ning milliy bayrami 1 oktabr XXR eʻlon qilingan kun. Ijro etuvchi hokimiyat XXR raisi (davlat boshligʻi) ga tegishli. Davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi oliy organi -Umumxitoy Xalq vakillari yigʻilishi . Mamlakatda boshqa siyosiy partiyalar paydo boʻlganiga qaramay siyosiy hayotni Xitoy Kommunistik partiyasi belgilaydi. Deputatlar 5 yil muddatga saylanadi.

Aholisi. Xitoy Xalq Respublikasi dunyodagi eng koʻp millatli davlatdir. Aholi 1 mlrd 410 mln kishini tashkil etadi. Kuniga bu yerda 60 ming kishi tugʻuladi. Xitoyda har 1000 kishiga 7,4 kishini tashkil etadi.

Tugʻilishning yuqoriligi aholi sonining tez surʻatlar bilan oʻsishiga sabab boʻladi. 2025 yilda Xitoy aholisining soni 1522,8 million kishiga yetishi mumkin deb bashorat qilinmoqda. Erkaklarning oʻrtacha umr koʻrish yoshi 67 yosh, ayollarniki 69 yoshni tashkil qiladi. Oilada farzand koʻrish chegaralab qoʻyilgan. Aholi zichligi qisqardi va 1 kv ga 725 kishini tashkil etadi. Mamlakat aholisi notekis joylashgan. Aholining 80% mamlakat territoriyasining 1/10 qismida yashaydi.

Mehnatga yaroqli aholi 583600000 kishi shundan 60% qishloq xoʻjaligiga va oʻrmonchilikda, 25% sanoat va savdoda band. Urbanizatsiyasi rivojlangan yirik shaharlar koʻp. Shanxay, Pekin, Tayvan, Sian, Nankin, Shenyang, Chuntsin va boshqalardir.

Xo'jaligining umumiy ta'rifi. Revolyutsiyaga qadar Xitoy yarim feodal, kolonial davlat bo'lib, iqtisodiyotining tuzilishi va ishlab chiqarish kuchlarining u qadar rivojlanmaganligi bilan ajralib turadi. Mamlakatda faqatgina qishloq xo'jaligi tarqoq joylashgan sanoat tarmoqlariga ega bo'lib, zamonaviy industriya kam edi. Mamlakatning iqtisodiy holati kapitalistik bozorga bog'lanib qolgan edi. Xitoyda Xalq hokimiyati o'rnatilgandan so'ng bir muncha rivojlandi. Jumladan avloddan -avlodga o'tayotgan kambag'allik illatlari yo'qoldi.

Xitoy Xalq Respublikasi ekonomikasi ko'p ukladlidir. Uning 5 ta formatsiyasi mavjud, davlat sektor, jamoa individual, kapitalistik davlat va doimiy sektorlardir.

Sanoati: Revalyutsiyaga qadar Xitoy iqtisodiyotida sanoatni urni sezilarli emas edi. 1946 yilda milliy daromadlarni 10 % gina qaysi sanoatga tog'ri kelar edi.

XXR sanoat korxonalarining katta kismi mayda korxonalaridir. Mayda korxonalarda 53% aylanma sanoat mahsulotlari, o'rta korxonalarda 19% va yirik korxonalarda 28% mahsulotlar ishlab chiqariladi. Mamlakatda barcha sanoat korxonalarining 13,1% oziq-ovqat sanoatiga, 9,6% mashinasozlikka, 4,7% to'qimachilik sanoatiga, 2,4% qurilish materiallari sanoatiga, 2,2% ko'mir qazilov sanoatiga, 10,8% mashinalarga ishlov berish zavodlariga, 7,7% oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat tarmqlariga to'g'ri keladi.

Yengil sanoat Xitoyda yuz bergan revolyutsiya g'alabasiga qadar ham yuz bergan va hozir ham sanoat tarmoqlarining bosh tarmog'i hisoblanadi.

Xitoy oziq-ovqat sanoati 40 ta kichik tarmoqlarga bo'lingan, lekin un mahsulotlari, hayvon yog'lari, qand shakar, baliqchilik, go'sht, konserva, tuzlangan mahsulotlar, tomat, vinochilik va boshqalarga bo'linadi. 40 yil ichida mashinasozlik sanoati Xitoyning qayta ishlovchi sanoat tarmog'iga aylandi. Bu tarmoq korxonalarida 17 mln dan ortiq aholi banddir. Bu tarmoq mahsulotlari eksporti 2-3mlrd dollarni tashkil etadi.

Mashinasozlikning yirik markazlari Shanxay Shenslyan, Tyantszin, Xarbin, Pekin, Layan, Dalyan va boshqa bir qator mamlakatning yirik shaharlaridir. Og'ir mashinasozlikning asosiy markazlari-Shenyan, Tayyuan, Yaoyan, Lanchjou, Shanxay, Guanjon, Fuloertszu provintsiyalaridir.

Mamlakatda 14 ming energiya obektlari mavjud. Yirik sanoat markazlari Lyaonin, Girin, Xarbin provintsiyalaridir. Yoqilg'i-energetika resurslarining 21% neftni qayta ishlov sanoatiga to'g'ri keladi.

Xitoyda 2,3 ming rangli metallurgiya korxonalar bor.

Qishloq xo'jaligi. 1949 yilda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining umumiy tuzulishi va milliy daromadning 70% ni berar edi. Urushlar natijasida Xitoyda 30% qishloq xo'jaligi yerlari, 16% chorva mollari yuk qilib yuborildi. Xalq xo'jaligi o'rnatilgandan so'ng qishloq xo'jaligiga bo'lgan e'tibor biroz o'sdi. Lekin Xalq xo'jaligida uning ahamiyati xom-ashyo bazasi sifatida saqlanib qoldi.

Transport. Transport tarmoqlari rivojlangan shundan 54000 km temir yo'llar bor. Shundan 6900 km elektrlashtirilgan. Xitoy ichki kema qatnovining uzunligi 138600 km. Xitoy portlarida asosan yuk tashiladi. Kemalar asosan Yantszi, Xuanxe, Chjutszyan daryo havzalarida qatnaydi. Avtomobil yo'llari uzunligi 1300000 km ga teng. Avtomobil transportida yuk tashish miqdori 241 mlrd tonnani tashkil etsa, 213 mln aholi bir joydan ikkinchi joyga qatnaydi. Xitoy Xalq Respublikasida 360 ga yaqin neft, 60 gazaprovotlar qurilgan bo'lib, uzunligi 13000 km. Mamlakatda har 10000 aholiga 1,8 m³ asfaltlangan yo'llar to'g'ri keladi. Dengiz transporti ko'hna tarmoq bo'lib, yirik portlari Guonchju, Dayan, Sindao, Shanxay hisoblanadi.

Xitoy hududini 3 ta iqtisodiy rayonga bo'linadi:

1. Sharqiy rayoniga – Pekin, Tyan'tszin, Shanxay provintsiyalari, Vebey, Lyaonin, TSzyansu, Chjetszyan, Shandur, Guandun, Xaynan va Guansi-Chjuan avtomobil ishlab chiqarish markazlari xisoblanadi.

2. Markaziy iqtisodiy rayonga-Shan's, Girin, Xeyluntszyan, Alxat, Szyansi, Xubey, Xunan, Senan, provintsiyalari va ichki Mangoliya avtonom rayoni kiradi.

3. G'arbiy iqtisodiy rayonga-Sichuan, Guichjian, Yun'nan, Tsinjay, Uagur va Tibet avtonom rayoni kiradi.

Tashqi iqtisodiy aloqalari. Xitoy Xalq Respublikasi 182 dan ortiq davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar o'rnatgan. Milliy daromaddan eksport hissasi 5,6% dan 14% ga oshdi. Xitoy Xalq Respublikasining asosiy iqtisodiy partyorlari rivojlangan davlatlar. Ulardan Rossiya, Yaponiya, Germaniya, AQSH, g'arbiy Yevropa davlatlari

hisoblanib tashqi savdo oborotining 55% i to'g'ri keladi. Bundan tashqari Gangkong, Aomin, Tayvan davlatlari bilan iqtisodiy aloqa o'rnatgan. Xitoy eksport ko'lami bo'yicha dunyoda 16-o'rinda turadi.

Topshiriqlar va yechimlar

1. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'ying.

- 1). Xitoy sanoatining tayanch tarmog'i sanoatdir;
- 2). Hozirgi vaqtda 60 ming km gacha cho'zligan mamlakat yil ; davomida xo'jalik yuklari va yo'lovchilarning teng yarmiga to'g'ri keladi;
- 3). Xitoy mamlakatida 300 mln tonnadan ortiq qayta ishlanmoqda;
- 4). Xitoyni, va iqtisodiy rayonlarga bo'lish mumkin;
- 5). Mamlakatning dengiz qirg'og'i bo'yi rayonlarini bog'lashda va tashqi iqtisodiy aloqalarni olib borishda asosiy o'rin tutadi;
- 6). dengiz bo'yi hududlari yirik shaharlar, Shanxay, Pekin, Tyanszin, Guanchjon zonalar sifatida alohid ahamiyat kasb etadi.

2. Xitoy mashinasozlik sanoat markazlarini tartibini belgilang.

	Savol		Javob
1	Tyanszin	3	Shanxay
2	Chanchun	6	Shenyan
3	Shanxay	1	Tyanszin
4	Pekin	4	Pekin
5	Xarbin	2	Chanchun
6	Shenyan	5	Xarbin

3. Shanxay, Tyanszin, Shenyan, Pekin, Chanchun, Xarbin shaharlarida qaysi sanoat tarmog'i rivojlangan.

A	I	N	A	O	L	K	I	Z	S	S	K	M
---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---

Javob:

M	A	S	H	I	N	A	S	O	Z	L	I	K
---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---

4. Xitoy YIM tarmoqlarini foizini ketma-ketlikda joylashtiring.

Javob:

1	2	3	4	5	6
ha	ha	yo‘q	ha	ha	yo‘q

8.Rangli metallurgiyani asosan qanday sanoat tarmoqlari tashkil etadi. Ularni joylashgan o‘rnini aniqlang.

T/r	Rangli metal	Tarqalgan hududlar
1	Mis	Xitoyning sharqiy qismi
2	Qo‘rg‘oshin	Xitoyning shimoli –sharqiy rayonlari
3	Rux	Xitoyning shimoliy qismi

Javob: 1-A, 2-B, 3-S

Asosiy adabiyotlar

- 1.Ўзбекистон Республикасининг янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида»ги . Ўзбекистон Республикаси конун хужжатлар тўплами.2017 йил 6 сон 70 модда.
2. Abirqulov Q. Iqtisodiy geografiya. –T., 2004.
- 3.Экономическая и социальная география стран ближнего зарубежья. Под ред. М.Ратанова. –М., 2004.
4. Родионва И.А Экономическая и социальная география мира.Т.1.2:Учебник для бакалавров.изд.исправ.и доп.М. Издателств. Юрайт.2015.
5. Lipets Yu. G. Pulyarkin V. A., SHlixter S. B. Geografiya mirovogo hozyaystvo. - M., 1999
- 6.N.S.Mironyanko. Vvedenie v geografiyu mirovogo hozyaystva. M, 1995g.
- 7.Sotsialno – ekonomicheskaya geografiya zarubejnogo mira. (Pod red V.V.Volskogo). M. Kron – Press, 1998g.
- 8..Boltaev M.J.СНет mamlakatlar iqtisodiy geografiyasi .Маъруза matni.2000 yil.
- 9.Страны мира.-М.:Мысль,1996.

10.Kulke E. Wirtschafts - geographie. -Munxen – Zurich: «Ferdinand Schoningh», 2004.

JANUBIY-SHARQIY OSIYO DABLATLARI.

20-§. Osiyoning yangi industrial mamlakatlari

Osiyoning yangi istustrial davlatlaridir. Ular Koreya Respublikasi, Tayvan, Singapur, Syangan (Gonkong) bo‘lib, so‘ngi 10-15 yil ichida omilkorlik bilan amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar tufayli taraqqiyotga keskin yuksalishlarga erishdilar. Shu tufayli ular G‘arbda «Osiyo yo‘lbarzlari» yoki «Osiyo ajdarholari» deb ham nom berdilar. XX asr oxirlariga kelib bu toifa davlatlariga Malaziya, Indoneziya, Tayland ham qo‘shildi. Sharqdagi yangi industrial davlatlar Yaponiya rivojlanish modelini na‘muna qilib olganligi bilan ajralib turadi.

Jumladan, 60 yillargacha qoloq bo‘lgan Janubiy Koreya Respublikasi 90 yillar boshlariga kelib jahonda AES larda ishlab chiqarilayotgan elektr energiya hajmiga ko‘ra 9-o‘ringa, po‘lat eritish bo‘yicha 8-o‘ringa, dengiz kemalari ishlab chiqarishda 2-o‘ringa, Kimyoviy tolalar ishlab chiqarishda 5-o‘ringa elektron sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda 6-o‘ringa chiqib oldi. Shunga o‘xshash keskin o‘zgarishlar bo‘lgan davlatlarda ham yuz berdi.

Singapur Respublikasi- Janubi-Sharqiy Osiyodagi davlat maydoni 622 km². U bir paytning o‘zida ham davlat daryo, orol va poytaxt nomidir. Singapur Respublikasi Singapur oroli va unga tutash mayda orollar hamda Malakka yarim orolininng janubida joylashgan. Maydoni 640 km². Poytaxti- Singapur.

Singapur oroli Marakka yarim orolidan Joxor bo‘g‘ozi, Sumatra orolidan Singapur bo‘g‘ozi orqali ajrab turadi. Sohillari past tekislik bo‘lib bir muncha botqoqlashgan. Janubi-g‘arbiy sohillarida marjon riflari bor. Relefi tekislikdan iborat bo‘lib, balandligi 176 m gacha. Maydonning ayrim joylari botqoqlashgan va tropik o‘rmonlar bilan qoplangan. Qirg‘oq bo‘ylab chegara uzunligi 193 km.

Iqlimi- mussonli, ekvatorial. Yillik o‘rtacha temperatura -26⁰C bo‘lib, yanvarning o‘rtacha temperaturasi 26,2⁰ C, iyulniki 27,4⁰C tashkil etadi. Yong‘in

miqdori 2500 mm ga yaqin. Singapurda yong‘inlar mavsumi ikkiga bo‘linadi. Ular may va oktabr - noyabr mavsumlaridir. Iqlimi o‘rtacha sernam bo‘lganligi uchun bu yerga kelgan turistlarga o‘zlari bilan birga tabiiy toladan tikilgan kiyimlarni olib yurishlari tavsiya etiladi.

Singapur davlati ham yangi industrial davlatlar qatoriga kiradi. Uning vujudga kelish tarixi uzoq davrga borib taqaladi. 1819- yili ingliz Tolas Reflz bu hudularni sulton Joqordan sotib olib Singapur shahriga asos solgan. Shundan so‘ng Singapur Britaniya mustamlakachilik siyosatining asosiy tayanch nuqtalaridan biriga aylandi. II- jahon urushi yillarida mamlakat yapon bosqinchilari tomonidan bosib olindi. Urushdan so‘ng Singapur Britaniya mustamlakasi bo‘lib qolaverdi. 1959 yil muxtoriyat huquqini oldi. 1965 yil avgust oyida Singapur o‘zini mustaqil Respublika deb e‘lon qildi.

Singapur aholisi 5.607 000 kishini tashkil etadi. Jami aholining 75 % ni Xitoylik, 15% ni Malaziyaliklar, 10% ni esa boshqa xalqaro millat vakillari tashkil etadi. Bu yerda xitoy -Malaziyaliklardan tug‘ilgan bolani «peranakan»deb atashadi. Davlat tili - ingliz, Xitoy (Mandarin lahjasi), malay, tamil. O‘rtacha umr ko‘rish erkaklarda 73 yosh, ayollarda 79 yosh. Turli millat vakillari yashaganligi uchun ham bu yerda aholi turli dinlarga e‘tiqod qiladi. Dini-buddaviylik (30%), xristianlik (20%), islom (18%), konfutsiylik (15%), induizm va daosizm. Aholi zichligi har 1 km kv ga 6591 kishini tashkil etadi. Singapurda urbanizatsiya darajasi yuqori bo‘lib, 80% dan ortiq aholi shaharlarda yashaydi.

Singapur iqtisodi ingiliz mustamlakatchilik hukmronligi ostida shakllangan. Singapur Hind okeani bilan Tinch okeani birlishuvida ya’ni muhim dengiz va havo yo‘lida joylashganligi tufayli iqtisodi asosan savdo va tarnsport tarmoqlari taraqqiy etgan.

Singapur siyosiy mustaqillikka erishgan, 1960-1970 yillarda davlat yangi sa’noat tarmoqlarini rivojlantirish va tashqi savdo aloqalarini kengaytirsh haqida bir qator choralar ko‘rdi. Yalpi ichki mahsuloti sa’noat 21 % ni, qurilish 6,7 %ni savdo 27,1 % maishiy xizmat 6,2 turizm 5,8 % tashkil etadi.

Sa'noatning yangi tarmoqlari dengiz kemasozligi va bank ishlari, chet el manapoliyalari nozorati ostida. Singapur qishloq xo'jaligida maydonining atiga 25 ga yaqini ishlatiladi. 8 % o'rmonlar bilan band. Kauchuk, Kakos, palmalari, tamaki, ziravor va sabzavot eqiladi. Cho'chqachilik, parandachilik, baliqchilik rivojlangan.

Respublikada temir yo'llar uzunligi 38 km, avtomobil yo'llari uzunligi esa 2597 km ni tashkil qiladi. Mamlakatda 150 mingdan ortiq yengil, 40 mingdan ko'proq yuk mashinalari qolaversa, dengiz flotida 500 savdo kemasi bor.

Singapur aeroportida va dengiz porti xalqaro ahamiyatga ega.

Gonkong – Janubi –sharqiy Osiyoda janubiy Xitoy dengiz sohilida joylashgan maydoni 1075 km² tashkil etadi. Aholisi 7,347 ming kishi(2016 y) Tabiiy geografik o'rni qulay bo'lib, dengiz va okeanga bemalol chiqa oladi. Gonkongning qirg'oqlari ko'pgina qo'ltiq va qo'ltiqchalar bilan parchalangan. Sohil yaqinida mayda qoyali orollar ko'p. Yer yuzasi asosan tog'liklardan iborat. Eng baland joyi 939 metr.

Iqlim subtropik, musson. Yanvarning o'rtacha harorati 15⁰-16⁰ C, iyul oyiniki esa 25⁰-27⁰ C ni tashkil etadi. Dengiz va okeanga chegaradosh bo'lgani uchun yog'in miqdori ko'p. Yillik yog'in miqdori o'rtacha 2000 mm ni tashkil qiladi. Ba'zi joylarda undan ham ko'p. Mamlakat hududi doimiy yashil tropik o'rmonlar bor.

Yana bir Osiyodagi industrial davlatlar hisoblangan Gonkong rivojlanish tarixi ham o'ziga xos. Gonkong 1842 yilgi Nankin shartnomasiga ko'ra Xitoy tomonidan Buyuk Britaniyaga berilgan. Inglizlar Gonkongni yirik savdo portiga aylantirishdi. Natijada 1898-1899- yillarda Britaniya Xitoydan 90 yil muddatga ijaraga olgan. Hududlarini ham Gonkonga qo'shdi. 1941 yil Gonkong yaponlar tomonidan bosib olindi. Lekin II chi jahon urushida Yaponiyaning mag'lubiyatidan so'ng u yana Buyuk Britaniya nazoratiga o'tdi. 1997 -yil Xitoyning maxsus hududi sifatida Xitoy davlati tarkibiga kirgan. Bunga ko'ra Xitoy Gonkongda mavjud ijtimoiy, iqtisodiy tuzumni 50 - yilgacha o'zgartirmaslik majburiyatini olgan.

Umumiy maydoni 1 075 km kv ni tashkil qiladi. 1997- yildan boshlab Buyuk Britaniya nazoratidan Xitoy hududiga o'tdi. 1984- yil Xitoy va Buyuk Britaniya o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq Xitoy tarkibidagi maxsus hudud statusini

olgan. Gonkongda mavjud 1950-yildan boshlagan sanoat ishlab chiqarishning tez oʻsishiga Gonkong Shanxaydan tadbirkorlik va sanoatchilarning koʻchib kelishi sabab boʻlgan. Gonkongda 50 mingga yaqin fabrika va zavodlar, taxminan 250 ta bank muassasalari bor.

Sanoatning asosiy tarmogʻi gazmol va kiyim bosh ishlab chiqarish, bu mahsulotlar eksportining 30 % ni tashkil qiladi. Elektronika ishlab chiqarish ikkinchi oʻrinda turadi. Ogʻir sanoatida – kemasozlik, samalyotsozlik, toʻqimachilik, kiyim bosh, elektr asboblari kabi mahsulotlarni va turli hil oʻyinchoqlarni ishlab chiqaradi.

Gonkong aholisi 7392 ming kishi tashkil qiladi (2017). Aholisining 90% xitoyliklardan iborat, inglizlar (20ming atrofida). Gonkong jahonning eng katta turistik bazasi,1990- yildan boshlab har yili shaharda 10 mlndan ortiq turistlar tashrif buyurishadi.

Boqdorchilik, parrandachilik, choʻchqachilik, baliqchilik rivojlangan. Tabiiy imkoniyatlari cheklanganligi sababli Gonkong iqtisodiyoti va aholisining xom ashyoga ,oziq-ovqat mahsulotlariga boʻlgan ehtiyojlari mahalliy imkoniyatlar hisobidan qondiradi.

Aeroport maydoni 54 gektar va yirik yopiq binosi bor. Gonkong porti Kay Chungda joylashgan.Bu port yirik konteyner porti hisoblanadi.

Gonkong boyrogʻi ostida 43 tamamlakat kemalari suzadi. 16 ta Angliya,3 ta Kanada,2 ta Bermud, Kipr, Belgiya va Norvegiya.Har kuni Gonkong portiga oʻrtacha 300ga yaqin okean va daryo kemalar kiradi.

Tayvan Osiyo materigining Janubi-sharqiy qismida joylashgan orol maydoni 36002 km² uni janubdan janubiy Xitoy dengizi, SHraqdan Tayvan boʻgʻozi. Tinch okeani suvlari oʻrab turadi.Qirgʻoq chizigʻining uzunligi 1448 km. Eng baland nuqtasi Yuysan 3997 metr. Gʻarbida katta tekislik mavjud. Orolida Lussonli yumshoq iqlimi hukmron boʻlib, yoki issiq 25-30⁰, qish esa biroz iliq, oʻrtacha harorat -18gacha boradi. Tekislikdagi yongʻin miqdori 500mmgacha kuzatiladi.

Tayvnda toshko‘mir, tabiiy gaz, temir rudalari, marganets, volfram, poli metal rudalari va osh tuzi konlari bor.

Tayvan davlati ham yuqorida aytilgan davlatlarga o‘xshab Osiyoning Yangi industrial davlatlari qatoriga kiradi. Tayvan 1590 yilda Portugallar tomonidan egallanadi. Portugallar orolga Formaza (ajoyib) deb nom berishadi. 1683 yili Xitoy imperiyasi tirkibiga kirgan. 1895 yilda orol yaponlarga qaram bo‘lgan. 1949 yili Xitoy inqilobidan so‘ng Chan Kayshi boshliq hukumat orolga qochadi, va Chan Kayshi umrining oxirigacha (1975 y) Tayvan Respublikasi prezidenti bo‘ladi. 1955 - yilda Tayvan bilan o‘zaro xavsizlik to‘g‘risida shartnoma imzolaydi.

Konstitutsiyaga ko‘ra Tayvan respublika hisoblanadi. Tayvanning Xitoydan mustaqil ekanligini jahon ham jamiyati tan olmagan. Ijro etuvchi hokimiyati prezident (davlat boshlig‘i) va yuan (palata) Bosh Vazirga tegishli. qonun chiqaruvchi oliy organi Milliy majlis (qonun chiqaruvchi yuan). Siyosiy partiyalari: Golein, Demokratik progressiv partiya, Yangi partiya, Ishchi partiyasi, Sotsial-demokratik partiya.

Tayvanning aholisi 2378 mln kishini tashkil qiladi (2018). Tausyunda 1,4 mln, Taychjyun 748 ming, Tayvanda 150ming aholi yashaydi. Eng ko‘p tarqalgan din bu buddizm 4,9 mln kishi e‘tiqod qiladi. Daosizga 3,64 mln, Yangi diniy oqimlarga bir mlndan ortiq, protestantlarga 374 ming kishi, katoliklar 296 ming kishi, islom diniga 52 ming kishi e‘tiqod qiladi.

Asosiy sanoat tarmoqlari: to‘qimachilik, radioelektronika, kemasozlik, oziq-ovqat, tsement, o‘rmon - yog‘ochsozlik, po‘lat eritish, kempyuter, elektron uy ro‘zg‘or apparaturalari, kiyim kechak, poyabzal, sport yaxtalari ishlab chiqarish yetakchi o‘rinni egallaydi. 1994 yilda YaMM 257 mlrd (aholi jon boshiga 12070)doll.ni tashkil etdi.

Tayvanda temir yo‘l transporti, avtomobil transporti, havo transporti rivojlangan.

4ta yirik yer osti temir so‘llari bor. Orolidagi zamonaviy temir yo‘l tizimi Tayvanyo‘lovchilari uchun qulayliklar tug‘diradi. Orolidagi temir yo‘l katta-katta

shaharlarga bog‘lagan. 2001- yil dekabr oyida temir yo‘l 1600 kmni, avtomobil yo‘llari 200 kmni tashkil qildi.

Malaziya Janubi-sharqiy Osiyodagi davlat. Maydoni 332,8 ming km². Aholisi 32,5 mln mln kishi (2018). Ma‘muriy jihatdan 13 ta shtatva 2ta federal hududga bo‘linadi. Aholisining 54 % malayyaliklar, 34 % xitoyliklar, 10 % hindlar. Tili – Malaziya tili. Dini – islom. Shahar aholisi 43 % ni tashkil qiladi.

Xo‘jaligi industrial – agrar mamlakat. Mamlakatning eng muhim sanoat tarmog‘i kauchik ishlab chiqarishdir. Bundan tashqari kakos palmasi, ananas, kakao, choy, murch, sabzavot yetishtirish taraqqiy etgan.

Ishlab chiqarish sanoatining asosiy tarmoqlari eletrotexnika, neftni qayta ishlash, kimyo, metallurgiya, avtomobil, to‘qimachilik, oziq-ovqat sanoati.

Konchilik asosiy tarmoqlari: neft, tabiiy gaz, qalay, temir, mis rudalari va boksit qazib chiqarish. Yiliga 24,8 mlrd kVt soat elektroenergiya hosil qilinadi.

Temir yo‘llarining uzunligi 2,2 ming km, avtomobil yo‘llarining uzunligi 52,5 ming km. Dengiz savdo Janubiy tonna 2,9 mln tonnani tashkil qiladi.

Yangi industrial davlatlarning tashqi iqtisodiy aloqalari asosan rivojlangan mamlakatlar bilan bog‘liq.

O‘zbekistonda Malaziyalik sarmoyadorlar ishtirokida tuzilgan 10 ta qo‘shma korxonalar mavjud. «Otel O‘zbekiston», «O‘z Mal OYL» (neft konlarini topish), «O‘z Makom» (telefon xizmati), «O‘zbekimizning Interneyshnl» (kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab quvatlash) ularning yilliklaridir. Asosiy savdo hamkorlarining – Yaponiya, Singapur, Yevropa Hamjamiyati mamlakatlari, Janubiy Koreya, Xitoy, Tayvan. O‘zbekiston.

Hozirda Osiyodagi Yangi industrial davlatlar qatoriga Indoneziya davlati ham kiritilmoqda. Indoneziya Respublikasi chetga suyultirilgan tabiiy gazni chiqarishda dunyoda birinchi o‘rinda turadi (yiliga 90 mlrddan ko‘proq gaz qazib oladi). Neftni ham chetga chiqaradi.

O‘zbekiston bilan Indoneziya o‘rtasidagi tovar aylanmasi 2000 yilda 361,8 ming dollarini tashkil qildi.

Indoneziyaning «LT Bakri Kommunikeyshn Korpareyshn» kompaniyasi bilan O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi barpo etilgan. «O‘ztelekominterneyshnl» qo‘shma korxonasi Surxondaryo, Qashqadaryo va Samarqandda o‘z filiallarini ochgan. Bundan tashqarii indonez investlarining sarmoyasi 100 % bo‘lgan ikkita korxonada tashkil etilgan. Bular «Buztel» va «Bakri Investido» lardir.

Asosiy savdo hamkorlari: Yaponiya, , Singapur, Germaniya, O‘zbekiston.

Yangi industrial mamlakatlar tez rivojlanmoqda. Buni iqtisodiy ko‘rsatkichlardan ko‘rish mumkin.

Topshiriqlar va yechimlar

1. Gongkong qachon Xitoyning maxsus hududi sifatida tarkibiga kirgan? Javobni topish uchun quyidagi amallarni bajaring.

- A) $1 \cdot 1 =$; $3 + 6 =$; $7 + 2 =$; $7 + 0 =$;
 B) $1 + 0 =$; $3 \cdot 3 =$; $2 + 1 =$; $1 + 1 =$;

Javob: A)1997 y

2. Quyidagi mamlakatlarning aholisini tez yozing.

- 1). Gonkong _____
 2). Malayziya _____
 3). Singapur _____
 4).Tayvan _____

Javob: 1) Gonkong -7392 ming ; 2) Malayziya- 32,5 mln ; 3) Singapur- 5612 ming ;
 4) Tayvan-2378 mln

3.Manbalardan foydalanib, Osiyoning yangi industrial davlatlarining rivojlanish darajasiga ko`ra jadvalni to`ldiring.

Javob:

t \ r	Mamlakatlar nomi	Aholisi	Poytaxti	Davlat tuzumi va tili	Dini va pul birligi
1	Gonkong	7392 ming kishi	Gonkong	Xitoyning maxsus ma'muriy rayoni	Buddizm
2	Malayziya	32,5 mln kishi	Kuala-Lumpur	Federal Malayziya	Islom
3	Singapur	5612 ming kishi	Singapur	Respublika Ingliz tili	Buddaviylik
4	Tayvan	2378 mln kishi	Tayvan	Respublika	Buddizm

4. Malayziya avtomobil yo`llari uzunligini toping

7	9	2	5
---	---	---	---

Javob:

2	5	9	7
---	---	---	---

5. Mamlakatlarni va poytaxtlari bilan juftlab yozing.

Malayziya	Tayvan
Tayvan	Kuala Lumpur
Singapur	Gonkong
Gonkong	Singapur

Javob:

Malayziya	Kuala Lumpur
Tayvan	Tayvan
Singapur	Singapur
Gonkong	Gonkong

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида»ги . Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлар тўплами. 2017 йил 6 сон 70 модда.

2. Абиркулов К. Иқтисодий география. -Т., 2004

3. Abdullaev O. Mintaqalar va mamlakatlar iqtisodiyoti. Toshkent: Yangi asr avlodi” 2009. 282 b

4. Бушуева Л. Все страны мира. Универсальный справочник. Рипол классик. 2009 г.

5. Bahritdinov B.A., Zokirova G.A., Abdiraximova S.E. Jahon ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. O`quv qo`llanma. T.: 2008 yil

6. Vahobov H., M. Tillaboyeva. Iqtisodiy geografiya asoslari. (o`qituvchi kitobi) Toshkent, O`qituvchi. 2001 yil. 4-5 bet

- 7.Максаковиский В.П.Географическая картина мира .Кн.1 .2:Общая Характеристика мира М...Дрофа .2008.-495 с.
- 8.Mahmudova.M, Soliyev.A. Geografiyadan nostandart testlar. Namangan Davlat universiteti Namangan.-2017 y
9. Солиев А.С., Ахмедов Э.А., Мухаммадалиев Р.И.Минтақавий иқтисодиёт. Ўқув қўлланма.2003 йил.
- 10.Qayumov A, Pardayev G`, Islomov I. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya (O`rta Osiyo iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi) o`quv qo`llanma T.2007
- 11.Qo`ldasheva M. “Geografiya fanidan nostandart testlar to`plami” uslubiy qo`llanma Namangan malaka oshirish hududiy markazi nashriyoti. 2017 yil
- 12.Янчук.С .Экономическая и социальная география стран Центральной Азии и СНГ .Текст лекций .Т.2000

21-§. Janubiy Osiyo.Hindiston

Rasmiy nomi - Hindiston Respublikasi. Poytaxti - Dehli. Hududi - 3287732 km.kv. Aholisi - 1 mlrd 230 mln.dan ortiq (2018). Davlat tili - hind va ingliz tillari, yana 14 ta til (bengal, tamil, tellugu va boshqalar) mamlakatning turli shtatlarida rasmiy til sifatida ishlatiladi. Dini -hinduizm (82,6%), islom (11,4%), xristian (2,4%), sikx (2%), buddizm (0,7%). Pul birligi - hind rupiysi.

Geografik joylashuvi va tabiati. Hindiston - Janubiy Osiyodagi davlat. Sharqda Bangladesh (chegara uzunligi - 4053 km) va Myanma (1463 km), shimolda Xitoy (3380 km), Nepal (1690 km) va Butan (605 km), g`arbda Pokiston (2912 km) bilan chegaradosh. Mamlakat hududini uchta tabiiy zonaga ajratish mumkin. Dekan yassitog`lari deyarli butun Hindiston yarimorolini egallagan G`arbiy va Sharqiy Gat tog1 tizmalarini o`z ichiga olgan. Hind - Gang tekisligi o`z navbatida ikki qismdan iborat: Sharqda Ganga va Braxmaputra vodiysi, shimoli sharqda Tar sahrosi. Shimoliy qismi dunyoning eng baland tog`lari-Himolay bilan o`ralgan. Mamlakatning asosiy daryolari - Ganga, Hind, Braxmaputra, Godovari. Foydali qazilmalari: ko`mir (ko`mir zaxiralari bo`yicha dunyoda 4-o`rinda), temir rudasi,

tabiiy gaz, neft, marganes, titan, xromit, olmos, ohaktosh, boksit. Hududining 55% i ekin eqiladigan yerlar, 23% i o'rmon va changalzorlardan iborat.

Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari. Davlat tuzilishi-federativ respublika. Mamlakat 25 ta shtat va 7 ta ittifoqdosh hududga bo'linadi. 1947 yil 15 avgustda mustaqillikka erishgan. Qonunchilik ingliz umumiy huquqiga asoslangan. Milliy bayrami - 26- yanvar - respublika e'lon qilingan kun (1950 yil). Ijroiya hokimiyati prezident (davlat boshlig'i) ga va premyer-ministr boshchiligidagi hukumatga tegishli. Qonun chiqaruvchi oliy organ ikki palatali parlament (Sansad). Asosiy partiyalari: Hindiston Milliy Kongressi (HMK), Bxaratiya Janata partiyasi (BJP).

Tarixi. Hozirgi Hindiston hududida insoniyatning qadimgi sivilizatsiyalaridan biri paydo bo'lgan. M. a. 3-ming yillik o'rtalaridan m. a. 2-ming yillik o'rtalarigacha Hindiston hududida hind-oriy qabilalari vayron qilingan Xarappa sivilizatsiyasi rivojlandi. M. a. VI asrda Hindistonning shimoli g'arbiy qismi Fors imperiyasi hukmronligiga o'tdi. Musulmon bosqinchilari bosqiniga qadar (X asr oxiri) Hindiston hududida hinduizm madaniyati va dini rivojlangan turli davlatlar hukmronlik qilgan. 1398-1399-yillarda Amir Temur tomonidan Hindistonning katta qismi bosib olindi va Dehli saltanati o'zining ko'pgina vassallaridan ajralib, kuchsizlanib qoldi. Zahiriddin Bobur 1526 yilda Dehlini bosib olib, mamlakat hududida XVIII asrgacha, ya'ni yevropaliklar tomonidan bosib olinguniga qadar o'zining rivojlanishi cho'qqisiga erishgan buyuk imperiyaga asos soldi. Bu hududda o'z ta'sir doirasiga ega bo'lish uchun kurash Fransiya va Angliya o'rtasida kechdi va Angliyaning g'alabasi bilan tugadi. Britaniya tomonidan yangi mustamlakani o'zlashtirish XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida faollashdi. 1818 yilda hindlarning oxirgi qarshiligi sindirildi. XX asrning 40-yillarida Maxatma Gandi rahbarligidagi Milliy Ozodlik harakati 1947 yil mamlakatning mustaqillikka erishishiga olib keldi, lekin mamlakat ikki qismga - Hindiston va Pokiston Islom Respublikasiga bo'lindi. Hindiston mustaqillikka erishgandan keyin 1960 yilda Xitoy, 1965-yilda esa Pokiston bilan harbiy mojarolarga (Pokiston bilan Jammu va Kashmir shtatlari hududi bo'yicha mojarolar hozirgi vaqtda ham davom etmoqda) tortildi. Hindistonda bir necha marta diniy va milliy mojarolar ham (1984 yilda

premyer-ministr Indira Gandi va uning o'gli Radjiv Gandining 1991 yilda o'ldirilishi) yuzaga keldi. 1991 yilda boshlangan islohotlar, aholining ko'pligi va shu bilan bog'liq bo'lgan muammolarga qaramay, Hindiston iqtisodini dunyoda eng tez rivojlanayotgan davlatlar qatoriga qo'shdi.

Sanoati. Sanoatida marganets, slyuda (dunyoda oldingi o'rinlardan birida), toshko'mir, titan, temir rudasi, oltin, tabiiy gaz, xromit, neft, boksit va boshqa qazib olinadi. Yiliga o'rtacha 380 mlrd. kVt-soat elektr energiyasi hosil qilinadi (uning 4/5 qismi issiqlik elektr stansiyalarida, 1/7 qismi GESlarda); AESlar ham bor. Yetakchi sanoat tarmoqlari: to'qimachilik (aso-san, jut va ip-gazlama), oziq-ovqat (qand-shakar, tamaki), teri-poyabzal sanoati. Neftni qayta ishlash, se-ment, qog'oz, shisha-oyna ishlab chiqarish korxonalari mavjud. Qora va rangli metal-lurgiya, kimyo sanoati, mashinasozlik rivojlangan. Dunyodagi axborot texnologiyalari yo'nalishidagi korxonalarining yarmidan ko'pi Hindistonda joylashgan. Yadroviy texnologiyalar va koinotni zabt etish bo'yicha yetakchi o'rinda. Hindistonda ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlarining 40% ga yaqinini mayda va hunarmandchilik korxonalari beradi.

Qishloq xo'jaligi. Qishloq xo'jaligida mayda dehqon xo'jaliklari ustunlik qiladi. Mamlakatda 8 mln.dan ortiq fermer xo'jaligi bor. Ishlanadigan yerlar (165 mln. gektar) mamlakat hududining 2/3 qismini tashkil etadi; shundan 141 mln. gektari faqat ekinzor (35 mln. gektaridan yiliga ikki marta hosil olinadi). Qishloq xo'jaligi maydonining 20% sug'oriladi. Mamlakatda aholi soni ko'p bo'lishiga qaramay, uning qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji to'liq qondirilibgina qolmay, ko'p qismini eksport ham qiladi. Qishloq xo'jaligi dehqonchilikka ixtisoslashgan. Asosiy ekinlari - sholi, bug'doy, tariq, duk-kakli don ekinlari va moyli o'simliklar. Hindiston shakarqamish, yer yong'oq, choy, jut, kanakunjut, paxta yetishtirish bo'yicha dunyoda oldingi o'rinlarda turadi. Shuningdek, kauchuk, kofe, makkajo'xori, tamaki, qalampir, ziravorlar (murch, kardamon, mushk, dolchin va h.k.) yetishtiriladi.

Transporti. Temiryo‘llarining umumiy uzunligi-61850 km. Avtomobil yo‘llari -1970000 km (960000 km qattiq qoplamali). Avtomobil yo‘llari uz. 3 mln. km dan ortiq. 1984 yil Kalkutta shahrida met-ropolitlen ishga tushgan. Mamlakatda kemalar qatnaydigan daryo yo‘llari soni 14 ta. Mamlakat tashqi savdo aylanmasining 90% dengiz yo‘llari orqali amalga oshiriladi. Ichki suv yo‘llari-16180 km. Asosiy portlari: Bombay, Madras.

Tashqi iqtisodiy aloqalari. Hindiston chetga mashina va jihozlar, kiyim-kechak, teri va undan tayyorlangan buyumlar, kimyoviy tovarlar, ip-gazlama matolar, jutdan tayyorlangan buyumlar, temir rudasi, choy, kofe, ziravorlar, konserva, baliq va baliq mahsulotlari, brilliant, qimmatbaho toshlar chiqaradi. Chetdan neft va neft mahsulotlari, ishlab chiqarish vositalari, iste‘mol mollari va boshqa oladi. Tashqi savdoda AQSh, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, BAA, Belgiya, Italiya, Rossiya, Fransiya, Saudiya Arabistoni va boshqa davlatlar bilan hamkorlik qiladi.

Topshiriqlar va yechimlar

1. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘ying.

1). Hindiston davlatining hududi — km.kv ni tashkil etadi;

2). Hindistonning pul birligi ;

3). Hindistonning asosiy portlari;

4). Hindiston hududining% i ekin eqiladigan yerlar,o‘rmon va changalzorlardan iborat;

Javob: 1). 3287732, 2). Hindiston rupiyasi; 3). Bombay, Madras; 4). 55% va 23 %


2. Qonun chiqaruvchi oliy organ ikki palatali parlamentni aniqlang chalkashlikni toping. (Sansad) tarmog‘i rivojlangan.

D	A	S	A	N	S
---	---	---	---	---	---

Javob:

S	A	N	S	A	D
---	---	---	---	---	---

3. Quyidagi yarimorollardan qaysi birida Hindiston davlati joylashganligini aniqlang.



Javob: 2

4. Hindiston YIM tarmoqlarini foizini ketma-ketlikda joylashtiring.

- 1). hinduizm (82,6%); 2). islom (11,4%);
3). xristian (2,4%) ; 4). sikx (2%); 5). buddizm (0,7%)

Javob: 1). hinduizm (11,4%) ; 2). islom (2,4%);
3). xristian (0,7%) ; 4). sikx (0,7%); 5). buddizm (82,6)

5. Nuqtalar o‘rniga mos keluvchi harflarni qo‘yib Hindistonga tegishli ob’ektlarning nomini toping.

- 1). D . k . n 2). B . m . e . 3). G . n . a 4). B . n . a . l . y . a
5). T . r 6) G . d . v . r .

Javob:

- 1). Dekan 4). Bengaliya
2). Bombey 5). Tar
3). Ganga 6). Godovari

6. Berilgan so‘zlarga to‘g‘ri javobni toping.

t/r	Savollar	Javob variantlari		
		A	B	C
1	Hindistonda qancha aholi yashaydi	1340 mln	1371 mln	1380 mln
2	Hindistonda nechta shtatlar va Ittifoqdosh hududlar joylashgan	29 ta va 7 ta	30 ta 5 ta	32 ta va 4 ta
3	Hindlarning jami aholisidagi ulushi qanchani tashkil etadi	75%	65%	40%
4	Hindiston yalpi mahsulot hajmiga ko‘ra jahonda nechanchi o‘rinda turadi	2	3	5

1	2	3	4
	172		

B	A	C	B
---	---	---	---

Javob:

7. Berilgan ma'lumotlarni to'g'risini toping.

- 1). Hindiston aholisining 1\3 qismi shaharlarda yashaydi;
- 2). Hindiston aholisining 65 % induizm diniga e'tiqod qiladi;
- 3). Hindiston yillik sanoat mahsulotlarini xajmiga ko'ra jahonda uchinchi o'rinda turadi;
- 4). Hindiston ekin maydonlarining hajmiga ko'ra jahonda ikkinchi o'rinda turadi;
- 5). Dorivor ekinlar yetishtirish bo'yicha Hindiston jahonning yirik uchtaligiga kiradi;
- 6). Bombay shahri butun dunyoga mashhur zamonaviy axborot texnologiyalari markazi hisoblanadi .

Javob:

1	2	3	4	5	6
ha	Yo`q	yo`q	ha	ha	yo`q

8. Hindistonga berilgan ta'riflarni aniqlang. Ularni joylashgan o'rnini aniqlang.

T/r	Ta'rif	Ta'rif
+		
-		

Javob:

T/r	Ta'rif	Ta'rif
+	Tafovutlar mamlakati, tayancha mamlakat	Poyabzal ishlab chiqarish bo'yicha birinchi beshtalik mamlakati
-	Yangi industrial mamlakat, rivojlangan mamlakat	Eng faol mamlakat, tabiiy resurs yetarli mamlakat

Asosiy adabiyotlar

1.Ўзбекистон Республикасининг янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида»ги . Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлар тўплами.2017 йил 6 сон 70 модда.

2. Абиркулов К . Иктисодий география. -Т., 2004
- 3.Abdullaev O. Mintaqalar va mamlakatlar iqtisodiyoti .Toshkent:Yangi asr avlodi” 2009.282 b
- 4.Бушуева Л. Все страны мира.Универсальный справочник.Рипол классик.2009 г.
- 5.Bahritdinov B.A., Zokirova G.A., Abdiraximova S.E. Jahon ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. O`quv qo`llanma. T.: 2008 yil
- 6.Vahobov H., M.Tillaboyeva. Iqtisodiy geografiya asoslari. (o`qituvchi kitobi) Toshkent, O`qituvchi. 2001 yil. 4-5 bet
- 7.Максаковский В.П.Географическая картина мира .Кн.1 .2:Общая Характеристика мира М...Дрофа .2008.-495 с.
- 8.Mahmudova.M, Soliyev.A. Geografiyadan nostandart testlar. Namangan Davlat universiteti Namangan.-2017 y
9. Солиев А.С., Ахмедов Э.А., Мухаммадалиев Р.И.Минтакавий иктисодиёт. Ўқув қўлланма.2003 йил.
- 10.Qayumov A, Pardayev G`, Islomov I. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya (O`rta Osiyo iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi) o`quv qo`llanma T.2007
- 11.Qo`ldasheva M. “Geografiya fanidan nostandart testlar to`plami” uslubiy qo`llanma Namangan malaka oshirish hududiy markazi nashriyoti. 2017 yil
- 12.Янчук.С .Экономическая и социальная география стран Центральной Азии и СНГ .Текст лекций .Т.2000

SHIMOLIY AMERIKA DAVLATLARI

22-§. AQSh

Amerika Qo‘shma Shtatlari (AQSh, inglizcha: United States of America) - Shimoliy Amerikadagi mamlakat. PoytaxtiVashington shahri, BMT a’zosi. Amerika Qo‘shma Shtatlari Sharqdan Atlantika, g‘arbdan Tinch okeani, janubi-sharqdan Meksika qo‘ltig‘i bilan o‘ralgan. Ma’muriy jihatdan 50 shtat va Kolumbiya federal okrugiga bo‘linadi. Alyaska va Gavayi shtatlari mamlakat asosiy hududidan tashqarida joylashgan. Puerto-Riko Hamdo‘stligi, Shimoliy Mariana orollari

Hamdo'stligi, Guam, Virginiya orollari, Sharqiy Samoa ham AQShga qarashli. Maydoni 9373000 km², aholisi 320,061 mln. kishi (2018).

AQSh - federativ respublika. Amaldagi konstitutsiyasi 1787 yilda qabul qilingan. Davlat va hukumat boshlig'i, qurolli kuchlar bosh qo'mondoni -prezident, uning vakolatlari juda katta. Vitse-prezident bilan birga bivosita, ikki bosqichli saylov yo'li bilan (saylovchilar hay'ati orqali) 4 yil muddatga saylanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni senat va vakillar palatasidan iborat ikki palatali kongress amalga oshiradi. Senatda 100 senator bor (ular 6 yil muddatga, har shtatdan 2 tadan saylanadi va 1/3 qismi har 2 yilda yangilab turiladi). Vakillar palatasiga 435 deputat 2 yilga saylanadi. Ijrochi hokimiyat organi -AQSh hukumati prezident tomonidan senatning roziligi bilan tayinlanadi; 13 vazirdan iborat bo'ladi. Hukumat kongress oldida mas'ul emas. Har bir shtatning o'z konstitutsiyasi bor. Shtatdagi qonun chiqaruvchi hokimiyatni qonun chiqaruvchi majlis, ijrochi hokimiyatni esa gubernator amalga oshiradi. AQSh davlatining konstitutsiyaviy tizimiga uch siyosiy-huquqiy qoida asos qilib olingan, bu qoidalar -hokimiyatning bo'linishi, federalizm va sudning konstitutsiyaviy nazoratidan iborat. Hokimiyatning bo'linish qoidasi davlat hokimiyatining uch tarmog'i -qonun chiqaruvchilik, ijroiya va sud hokimiyatlarining mustaqilligini va ular o'rtasida vazifalarning chegaralab qo'yilishini nazarda tutadi. Federal darajadagi uch tarmoq – Kongress, Prezident va Oliy suddir.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Atlantika okeanining AQSh qirg'og'ida ko'rfaz va qo'ltiqlar juda ko'p, sohillari asosan pasttekislikdan iborat; eng katta yarim orol – Florida. Mamlakat relyefi uch turga bo'linadi. G'arbdagi Kordilyera tog' tizmasi AQSh hududining uchdan bir qismini egallaydi. Tinch okean sohili baland tog'lar (Alyaska tizmasida AQSh va butun – 6194 m balandlikdagi Mak-Kinli cho'qqisi joylashgan; bundan tashqari Qirg'oqbo'yi tizmalari va Kaskadli tog'lar, Syerra-Nevada tog'lari bor). Sharqiy mintaqani Qoyali tog' tizmalari egallagan. Mazkur ikkala tog'li mintaqa oralig'ida Kolumbiya va Kolorado platolari bor. Katta Havza cho'l yassi tog'liklarini chuqur daralar bir-biridan ajratib turadi. Sharqda uncha baland bo'lmagan Appalachi tog'lari (bal. 2037 m gacha, Mitchell tog'i) bo'lib, uni

torgina Atlantika bo'yi pasttekisligi okeandan ajratib turadi. Kordilyera bilan Appalachi o'rtasida Markaziy tekisliklar, Buyuk tekisliklar (yoki Preriy platosi) va Meksikabo'yi tekisliklarini o'z ichiga olgan ichki tekisliklar joylashgan. Shim.da suv-muz shaklidagi relyefli Lavrentiy tepaligining bir qismi joylashgan. AQSh-foydali qazilma zaxiralari va xilma-xilligi jihatidan dunyoning eng boy mamlakatlaridan biri. Ko'mir, neft, gaz, mis, qo'rg'oshin, pyx, uran, temir, titan rudalari, simob, oltin, molibden, volfram, fosforit konlari mavjud. Tosh va kaliy tuzlari, oltingugurt va boshqa minerallar ham bor. AQSh hududining deyarli hammasi mo'tadil va subtropik mintakalarda, Alyaska -subarktika, Floridaning janubiy qismi tropik mintaqalarda joylashgan. Mamlakatning shimoli-sharqiy va sharqiy qismlari iqdimiga iliq Golfstrim oqimi, Tinch okean sohili iqlimiga sovuq Kaliforniya oqimi anchagina ta'sir o'tkazadi. Hudud yuzasining tuzilish xususiyatlariga ko'ra shimoliy va janubiy mintaqalar o'rtasida havoning faol almashinuvi munosabati bilan ob-havo tez-tez o'zgarib turadi. AQSh ichki mintaqalarining iqlimi -kontinental, Kordilyera ichki hududlarida keskin kontinental. Bismark shahrida (Shimoliy Dakota shtati) yanvarning o'rtacha harorati -19° , iyulda 21° , Chikago shahrida yanvarda $-3,7^{\circ}$ va iyulda 32° , G. Meksikabo'yi pasttekisligi va Atlantika bo'yi pasttekisligining janubiy qismida subtropik iqlim. Yangi Orlean shahrida yanvarning o'rtacha harorati 12°C , iyulda $27,4^{\circ}\text{C}$. Atlantika bo'yi sohilining shimoli-sharqiy qismi va Tinch okean bo'yi sohilining shimoliy qismida – dengiz iqlimi. Nyu-Yorkda yanvarning o'rtacha harorati $-0,8^{\circ}\text{C}$, iyulda 23° . Tinch okean sohilining janubida O'rta dengizga o'xshash iqlim, Kordilyera janubiy qismining ichki tumanlarida juda issiq va qurg'oqchil. Havoning eng past harorati (-64°C gacha) Yukon yassi tog'ligi (Alyaska) da, eng yuqori harorati esa (50°) Ajal vodiysi (Kaliforniya) da kuzatilgan.

O'rtacha yillik yog'in Alyaskaning janubi-sharqida va Vashington shtatining g'arbida $-3000-4000$ mm, mamlakatning janubi-sharqida $-1500-2000$ mm, ichki tekisliklarda -sharqda 1500 mmdan g'arbda 3000 mm gacha. AQShning ko'p daryolari Atlantika okeani havzasiga quyiladi. Mamlakat hududidan dunyoning eng

yirik daryo tizimlaridan biri -Missuri bilan Missisipi daryosi oqib o'tadi. Appalachidan oqib kelib Atlantika okeaniga quyiladigan daryolar (Gudzon, Potomak va boshqalar) -qisqa, tez va sersuv. Kordilyeraning daryo tarmog'i siyrakroq. Bu yerdagi Kolumbiya, Kolorado kabi soylar chuqur daralardan oqib o'tadi. Mamlakat shimolida, Kanada chegarasida Buyuk ko'llar (Yuqori ko'l, Guron, Michigan, Eri, Ontario) bor. Katta Havza tog'ida Katta Sho'r ko'l, Floridada ko'pdan-ko'p sayoz ko'l va qo'ltiqlar, Alyaskada muzliklardan hosil bo'lgan tektonik ko'llar, jumladan, Iliamna ko'li bor. Ichki suvlardan sanoat va kommunal suv ta'minoti, kema qatnovi, sug'orish va gidroenergiya manbai sifatida barakali foydalaniladi. Tuproq qoplami xilma-hil. Shimoli-sharqda serajriq podzol (kulrang) va qo'ng'ir o'rmon tuproq, janubi-sharqda qizg'ish va sarg'ish tuproq, Ichki tekisliklarda qoramtir preriy, qoratuproq va to'q sur, Kordilyeraning tog' oralig'i platosida quruq dashtlarning kulrang va och sur tuproqlari. Mamlakat shimoli-sharqida aralash va qarag'ay o'rmonlari, janubida keng bargli, Tinch okean sohili va Kordilyera yon bag'irlarida igna bargli o'rmonlar ustun. Markaziy tekisliklarning g'arbidagi ayrim joylarda o'tsimon preriy o'simlikzorlari, Buyuk tekisliklar, Kordilyera platosi va vodiylarida quruq dashtlarning o'simliklari saqlanib qolgan. Kordilyera yassi tog'ligining qurg'oqchil qismini yarim cho'l va cho'llar egallaydi. Muhofazaga olingan yirik tabiat ob'yektlari orasida Iyellouston milliy bog'i, Yosemite milliy bog'i, Sekvoyya, Grand-Kanon milliy bog'lari, Mamont va Karlsbad g'orlari bor.

Tarixi. Qadim zamonlarda hozirgi AQSh hududida indeys va eskimoslar yashagan. Amerika 1492 yilda X. Kolumb tomonidan kashf etilgandan keyin 16-asrda Ispaniya, Fransiya, Angliya, Gollandiya, Shvetsiya, Shimoliy Amerikadagi bo'sh yerlarni egallashga kirishdi. Angliya 18-asr o'rtalarida asosiy raqiblarini surib chiqarib, qit'aning sharqiy qismida o'zining mustamlakachilik hukmronligini o'rnatdi. Yerlarni egallash va o'rnashib olish bilan ayni bir vaqtda mahalliy aholi qirg'in qilindi va Afrikadan qul negrlar ommaviy ravishda olib kelindi. 1775–83 yillardagi Shimoliy Amerikada mustaqillik uchun urush davomida 1776 yil 4 iyulda

federal davlat -AQShga asos solindi va u respublika deb e'lon qilindi. J. Washington AQShning birinchi prezidenta etib saylandi. Mamlakat shimolida sanoat va fermerlik, janubiyda quldorlikka asoslangan dehqonchilik rivojlandi. G'arbdagi indeys qabilalarini haydab yuborish va yangi yerlarni o'zlashtirish hisobiga AQSh hududi tez kengaya bordi. 1803 yilda Fransiyadan G'arbiy Luiziana „sotib olindi“, 1819 yilda Ispaniya Floridaning bahridan o'tdi, 1836 yilda Meksikadan Texas tortib olindi. XIX asr mobaynida hozirgi Kaliforniya, Arizona, Nyu-Meksiko, Nevada shtatlarining hududlari, Kolorado va Vayoming shtatlarining bir qismi qo'shib olindi. XIX asr o'rtalarida AQShda „ikki partiyali tizim“ tarkib topdi. Endi hokimiyatni Demokratik partiya bilan Respublikachilar partiyasi galmagal boshqaradigan bo'ldi. Shimoliy burjuaziyasi bilan janub plantatorlari o'rtasidagi ziddiyat AQShda 1861–65 yillar fuqarolar urushiga olib keldi, unda prezident A. Linkoln boshchiligidagi shimoliy shtatlar g'alaba qozondi. Urush davomida yer ulushlari haqida (1862), quldorlikni bekor qilish to'g'risida (1865) qonunlar qabul qilindi. Fuqarolar urushidan so'ng mamlakat iqtisodiyoti jadal rivojlana boshladi. 1867 yilda AQSh chor Rossiyasidan Alyaska va Aleut orollarini sotib oldi; 19-asr oxirida Filippin, Gavayi, Puerto-Riko va boshqalarni, 1903 yilda Panama kanali zonasini qo'lga kiritdi. Ikki asr bo'sag'asida AQShga ko'chib kelishning yangi to'lqini boshlandi. Muhojirlarning aksariyati janubi-sharqiy Yevropadan edi. Birinchi jahon urushi davri (1914-18)da AQSh avvaliga betaraflik mavqeida turdi, 1917 yil aprelda Antanta tomonida turib harakat qildi. Urushdan keyin AQSh iqtisodiy yuksalish davriga kirdi. Ammo tez orada iqtisodiy inqiroz (1929-33) boshlanib, ishsizlik kuchaydi (1933 yil 17 mln. ishsiz bor edi), korxonalar sindi, ishlab chiqarish keskin pasaydi. Inqiroz sharoitida F. Ruzvelt(1933-45 yillarda AQSh prezidenta) boshchiligidagi Demokratik partiya ma'muriyati hokimiyat tepasiga keldi. Uning tashabbusi bilan bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar amalga oshirildi, „yangi yo'l“ deb atalgan bu yo'l AQShni inqirozdan olib chiqish maqsadini ko'zlar edi. 1941 yilda Yaponiya Amerikaning Pyorl Xarbor harbiy-dengiz bazasiga hujum qilganidan keyin AQSh Ikkinchi jahon urushiga qo'shildi va Gitlerga qarshi koalitsiya tomoniga o'tdi. Amerika qurolli kuchlari asosan Tinch

okeanda Yaponiyaga qarshi jangovar harakatlarda qatnashdi. 1943 yilda Italiyaga qo‘shin tushirdi. AQSh ittifoqchilarning xalqaro anjumanlarida (1943 yil Texron, 1945 yil Qrim, 1945 yil Potsdam konferensiyalarida) qatnashdi. Nihoyat, 1944 yil 6 iyunda AQSh bilan Buyuk Britaniya ikkinchi frontni ochdi. 1945 yil avgustda G. Trumen (1945–53 yillarda AQSh prezidenta) buyrug‘i bilan Yaponiyaning Xirosima va Nagasaki shlariga atom bombalari tashlandi; o‘n minglab tinch aholining qirilishiga sabab bo‘ldi. 1950-53 yillarda AQSh Koreya urushida qatnashdi, 1956–75 yillarda Vyetnamda urush olib bordi. 1945 yildan AQSh – BMT, shuningdek Amerika davlatlari tashkiloti, NATO a‘zosi. O‘zbekiston Respublikasi bilan diplomatiya munosabatlarini 1992 yil 12 fevralda o‘rnatgan.

Milliy bayrami – Mustaqillik kuni – 4 iyul (1776).

Aholisi. AQShning hozirgi aholisi uch asosiy etnik tarkibiy qismdan: AQSh amerikaliklari, muhojirlar va tub joy aholisidan iborat. AQSh aholisining 82,8 % ni asli kelib chiqishi Yevropaliklar, 12,6 % ni afrikaliklar, 3,6 % ni osiyoliklar, 1 % ni hindular, eskimoslar, aleutlar tashkil etadi. Aholining 80 % shaharlarda yashaydi. AQSh amerikaliklari millat sifatida asosan 18-asrning 2-yarmida Yevropaning turli mamlakatlaridan kelgan muhojirlarning aralashib ketishi natijasida tarkib topgan. Afroamerikaliklar („qoralar“ deb ata-luvchi negrlar) AQSh amerikaliklarining irqiy-etnografik guruhi bo‘lib, ular 17–19-asrlarda mamlakatga keltirilgan afrikalik qullarning avlodlaridir. Afroamerikaliklar ko‘p asrlar davomida ayirmachilik va kamsituvga duchor qilinishiga qaramay, afrikaliklarning oq tanlilar bilan jismoniy aralashuvi sodir bo‘ldi. Duragaylar afroamerikaliklar umumiy sonining anchagina qismini tashkil etadi. AQShda meksikanlar, italyanlar, nemislar, fransuzlar, shvedlar, norveglar, gollandlar, yaponlar, polyaklar, xitoylar va boshqaxalqlar ham yashaydi. AQShda 5 mingga yaqin o‘zbek istiqomat qiladi. Ular asosan NyuYork, Washington, Nyu-Jersi shtatlarida, Filadelfiya shahrida hamda mamlakatning boshqa shtat va shaharlarida yashaydi. Ular turli kasb hamda tijorat ishlari bilan shug‘ullanadilar. Hozirgi amerikalik o‘zbeklarning ota-bobolari 1917 yilgi oktabr to‘ntarishidan keyin bolsheviklar tazyiqidan qochib, avval Afg‘oniston va Xitoyga o‘tib ketganlar. 1950-

yillarda esa, Pokiston, Saudiya Arabistoni, Turkiya orqali AQShga borib qolishgan. Ikkinchi jahon urushi davrida turli yo‘llar bilan u yerga borib qolgan o‘zbeklar ham uchraydi. AQSh aholisining zichligi -1 km² ga 27,2 kishi. Rasmiy tili-ingliz tili. Dindorlar asosan protestantlar va katoliklardir. Yirik shaharlari: Nyu-York, Chikago, Los Anjeles, Filadelfiya, Xyuston, Detroyt, San Fransisko, Vashington, Boston, Dallas, Klivlend, Baltimor (yana qarang Amerikaliklar).

Sanoati. AQSh milliy daromadining 66,3 % sanoatda hosil qilinadi. Sanoat ishlab chiqarishning yarmiga yaqini sanoat korporatsiyalari qo‘lida. Ular orasida: „Ekson“, „Mobil“, „Teksako“, „Shevron“, „Standard oyl of Kaliforniya“, „Standard oyl of Indiana“, „Galf oyl“ neft, „Jeneral motore“, „Ford motor“, „Kraysler“ avtomobil, „IBM“, „Jeneral elektrik“, „ITT“ elektr mashinasozligi, „YU. S. Stil“ po‘lat quyish, „Dyupon de Nemur“ kimyo va boshqa korporatsiyalar bor. Harbiy sanoat korporatsiyalari orasida „Jeneral daynemiks“, „Lokxid“, „Makdonnel Duglas“, „Grumman“, „Xyuz eyrkraft“ yetakchi o‘rinni egallaydi. Avia-raketa-kosmik, energomashinasozlik, elektron, shuningdek neft kimyosi, atom va energetika sanoati g‘oyat tez suratlarda bilan taraqqiy etmoqda. Elektr energiyaning 74 % issiqlik elektr stansiyalarida, 12,1 % GESlarda, 14,1 % AESlarda hosil qilinadi. Neft (Meksika qo‘ltig‘i sohilidagi Galf, Kaliforniya, Alyaska), tabiiy gaz va oltingugurt (Galf), ko‘mir (Appalachi va Markaziy havzalar), temir ruda (Yuqori ko‘l atrofi), fosforit (Florida), uran, rangli metallar, kaliy tuzlari va sh.k. qazib olinadi. Qora metallurgiyaning asosiy markazlari – Chikago, Pittsburg, Detroyt, Klivlend, Buffalo, Baltimor, Filadelfiya. Alyuminiy sanoati Galf atrofida hamda Kolumbiya va Tennessi daryolari havzalarida joylashgan. Sanoatning yetakchi tarmog‘i – mashinasozlik va metallsozlik. Sanoat va energetika asbob-uskunalari, qurilish va qishloq xo‘jaligi mashinalari ishlab chiqarish asosan shimoli-sharqiy shtatlarda, elektrotexnika va aloqa vositalari ishlab chiqarish shimoli-sharq va Kaliforniyada Yo‘lga qo‘yilgan. Avtomobilsozlikning bosh markazi Detroyt shahri Samolyotlar, raketa va kosmik texnika ishlab chiqaruvchi zavodlar asosan Los-Anjeles, San-Diyego, Boston, Nyu-York, Filadelfiya, Baltimor, Buffalo, Dallas, Atlanta va boshqa shaharlarda joylashgan. Kemasozlik (asosan harbiy

kemasozlik) AQSh shimoli-sharqiy sohili portlarida rivojlangan. Atom sanoatining asosiy markazlari – Ok-Rij, Padyuka, Portsmut, Eyken, Xanford. Kimyo sanoati ximikatlar, plastmassalar, kimyoviy tola, sintetik kauchuk, loklar, kir yuvish vositalari, bo‘yoqlar, ma’danli o‘g‘itlar va sh.k.ni ishlab chiqaradi. Mazkur tarmoq korxonalarini asosan shimoli-sharqiy shtatlarda, Meksika qo‘ltig‘i sohilidagi shaharlarda joylashgan. Harbiy sanoat asosan Kaliforniya, Nyu-York, Texas, Konnektikut, Missuri, Massachusetts, Virginiya shtatlarida. Yengil sanoat tarmoqlaridan eng salmoqlisi to‘qimachilik (ko‘proq Shimoliy Karolina, Janubiy Karolina va Jorjiya shtatlarida) va tikuvchilik (Nyu-York va janubiy shtatlar). Charm-poyabzal sanoati yaxshi rivojlangan. Oziq-ovqat sanoati o‘z xom ashyosi bilan yaxshi ta’minlangan. Uning yetakchi tarmoqlari – go’sht, sut, un, yog‘, qand-shakar, konserva, alkogolli, alkogolsiz ichimliklar, tamaki.

Qishloq xo‘jaligi. AQSh milliy daromadining 8% dan ko‘prog‘i qishloq xo‘jaligida hosil qilinadi. Yirik fermalar yetakchi rol o‘ynaydi. Umuman qishloq xo‘jaligi sermahsul va sertovar bo‘lib, muayyan hududlar ayrim mahsulot turlariga ixtisoslashgan va markazlashgan. Mamlakatda 2 mln.ga yaqin fermer xo‘jaligi bor, bir fermer xo‘jaligi o‘rta hisobda 190 ga yerda dehqonchilik qiladi. Mehnatga yaroqdi aholining 2,5% qishloq xo‘jaligida band. AQShda asosan makkajo‘xori, soya, paxta, tamaki, sholi, kartoshka, kungaboqar, qand lavlagi, shakarqamish va boshqa eqiladi. Bug‘doyzorlar („bug‘doy mintaqasi“) Buyuk tekisliklar va Kolumbiya platosida (asosan Kanzas va Shimoliy Dakota shtatlari), makkajo‘xori („makkajo‘xori mintaqasi“) Buyuk ko‘llarning janubiy va g‘arbida (Ayova, Illinoys shtatlari) ustunlik qiladi, paxtazorlar faqat Missisipi daryosi vodiysi hamda Texas, Arizona va Kaliforniya shtatlarida uchraydi. Qand lavlagi, shakarqamish Missisipi daryosi etaklarida va Gavayi orollarida, tamaki Shimoliy Karolina, Virginiya va Kentukki shtatlarida yetishtiriladi. Bog‘dorchilik va polizchilik Kaliforniya, Floridada, Atlantika okeani va Buyuk ko‘llar sohillarida ko‘proq. Keng cho‘llar va „makkajo‘xori mintaqasi“ shtatlarida go’shtbop chorvachilik, shimoli-sharqda va Kaliforniyada sut chorvachiligi rivojlangan. Minnesota va Viskonsin shtatlarida sutning ko‘p qismi qayta

ishlanib, pishloq va sariyogʻ ishlab chiqariladi. Qoʻychilik asosan qurgʻoqchil togʻli shtatlarda rivojlangan. Goʻshtbop joʻja (broyler), tovuq, kurka yetishtirishga katta ahamiyat beriladi. Tuxum koʻproq janubi-sharqiy shtatlardagi yirik parrandachilik fabrikalarida yetishtiriladi. AQShda 102 mln. bosh qoramol, 51 mln. bosh choʻchqa, 10 mln. bosh qoʻy bor. Baliq ovlash rivojlangan. Hamma turdagi yogʻoch tayyorlanadi.

Transporti. Ichki yuk tashishda temir yoʻl, avtomobil transporti, ichki suv transporti, dengiz transporti, havo transporti, gaz va neft quvurlari muhim ahamiyatga ega. Asosiy dengiz portlari: Nyu-York, Filadelfiya, Baltimor, Yangi Orlean, Xyuston, San-Fransisko, Buyuk koʻllarda – Chikago, Dulut. Aviatsiya qatnovi asosiy uzellari – Nyu York, Chikago, Atlanta, Los Anjeles, Mayami, Dallas.


Tashqi iqtisodiy aloqalari. Dunyoning turli mamlakatlariga bevosita mablagʻ sarflash koʻpayib bormoqda. Eksportda ham, importda ham tayyor mahsulot ustun. AQShdan sanoat va energetika mashina-uskunalari, transport vositalari, kimyo tovarlari, toʻqimachilik va qogʻoz mahsulotlari, koʻmir, oziq-ovqat va yembop don, soya, paxta, tamaki va boshqa mahsulotlar chiqariladi; neft va neft mahsulotlari, ruda va metall, sanoat mashina-uskunalari, uzoq muddat foydalaniladigan roʻzgʻor anjomlari, kiyim-kechak, poyabzal, yogʻoch, qogʻoz, baliq, goʻsht, qand-shakar, kofe va boshqa keltiriladi. Savdo-sotiqdagi asosiy mijozlari – Kanada, Yaponiya, Meksika, Gʻarbiy Yevropa mamlakatlari. Pul birligi - Amerika dollari.

Oʻzbekiston va AQSh munosabatlari. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qoʻshma Shtatlari Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan 2018-yil 15-17 may kunlari rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda boʻldi. 2018 yil 16 may kuni Oq uy qarorgohida davlat rahbarlarining uchrashuvi boʻlib oʻtdi. Muzokaralarda Oʻzbekiston – AQSH hamkorligining bugungi holati va uni rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi. Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi. Muzokaralar yakunida davlat rahbarlarining “Oʻzbekiston va Amerika Qoʻshma Shtatlari: strategik sheriklik yangi davrining boshlanishi” deb nomlangan Qoʻshma bayonoti qabul qilindi. Turli

sohalardagi o‘zaro munosabatlarni yanada mustahkamlashga qaratilgan hujjatlar to‘plami imzolandi.

Topshiriqlar va yechimlar

1. AQShning hududi, aholisi soni, urbanizatsiya darajasini o‘rish sur‘atlarini aniqlang.



T/r	Braziliya	Tartib	Foiz hisobida
1	Maydoni	A	1,2 %
2	Aholisi	B	85%
3	Urbanizatsiya	C	80%

Javob: 1:B, 2:C, 3:A

2. Quyidagi ma’lumotlardan qaysi biri to‘g‘ri ekanligini aniqlang.

- A) AQSh aholisi soni bo‘yicha 3- va maydoni bo‘yicha jahonda 4-o‘rinda turadi;
- B) AQSh davlatida shtatlar soni 52- tani tashkil etadi;
- C) AQSh YIM hajmi bo‘yicha jahonda Xitoydan keyin ikkinchi o‘rinda turadi;
- D) Buyuk ko‘;ardan janub va g‘arbda Shimoli-sharq iqtidosiy yayoni joylashgan;
- E) Texas, Kaliforniya va Alyaska shtatlarida Neft va gaz sanoatining eng yirik rayonlari joylashgan;
- G) AQSh aholisining zichligi 75 kishini tashkil etadi ;
- K) ishlab chiqarishning $\frac{1}{4}$ qismi to‘g‘ri keladi.

Javob: A, B, C, D, E

3. Quyidagi ma’lumotlardan qaysi biri noto‘g‘ri ekanligini aniqlang.

- A) AQShda 2 ta megapolis shakllangan;
- B) AQSh yer resurslariga juda boy davlat;
- C) AQShning qishloq xo‘jaligida soya, paxta, shakarqamish yetishtirish asosiy o‘rinni egallaydi;

- D) AQShda aholi zichligi o`rta hisobda 35 kishini tashkil etadi;
 E) AQShning janubiy-sharqiy mintaqasi asosan, neft va neft-kimyo sanoatiga ixtisoslashgan;
 G) AQShga turistlar ko`proq Kanada va Yevropadan keladi.

Javob: A, C

4. AQSh qishloq xo`jaligini xududiy joylashtirishga ko`ra jadvalni to`ldiring.

- 1). Donchilik 2). Go`sht 3). Shaqarqamish 4). Qo`ychilik

№	Tarmoqlar	Raqamlar
1	Chorvachilik	2, 4
2	Dehqonchilik	1, 3

5. AQSh iqtisodiyotining yetakchi tarmog`i bo`lgan hamda so`nggi yillarda barqaror rivojlanish ko`rsatkichlarini raqamlar qismida yozing

№	Tarmoqlar	Raqamlar
1	Avtomobilsozlik	Mikroelektronika
2	Samolyotsozlik	Asbobsozlik
3	Kemasozlik	Havo transporti

Javob: 1: 1, 2:3, 3:2

6. AQSh jahondagi salohiyati bo`yicha yo`nalishlarni ketma-ketlikda yozing.



Javob:



7. AQShdagi iqtisodiy rayonlarini ixtisoslashgan tarmoqlarini quyida berilgan rayonlarga ketma-ketlikda yozing.

- 1). Donchilik ; 2). sut chorvachiligi; 3).To`qimachilik 4). Tamakichilik
 5). Dengizbo`yi turizmi; 6). Neft-kimyo 7). Elektronika;

8). Bog`dorchilik

Javob:

Shimoli-sharq: 1), 2)

O`rta Garb: 4), 6)

Janub:3), 5)

G`arb: 7), 8)

8. AQShda turizmni rivojlanishi bo`yicha hududlarini ajrating va jadvalga joylashtiring.

1). Florida 2). Nyu-York 3). Kaliforniya

4). Gavayi 5). Los-Anjeles 6).Chikago

Javob:

Eng ko`p turist keluvchi hudud	Dengizbo`yi turizmi
2,5,6	1,3,4

Asosiy adabiyotlar

1.Ўзбекистон Республикасининг янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида»ги . Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлар тўплами.2017 йил 6 сон 70 модда.

2. Абиркулов К . Иқтисодий география. -Т., 2004

3.Abdullaev O. Mintaqalar va mamlakatlar iqtisodiyoti .Toshkent :Yangi asr avlodi” 2009.282 b

4.Бушуева Л. Все страны мира.Универсальный справочник.Рипол классик.2009 г.

5.Bahritdinov B.A., Zokirova G.A., Abdiraximova S.E. Jahon ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. O`quv qo`llanma. T.: 2008 yil

6.Vahobov H., M.Tillaboyeva. Iqtisodiy geografiya asoslari. (o`qituvchi kitobi) Toshkent, O`qituvchi. 2001 yil. 4-5 bet

7.Максаковский В.П.Географическая картина мира .Кн.1 .2:Общая Характеристика мира М...Дрофа .2008.-495 с.

8.Mahmudova.M, Soliyev.A. Geografiyadan nostandart testlar. Namangan Davlat universiteti Namangan.-2017 y

9. Солиев А.С., Ахмедов Э.А., Мухаммадалиев Р.И. Минтақавий иқтисодиёт. Ўқув қўлланма. 2003 йил.
10. Qayumov A, Pardayev G, Islomov I. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya (O`rta Osiyo iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi) o`quv qo`llanma T.2007
11. Qo`ldasheva M. "Geografiya fanidan nostandart testlar to`plami" uslubiy qo`llanma Namangan malaka oshirish hududiy markazi nashriyoti. 2017 yil
12. Янчук.С .Экономическая и социальная география стран Центральной Азии и СНГ .Текст лекций .Т.2000

23-§. Kanada

Kanada poytaxti-Ottava shahri. BMT va NATO a'zosi hamda AQSh bilan, erkin iqtisodiy savdo aylanmasi to'g'risida" gi shartnomasi tuzgan. Birlashgan qirollik dominioni. 1931-yilda suveren huquqi berilgan. Biroq, mustaqillik e'lon qilinmagan. Mamlakatni Birlashgan qirollik qiroli (yoki qirolichasi) tomonidan tayinlangan General-Gubernator boshqaradi.

Davlat tuzumi. Kanada-Buyuk Britaniya boshchiligidagi Hamdo'stlik tarkibidagi federativ davlat. Amaldagi Konstitutsiyasi 1982 yil 17-aprelda kuchga kirgan. Davlat boshlig'i- Buyuk Britaniya qiroli (qirolichasi), uning nomidan general-gubernator davlatni boshqaradi. Qirolicha general-gubernatorni Kanada bosh vazirining tavsiyasi bilan, odatda, 5 yil muddatga tayinlaydi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni qirolicha nomidan general-gubernator va 2 palatali parlament (senat va jamoalar palatasi) amalga oshiradi. Ijroiya hokimiyatni qirolicha nomidan general-gubernator hamda bosh vazir va vazirlardan iborat hukumat amalga oshiradi (1993 yildan bosh vazir Jan Kretyen).

Tabiiy sharoiti va resurslari. Kanada hududining g'arbiy qismi tog'li, sharqiy qismi tekislik, shimoliy va qisman shimoli-sharqiy sohillari pasttekislik, sharqiy qirg'oqlari tik, g'arbiy sohili esa juda baland. Materikning o'rta qismi va Kanada Arktikasi arxipelagining materikka tutashgan joyi tekislik hamda platodan iborat.

Gudzon qo'ltig'ining atrofi pasttekislik. Lavrentiy qirlari, Markaziy tekisliklar, Buyuk tekisliklar bor.

Kanadaning g'arbiy chekkasida Kordilyera tog'lari, janubi-sharqida Appalachi tog'lari joylashgan. Uran, temir, nikel, mis, rux, qo'rg'oshin, oltin va kumush, toshko' mir, neft, tabiiy gaz konlari bor.

Iqlimi-Kanadaning ko'p qismida arktika va subarktika, janubida mo'tadil, asosan, kontinental iqlim. Yanvarning o'rtacha harorati shimolda -30° , -35° , janubda -18° , -20° , iyulniki shimolda $4-7^{\circ}$ va janubda $16-18^{\circ}$. G'arbiy sohilda yillik yog'in 2500 mm dan ortiq, sharqiy sohilda 1250 mm gacha, markaziy rayonlarda 400-250 mm, shimolda esa 150 mm dan kam.

Kanadada daryo ko'p, asosan, qor-yomg'ir suvlaridan hosil bo'ladi. San-Lavrentiy (Buyuk ko'llari bilan), Finli-Pis Rive-Qullar-Makenzi (Kichik Qullar, Atabaska, Katta Qullar va boshqa ko'llar bilan), Bou-Saskachevan-Nelson (Bou, Sidar, Vinnipeg va b. ko'llar bilan) daryo-ko'l tizimlari Atlantika va Shimoliy Muz okeani havzasiga kiradi. 200 dan ortiq yirik ko'llari bor.

Kanadaning chekka shimoli arktika sahrosi bo'lib, onda-sonda lishayniklar va boshqa o'tlar uchraydi. Undan janubda tundra, so'ngra esa o'rmon-tundra zonasi joylashgan. Podzol va botqoq tuproqlarda oq va qoraqarag'ay, amerika tilog'ochi o'sadi. Janubi-sharqiy chekkasidagi podzol va qo'ng'ir o'rmon tuproqlarda ignabargli va keng bargli daraxtlar bor. Tekisliklardagi unumdor tuproqli yerlarda dehqonchilik qilinadi. Kanadada shimol bug'usi, mushkli buqa, oq ayiq, qutb tulkisi, lemming, qutb quyoni, kaklik, boyqush, los, bizon, jayra, qoplon, bo'ri, qunduz va boshqa hayvonlar yashaydi. Daryo va ko'llari baliqlarga boy. Milliy bog'lari: Banf, Vud-Baffalo, Gleysher, Jasper, Yoxo va boshqa, viloyat bog'lari ham bor.

Tarixi. Kanadaning qadimgi xalqi - eskimos va indeyslar. XV-asr oxirlaridan Kanadaga Yevropaliklar kela boshlagan. Fransuzlar Por-Ruayal va Kvebekka asos soldilar (1605-08). Kvebek Yangi Fransiya mustamlakasining markazi bo'lib qoldi. XVII-asrning 20 yillarida Kanada hududida birinchi Angliya mustamlakasi-Yangi Shotlandiya vujudga keldi. XVII-asrning 2-yarmidan fransuz-kanadaliklar shakllandi. Yetti yillik urush (1756—63) natijasida Buyuk Britaniya Yangi

Fransiyani egallab oldi. 1791 yil Kvebek 2 viloyat (Quyri Kanada va Yuqori Kanada)ga boʻlindi.

Kanada uchun boʻlgan Angliya-Amerika urushi (1812-14) natijasida demokratik islohot va oʻzini oʻzi boshqarish uchun qarakat boshlanib ketdi. Viloyatlarda islohot tarafdorlari ("vatanparvarlar") partiyalari tuzildi. 1834-yil islohot tarafdorlari Quyri va Yuqori Kanada parlamentlari faoliyatini nazorat ostiga oldi. 1841-yil Yuqori Kanada bilan Quyri Kanada birlashtirildi. 1848-yil Kanada va Yangi Shotlandiyada yangi hukumat tuzildi. 19-asr oʻrtalarida Kanadada temir yoʻllar qurildi, sanoat rivojlandi, 1867-yil Buyuk Britaniyaning Shimoliy Amerikadagi mustamlakalari birlashtirilib, "Kanada dominioni" nomi bilan federatsiya tuzildi. Yangi Shotlandiya, Nyu-Bransuik, shimoliy-gʻarbdagi hududlar, Britaniya Kolumbiyasi (1871) va Prins-Eduard oroli (1873) Kanada dominioniga qoʻshib olindi. Markazlashgan davlat barpo etilishi milliy bozorning yuzaga kelishiga asos boʻldi.

XIX-asr oxiri va XX asr boshlarida Kanada iqtisodiyoti rivojlandi. Ishlab chiqaruvchi sanoat tez oʻsib, uning mahsuloti qiymati 1914-18 yillarda 4 baravar oshdi, aholi soni 64% koʻpaydi. Kapital va ishlab chiqaruvchi sanoati yiriklashdi, 1900-17 yillarda banklar birlashishi natijasida ularning soni 36 dan 21 ga kamaydi; bank va sanoat kapitali qoʻshila bordi. Birinchi jahon urushida Kanada Buyuk Britaniya tomonida qatnashdi.

Birinchi jahon urushi davrida Kanada iqtisodiyoti mustahkamlanib olishi natijasida Kanadada Angliya taʼsiri susaydi va taʼsiri kuchaydi. 1919-20 yilgi Parij konferensiyasida Kanada sulh shartnomalarini mustaqil imzoladi. Boshqa dominionlar bilan bir qatorda Kanada Millatlar Ligasiga vakil yuborish huquqini qoʻlga kiritdi.

1929-33-yillardagi jahon iqtisodiy boʻhroni natijasida sanoat ishlab chiqarish 2 baravardan ziyod kamayib ketdi. 1933 yil boshida ishsizlar 1,3 mln. kishidan ortdi. Qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining narxi nihoyatda pasayib ketishi natijasida 240 ming ferma barbod boʻldi.

Ikkinchi jahon urushida Kanada Buyuk Britaniya tomonida qatnashdi. Kanada antifashist davlatlarni, birinchi navbatda, Buyuk Britaniyani xom-ashyo, oziq-ovqat, qurol-yarogʻ bilan taʼminlab turdi. Mamlakatda harbiy sanoat rivojlandi, yangi tarmoqlar: stanoksozlik, sintetik kauchuk ishlab chiqarish va boshqalar vujudga keldi. 1939-45 yillarda sanoat ishlab chiqarish 2,5 baravar ortdi.

1960-yillardan Kanada hukumati ichki va tashqi siyosatda milliy manfaatlarni koʻzlab ish tuta boshladi. Hukumat Kanadaning siyosiy mustaqilligini saqlashga, Lotin Amerikasi, Osiyova Yevropa mamlakatlari bilan aloqalarni rivojlantirishga intildi. Keyingi yillarda Kanadada milliy masala keskinlashdi. Kvebek partiyasi mazkur viloyatni alohida davlat qilib ajratishni talab qila boshladi. 1995-yilda Kvebek suvereniteti xususida oʻtkazilgan referendumda suverenitetga qarshi boʻlganlarning 50,6% ovoz olishi natijasida mamlakatning parchalanish havfi bartaraf etildi. Kanada 1945 yildan BMT aʼzosi.

1991 yil 25 dekabrda Oʻzbekiston Respublikasi suverenitetini tan oldi va 1992-yil 7-aprelda u bilan diplomatiya munosabatlari oʻrnatdi. Milliy bayrami-1-iyul- Kanada kuni (1867).

Aholisi. Kanadada (2018-y.)-37,2 mln kishi istiqomat qiladi. Aholisining 1/3 qismi ingliz-kanadaliklar (44%) va fransuz-kanadaliklar (28%). Tub aholisi - indeyslar 533 ming va eskimoslar salkam 33 ming kishi qolgan.

Kanadada nemislar, ukrainlar, italyanlar, gollandlar, vengerlar, ruslar va boshqalar ham yashaydi. Rasmiy tillar- ingliz va fransuz tillari. Fransuz-kanadaliklar katolik dinida, ingliz-kanadaliklarning asosiy qismi- protestant. Aholining 78,6% shaharlarda yashaydi.

Yirik shaharlari: Montreal, Kalgari, Toronto, Vankuver, Vinnipeg, Gamilton va boshqalar.

Sanoati. Aholi jon boshiga mineral xom ashyo va yarim fabrikatlar ishlab chiqarish jihatdan Kanada taraqqiy etgan koʻpgina mamlakatlardan ustunlik qiladi. Nikel, rux, kumush, molibden rudalari, asbest, oltin, platina, niobiy, tabiiy gaz, oltingurt qazib chiqarishda, gazetabop qogʻoz, alyuminiy, sellyuloza, tilingan

binokorlik yog'ochlari ishlab chiqarishda dunyoda oldingi o'rinlardan birida turadi. Kanadada ko'mir, neft, temir rudasi, volfram, uran (metall tarkibidagi ruda), kaliyli tuzlar, oltingugurt qam qazib chiqariladi. Yiliga o'rtacha 490,8 mlrd. kVt-soat elektr energiya hosil qilinadi. Toronto, Vankuver va Ontario atrofida bir qancha yirik issiqlik elektr stansiya va AES bor. Asosiy GESlari Kvebek, Ontario va Britaniya Kolumbiyasi viloyatlarida. Ishlab chiqaruvchi sanoatda oziq-ovqat va tamaki sanoati, qora va rangli metallurgiya hamda metall ishlash, transport mashinasozligi va b. tarmoqlar yetakchi o'rinda .

Mashinasozlik ishlab chiqaruvchi sanoat mahsuloti qiymatining 1/2 qismini beradi. Uning asosiy tarmog'i - transport mashinasozligi (avtomobil, kema, aviatsiya, vagon va lokomotivsozlik). Boshqa sanoat tarmoqlaridan qishloq xo'jaligi mashinasozligi, neft va gaz sanoati, kon, o'rmon va sellyuloza-qog'oz sanoati uchun uskunalar ishlab chiqarish korxonalari yaxshi rivojlangan. Mashinasozlikning asosiy markazlari: Toronto, Montreal, Uinsor, Gamilton va b. Kora metallurgiya Gamilton, Su-Sent-Mari, Uellend va Sidni shaharlarida, alyuminiy, rangli metallar ishlab chiqarish Arvid, Kitimat, Norand, Sadberi, Tompson, Traylda to'plangan. Neftni qayta ishlash zavodlari Montreal va Sarniyada joylashgan. Kimyoviy o'g'itlar, sintetik kauchuk va plastmassa ishlab chiqarish rivojlangan. Asosiy markazlari: Sarniya, Montreal, Toronto, NiagaraFole va Kitchener. Un tortish, go'sht, baliq-konserva va likyor-araq ishlab chiqarish oziqovqat sanoatining asosiy tarmoqlari bo'lib, ular muhim eksport ahamiyatiga ega. Yengil sanoat tarmoqlaridan to'qimachilik, ko'n-poyabzal va tikuvchilik nisbatan yaxshi rivojlangan. Mahsulotning yarmi Monrealda ishlab chiqariladi. Tilingan taxta, gazetabop qog'oz, karton ishlab chiqarish markazlari: Britaniya Kolumbiyasi va Kvebek viloyatlari.

Qishloq xo'jaligi. Sermahsul, fermalari mexanizatsiyalashgan va ixtisoslashgan. Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning 4 qismiga yaqini yirik xo'jaliklarga birlashgan. 70 mln. gektar yer fermalar bilan band. Dehqonchilik ustun. G'alla (bug'doy, arpa, suli, makkajo'xori), texnika ekinlari (qand lavlagi, soya, zig'ir, tamaki), o't va yem-xashak, sab-zavot, kartoshka, raps yetishtiriladi. Fermalarning 9/10 yu kismi

elektrlashtirilgan. Don xo‘jaligi rivojlangan asosiy joylar: dasht viloyatlari, ay-niqsa, Saskachevan va Manitoba. Yetishtirilgan bug‘doyning 1/2 qismidan ziyodrog‘i, arpa hosilining 1/3 qismi chetgachiqariladi. Sut chorvachiligi Ontario, Kvebek va Britaniya Kolumbiyasi viloyatlarida rivojlangan. Chorvachiligida qoramol, cho‘chqa, qo‘y va ot boqiladi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotining 60% ga yaqinini chorvachilik yetishtirib beradi.

O‘rmon xo‘jaligi Britaniya Kolumbiyasi, Kvebek va Ontarioda yaxshi rivojlangan. Jahonda tayyorlanadigan yog‘ochning 1/3 yu Kanadaga to‘g‘ri keladi. Baliqchilik, hayvonotchilik, parrandachilik, mo‘ynachilik rivojlangan.


Transporti. 94,3 ming km temir yo‘l va 850 ming km avtomobil yo‘li bor. Daryo va dengiz transporti, shuningdek, Buyuk ko‘llar, Lavrentiy daryosidagi suv yo‘llari muhim ahamiyatga ega. Asosiy portlari: Vankuver, Set-II, Montreal, Tander-Bey. Avtotransportining ahamiyati (ayniqsa, shimolida) juda katta. Asosiy aeroportlari Montreal, Toronto, Vankuver, Vinnipeg va Ottavada.

Tashqi aloqalari. Kanada chetga avtomobil, qog‘oz, bug‘doy, yog‘ochtaxta, selluloza, nikel, alyuminiy, neft va neft mahsulotlari, temir rudasi, mis, asbest, uran, kaliyli tuzlar, tabiiy gaz, mis, sanoat jihozlari va boshqalae chikaradi. Chetdan mashina va sanoat uskunalari va mollari, ko‘mir, kofe, kauchuk, banan va kakao sotib oladi. Savdosotiqdagi asosiy mijozlari: AQSh, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Niderlandiya.

1989 yilda Kanada bilan AQSh o‘rtasida erkin savdo haqidagi bitim kuchga kirishi va 1992-yilda Shimoliy Amerika erkin savdo mintaqasi to‘g‘risidagi uch tomonlama (AQSh-Kanada-Meksika) bitim imzolanishi bilan Kanada iqtisodiyotining Amerika iqtisodiyoti bilan birlashuvi va uning Shimoliy Amerika yagona iqtisodiy makoni tarkibiy qismiga aylanish jarayoni tezlashdi.

Topshiriqlar va yechimlar

1. Berilgan chizmadan Kanada davlatining poytaxtini toping.



1- Vankuver 2-Toronto 3-Ottava 4-Tompson 5-Vinnipeg

Javob: 3-Ottava

2.Kanada mustaqillikni qachon qo'lga kiritgan? Javobni topish uchun quyidagi amallarni bajaring.

A) $1 \cdot 1 =$; $3 + 6 =$; $2 + 1 =$; $1 + 0 =$;

B) $1 + 0 =$; $3 \cdot 3 =$; $2 + 1 =$; $1 + 1 =$;

Javob: B) 1931 y


3.Kanada aholisining qanchasini kanadalik ingliz va kanadalik fransuzlar tashkil etadi?

Etnik tarkibi		40% va 30%
		50% va 60%
		25% va 40%


Javob: Etnik tarkibi \longrightarrow 40% va 30 %

4. Kanadaning yirik shaharlarini ketma-ketligiga ko`ra quyidagi chizmada belgilang.

1)Toronto, 2)Vankuver, 3) Kvebek, 4) Manreal



Javob:



5. Kanada qaysi sohalarda yetakchi o'rinda turadi?

1). Rux, kumush, asbest qazib olish, kaliy tuzlari, qog'oz ishlab chiqarish;

2). rux qazib chiqarish;

3). qog'oz ishlab chiqarish, o'rmon xo'jaligi

A) 1,2 B) 3 C) 1,3 D) 1

Javob: 1) D

6. Fransuz tilida so'zlovchi aholi Kanadaning qaysi shaharida eng ko'p to'planganligi aniqlang hamda chalkashlikni toping.

V	K	E	K	E	B
---	---	---	---	---	---

Javob:

K	V	E	B	E	K
---	---	---	---	---	---

7. Berilgan ma'lumotlarning to'g'risini aniqlang.

A). Aholi zichligi darajasi bo'yicha Kanada jahonda oldingi o'rinlarni egallaydi;

B). Kanada hududining 75% I sovuq iqlim zonasiga to'g'ri keladi;

C). Kanada hududida polimetall rudalari, molibden, boksitning yirik konlari mavjud;

D). Kanadadagi fransuz madaniyatining markazi Monreal shahri hisoblanadi;


E). Raps moyli ekini bo'yicha Kanada jahonda yetakchilik qiladi;

K). Kanadaning janubida cho'l va chalacho'l zonasi joylashgan


Javob: B, D, E

8. Kanadaning yirik shaharlarini ketma-ketlikda delgilang. Toronto, Vankuver, Kvebek, Monreal

Javob:



9. Kanada Shimoliy Amerika materigining qaysi qismida joylashgan?



- 1).Meksika
- 2).Markaziy
- 3).Shimoliy
- 4).Kuba

Javob: 3)

Asosiy adabiyotlar

- 1.Ўзбекистон Республикасининг янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида»ги . Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлар тўплами.2017 йил 6 сон 70 модда.
2. Абиркулов К . Иқтисодий география. -Т., 2004
- 3.Abdullaev O. Mintaqalar va mamlakatlar iqtisodiyoti .Toshkent :Yangi asr avlodi” 2009.282 b
- 4.Бушуева Л. Все страны мира.Универсальный справочник.Рипол классик.2009 г.
- 5.Bahritdinov V.A., Zokirova G.A., Abdiraximova S.E. Jahon ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. O`quv qo`llanma. T.: 2008 yil
- 6.Vahobov H., M.Tillaboyeva. Iqtisodiy geografiya asoslari. (o`qituvchi kitobi) Toshkent, O`qituvchi. 2001 yil. 4-5 bet
- 7.Максаковский В.П.Географическая картина мира .Кн.1 .2:Общая Характеристика мира М...Дрофа .2008.-495 с.
- 8.Mahmudova.M, Soliyev.A. Geografiyadan nostandart testlar. Namangan Davlat universiteti Namangan.-2017 y
9. Солиев А.С., Ахмедов Э.А., Мухаммадалиев Р.И.Минтақавий иқтисодиёт. Ўқув қўлланма.2003 йил.
- 10.Qayumov A, Pardayev G`, Islomov I. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya (O`rta Osiyo iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi) o`quv qo`llanma T.2007
- 11.Qo`ldasheva M. “Geografiya fanidan nostandart testlar to`plami” uslubiy qo`llanma Namangan malaka oshirish hududiy markazi nashriyoti. 2017 yil

24-§. Lotin Amerikasi davlatlari

Dunyoning yirik siyosiy-geografik mintaqalaridan biri - Lotin Amerikasi - Yerning G'arbiy yarimsharida joylashgan bo'lib, Amerika qit'asidagi AQSh, Kanada davlatlari va Grenlandiya orolidan tashqari barcha mamlakatlarni o'z ichiga oladi. Aholisining aksariyat qismi qadimgi lotin tili negizida vujudga kelgan ispan va portugal tillarida so'zlashayotganligi bois bu mintaqa Lotin Amerikasi deb ataladi. Lotin Amerikasining siyosiy xaritasida hozirgi kunda 33 ta mustaqil davlat hamda qator mustamlakalar mavjud. Uning hududida bir necha kichikroq mintaqalar ham ajratiladi. Jumladan, Shimoliy Amerika materigining AQShdan janubdagi qismi va Karib dengizidagi orollarda joylashgan davlatlar O'rta Amerika (Mezoamerika) mintaqasini tashkil etadi. Bu regiondagi davlatlar orasida hududi, aholisi va iqtisodiy salohiyati bilan Meksika alohida ajralib turadi. O'rta Amerikaning Meksikadan boshqa davlatlari Karib dengizi akvatoriyasi, uning tabiiy resurslari va transport yo'llari bilan tarixan chambarchas bog'liqligi sababli, Karib havzasi davlatlari deb ham yuritiladi. Materikda, Meksikadan janubi-sharqqa tomon joylashgan 7 ta davlat (Beliz, Gvatemala, Salvador, Gonduras, Nikaragua, Kosta-Rika, Panama) Markaziy Amerika deb nomlanadi. Karib dengizidagi 13 ta orol mamlakatlar, o'z navbatida, Vest-Indiya umumiy nomi ostida birlashtiriladi. Janubiy Amerika materigida esa 12 ta mustaqil davlat va 1 ta mustamlaka (Fransiya Gvianasi) joylashgan. Janubiy Amerikada Lotin Amerikasidagi okeanga chiqish imkoniyati bo'lmagan 2 ta davlat joylashgan bo'lib, bular Boliviya va Paragvaydir.

Hududi kattaligi jihatidan Braziliya (jahon mamlakatlari orasida 5-o'rin), Argentina (8-o'rin), Meksika, Peru, Venesuela va Kolumbiya ajralib turadi. Vest-Indiyada "mitti" davlatlar safiga mansub bir necha davlatlar joylashgan.

Davlat tuzumi. Lotin Amerikasidagi aksariyat davlatlarida prezidentlik respublikasi boshqaruv shakli joriy etilgan. Vest-Indiyadagi ayrim kichik davlatlar

hamda Markaziy Amerikada joylashgan Beliz Britaniya Hamdo'stligi tarkibidagi konstitutsiyaviy monarxiyalar bo'lib, rasman ularning davlat rahbari Buyuk Britaniya qirolichasi Yelizaveta II hisoblanadi. Braziliya, Argentina, Meksika, Venesuela singari yirik davlatlar hamda Karib dengizidagi 2 ta kichik oroldan iborat Sent-Kits va Nevis mamlakati federativ davlat tuzilishiga ega. Mintaqaning qolgan mamlakatlari unitar tuzilishga ega.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Lotin Amerikasining g'arbiy qismida Kordilyera va And tog'lari bir necha ming kilometr ga cho'zilgan. Meksika, Markaziy Amerika davlatlari, Kolumbiya, Ekvador, Peru, Boliviya, Chili mamlakatlarining hududini asosan shu tog'lar egallaydi. Venesuela bilan Paragvay davlatlari ham qisman And tog'lari bilan band. Shuningdek, Karib dengizidagi orol mamlakatlarining yer yuzasi ham ko'proq tog'li ko'rinishga ega. Braziliya, Argentina, Urugvay, Surinam, Gayana kabi davlatlar hududi, asosan, tekislik va parchalangan yassi tog'liklardan iborat. Kordil'year, And tog'lari va Karib dengizidagi orollar seysmik va vulkanik jihatidan Yer yuzidagi eng faol mintaqalar qatoriga kiradi. Shuning uchun Lotin Amerikasidagi tog'li mamlakatlarda kuchli zilzilalar vaqti-vaqti bilan sodir bo'ladi. Masalan, 2010-yili Chili, 2012-yili Gvatemala, 2010 yili Gaitida ro'y bergan kuchli zilzilalar falokatli ziyon yetkazgan edi.

Lotin Amerikasining ba'zi davlatlari turli foydali qazilmalarining jahon xo'jaligi miqyosida ahamiyatli zaxiralariga ega. Jumladan, neft-gaz resurslariga Venesuela, Meksika, temir rudalariga Braziliya, Kuba, Venesuela, boksit (alyuminiy) rudalariga Yamayka, Braziliya, Venesuela, Gayana, Surinam, misga Chili, Peru, nikelga Kuba, litiy, qalay va mineral tuzlariga Boliviya, tabiiy selitruga Chili, qimmatbaho toshlarga Kolumbiya boy hisoblanadi. Hududi asosan issiq iqlim mintaqalarida joylashganligi bois Lotin Amerikasi agroiqlim resurslariga boy, dehqonchilik ishlari esa bu yerda yil bo'yi davom etadi. Lekin O'rta Amerikada tropik to'fonlar tez-tez sodir bo'lib, aholi va xo'jalikka katta ziyon yetkazadi. Iqlimi sernamligi hisobiga Lotin Amerikasi suv va gidroe nergiya resurslari bilan

yaxshi ta'minlangan. Mintaqadagi qator davlatlar o'rmon resurslariga juda boy, bu borada Braziliya, Kolumbiya, Venesuela yetakchi hisoblanadi.

Aholisi. Lotin Amerikasi davlatlarida, 2017 yil holatiga, jami 650 millionga yaqin aholi yashaydi va bu Yer shari aholisining 8,5 foizini tashkil qilmoqda. O'tgan asrda Lotin Amerikasida aholining tabiiy ko'payishi "demografik portlash" bosqichini kechirib, mintaqa aholisi va uning jahon aholisi tarkibidagi ulushi yuqori sur'atlar bilan o'sib kelgan. Hozirgi davrga kelib esa, Lotin Amerikasi mamlakatlari tug'ilish darajasi asta-sekin pasayishi bilan tavsiflanadigan demografik o'tishning 3-bosqichini kechirmoqda. Kuba, Urugvay va Argentina esa demografik o'tish jarayonini yakunlab, aholi tabiiy ko'payishining past darajasi bilan ajralib turibdi. Aholi soni jihatidan mintaqada Braziliya (206 mln, 2016 y., jahon bo'yicha 5-o'rin) va Meksika (121 mln, 2015 y., jahon bo'yicha 11-o'rin) yetakchilik qilmoqda. Shuningdek, Kolumbiya, Argentina, Venesuela va Peru kabi mamlakatlarning aholisi soni 20–50 mln kishi oralig'ida. Shu vaqtning o'zida, Vest-Indiyadagi ayrim "mitti" orol davlatlarida aholi soni 0,5 mln kishiga ham yetmaydi.

Lotin Amerikasi aksariyat davlatlari yuqori urbanizatsiyalashgan mamlakatlar guruhiga mansub. Xususan, shaharlashuv ko'rsatkichi Argentina, Venesuela va Urugvayda 90 foizdan, Braziliya va Chilida 80 foizdan oshadi. Lotin Amerikasining Mexiko, San-Paulu, Rio-de-Janeyro, Lima, Buenos-Ayres, Santa-fe-de-Bogota singari eng yirik shaharlari negizida jahon miqyosida eng yiriklari qatorida joy olgan shahar aglomeratsiyalari vujudga keldi. Lekin bu "gigant" shaharlarda millionlab odamlar qishloq joylardan kelib, juda katta maydonlarni egallagan xarob massivlarda turmush kechirmoqda. Masalan, Braziliyaning Rio-de-Janeyro va San-Paulu shaharlaridagi Favela deb ataladigan bunday kvartallar odatda "soxta" urbanizatsiyaning tipik misollari tariqasida keltiriladi. Bunday, shartli ravishdagi shahar joylarida ijtimoiy va ekologik muhit muammoli bo'lishi tabiiy hol.

Lotin Amerikasi aholisining hozirgi irqiy tarkibi xilma-xil bo'lib, asosan, Yevropa mustamlakachiligi davrida shakllangan. Bu mintaqada Yevropaliklar

avlodlari (kreollar), qora tanlilar, amerikalik hindular hamda metislar, mulatlar va sambolar singari aralash irq vakillari yashaydilar. Lotin Amerikasining tub aholisi mongoloid irqiga mansub amerikalik hindular hisoblanadi.

Lotin Amerikasi davlatlarining ko'pida davlat tili sifatida ispan tili qabul qilingan. Hududining maydoni va aholisi soni bo'yicha subregionda yetakchi bo'lgan Braziliyada davlat tili va muomaladagi asosiy til-portugal tili. Gaiti, Gviana va ayrim orol mamlakatlarida davlat tili fransuz, Janubiy Amerikadagi Gayana, Markaziy Amerikadagi Beliz hamda Vest-Indiya ning qator mamlakatlarida esa bu funksiyani ingliz tili bajaradi. Shuningdek, Janubiy Amerikadagi Surinam davlatida va Karib dengizidagi ba'zi mamlakatlarda niderland (golland) tili keng qo'llaniladi. Lotin Amerikada Rim-katolik cherkovi nasroniylari ko'pchilikni tashkil qiladi va bu mintaqa katoliklar soni bo'yicha dunyoda yetakchidir. Inglizabon mamlakatlarida protestantlik, "Gviana uchburchagi" mamlakatlarida esa induizm va islom dinlari keng tarqalgan.

Lotin Amerikasi mamlakatlari aholisi, asosan, ikki xil hududlarda – Atlantika okeani va Karib dengizi qirg'oqbo'yi tekisliklari hamda Kordilyera-And tog'larining ichki rayonlarida mujassamlangan. Aholining bunday joylashuvi tabiiy sharoit, ayniqsa, iqlim qulayligiga mos ravishda tarixan shakllangan. Meksika, Peru, Kolumbiya, Ekvador kabi mamlakatlar aholisining aksariyat qismi yuqori balandlikdagi tog'li rayonlarda yashashi bilan ajralib turadi. Bu borada o'ziga xos "geografik rekord" aholisining yarmidan ortig'i 3300–3800 metr mutlaq balandlikka ega Altiplano yassitog'ligida joylashgan Boliviya davlatiga tegishli. Uning poytaxti -La-Pas shahri-dunyodagi eng yuqori balandlikda joylashgan poytaxt hisoblanib, bunday relyef sharoitida shakllangan jahondagi yagona "millioner" shahardir. Braziliya, Urugvay, Argentina, Venesuela va, ayniqsa, orol davlatlarida, o'z navbatida, aholi, asosan, okean va dengizga tutash tekisliklarda mujassamlangan.

Sanoati. Lotin Amerikasi mamlakatlari xalqaro ixtisoslashuvi, eng avvalo, yoqilg'i, konchilik, metallurgiya sanoati hamda ko'p tarmoqli qishloq xo'jaligi bilan bog'liq. Hozirgi davrda ayrim mamlakatlar uchun mashinasozlik ham muhim ishlab chiqarish tarmog'iga aylandi. Yoqilg'i sanoatida

asosiy eksportbop ahamiyat neft va neftni qayta ishlash sanoatiga tegishli boʻlib, iqtisodiyotning bu tarmogʻi, eng avvalo, Venesuela bilan Meksikada yuqori darajada rivojlangan. Shuningdek, Ekvador, Boliviya davlatlarida ham neft-gaz sanoati rivojlanib bormoqda. Oxirgi yillarda Lotin Amerikasi mamlakatlarining umumiy eksporti tarkibida neft va neft mahsulotlari ulushi 20 foizdan koʻproq boʻlmoqda. Lotin Amerikasi mamlakatlariga jahon yoqilgʻi eksporti umumiy hajmining 8 foizga yaqin qismi toʻgʻri keladi.

Mintaqa mamlakatlarida konchilik va metallurgiya sanoati ham yaxshi rivojlangan. Braziliya jahon mamlakatlari orasida temir rudani qazish va eksport qilish boʻyicha yetakchi oʻrinlardan birini egallaydi. Shuningdek, Braziliya marganes, alyuminiy, mis, uran rudalarini qazib olishga ham ixtisoslashgan. Juda yirik GESlarning qurilishi hisobiga Braziliyadagi metallurgiya korxonalarini arzon elektrenergiyasi bilan taʼminlandi va bu ishlab chiqarish tarmogʻi mamlakatda tobora rivojlanmoqda. Lotin Amerikasi metallurgiya sanoati mahsulotlari umumiy eksportining eng katta qismi misga toʻgʻri keladi. Bu metallni qazish va eritish sanoati, ayniqsa, Chili va Peru uchun katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Boliviya qalay, surma, kumush va turli nodir metallarning qazish sanoati yaxshi rivojlanib, mamlakatning xalqaro ixtisoslashuvini koʻp jihatidan belgilaydi. Kuba esa dunyo boʻyicha nikel va kobalt metallarini ishlab chiqarishda yetakchi mamlakatlar qatorida joy olgan.

Mashinasozlik sanoati, asosan, Braziliya, Meksika va Argentinada yaxshi rivojlangan boʻlib, jahon xoʻjaligi miqyosida koʻproq avtomobilsozlik, elektronika va elektrotexnika tarmoqlariga ixtisoslashgan. Bu mamlakatlar uchun yengil avtomobillar eng asosiy eksportbop mahsulotga aylangan. Lotin Amerikasining eng yirik davlatlarida mashinasozlikning yaxshi rivojlanishi uchun metallurgiya bazasining yaxshi rivojlanganligi, arzon va nisbatan malakali ishchi kuchi, yirik ichki bozorining mavjudligi, rivojlangan davlatlar, eng avvalo, AQShning yirik korporatsiyalari bilan hamkorligi muhim sanaladi.

Qishloq xoʻjaligi. Qishloq xoʻjaligi ham Lotin Amerikasi mamlakatlarning xalqaro ixtisoslashuvini koʻp jihatdan belgilaydi. Shakarqamish, kofe, banan, kakao,

soya va paxta yetishtirish Lotin Amerikasi mamlakatlari qishloq xo'jaligining eksportga yo'naltirilgan eng muhim tarmoqlari hisoblanadi. Shakarqamish ko'proq Vest-Indiya orollari hamda Janubiy Amerikaning shimoliy hududlarida issiq va fasliy nam iqlim sharoitida yetishtiriladi. Ayniqsa, Braziliya va Kuba iqtisodiyoti uchun shakarqamish yetishtirish va eksport qilish juda katta ahamiyatga ega. Bu ikki davlat shakar eksporti bo'yicha dunyo bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallaydi.

Kofe eksporti bo'yicha jahonda Braziliya yetakchilik qiladi. Braziliya yassitog'ligining janubi-sharqiy yonbag'irlarida kofe plantatsiyalari katta maydon egallaydi. Meksika qo'ltig'i va Karib dengiziga ro'para bo'lib turgan Meksika, Markaziy Amerika davlatlari va Kolumbiyaning tog' oldi (500–1500 m) hududlarida ham kofe yetishtirishga ixtisoslashgan yirik qishloq xo'jalik rayonlari shakllangan. Bu yerda yetishtiriladigan "arabika" navli kofe jahon bo'yicha eng sifatli va qimmatbaho hisoblanadi.

Banan Lotin Amerikasiga Osiyodan olib kelinib, o'tgan asrning boshida Markaziy Amerika davlatlarida eng asosiy qishloq xo'jalik ekiniga aylandi. Hozirgi kunda Braziliya, Ekvador, Kosta-Rika, Meksika, Kolumbiya eng ko'p banan yetishtiradi, bananlarni eksport qilishda esa Ekvador va Kosta-Rika peshqadamlik qiladilar. Banan plantatsiyalari ko'proq Tinch okeani qirg'oqlarida joylashgan.

Soya yetishtirish va eksport qilish bo'yicha Lotin Amerikasi davlatlari ichida Braziliya, Paragvay va Argentina, kakao Braziliya, Ekvador va Dominikana Respublikasida, paxta esa Braziliya, Paragvay, Meksika va Argentina tomonidan ko'p eksport qilinadi.

Lotin Amerikasining yana bir yirik qishloq xo'jalik rayoni – Argentinadagi Pampa deb ataladigan dasht yerlaridir. Argentina Pampasi uchun tekis relyef, issiq va nam subtropik iqlim, serhosil qora tuproq xosligi bois, bu hudud donchilik va go'sht chorvachiligi uchun juda qulay sharoitga ega. Shu rayondagi fermer xo'jaliklarining hisobiga Argentina bug'doy, makkajo'xori va go'shtning jahon bo'yicha yetakchi eksportyorlaridan biriga aylangan.

Transporti. Xalqaro dengiz transport tizimida alohida o'rin tutadigan Panama kanali ikkita materik, ya'ni Shimoliy va Janubiy Amerikada

joylashgan Panama davlati hududidan o'tadi. Bu kanal Atlantika okeani havzasiga tegishli Karib dengizi bilan Tinch okeanini tutashtiradigan, eng serqatnov dengiz yo'llardan biri hisoblanadi. Panama davlati, o'z navbatida, dengiz kompaniyalari uchun past stavkadagi soliqlarni joriy qilib, jahon bo'yicha eng katta dengiz fl otiga ega mamlakatga aylandi. Bunga, asosan, xorijiy transport kompaniyalarning rasman Panamada ro'yxatdan o'tganligi hisobiga erishilgan.

Iqtisodiy tafovutlari. Ma'lumki, Lotin Amerikasi davlatlari rivojlanayotgan mamlakatlar blokiga mansub. Mintaqa umumiy YIMning 2/3 qismi to'g'ri keladigan Braziliya, Meksika va Argentina tayanch rivojlanayotgan davlatlar guruhiga kiradi. Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va aholi turmush darajasining nisbatan yuqori ko'rsatkichlari mintaqa mamlakatlari orasida Chili, Urugvay, Barbados va Bagama orollariga xos. Mintaqaning eng sust rivojlangan davlati esa Gaiti Respublikasi hisoblanadi. Iqtisodiy geografik o'rni, ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati, xalqaro ixtisoslashuvi, aholining irqiy, etnik va din tarkibi xususiyatlari hamda davlatlararo iqtisodiy integratsiya jarayonlarini hisobga olgan holda, Lotin Amerikasi quyidagi 7 ta subregionga ajratiladi:

-Meksika;

-Markaziy Amerika (Beliz, Gvatemala, Salvador, Gonduras, Nikara-gua, Kosta-Rika, Panama);

-Vest-Indiya (Karib dengizidagi orol mamlakatlar);

-And mamlakatlari (Venesuela, Kolumbiya, Ekvador, Peru, Boliviya, Chili);





- "Gviana uchburchagi" (Gayana, Surinam, Fransiya Gvianasi);

-Braziliya;

- La-Plata mamlakatlari (Argentina, Urugvay, Paragvay).


Topshiriqlar va yechimlar

1. Mintaqadagi mustamlaka mamlakatni aniqlang.



Javob: C

2. Janubiy Amerikadagi eng so‘nggi mamlakatlari qachon mustaqillikka erishdi. Javobni strellkalar bilan ko‘rsating.




3. Berilgan amallarni bajaring hamda Karib dengizi va Atlantika havzasiga tegishli mamlakatlarning sonini toping.

A) $20+1=$; B) $30-3=$; C) $20+5=$; D) $20+6=$

Javob: B. $30-3=27$

4. Mintaqaning umumiy maydoni qancha? Berilgan chizmadan to‘g‘ri javobni toping.



Javob: A - 180,0 mln km²

5. Janubiy Amerika va Karib dengizi havzasi davlatlari aholisining umumiy soni qanchani tashkil etishini quyida berilgan jadval orqali moslab toping

1	Yevropa	A	451 mln k
2	Afrika	B	401 mln k

3	Karib dengizi havzalari va Janubiy Amerika	C	10 mln k
4	Janubiy Amerika	D	216 mln k

Javob: 3-A →

6. Ikkita okeanni bir-biriga tutashtiruvchi va ikkita materikka ajratib turuvchi kanalni toping. Chalkashlikni aniqlang.

A	M	A	P	N	A
---	---	---	---	---	---

Javob:

P	A	N	A	M	A
---	---	---	---	---	---

7. Qaysi irq vakillarining nikohidan metislar tug'ilishini berilgan chizma orqali toping.



Javob: 2 → 5

8. Janubiy Amerikada joylashgan hamda dunyo okeaniga chiqa olmaydigan mamlakatlarni toping.

- | | |
|---------------|---------------|
| 1). Peru | A). Paragvay |
| 2). Ekvador | B). Chili |
| 3). Argentina | C). Kolumbiya |
| 4). Boliviya | D). Gonduras |

Javob: 4-A

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида»ги . Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлар тўплами. 2017 йил 6 сон 70 модда.
2. Абиркулов К . Иқтисодий география. -Т., 2004
3. Abdullaev O. Mintaqalar va mamlakatlar iqtisodiyoti .Toshkent :Yangi asr avlodi” 2009.282 b
4. Бушуева Л. Все страны мира. Универсальный справочник. Рипол классик. 2009 г.
5. Bahritdinov B.A., Zokirova G.A., Abdiraximova S.E. Jahon ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. O`quv qo`llanma. T.: 2008 yil
6. Vahobov H., M.Tillaboyeva. Iqtisodiy geografiya asoslari. (o`qituvchi kitobi) Toshkent, O`qituvchi. 2001 yil. 4-5 bet
7. Максаковский В.П. Географическая картина мира .Кн.1 .2:Общая Характеристика мира М...Дрофа .2008.-495 с.
8. Mahmudova.M, Soliyev.A. Geografiyadan nostandart testlar. Namangan Davlat universiteti Namangan.-2017 y
9. Солиев А.С., Ахмедов Э.А., Мухаммадалиев Р.И. Минтақавий иқтисодиёт. Ўқув қўлланма. 2003 йил.
10. Qayumov A, Pardayev G`, Islomov I. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya (O`rta Osiyo iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi) o`quv qo`llanma T.2007
11. Qo`ldasheva M. “Geografiya fanidan nostandart testlar to`plami” uslubiy qo`llanma Namangan malaka oshirish hududiy markazi nashriyoti. 2017 yil
12. Янчук.С .Экономическая и социальная география стран Центральной Азии и СНГ .Текст лекций .Т.2000

AFRIKA DAVLATLARI

25-§. Shimoliy Afrika davlatlari

Shimoliy Afrika mintaqasi tarkibiga 8 ta davlat kiradi ularning har biri o‘ziga hos iqtisodiy va tabiiy geografik xususiyatga ega. Ular quyidagi jadvalda ifoda etilgan:

№	Mamlakat nomi	Poytaxti	Mustaqillikka erishgan yili	Maydoni (ming km ²)	Aholisi	Davlat tili	Dini	Pul birligi
1	Sudan	Xartum	1956	2506	31,8	Arab	Islom	Sudan dinfi
2	Jazoir	Al-jazoir	1962	2382	31,6	Arab	Islom	Jazoir dinori
3	Liviya	Tripoli	1951	1760	5,3	Arab	Islom	Liviya dinori
4	Mavritaniya	Nuakshot	1960	1031	2,7	Arab	Islom	Ugiya
5	Misr	qohira	1952	1001	69,8	Arab	Islom	Misr funti
6	Marokash	Rabot	1956	447	29,1	Arab	Islom	Marokash dinori
7	G'arbiy Saxro	El – Ayun		266	10,2	Arab	Islom	Pesta
8	Tunis	Tunis	1956	164	9,7	Arab	Islom	Tunis dinori

Tabiiy sharoit resurslari: Xarakterli xususiyati – 2 ta. 1-katta neft boyligiga, tabiiy gaz, rudalar va ruda bo'lmagan qazilmalarga ega. 2-qishloq xo'jaligining rivojlanishi esa chegaralangan.

Tashqi savdo aloqalari tufayli yirik sanoat proektlari, energetika qurilmalari, irrigatsiya va suv xo'jaligi ishlari, transport strukturasi rivojlanmoqda. Ko'pkina davlatlarda turizm ham katta daromad keltirmoqda.

Jazoir. Rasmiy nomi Jazoir Xalq Demokratik Respublikasi. Poytaxti Al-Jazoir ,Hududi 2381741 kv km. Aholisi 34 mln (2018).davlat tili arab.dini islom.Pul birligi jazoir dinori.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Shimoliy Afrika davlati g'arbda Marokko va G'arbiy Sahara ,janubda Niger,mali,,Mavritaniya sharqda Liviya, Tunis,shimolda O'rta Yer dengizi joylashgan. Eng yuqori nuqtasi Taxat tog'i. Daryolari juda kam.Foydali qazilmalari:neft,tabiiy gaz,fosfatlar,temir rudasi qalayi uran,qurg'oshin.

Hududni 3% xaydaladigan yerlardir,o'tloq yaylovlar 13%,o'rmon va butazorlar 2% ini tashqil qiladi.

Iqlimi, subtropik, tropik hududi asosan choʻllardan iboratligi uchun oʻsimliklari unchalik koʻp emas. Atlas va Axaggar togʻlarida poʻkak dub oʻsadi. Xayvonlardan shoʻqol, antilopa, quyonlar uchraydi.

Davlat tuzumi. Davlat tuzilishi prezident respublikasi. 48 ta viloyatlarga boʻlinadi. 1830/1962 yillarda Jazoir Fransiya mustamlakasi boʻlgan 1962 yil mamlakatdagi qurolli kurash toʻxtatildi va Jazoir oʻz mustaqilligini eʼlon qildi. Qonunchiligi fransuz va islom qonunlariga asoslangan. Milliy bayrami 1 noyabr.

Misr. rasmiy nomi Misr Arab Respublikasi. Poytaxti Qohira. Hududi 1001450 km kv. Aholisi Misr- 97 mln kishi (2018) Davlat tili arab tili, dini islom, pul birligi misr funti.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Misr ikki qitʼada: Afrikaning shimoliy sharqi va Osiyoning janubiy gʻarbida joylashgan davlat. Janubda Sudan, gʻarbda Liviya, sharqda Isroil va Falastin bilan chegaradosh, Shimolda Oʻrta Yer dengizi sharqda Qizil dengizi Misr sohillarini yuvib turadi. Muhim suv yuli Suvayish kanali ham Misr nazorati ostida. Mamlakat maydonini 96%i choʻllardan iborat.

Misr kontinental tropik iqlim hududida joylashgan. Mamlakat hududini asosiy qismi choʻllardan iborat boʻlganligi sababli xayvonot va oʻsimlik dunyosi unchalik boy emas.

Davlat tuzumi. Prezidentlik respublikasi. Davlat boshligʻi prezident, ijro xokimiyati prezident va Bosh vazir boshchiligidagi hukumatga tegishli. Mamlakat 26 ta muhofazatlarga boʻlingan.

Sanoati. Misr xalq xoʻjaligini asosiy soxalarini barchasi davlat tasarufida. Sanoatning oziq-ovqat, kimyo, toʻqimachilik neftni qayta ishlash, metallurgiya kabi sohalari yaxshi rovojlangan. Jahon turizmini markazlaridan biri hisoblanadi. Mamlakat budjetiga tushadigan xorijiy valyutaning asosiy qismi turizm orqali keladi.

Qishloq xoʻjaligi. Misr Respublikasi qishloq xoʻjaligida sholi, arpa, turli mevalar va sabzavotlar yetishtiriladi. Baliqchilik yaxshi rivojlangan Asosiy savdo hamkorlari AQSh, Yaponiya va Sharqiy Yevropa davlatlari.

Topshiriqlar va yechimlar

1. Jazoir mustaqillikni qachon qo'lg'a kiritgan? Javobni topish uchun quyidagi amallarni bajaring.

A) $1 \cdot 1 =$; $3 + 6 =$; $4 + 2 =$; $2 + 0 =$;

B) $1 + 0 =$; $3 \cdot 3 =$; $2 + 1 =$; $1 + 1 =$;

Javob: B) 1962 y

2. Misr qaysi sohalarda yetakchi o'rinda turadi?

- 1). Kimyo, oziq-ovqat, to'qimachilik;
- 2). Mashinasozlik, elektronika;
- 3). Neftni qayta ishlash, metallurgiya
- 4). Avtomobilsozlik, ko'n-poyabzal sanoati

A) 1,3 B) 2 C) 1,4 D) 3

Javob: 1) A

3. Berilgan ma'lumotlardan Misr davlati bo'yicha to'g'risini aniqlang.

A). Misrning asosiy hamkorlari AQSh, Yaponiya, Sharqiy Yevropa davlatlari hisoblanadi;

B). Misrning davlat boshqaruvi parlamentar;

C). Misr davlati maydonining 65% cho'llardan iborat;

D). Misrning pul birligi misr funti hisoblanadi;

E). Misr qishloq xo'jaligida makkajo'xori, arpa, sholi yetishtiriladi

Javob: A, D,

4. Shimoliy Afrika davlatlarini poytaxtlari bilan moslang.

t/r	Davlatlar	Javoblar	Poytaxt shaharlar
1	Sudan	A	Qohira
2	Jazoir	B	Rabot
3	Liviya	C	Tripoli
4	Mavritaniya	D	Nuakshot
5	Misr	E	Xartum
6	Marokash	K	Al-jazoir
7	G'arbiy Saxro	M	Tunis
8	Tunis	N	El – Ayun

Javob: 1-E, 2- K, 3-C 4-B, 5- A, 6- 7-N 8-M

5. Shimoliy Afrika davlatining eng yuqori nuqtasini aniqlang. Hamda chalkashlikni toping.

X	A	T	A	T
---	---	---	---	---

Javob:

T	A	X	A	T
---	---	---	---	---

6. Quyida berilgan sonlar nimani anglatadi: 3%, 13%, 2%.

Javob: 13% o'tloq yaylovlar, 3% haydaladigan yerlar, 2% o'rmon va butazorlar

7. Berilgan jumalarni to'ldiring. Shimoliy Afrika davlati 1) g'arbda , 2) janubda, 3) sharqda , 4) shimolda joylashgan.

Javob: 1) Marokko va G'arbiy Sahara; 2) Niger, Mali, Mavritaniya; 3) Liviya, Tunis; 4)

O'rta Yer dengizi

8. Jadvalni o'ng tomoniga Jazoir va Misrga tegishli, va qaysi ma'lumotlar davlatlarga mos raqamlarini yozing.

- 1). pul birligi dinor;
- 2). 48 ta viloyat;
- 3). Fransiya mustamlakasi bo'lgan;
- 4). baliqchilik yaxshi rivojlangan;
- 5). sharqda Qizil dengizi o'rab turadi ;
- 6). yengil va oziq-ovqat;
- 7). mamlakat maydonini 96%i cho'llar

Javob:

Shimoliy Afrika davlatlari	Javob raqamlari
Jazoir	1,2,8
Misr	4,7,5

26-§. Tropik Afrika davlatlari

Tropik Afrikada eng aholisi ko'p mintaqa garbiy qismidir. Mintaqa aholisining 1/3 qismi, maydonining 1/6 qismini egallaydi. Tarkibiga 15 ta suveren davlat kiradi. Bulardan Gvineya va Benin davlatlari sotsialistik tuzum yo'nalishda rivojlanayotgan davlatlardir.

Tropik Afrikaning garbiy mintaqa davlatlari

№	Mamlakat nomi	Poytaxti	Mustaqillikka erishgan yili	Maydoni (ming km ²)	Aholisi	Davlat tili	Pul birligi
1	Niger	Niamey	1960	1267	10,4	Frantsuz	Afrika franki
2	Mali	Bomako	1960	1240	9,3	Frantsuz	Mali franki
3	Nigeriya	Abuja	1960	924	126,6	Ingliz	Nayra
4	Kot-d'Iuvar	Yamusukro	1960	322	16,4	Frantsuz	Afrika franki
5	Burkina Faso	Uagadru	1960	274	12,3	Frantsuz	Afrika franki
6	Gvineya	Konakri	1958	246	7,6	Frantsuz	Gvineya franki
7	Gana	Akkra	1957	239	1,9	Ingliz	Sedi
8	Senegal	Dakar	1960	196	9,7	Frantsuz	Afrika franki
9	Benin	Porto-Novo	1960	113	6,6	Frantsuz	Afrika franki
10	Liberiya	Monroviya	1847	111	3,2	Ingliz	Liberiya dollari
11	Serra-Leone	Fritaun	1961	72	5,4	Frantsuz	Leone
12	Togo	Lome	1960	56	5,2	Frantsuz	Afrika franki
13	Gvineya Bisau	Bisau	1973	36	1,2	Portugal	Gvineya Bisau pesasi
14	Gambiya	Ganjul	1965	11	1,4	Ingliz	Dalasi
15	Yashil Burunorlar	Praya	1975	4	0,3	Ingliz	

Mali, yuqori vayuta va Nigerdan tashqarii hamma respublikalar qirg'oq bo'ylarida joylashgan bo'lib, mintaqalar Yevropa deb davlatlari va shimoliy Afrika davlatlari bilan Atlantika portlari orqali aloqalar qilish imkoniyatiga ega.

Aholisi: Yevropoid Irgiga mansub bo'lib, shimoliy Afrika Mali, Nigeriya, ko'p sonli negroid xalqlari tropik Afrikada yashaydi. Joylashishiga ko'ra ham farqlari bor. Masalan: Fulbalar-Senegalda, Gvineyada va Malida, barbarlar – Mali, Gvineya, Serra-leone, dogonlar Mali, yuqori valyuta, krular Liberiyada va hokazo.

Sanoati: Nigeriya xar yili 90-100 mln tonna neft qazib oladi. va gaz oladi. Boksit qazishda Gvineya 10-11 ming tonna qazib 90% eksport qiladi. Gana, Nigeriyada uran, Senegalda fosforit olmos olinadi.

Qishloq xo‘jaligi. Nigeriya va Gvineyada qazib olish tarmog‘i katta o‘rin egallaydi. qayta ishlov sanoati Nigeriya, Fil suyagi qirg‘oqlari davlarida rivojlangan. Ko‘pchilik davlatlarda u yoki bu darajada don va oziq-ovqat mahsulotlari yetishmovchiligini ko‘rish mumkin.

Qishloq xo‘jaligida agrotexnika darajasi past, kam mahsulotli dehqonchilikka ega. Sharqiy mintaqa hududining 1/7 qismi, aholisining 1/5 qismini mintaqalar tashqil etadi. 9 ta mustaqil davlatlar kiradi.

№	Mamlakat nomi	Poytaxti	Mustaqillikka erishgan yili	Davlat tili	Pul birligi
1	Efiopiya	Adis-Abeba		Amxar	BIR
2	Tanzaniya	Dodoma	1961	Ing va suam	Tanzaniya shillingi
3	Zambiya	Lusaka	1964	Ingliz	Zimbabve dollari
4	Somali	Mogadisho	1960	Somali va arab	Somali shillingi
5	Keniya	Nayrobi	1963	Ing va suaxili	Keniya funti
6	Uganda	Kamlala	1962	Ingliz	Uganda shillingi
7	Malavi	Lilongve	1964	Ingvo chechevo	Malavi kvachasi
8	Jabuti	Jabuti	1977	Frants va arab	Jabuti franki
9	Seyshal orollari	Viktoriya	1976	Ingliz	Seyshal rupyasi

Iqtisodiy geografik holati. Janubiy Osiyo mintaqasi bilan dengiz yo‘li orqali Yevropa va Osiyo davlatlari bilan aloqa qilishga qulayga sharoitga ega. Uganda, Malavi, Zambiyagina dengizga chiqa olmaydi.

Tabiiy shaoriti va resurslari. Mintaqalarning shimoliy xar-xil tabiiy sharoitlarga ega. Efiopiya uchun tog‘ landishafti reliefi xarakterli qolganlari platolardan iborat bo‘lib, Somali, Efiopiya davlatlarida qug‘oqchilik bo‘lib turadi. Keniya, Tanzaniyada ham bo‘ladi. O‘rmonlar mintaqalarning 1/5 qismini egallaydi. Uganda Keniya, Tanzaniya, Malavida buyuk ko‘llar va daryolar xo‘jalikda asosiy rol o‘ynaydi. Afrikada ko‘llar juda ko‘p uchraydi va hudud bo‘ylab notekis tarqalgan.

Afrikada yirik ko‘llar Sahroi Kabirning janubida joylashgan. Ulardan eng kattasi - Viktoriya ko‘lidir, bu ko‘l Sharqiy Afrikada joylashgan bir necha davlatlar chegarasida joylashgan va dunyoda kattaligi bo‘yicha ikkinchi o‘rinda turadi. Bir necha ko‘llar tektonik uzilma (rift) zonasida joylashgan. Bu tektonik yoriqning garbiy qismida uchta yirik ko‘l -Malavi (Nyasa), Tanganika va Albert joylashgan.

Chad ko‘li uchta davlat-Chad, Mali va Nigeriya chegarasida joylashgan. Bu ko‘lning akvatoriyasi keyingi yillarda juda kichrayib ketdi.

Aholisi: Efiopiya, Jabuti, Somalida Semet-xamit oilasiga mansublar. Janubda bantu xalqlari yashaydi. Aholining tabiiy ko‘payishi Afrikaning o‘rtacha ko‘rsatkichlariga tengdir. Zichligi 1 km² ga 20 tadan to‘g‘ri keladi. Migratsiya kuchli, ko‘chmachi bo‘lib, odat tusiga aylangan. 80% aholisi qishloqlarda yashaydi. Asosan poytaxt shaharlar rivojlangan.

Xo‘jaligi: Agrar xarakterga ega. Milliy daromadning 40%ni qishloq xo‘jaligiga beradi. qishloq xo‘jaligida chorvachilik katta rol o‘ynaydi.

Sanoati: Sharqiy Afrika qazilma sanoati materikning boshqa mintaqalarida nisbatan bo‘shroq. Zambiyada rivojlangan. Zambiya mintaqasida mis poyaslari rivojlangan. Zambiya har yili 0,6-0,8 million tonna mis qazib oladi. Tanzaniya, Keniya ham shu sohada rivojlangan. Neft qayta ishlash zavodlari Zambiya kimyo sanoati, kaltsiy, soda ishlab chiqariladi.

Tropik Afrika markaziy mintaqasi. Markaziy Afrika mintaqalari hududining 1/4 qismini, 1/7 qismi mintaqaholisining tashqil etadi. Tarkibiga 11 ta mustaqil davlat kiradi. Bular ichida Angola va Kongo sotsialistik yo‘nalishni tanlagan.

Tarixi. Mintaqah mamlakatlari 1960-75 yillar davomida mustamlakatlarda zanjirlarning ulotirildilar. Ko‘pchilik mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy holatlarda mustamlakachilik o‘zining izini qoldirgan. Masalan: Zoir, Burundi, Ruanda-Belgiya mustamlakasi, Ekvatorial Gvineya-Ispaniya, San-Tome-Portugaliya qolgan davlatlarda esa Fransiyaning koloniyasi hisoblanadi. Ko‘pchilik markaziy Afrika davlatlari qirg‘oq bo‘ylarida, joylashgan.

Sanoati. Mustamlaka davlatlarini Jazoir dan tashqari davlatlarda sanoat rivoji past bo‘lib, keyingi yillarda rivojlanmoqda

Qishloq xo'jaligi. Eksport mahsulotlari, kofe, kakao, yog'li o'simliklar, plantatsiya xo'jaliklari va mayda tovar xo'jaliklari asosiy rol o'ynaydi.

Transporti: transport bilan kam ta'minlangan, temir yo'llari yo'q desa bo'ladi. Ammo dengiz bo'yi davlatlarida mustamlaka davlatlarda chegaralangan usuldi foydalanilar edi.

Topshiriqlar va yechimlar

1. Tropik Afrika bo'yicha berilgan ma'lumotlarning to'g'risini aniqlang.

A). Chad ko'li uchta davlat – Chad, Mali va Nigeriya chegarasida joylashgan;

B). Zambiya mintaqalarda mis poyaslari rivojlangan;

T/r	Davlatlar	Harflar	Shaharlar						
1	Efiopiya	A	Jabuti						
2	Tanzaniya	B	Lilongve						
3	Zambiya	S	Lusaka						
4	Somali	D	Kamlala						
5	Keniya	E	Nayrobi						
6	Uguada	F	Mogadisho						
7	Malavi	G	Dodoma						
8	Jabuti	H	Adis-Abeba						
9	Seyshal orollari	I	Viktoriya						
S	1	2	3	4	5	6	7	8	9
J									

C). Markaziy Afrika mintaqasiga 15 ta davlat kiradi;

D). Neft qayta ishlash zavodlari Tanzaniya davlatida joylashgan;

E). Angola va Kongo sotsialistik yo'nalishni tanlagan;

K). Keniya va Tanzaniya davlatlarida qug'ochilik bo'lib turadi

Javob: A,B, E,

2. Tropik Afrika davlatlarari va ularning poytaxtlarini juftlab yozing.

Javob:

S	1	2	3	4	5	6	7	8	9
J	H	G	G	F	E	D	B	A	B

3. Nuqtalar o‘rniga mos keluvchi harflarni qo‘yib Belgiya, Portugaliya va Fransiya mustamlakalarini toping.

- 1). Z.i. 2). B .r.n.i 3). R.a.d. 4). S.n-T.m.
5). E.f.o.i.a 6). M.l.

Javob:

- | | |
|-------------|--------------|
| 1). Zair | 4). San-Tome |
| 2). Burundi | 5). Efiopiya |
| 3). Ruanda | 6). Mali |

4. Quyidagi ma’lumotlarning qaysi biri to‘g‘ri?

- A). Afrika maydonining kattaligi bo‘yicha Yevrosiyodan keyingi yirik materik
B). Afrika dunyoda oltin zaxirasi bo‘yicha 3-o‘rinda turadi;
C). Afrika aholisining soniga ko‘ra mamlakatlar ichida Yevrosiyodan keyingi 2-o‘rinda turadi;
D). Afrika aholisining o‘shish sur‘atlari bo‘yicha dunyoda birinchi o‘rinda turadi;
E). Afrika maydonining kattaligi bo‘yicha dunyoda birinchi o‘rinda turadi;
F). Afrika dunyoda oltin zaxirasi bo‘yicha 1- o‘rinni, olmos zaxirasi bo‘yicha 2-o‘rinni egallaydi;
G) Afrika aholisining o‘rtacha umr ko‘rish davri 52 yoshdan oshmaydi;
H) Afrika olmos zaxirasi bo‘yicha dunyoda 4- o‘rinda turadi;
I) Afrika aholisi soni 1 mln dan ortiq bo‘lgan 20 ga yaqin shahar mavjud;
J) Aholining o‘rtacha umr ko‘rish davri 65 yoshni tashkil etadi.

Javob: A, S, D, F, G, I

5. Afrika materigiga tegishli orollari qaysi okeanlarda joylashishini jadvaldagi o‘ng tomonga yozing.

- 1). Madeyra; 2) Zanjibar; 3) Seyshel; 4) Kanar; 5) Sokotra; 6) Bioko;
7) Remba; 8) San-Tome; 9) Avliyo Velva; 10) Komar; 11) Seyshel;
12) Tristanda Kunja orollarini qaysi okeanga tegishli ekanligini aniqlang

Javob:

Orollarni okeanlarga nisbatan joylashgani	Javoblar raqami
Hind okeani	2,5,7,10
Atlantika okeani	1,4,6,8,9,12

6. Quyidagi fikrlarning qaysi biri to'g'ri? Javoblar jadvaliga "ha" yoki "yo'q" so'zlarini yozing.

